

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashr

**Toshkent
“IQTISOD-MOLIYA”
2017**

UO‘K:336.221.(075)
KBK:65.261.4

Taqrizchilar: *iqt. f. dok., prof.* N.H. Haydarov;
iqt. f. nom. A.V. Allaberganov;
iqt. f. nom., dots. M.M. Kamilov

Mualliflar jamoasi: **E.F.Gadoyev, N.R.Kuziyeva,
N.B.Ashurova, J.J.O‘rmonov**

Y-95 Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: Darslik / E. Gadoyev, N.Kuziyeva, N. Ashurova, J.O‘rmonov; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. – T.: “Iqtisod-Moliya”, - 2017. – 616 b.

Ushbu “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” darsligi yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning iqtisodiy mohiyati, hisoblash va byudjetga to‘lash tartibini yoritishga bag‘ishlangan. Shuningdek, darslikda yuridik shaxslar to‘laydigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga umumiy tavsifnoma, ularning davlat byudjeti daromadlarida tutgan o‘rni keltirilgan bo‘lib, amaldagi soliqqa tortish mexanizmi tahlil qilingan.

Mazkur darslikdan «Soliqlar va soliqqa tortish» ta’lim yo‘nalishida tehsil oluvchi kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari va respublika-mizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlariga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin

UO‘K: 336.221.(075)
KBK:65.261.4

© Mualliflar jamoasi, 2017
ISBN 978-9943-13-436-2 © “IQTISOD-MOLIYA”, 2013
ISBN 978-9943-13-690-8 © “IQTISOD-MOLIYA”, 2017

KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o‘rinishini ta’minlash va modernizatsiyalash sharoitida chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, soliq siyosatini yanada erkinlashtirish, soliq ma’urchiligi shaffofligini ta’minlash, soliq yukini kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish va ularga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratildi. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida ishlab chiqilgan taraqqiyotning “**o‘zbek modeli**”ni va mamlakatni o‘rta muddatli istiqbolda yanada isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va modernizatsiya qilish Dasturini izchil amalga oshirishni davom ettirish 2016-yilda iqtisodiy o‘rinishning barqaror va yuqori sur‘atlarini saqlab qolishni va makroiqtisodiy muvozanatni, aholi hayot darajasi va sifati oshishi ta’minlandi”¹

Xususiy mulk va tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi 2016-yilda 32 mingga yaqin yoki 2015-yilga

1 Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.” – T.: Xalq so‘zi, 2017, 15-yanvar.

nisbatan 18 foizga ko'p kichik biznes subyektlari tashkil qilinishiga turtki bo'ldi. Kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi **56,9 foizgacha**, sanoatda esa **45 foizgacha** oshdi.

2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasining** "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish" 3-yo'nalishida, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish kabi vazifalar belgilangan.²

Harakatlar strategiyasidagi soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek, soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon doirasida O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari belgilab berildi.

Darhaqiqat, istiqloq yillarida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 45 foizdan 7,5 foizga, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 30 foizdan 20 foizga, kichik korxonalar yagona soliq to'lovi stavkasi 13 foizdan 5 foizga, yagona ijtimoiy to'lov 40 foizdan 25 foizga, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar hamda fermer xo'jaliklariga 15 foizga pasaytirildi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni

Natijada umumiy soliq yuki deyarli ikki barobarga kamayib, 2016-yilda 20 foizni tashkil etib, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan **0,1 foiz profitsit** bilan bajarildi.

Yuridik shaxslar davlat byudjeti daromadini shakllantirishda asosiy o'rinni tutishi bilan bir qatorda respublikamiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda yetakchi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan soha hisoblanadi.

Mazkur darslik "Soliqlar va soliqqa tortish" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning iqtisodiy bilimlarini va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Darslik o'n sakkiz bobdan iborat bo'lib, "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish" fanini o'qitishda fanining predmeti, vazifalari va maqsadi, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash mexanizmi, soliq hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish muddatlari, soliq imtiyozlari va preferensiyalar, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi, soliq tushumlarining davlat byudjetida tutgan o'rni tahlili, yuridik shaxslarni soliqqa tortish muammolari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilim berish kabi masalalarni qamrab olgan.

Shuningdek, darslikni tayyorlashda mamlakatimizda byudjet-soliq siyosati asosiy yo'nalishlarining mazmun va mohiyati, soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar aks ettirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa sohaga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlardan keng foydalanilgan.

1-BOB.YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH FANINING PREDMETI VA UNI O‘RGANISH USULLARI

1.1. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini o‘qitishning zarurligi, predmeti va funksiyalari

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining boshqa fanlar singari o‘ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o‘qitishning zarurligi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta tashkil etish davrida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘sib borayotganligidan kelib chiqadi.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani soliq voqeliklarini (harakatlarini) chuqur o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini o‘rgatadi.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani soliq amaliyotidagi eng to‘g‘ri, eng mukammal va eng progressiv voqeliklarni o‘rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqeliklarni amaliyotdan oladi va yana eng to‘g‘ri, ma’qul va ilg‘or tajribalar olinib amaliyotga yo‘l ko‘rsatish uchun o‘rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo‘l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo‘ldan adashgan yo‘lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o‘zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo‘ldan adashmaydi.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini o‘qitishning zarurligi amaliyotda yo‘ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo‘yicha o‘zgartishlarga yo‘l qo‘ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar

tashlash va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bogʻliqdir, uning maxsus boʻlimi, yaʼni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan boʻlimidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umumiyqisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi boʻlganligi bois, soliqlar va soliqqa tortish fani ham moliya nazariyasi fani bilan chambarchas bogʻliq. Soliqlar va soliqqa tortish fanining oʻziga xos xususiyatlari soliq toʻlovchilar bilan davlat oʻrtasidagi majburiy xarakterga ega boʻlgan pul munosabatlarini oʻrgatadi.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani davlat byudjeti fani bilan ham oʻzaro bogʻliqdir. Chunki soliqlar oxir-oqibatda byudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) boʻlmasa byudjet munosabatlarining oʻzi boʻlmaydi. Bu fan soliq statistikasi va prognozi, soliq tarixi va nazariyasi, chet mamlakatlar soliq tizimi, moliyaviy hisob, soliq maʼmurchiligi asoslari fanlari bilan ham chambarchas bogʻliqdir.

Har qanday fan oʻzining predmetiga, yaʼni izlanish obyektiga ega boʻladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti boʻlib kimyoviy moddalarning tarkibini oʻrganish hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmi xarakteristikasini oʻrganish boʻlsa, Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining predmeti esa soliq munosabatlarini (harakatini), soliqlar mexanizmini har tomonlama oʻrganishdan iboratdir.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish **fanining predmeti** – yuridik shaxslar toʻlaydigan soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni davlat byudjetiga undirish jarayonida sodir boʻladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Shuningdek, fanning predmeti soliq voqeliklari pul munosabatlarini oʻrganishdan iborat. Bu pul munosabatlari soliq

to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o'rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o'rtadagi munosabatni chuqur o'rganish, ularni to'g'ri tashkil qilishni ta'minlashdan iborat. To'g'ri tashkil etish, deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlilik va insofilik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, byudjetga soliqlarni olishda soliq to'lovchilar bo'yniga ortiqcha og'irlik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so'ndirib qo'ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez-tez o'zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e'tibor berish ko'zda tutiladi. Bu yerda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi. Fanning predmetini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo'ravonlik munosabati bo'lguday bo'lsa, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq obyektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi yetmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq obyektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Demak, yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining quyidagi vazifalari mavjud:

- yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlarini o'rganish;
- yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash mexanizmi hamda byudjetga to'lash tartibini o'rganish;
- yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarni davlat byudjeti

daromadlaridagi salmog'ini tahlil qilish va o'rganish;

– yuridik shaxslarni soliqqa tortishning xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va taqqoslash;

– yuridik shaxslarni soliqqa tortishning nazariy, huquqiy va iqtisodiy asoslarini o'rganish va h.k.

Fanning funksiyalari soliq mutaxassisi va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatishdan iborat. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o'zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tatbiq etishdan iborat. Demak, fanning asosiy funksiyasi yuqori malakali soliq mutaxassislari tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlashdir.

1.2. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli

Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda hozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uni ngtashkilotchisi ekanligidan yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani davlatning o'ta zarur bo'lgan xilma-xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o'rganish – yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining diqqat-markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti – erkin

iqtisodiyot, pullik munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari – yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. Ushbu qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo‘lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o‘rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to‘g‘risidagi ta’limot – davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o‘ynashi yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda yetakchilik, boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o‘rganib chiqib, uni amaliyotga tatbiq qilishni o‘z zimmasiga oladi.

Soliq xizmati xodimlari o‘zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning obyektiv zarurligiga, davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini chuqur o‘rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo da Vinchi aytganidek: «Nazariya – qo‘mondon, amaliyot – askarlardir», demak nazariya amaliyotni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi kompasdir. Har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo‘lishlari zarur.

Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis yuridik shaxslarni soliqqa tortish jarayonini o‘rganishda va ularni hayotga to‘g‘ri hamda to‘liq tatbiq etishda adashmaydi. Shunday ekan, bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, ilmiy xodimlar uchun o‘zlarining ilmiy salohiyatlarini

oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini o‘qitishda soliq xizmati organlari axborot tizimi tarkibidagi asosiy dasturiy mahsulotlar va davlat xizmatlarini qo‘llash tartibini o‘rganishning ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq idoralarida ma’lumotlarni ishlashning yagona kompyuter tizimini yaratish to‘g‘risida”gi 388-sonli qarorini amalga oshirish maqsadida DSQ MIYaKTning Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat soliq boshqarmasi, Davlat soliq inspeksiyasi bosqichlariga tegishli bo‘lgan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi.

DSQning 1996-yil 8-avgustdagi 168-sonli buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va Davlat soliq qo‘mitasi o‘rtasida ma’lumotlar almashishni avtomatlashtirilgan holda elektron ko‘rinishda qabul qilish ishlariga tayyorgarliklar boshlandi va natijada hozirgi kunda DSQning to‘lovlarni hisobga olish tizimiga bank hujjatlarini kiritish va avtomatik o‘zgartirish dasturiy mahsuli (BANK_DSI) muvaffaqiyatli ishlamoqda.

DSQning 1996-yil 9-oktabrdagi 223-sonli buyrug‘iga asosan, jismoniy shaxslar bo‘yicha bank hujjatlarini kiritish boqimanda va ortiqcha to‘lovlarni tahlil qilish va hisobotlarni hosil qilish dasturlarini tajribaviy ishlatish uchun joriy qilindi va 1997-yil 1-yanvar oyidan boshlab to‘liq qo‘llashga o‘tildi. Dastlabki yillarda har bir bosqichda «Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarni identifikatsiyalash» dasturiy mahsuli (tuman uchun-fd_rai.exe dasturiy mahsuli, viloyat uchun-fd_obl.exe dasturiy mahsuli) ishlatildi, 1999-yildan boshlab esa, ORACLEda tuzilgan dasturiy mahsulotlar o‘rnatilib, hozirda «Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy majmuasi dasturiy mahsuli hamda «Jismoniy shaxslarning soliq

solish obyektlarini hisobga olish» dasturiy mahsullari to‘liq ishlamoqda.

DSQning 1996-yil 18-oktabrdagi “Qog‘ozsiz ish yuritish texnologiyasiga to‘liqligicha o‘tish” haqidagi 229-sonli buyrug‘iga asosan, 1997-yil 1-yanvardan boshlab yuridik shaxslarning hisob varaqalari, boqimanda bo‘yicha (1-NN) va soliq va tushumlar bo‘yicha (1-N) ko‘rinishdagi hisobotlar ko‘rsatilgan yo‘riqnomalarga asosan faqatgina kompyuterda yuritish belgilanganligi uchun ushbu hisobotlarni kompyuterda yuritish bo‘yicha dasturiy mahsullar ishlab chiqarilgan edi. Hozirgi kunda bu ko‘rinishdagi hisobotlarni yuritish bo‘yicha ishlab chiqarilgan dasturiy mahsullar ham yangi versiyalarga almashtirildi («Davlat budjeti va maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritish» dasturiy majmuasi, «Yuridik shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish» dasturiy mahsuli).

Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 23-avgustdagi 181-sonli “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari to‘g‘risidagi nizom, bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reyestri tasdiqlangan.

Interaktiv xizmatlar ko‘rsatishdan maqsad davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish vositasida jismoniy va yuridik shaxslar bilan tezkor o‘zaro hamkorligini ta‘minlash, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan keng foydalanishini ta‘minlashdan iborat.

Hozirgi kunda Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan jismoniy va

yuridik shaxslarga interaktiv xizmat turlari joriy etilgan va ular rasmiy www.soliq.uz web portalida joylashtirilgan.

Davlat soliq qoʻmitasi tomonidan joriy etilgan interaktiv xizmatlardan foydalanish uchun barcha soliq toʻlovchilarga keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 2-maydagi “Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq toʻlovchilarga axborot xizmatlarini koʻrsatishni yanada takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 125-sonli qaroriga koʻra, «Davlat soliq xizmati organlarining yagona maʼlumotlar bazasini yaratish va soliq toʻlovchilarga axborot xizmatlarini koʻrsatishni yanada takomillashtirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlari” tasdiqlandi. Belgilangan vazifalarning davlat soliq xizmati organlari tomonidan toʻliq, sifatli va oʻz vaqtida bajarilishini taʼminlash boʻyicha Davlat soliq qoʻmitasining 2011-yil 7-maydagi 128-sonli buyrugʻi bilan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Rejaga asosan davlat soliq xizmati organlarining yagona maʼlumotlar bazasini yaratish, moliyaviy, soliq hisobotlari va soliq majburiyatlari bilan bogʻliq boshqa maʼlumotlarni davlat soliq xizmati organlariga elektron hujjat koʻrinishida taqdim etish tizimini takomillashtirish, moliyaviy va soliq hisobotlarini elektron koʻrinishda taqdim etish va qabul qilish boʻyicha dasturiy mahsullarni takomillashtirish, avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni elektron hujjat koʻrinishida taqdim etishning afzalliklarini keng yoritish hamda davlat soliq xizmati xodimlarining malakasini oshirish boʻyicha amalga oshiriladigan vazifalar belgilandi.

Soliq va boshqa majburiy toʻlovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qoʻshimcha manbalarini aniqlash va soliq toʻlashdan boʻyin tovlashning oldini olishga, shuningdek, soliq toʻlovchilar uchun koʻrsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish

hamda sifatini oshirishga yoʻnaltirilgan davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 30-oktabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-1843-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror asosida quyidagilar belgilab berildi:

– Axborot-tahlil bosh boshqarmasining asosiy vazifalari va faoliyat yoʻnalishlari belgilab berildi;

– soliq idoralarning yagona integratsiyalashtirilgan axborot-resurs bazasini shakllantirish bosqichlari koʻrsatib oʻtildi;

– Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi markaziy apparatining yangilangan tuzilmasi, davlat soliq xizmati idoralariga soliq toʻlovchilarning majburiyatlari paydo boʻlishi (tugatilishi) toʻgʻrisida maʼlumot taqdim etadigan idora va tashkilotlarning roʻyxati tasdiqlandi;

– Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasiga mazkur qaror bilan yuklangan vazifalarni hisobga olgan holda Axborot-tahlil bosh boshqarmasining yangi nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash yuklatildi;

– Adliya vazirligi va manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish hamda idoraviy normativ hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirish vazifalari yuklatildi.

Oʻquv jarayonida boʻlgʻusi mutaxassislar soliq tizimida axborotlarni ishlash va tahlil qilishning yagona kompyuter tizimida ishlatiladigan dasturiy mahsullarni ishlatish texnologik jarayonlarini oʻrganadilar. Shu bilan birgalikda tizimning maʼlumotlar bazasidagi axborotlardan foydalanish hamda SIAIJda ishlash asoslarini oʻrganib kelajakda bu dasturiy mahsullardan erkin foydalana olish imkonini beradigan

bilimlarga ega bo'ladilar.

Davlat soliq qo'mitasining 2015-yil 12-iyuldagi "Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimlarini ishlab chiqish, ularning toifasini belgilash, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqidagi 226-sonli buyrug'iga asosan quyidagi dasturiy mahsulotlar joriy qilindi.

1.1-jadval

Soliq solish bazasini kengaytirish, qo'shimcha soliq solish obyektlarini aniqlash, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soliqlardan qochish va shu kabi qo'shimcha manbalarni aniqlashga xizmat qiluvchi dasturiy mahsulotlar ro'yxati:

№	Dasturiy mahsulotning to'liq nomi
1	«Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-4)»
2	«Qayta ishlash va tahlil»
3	«To'lovlar monitoringi»
4	«Eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish»
5	«Soliq to'lovchilarning egaligidagi yer fondi»
6	«Tahlil» (Risk analiz)
7	«Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish»
8	«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash»
9	«Bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig'imlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haqlar va ijara to'lovlari hisobini yuritish va nazorat qilish»
10	«Kichik biznes subyektlarini monitoring qilish»

**Ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ro'yxatga olish,
soliq to'lovchilar va soliq obyektlari hisobini yuritish
hamda statistik ma'lumotlarni tayyorlash, ish jarayonini
avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan
axborot tizimlari ro'yxati**

№	Avtomatlashtirilgan axborot tizimining to'liq nomi
1	«Davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini yuritish»
2	«Bank-DSQ»
3	«Jamg'arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishlash»
4	«Kompyuter texnikasini hisobga olish tizimi»
5	«Davlat soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mah-sullardan foydalanish darajasini aniqlash»
6	«Davlat soliq xizmati organlarida interaktiv xizmatlar ko'rsatish bo'yicha mas'ul xodimlar hisobini yuritish»
7	«Soliq to'lovchilar tarixi»
8	«Interaktiv xizmatlardan foydalanish statistikasi»
9	«Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish»
10	«Soliq qarzini yuritish hisoboti»
11	«Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish»
12	«Elektron tarzda yuborilgan hisobotlarini qabul qilish (WEFOINS)»
13	«Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarni tugatish tartibi»
14	«Yuridik shaxslar bo'yicha statistik ma'lumot»
15	«Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni aniqlash»
16	«Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish»
17	«Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash»
18	«Davlat boji»
19	«Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar haqida ma'lumot»
20	«Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish»
21	«Tekshiruvchi xodimlarning xizmat safari buyruqlari hisobini yuritish»
22	«Nazorat kassa mashinalari ro'yxati va nazoratini olish»

23	«Naqd pul tushumlari hisobini yuritish»
24	«Ma'muriy amaliyotni hisobga olish»
25	«Moliyaviy sanksiyalarni sud tartibida qo'llash to'g'risida davlat soliq xizmati organlarining murojaatlari va ularning natijalari hisobini yuritish»
26	«Tekshirishlarni muvofiqlashtirish»
27	«Kadrlarga oid ma'lumotlar bazasi»
28	«Hujjatlar bajarilishini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi»
29	«Ichki idoraviy hujjatlar elektron axborot tizimi»
3	«Quyi davlat soliq xizmati organlari faoliyatini masofadan turib nazorat qilish tizimi»

Davlat soliq qo'mitasining rasmiy www.soliq.uz web portalida Davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'rsatilayotgan 30 ta davlat xizmatlari, foydalaniladigan arizalar, blanklar va shakllar hamda boshqa tashkilotlardan olinadigan zarur hujjatlar va axborotlar ro'yxati quyidagicha berilgan:

1.3-jadval


Davlat xizmatlari turlari³

№	Davlat xizmatlari turlari
1	Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ushlab qolinmasdan daromadni to'lash uchun O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi sifatida faoliyatni amalga oshirishi va doimiy muassasa sifatida hisobda turganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma berish
3	Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash yoki undan ixtiyoriy voz kechish to'g'risida xabarnomalarni qabul qilish
4	Yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslardan qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashlari va to'lashni rad etishlari to'g'risida xabarnomalar qabul qilish
5	Soliq to'lovchi yuridik shaxslardan moliyaviy, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisobotlarni, shuningdek, ayrim soliq turlari bo'yicha hisob-kitob ma'lumotnomalarini qabul qilish va qayta ishlash

3 www.my.soliq.uz Davlat soliq qo'mitasi sayti

6	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash
7	Jismoniy shaxslarning daromadlari to'g'risidagi soliq deklaratsiyalarini qabul qilish va qayta ishlash
8	Chet elda ochilgan hisob raqamlardagi mablag'lar harakati bo'yicha axborot qabul qilish va qayta ishlash
9	Majburiy sotilishi kerak bo'lgan valyuta tushumi miqdori hisob-kitobini qabul qilish va qayta ishlash
10	Soliq to'lovchilarga shaxsiy kartochkalardan ko'chirmalarni va solishtirma dalolatnomani taqdim etish
11	Soliq to'lovchilarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan soliq qarzi mavjud emasligi haqida ma'lumotnomalar berish
12	Ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini hisobga olish va (yoki) soliq to'lovchining bankdagi hisob varag'iga qaytarish yuzasidan soliq to'lovchilarning arizalarini qabul qilish
13	Soliq to'lovchilarga nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'inining ortiqcha summasini qaytarish uchun topshirilgan hujjatlarni ko'rib chiqish
14	O'zbekiston Respublikasi norezidentining yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini qaytarish to'g'risidagi arizani qabul qilish va ko'rib chiqish
15	O'zbekiston Respublikasi norezidenti jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qaytarish to'g'risidagi arizani qabul qilish va ko'rib chiqish
16	Jismoniy shaxslarning mol-mulk, yer va daromad soliqlarini, shuningdek, dehqon xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'ini hisoblab chiqish va to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomalarni taqdim etish
17	O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulkka ega bo'lgan norezidentlariga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasini hisoblab chiqarish va to'lov xabarnomasini taqdim etish
18	Mol-mulk bir yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan boshqa yuridik shaxsga – O'zbekiston Respublikasi norezidentiga, jismoniy shaxsga – O'zbekiston Respublikasi norezidentiga yoki rezidentiga realizatsiya qilingan taqdirda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langanligi to'g'risida ma'lumotnoma berish
19	Kichik biznes toifasiga mansubligi xaqida ma'lumotnoma taqdim etish
20	Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari – jismoniy va yuridik shaxslarning doimiy joylashgan joyi (rezidentlik) faktini rasmiy tasdiqlab berish

21	Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi subyektlardan auditorlik xulosasining tasdiqlangan nusxasini qabul qilish
22	Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini ro'yxatdan o'tkazish va fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini berish
23	Tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar va nazorat qiluvchi organlarga tekshirishlar reja-jadvalidan ko'chirma berish
24	Nazorat qiluvchi organlar tomonidan hisobotlarni qabul qilish
25	Soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha davlat soliq xizmati organining qarori nusxasini soliq to'lovchiga topshirish
26	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish
27	Davlat soliq xizmati organlari rahbariyati va mansabdor shaxslari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish
28	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini davlat soliq xizmati organlarining «Ishonch telefoni» orqali qabul qilish
29	Davlat soliq xizmati organlariga ishga kirish uchun rezyume qabul qilish




1.1-rasm. Soliq organlarining davlat xizmatlari⁴


Davlat soliq qo'mitasining rasmiy www.my.soliq.uz web portalida soliq to'lovchilar uchun 9 ta xizmat yo'nalishi, 18 ta

4 www.my.soliq.uz Davlat soliq qo'mitasi sayti

interaktiv xizmatlar va 13 ta axborot xizmatlari taqdim qilingan.




1.2-rasm. Davlat soliq qo‘mitasining xizmatlar yo‘nalishi⁵



1.3-rasm. Davlat soliq qo‘mitasining axborot xizmatlari

⁵ www.my.soliq.uz -Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti



1.4-rasm. Davlat soliq qo‘mitasining interaktiv xizmatlari⁶

1.4. Tadbirkorlik subyektlariga “Yagona darcha” tamoyili asosida ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarning ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmonining ijrosini ta’minlash va tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan oshirish va shaffofligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 28-sentabrdagi “Tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini yanada


6 www.my.soliq.uz -Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2412-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar belgilangan:

1. Tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyalari negizida tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» (keyingi o‘rinlarda «yagona darcha» markazlari) tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari tashkil etilishi.

Bunda vazirliklar, davlat qo‘mitalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlarida mavjud «yagona darcha» xizmatlarining faoliyati 2016-yilning 1-yanvaridan boshlab to‘xtatilishi belgilangan.



1.5-rasm. Yagona darcha markazlarining rasmiy sayti

Tadbirkorlik subyektlarini murojaat etish joyi va usulidan qat‘iy nazar, «yagona darcha» markazlari orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatishda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning idoralararo elektron hamkorlik tizimi hamda O‘zbekiston Respublikasi interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidan foydalanilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik

subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2015-yil 28-sentabrdagi PQ-2412-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14-dekabrdagi 358-sonli qarori qabul qilindi

Mazkur qarorga muvofiq quyidagilar tasdiqlandi:

Tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom;

Tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari orqali davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizom;

Tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari faqat davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatining namunaviy pasporti.

Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatishning sifati va oshkoraligini, ulardan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish, tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish hamda joylarda xalq bilan bevosita muloqotning samaradorligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-fevraldagi «Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi **PQ-2750-sonli qarori** qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq:

– tuman va shaharlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlariga «**yagona darcha**» tamoyili asosida davlat xizmatlarini ko'rsatish markazlari tuman (shahar) hokimliklari tuzilmasidan **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi boshqaruviga o'tkazildi;**

– banklar va kredit byurolari, ularning filiallari va

vakolatxonalaridan tashqari barcha tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish «yagona darcha» markazlari zimmasiga yuklatildi;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi «yagona darcha» markazlari faoliyatiga umumiy rahbarlikni hamda tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi vakolatli organ etib belgilandi.

Bundan tashqari, **2018-yil 1-yanvardan boshlab** «yagona darcha» markazlari orqali taqdim etiladigan litsenziya va ruxsatnomalarni qog'oz shaklidagi maxsus blankalarda majburiy rasmiylashtirish talabi bekor qilinadi. Bunda berilgan, to'xtatib qo'yilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan, shuningdek, amal qilishi tugatilgan ruxsatnoma va litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni «Litsenziya» axborot tizimlari majmuasi orqali olish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktabrdagi «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi **PQ-2646-sonli qarori** qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tartibi avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqish va joriy etish, **2017-yil 1-apreldan boshlab** tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan **O'zbekiston Respublikasi Davlat interaktiv xizmatlari yagona portaliga** (keyingi o'rinlarda – Yagona portal) integratsiyalashgan Internet tarmog'idagi Tizim orqali kechayu-kunduz o'tkazish va hisobga qo'yish ta'minlanishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2016-yil 28-oktabrdagi

PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **66-sonli qarori** qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga muvofiq, “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi **nizom va davlat boji** miqdorlari belgilandi. Internet orqali tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek, Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reestridan ma’lumotlar berilganligi uchun undiriladigan **amaldagi davlat bojlari miqdori 50 foiz miqdorida kamaytiriladi.**

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanini o‘qitish nima uchun kerak?

2. “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fani nimani o‘rgatadi uning qanday funksiyalari mavjud?

3. “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining mazmuni, o‘rgatish maqsadi va uning mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi roli qanday?

4. Soliq xizmati xodimlarini tayorlashda fanning tutgan o‘rni nimada?

5. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini o‘qitishda soliq xizmati organlari axborot tizimi tarkibidagi asosiy dasturiy mahsullarni qo‘llash tartibini o‘rganishning ahamiyati nimadan iborat?

6. Davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga qanday yangi dasturiy mahsulotlar joriy etilgan?

7. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlari turlari?

8. Davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga qanday axborot xizmatlari joriy etilgan?

~~Z-BOB. YURIDIK SHAXSLAR VA ULAR TOMONIDAN~~ **TO‘LANADIGAN SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLARGA UMUMIY TAVSIFNOMA**

2.1. Yuridik shaxlar tomonidan to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda ularning guruhlanishi

Tayanch so‘z va iboralar: *yuridik shaxs, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar va yig‘imlar, bevosita va bilvosita soliqlar, soliq tizimi, soliq yuki, tadbirkorlik.*

Iqtisodiy adabiyotlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi ***soliqlar tizimi***, deb tushuniladi. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi hamda ular O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

Malumki, soliq siyosatida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. 2007-yil 25-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-136-sonli qonuni bilan yangi Soliq kodeksi qabul qilindi hamda 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksi **2** ta (umumiy va maxsus) qism, **21** bo‘lim, **64** bob va **392** ta moddadan iborat.

2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliqlarga quyidagicha ta’rif berilgan: «**Soliqlar**, deganda Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi»⁷.

7 O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. T.: Adliya vazirligi. «Adolat»

Boshqa majburiy to'lovlar, deganda ushbu kodeksda belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

O'zbekiston soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlarni obyektivi va iqtisodiy mohiyati bo'yicha bir necha guruhlarga ajratib o'rganish mumkin.


Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.
2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

O'zbekiston Respublikasi byudjeti – Respublika byudjeti va mahalliy byudjetga bo'linadi. Davlat byudjeti daromadlari Soliq kodeksining 23-moddasiga asosan quyidagi soliqlar asosida shakllantiriladi.

Umumdavlat soliqlar:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;



2.1- Rasm. Soliqlarning guruhlanishi⁸

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:
 - yagona ijtimoiy to'lov;
 - fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
 - byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:
 - Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
 - Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;
 - Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to'lovlari;


Mahalliy soliqlar va yig'imga quyidagilar kiradi:

- 1) mol-mulk solig'i;
- 2) yer solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlari:

- 1) yagona soliq to'lovi;
- 2) yagona yer solig'i;
- 3) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Soddalashtirilgan soliq tizimi yangi Soliq kodeksining 20-bo'limi 55–58-boblari xamda 348–375-moddalarda o'z aksini topgan. Soddalashtirilgan soliq tizimi 3 ta yo'nalish bo'yicha o'rganiladi (2.2-rasm):



2.2-Rasm. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar⁹

Yagona soliq to'lovining obykti yalpi tushum, yagona yer

9 O'rmonov J.J. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Monografiya T.: MChJ El-presst. 2011, 132-b..

solig'ini obyektini yerning normativ qiymati xamda yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat'iy belgilangan soliq uchun obyektini fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda) hisoblanadi.

2.1-jadval

O'zbekistonda soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi, (%)¹⁰

№	Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014- yil	2015- yil	2016- yil	2017- yil
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	10	10	9	9	9	9	8	7,5	7,5	7,5
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	13, 18, 25	12, 17, 22	11, 17, 22	10, 16, 22	9, 16, 22	8, 16, 22	7,5, 16, 22	0 8,5 17 23	0 7,5 17 23	0 7,5 17 23
3	Qo'shilgan qiymat solig'i	20	20	20	20	20	20	20	20	20	20
4	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	8	8/7	7	6	6/5	6/5	6/5/10	6/5/10	5/4/10	5/4/10
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,5	0,5	0,5	0,75, 0,9, 1,13	0,9, 1,1, 1,35	1,04, 1,25, 1,55	1,2 1,4 1,8	1,3 1,6 2,2	1,5 1,8 2,5 1,8	1,7 2,1 2,9 2,1
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5	4	4	5	5
7	Yagona yer solig'i	2,8	3,5	5	6	6	6	6	6	0,95	0,95
8	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8

10 Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

9	Yagona ijtimoiy to'lovi	24	24	25	25	25	25	25	25/15	25/15	25/15
10	Fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari	2,5	3,5	4,0	4,5	5,5	6,0	6,5	7,0	7,5	8,0
11	Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar	0,7	1,0	1,5	1,6	1,6	1,6	1,6	1,6	1,6	1,6
12	Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar	1,5	1,5	1,5	1,4	1,4	1,4	1,4	1,4	1,4	1,4
13	Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar	1,0	1,0	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5


O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi hamda ular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi. Solqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha stavkalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan belgilanadi.

Jadvaldan ko'rinadiki, keyingi o'n yil mobaynida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 3,4 barobar, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 2,1 barobar, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,1 barobar, yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 1,6 barobar pasaytirilgan. Buning natijasida

mamlakatimizdagi umumiy soliq yuki ham yillar davomida sezilarli ravishda pasayib bormoqda.

Xususan, iqtisodiyotdagi soliq yukini yanada qisqartirish va soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha islohotlar davom ettirildi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish keyingi yillarda soliqdan bo'yin tovlash, daromadlarni yashirish holatlarini bartaraf etish, soliq solish bazasini kengaytirish imkonini berdi. Buning natijada davlat byudjeti daromadlarida soliq tushumlarining o'sishi kuzatildi. 2000-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 37,4 foizni, 2014-yil yakuni bo'yicha esa ushbu ko'rsatkich 20,0 foizni tashkil etdi¹¹. 2015–2016-yil yakuni bo'yicha ham ushbu ko'rsatkich 20,0 foizni tashkil etdi




2.3-rasm. Soliq yukining pasayishi va YaIMning o'sishi¹²

Yuridik shaxslar quyidagi umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar (2.4-rasm).

11 Karimov I.A. 2015-yilda Iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir.-T.: O'zbekiston, 2015.-36 b.

12 Soliq yukining pasayishi va YaIMning o'sishi



2.4-rasm. Yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar¹³

13 Soliq kodeksi 23-moddasi asosida ishlab chiqildi.

2.2. Yuridik shaxslarning bevosita, bilvosita va resurs soliqlarining tarkibi va ularning byudjet daromadlaridagi ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosati muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa unsurlari: pul-kredit siyosati, baho siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga faol ta'sir etadi. Davlat soliq siyosati orqali iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi yoki cheklaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek – «Soliq siyosatining vazifasi – bir tomondan, byudjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchi tomondan - korxonalarining respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat»¹⁴. Soliq siyosatining asosiy vazifasi oxir-oqibat iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi **PQ-2699-sonli qarori** bilan 2017-yilga quyidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar belgilab berildi (2.2-jadval):

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005-yildan boshlab Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilib kelinayotganidan ko'rinib turadi. 2012-yilda 0,4 foiz bajarilgan bo'lsa, 2015-yil yakunlari bo'yicha davlat byudjeti 0,1 foiz profitsit¹⁵ bilan bajarilgan bo'lsa, 2016-yilda ham davlat

14 Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston», 1998. 52-bet.


15 Karimov I.A. «Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish

byudjeti **0,1 foiz** profitsit bilan bajarildi.¹⁶

2.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2010–2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi¹⁷

Asosiy makro-iqtisodiy ko‘rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
Yalpi ichki mahsulot	108,3	108,3	108,2	108,0	108,1	108,0	107,8	107,8
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish	108,3	109,3	108,6	108,4	108,3	108,3	108,2	106,9
Qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarish	105	105,8	105,8	106,0	106,9	106,0	106,1	106,2
Kapital qo‘yilmalar hajmi	122,1	112,4	109,3	109,3	109,5	109,6	109,6	109,6
Chakana savdo hajmi	116,3	115,4	113,4	113,8	114,3	114,2	114,0	114,2
Davlat byudjeti profitsiti	+0,3	+0,4	+0,4	+0,3	+0,2	+0,1	-1	-1



2.5-rasm. Davlat byudjeti ko‘rsatkichlarining bajarilishi (%da).

Ma’lumki, Davlat byudjeti daromadlari bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, resurs soliqlari va boshqa daromadlardan

hisobidan oldinga yurishdir” – T.: Xalq so‘zi, 2016, 16-yanvar.

16 Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.” – T.: Xalq so‘zi. 2017, 15 yanvar.

17 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-2015-yillardagi «O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida tuzildi.

tashkil topgan. 2017-yilda davlat byudjeti daromadlari maqsadli jamg'armalarsiz 44469,6 mln so'm, xarajatlari 46943,1 mln so'm va byudjet defitsiti YaIMga nisbatan 1,0 foiz rejalashtirilgan.

2.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2010-2017-yilgi Davlat byudjeti parametrlari mln so‘m

Asosiy byudjet ko‘rsatkichlari	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017 yil	Sal-mogi %da
Davlat byudjeti daromadlari maqsadli jamg'armalarsiz	13116,4	16178,5	20614,1	25104,9	30160,8	36184,9	40505,8	44469,6	100
Shu jumladan: Bevosita soliqlar	3420,6	4238,7	5196,4	6583,1	7790,4	8554,3	9338,5	10674,2	24,0
Bilvosita soliqlar	6973,8	8656,8	11187,8	13039,4	15618,2	19115,8	22298,1	24285,4	54,6
Resurs soliqlari	1974,1	2308,9	2746,4	3755,5	4 521,4	5741,8	5806,5	6049,5	13,6
Qo‘shimcha foyda solig‘i	25,7	142,3	250,0	294,5	388,4	548,2	390,2	723,2	1,6
Boshqa daromadlar	589,1	974,0	1233,5	1432,4	1 842,4	2224,8	2672,5	2737,3	6,2
Byudjet xarajatlari	13732,5	16991,1	21571,7	26312,4	31582,3	37967,7	42721,3	46943,1	Byudjet defitsiti YaIM nisbatan 1,0 foiz

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek, “Izchillik bilan amalga oshirilayotgan, birinchi navbatda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizning 2016-yil uchun tasdiqlangan Davlat byudjeti jami xarajatlarining 60 foizdan ortig‘ini ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish ko‘zda tutilmoqda.

Mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, yagona yer solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni berish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 2-oktabrdagi **281-sonli** qarori bilan mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan **ayrim toifadagi yuridik shaxslarga** mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, yagona yer solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha **imtiyozlar berish tartibi** tasdiqlandi.

Mintaqalarning o‘zini-o‘zi moliyaviy ta‘minlash darajasini oshirish, davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mas‘uliyatini oshirish, mahalliy byudjetlarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidagi ulushini ko‘paytirish maqsadida, 2017-yil 1-yanvardan PQ-2699-sonli qaroriga asosan quyidagi umumdavlat soliqlari va boshqa daromadlar mahalliy byudjetlar daromadlariga o‘tkaziladi:

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq;
- yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat‘iy belgilangan soliq;
- O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o‘simlik yog‘iga aksiz solig‘i;
- chakana savdo tarmoqlarida sotiladigan oltindan yasalgan zargarlik buyumlariga aksiz solig‘i;
- davlat bojlari, yig‘imlar va jarimalar to‘liq hajmda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti hamda viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari daromadlariga

o‘tkaziladi.

- mobil aloqa xizmatini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to‘lovning O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga yo‘naltiriladigan qismi, abonentning ro‘yxatga olingan joyiga qarab Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va viloyatlarning mahalliy byudjetlariga o‘tkaziladi.

2.3. Soliq munosabatlarning ishtirokchilari, soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning huquq va majburiyatlari

Yuridik shaxslar soliq to‘lovchi bo‘lishi uchun yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo‘lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo‘lishlari hamda statistika idoralarida, hokimiyatlardan ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishlari shart.

Yuridik shaxs, deb quyidagilar e‘tirof etiladi:

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo‘lgan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot;

– chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti;

-- O‘zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

Notijorat tashkilotlari, deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan yuridik

shaxslar tushuniladi.

Notijorat tashkilotlariga byudjet tashkilotlari, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.

Soliq agentlari – Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Vakolatli organlar quyidagilardir:

– davlat soliq xizmati organlari - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari;

– **bojxona organlari** - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari;

– **moliya organlari** - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo‘limlari;

– boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.

Rezidentlar va norezidentlar – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti, deb quyidagilar e‘tirof etiladi:

– O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs;

– O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki

joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami **bir yuz sakson uch kun (183)** va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

Doimiy muassasa - Norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda norezident O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan, faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e’tirof etiladi. Norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi, deganda O‘zbekiston Respublikasi hududida har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida bir yuz sakson uch kalendar kundan ortiq davom etadigan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi ham e’tirof etiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

Yakka tartibdagi tadbirkor O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.

Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2015-yil 31-iyuldagi 219-sonli** qaroriga asosan “Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-mayda yangi taxrir ostida tasdiqlangan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi 328-sonli qonuniga ko‘ra tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati, uning turlari va ishtirokchilari

quyidagicha belgilangan:

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari – yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy korxonalar, mikrofirma va kichik korxonalar.

Oilaviy tadbirkorlik - oila a‘zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida” 327-sonli qonuniga muvofiq - **oilaviy tadbirkorlik** – oila a‘zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Oilaviy korxonalar qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda yagona soliq to‘lovini to‘lovchisi hisoblanadi. Oilaviy korxonaning foydasi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin uning ishtirokchilari tasarrufiga o‘tadi hamda unga soliq solinmaydi.

Soliq to'lovchilarning huquqlari

Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

- davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

- o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

- soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

- Soliq kodeksida, boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

- soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;

- Soliq kodeksda hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash;

- soliq solish obyektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

- soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

- soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

- davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining Soliq kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarimaslik;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararining o'zini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari

Soliq to'lovchilar quyidagi majburiyatlarga egadir:

- o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;

- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek, mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Soliq agentlari yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlardan tashqari:

- soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

- soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab

qolingan hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan, har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

- Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchilar zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2699-sonli qarori bilan 2016-yil 1-yanvardan boshlab Soliq to'lovchilarning mol-mulkidan undirishga qaratish uchun soliqqa oid qarzlarning eng kam miqdorlari EKI (149776 so'm) dan kelib chiqib aniqlanishi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomida o'zgarishiga qaramasdan qayta ko'rib chiqilmasligi belgilandi.

2.7-jadval

Soliq to'lovchilarning mol-mulkidan undirishga qaratish uchun soliqqa oid qarzlarning eng kam miqdorlari

<i>Soliq to'lovchilar</i>	<i>Eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda</i>
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash yuklatilgan yuridik shaxslar va ularning alohida tuzilmalari	20
Jismoniy shaxslar	5

2017-yildan Soliq kodeksining 59 va 61-moddalariga kiritilgan o'zgartirishlarga asosan, soliq qarzi to'lov muddati o'tgan paytdan bir yil mobaynida undirilmagan bo'lsa, soliq qarzini undiruvni mol-mulkga qaratish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan oz bo'lgan hollarda ham majburiy undirish choralari qo'llanilishini belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017-yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning quyidagi eng muhim **11 ta ustuvor yo‘nalishlari** belgilandi.

Soliq ma‘murchiligini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish” 3-yo‘nalishida, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish kabi vazifalar belgilangan.¹⁸

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasidagi](#) soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek, soliq ma‘muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-**

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni

5116-sonli farmoni qabul qilindi:

Mazkur farmon doirasida quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo‘nalishlari sifatida belgilab berildi:

birinchidan, soliq ma‘muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish;

ikkinchidan, soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta‘minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan ishonchli axborotni o‘z muddatida taqdim etish bo‘yicha mas‘uliyatini kuchaytirish;

uchinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta‘sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

to‘rtinchidan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olishni ta‘minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko‘maklashish, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

oltinchidan, soliq solish masalalarida, shu jumladan,

respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

yettinchidan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, soliq organlarini ma’naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek, xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Shu bilan birga **2018-yil 1-yanvardan boshlab** quyidagilar belgilandi:

- soliq organlari va halol soliq to‘lovchilar o‘rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko‘maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – **soliq monitoringi** joriy etilishi;

- yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha soliq ma’muriyatchiligi funksiyalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi;

- vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to‘qnash kelgan halol soliq to‘lovchilar – xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda **soliq ta’tillari** berilishi mumkinligi;

- o‘tkazilgan kameral nazorat natijalari bo‘yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to‘lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summalarini **sud tartibida undirish** joriy etilishi;

- ortiqcha to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni qaytarish yoki hisobga olish soliq to‘lovchi vakolatli organlarga murojaat etgan sanadan boshlab **15 ish kuni** ichida amalga oshirilishi;

- davlat soliq xizmati organlariga kirim hujjatlarini rasmiylashtirmasdan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qiladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarini **5 bank** kunigacha bo‘lgan muddatga vaqtinchalik to‘xtatib turish vakolati beriladi;

- Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyat markazlarida soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma‘lumotlarning **onlayn rejimida** berilishini ta‘minlaydigan **nazorat-kassa mashinalarini** qo‘llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etiladi, respublikaning qolgan hududlarida mazkur tizim bosqichma-bosqich kiritilishi;

- soliq tekshiruvi obyektlarini samarali tanlab olish uchun soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etish xavflarini tahlil qilish, shuningdek, soliq organlari tomonidan yuqori likvidli mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish hajmining doimiy hisobi va nazoratini amalga oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan tizim joriy etilishi;

- davlat soliq xizmati organlari xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshirishi, natijasi bo‘yicha soliq solinadigan bazani aniqlashtirishi.

Shuningdek, mazkur farmonga asosan **O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tuzilmasida:**

- Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi hamda Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida naqd xorijiy valyuta muomalasiga yo‘l qo‘ymaslik ustidan nazorat qilish, qisqa muddatli tekshirishlarni tashkil etish bo‘yicha maxsus boshqarma negizida chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bosh boshqarmasi;

- Axborot-tahlil bosh boshqarmasining Texnik boshqarmasi negizida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bosh boshqarmasi tashkil etildi.

- Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tuzilmasida:

- Axborot-tahlil bosh boshqarmasi Tahlil va prognozlashtirish bosh boshqarmasiga;

- Soliq solish metodologiyasi boshqarmasi Metodologiya va soliq organlarini modernizatsiya qilish boshqarmasiga;

- Axborot xizmati Jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot bo‘limiga;

- Yuridik bo‘lim Yuridik boshqarmaga aylantirilib, uning tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarida tegishli bo‘linmalari (sho‘balari) bo‘lgan soliq nizolarini sudgacha hal etish bo‘limi tashkil etildi.

- Bundan tashqari, Soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun mas‘ul bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining o‘rinbosari – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bosh boshqarmasi boshlig‘i lavozimi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi **PF-5116-sonli farmoni** ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 1-avgustdagi** «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi **PQ-3168-sonli** qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi markaziy apparatining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining, shuningdek, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalarining namunaviy tuzilmalari 3–4-ilovalarga muvofiq;

davlat soliq xizmati hududiy organlari boshqaruv xodimlari-

ning cheklangan soni 5-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 677-sonli qaroriga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq va Davlat soliq xizmati organlarini 2017-2021-yillarda moddiy-texnika bazasini kuchaytirish bo‘yicha chora-itadbirlar dasturi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga tushumlarning to‘liqligini nazorat qilish hamda belgilangan topshiriqlarni bajarish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-5147-sonli farmoniga** asosan, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

birinchi – O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti parametrlari shakllanishining tizimli ravishda tahlilini amalga oshirish;

ikkinchi – byudjetning byudjet tizimiga va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar tushumlari to‘liq tushishini o‘rganish va nazorat qilish, byudjet daromadlarini oshirishda zamonaviy informatsion texnologiyalarning keng qo‘llanilishi yordamida zaxiralarni aniqlash;

uchinchi – byudjet tizimi va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan xarajat samaradorligi va qonuniyligi bo‘yicha audit o‘tkazish;

to‘rtinchi – soliq va byudjet qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

beshinchi – respublika va mahalliy byudjetlar o‘rtasidagi

munosobatlarni baholashni amalga oshirish;

oltinchi – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda davlat va hududiy dasturlarni to‘liq va samarali amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari bajarilishini nazorat qilish;

yettinchi – O‘zbekiston Respublikasi pul-kredit va valyuta siyosati bo‘yicha tashqi audit o‘tkazish, davlat aktivlari holatini va majburiyatlarini, oltin-valyuta zaxiralarini hamda qimmatbaho metal va toshlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni boshqarish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-iyuldagi «Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga yangi maxsus kiyim bosh va farqlovchi belgilarni joriy qilish to‘g‘risida”gi **545-sonli qarori** qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq quyidagilar belgilandi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1257-sonli va 2017-yil 27-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va tashkilotlariga maxsus kiyim bosh ishlab chiqish, standartlashtirish, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2800-sonli qarorlariga asosan Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining yangi maxsus kiyim bosh va farqlovchi belgilari 1 va 2 ilovalarga muvofiq tasdiqlandi.

Mazkur qarorga muvofiq maxsus kiyim bosh va farqlovchi belgilar 2017-yil 1-sentabrdan bosqichma-bosqich 2017–2018-yillar davomida tatbiq etilishi hamda ularni ta’minlash uchun xarajatlarning moliyalashtirish manbasi etib, kiyim qiymatining 50 foiz miqdori Respublika Davlat byudjeti hisobidan, qolgan 50 foiz miqdori O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar

maxsus jamg'armasi hisobidan amalga oshirilishi belgilandi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Soliqqa tortish obyektiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?
2. Oborotdan olinadigan soliq'larga qaysi soliqlar kiradi?
3. Daromadidan olinadigan soliq'larga qaysi soliqlar kiradi?
4. Mol-mulk va yer maydonlaridan olinadigan soliq'larga qaysi soliq'larni kiritish mumkin?
5. To'g'ri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi va u nima uchun bevosita soliq deb ataladi?
6. Bilvosita soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?
7. Yuridik shaxslar to'laydigan soliq'larning o'ziga xos xususiyatlari nima?
8. Soliq to'lovchilar qanday huquq va majburiyatlarga ega?
9. Yuridik shaxslar tomonidan qanday mahalliy soliqlar to'lanadi?
10. Yuridik shaxslar tomonidan qanday umumdavlat soliqlari to'lanadi?
11. 2017-yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim qanday ustuvor vazifalar belgilandi?
12. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha 2017-yildan qanday o'zgartirishlar belgilangan?

Mavzuga doir test savollari:

- 1. Soliq va to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaganlik uchun hisoblanadigan penya miqdorini ko'rsating.**
- A) 0,05 foiz
 - B) 0,033 foiz*
 - C) 0,15 foiz

D)0,10 foiz

2. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan quyidagi soliqlarning qaysi biri bo'yicha qo'shimcha imtiyoz berilishi mumkin:

A)Yer solig'i*

B) Qo'shilgan qiymat solig'i

C)Aksiz solig'i

D)Foyda solig'i

3. Daromad yoki foyda ortishi bilan soliq stavkasi ham ortib borishi ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda ...

A) Progressiv soliq stavkasi qo'llanilgan bo'ladi*

B) Proporsional soliq stavkasi qo'llanilgan bo'ladi

C) Regressiv soliq stavkasi qo'llanilgan bo'ladi

D) To'g'ri javob yo'q

4. Soliq munosabatlarini tartibga solishning asosiy qonun hujjati -

A) Soliq kodeksi*

B) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

C)O'zbekiston Respublikasining «Soliq idoralari faoliyati to'g'risida»gi qonun

D) Fuqarolik kodeksi

5.O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Internetdagi rasmiy web-saytini ko'rsating.

A) www.soliq.uz*

B) www.dsquz

C) www.tax.uz

D) www.nalog.uz

6. Bilvosita soliqlarga qaysi bir soliq turi kiradi?

A) Aksiz solig'i*

B) Yer solig'i

C) Foyda solig'i

D) Daromad solig'i

7. Umumdavlat soliqlariga qaysi bir soliq turi kiradi?

A) Qo'shilgan qiymat solig'i*

- B) Yer solig'i
- C) Mol-mulk solig'i
- D) Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'i va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

8. Mahalliy soliqlarga qaysi bir soliq turi kiradi?

- A) Mol-mulk solig'i*
- B) Aholining daromad solig'i
- C) Aksizlar
- D) Qo'shilgan qiymat solig'i

9. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari Soliq kodeksining qaysi moddasida belgilangan?

- A) 23-moddasida*
- B) 31-moddasida
- C) 26-moddasida
- D) 27-moddasida

10. Quyidagilardan qaysilar mahalliy soliq hisoblanmaydi?

- A) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i*
- B) Yer solig'i
- C) Mol-mulk solig'i
- D) Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

3-BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I

3.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Tayanch so'z va iboralar: *yuridik shaxs, foyda solig'i, resident va norezident, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar, boshqa daromadlar, yalpi foyda, sotishdan olingan sof tushum, sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, asosiy faoliyatdan olingan foyda, foyda yoki zarar, soliq to'languncha olingan foyda, jami daromaddan chegirmalar, chegirib tashlanadigan xarajatlar, moddiy xarajatlar, mehnatga haq to'lash xarajatlari, amortizatsiya xarajatlari, boshqa xarajatlar, kelgusida chegiriladigan xarajatlar, chegirilmaydigan xarajatlar, moliyaviy hisobot, imtiyozlar, joriy to'lovlar, soliq hisoboti.*

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari 1991-yilga qadar asosan dalat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo'lgan qismini byudjetga olib ketar edi. Qolgan mablag'lar esa korxonalar tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig'iga ko'ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi.


Respublikamiz ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tishi tufayli mamlakatimiz xo'jalik turmushida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Natijada mulkchilikning turli shakllari rivojlanishi, korxonalarining

imkoniyatini oshishi, bozor infrastrukturasi rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarning avvalgi tizimi korxonalarining xo‘jalik yuritish samaradorligini ta‘minlay olmay qoldi hamda ular bevosita va bilvosita investitsiya dasturlariga to‘sqinlik qila boshladi. Chunki, foydadan ajratma o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra faqat davlat korxonalari foydasidan ajratilishi lozim edi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o‘rniga daromad solig‘ini joriy etish zarurati paydo bo‘ldi va **1992-yildan** boshlab barcha turdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar “Daromad” solig‘ini to‘lashga o‘tdilar.

O‘zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtda daromad solig‘ini olishga o‘tish pul qadrsizlanishi tufayli ish haqi o‘shishini cheklash uchun davlat tomonidan majburiy chora bo‘ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum xajmi kamaygani holda, ular o‘z ishlab chiqarishlari yo‘nalishini o‘zgartirishga, foyda olmasalar ham juda kata miqdorda ishchilarga ish xaqi to‘lashga majbur bo‘ldilar. Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida foyda bilan faoliyatlarini yakunlamasada daromad solig‘ini ish xaqi fondidan belgilangan stavkada to‘lashga majbur edilar.

1995-yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.



3.1-rasm. 2004–2017-yillarda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i¹⁹

3.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ulushi 2005-yilda 6,3 foizni tashkil etgani holda, 2006-yilda 5,4 foizni, 2011-yilda 5,1 foizni, 2014-yilda 4,3 foizni, 2015-yilda 3,6 foizni, 2016-yilda 3,1 foizni va 2017-yilda esa 2,9 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bu holat yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalarini yildan yilga pasayib borayotganligi bilan izohlanadi. Daromadning ko‘p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligini oshiradi, yangi ishchi o‘rinlar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko‘rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.

2015-yilgi soliq siyosatining asosiy yo‘nalishi korxonalar

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

~~zimmasidagi soliq yukini pasaytirish maqsadida foyda soli-~~
g'ining bazaviy stavkasi 8 foizdan 7,5 foizga tushirilgan edi
yoki 5 baravarga pasaydi. Agar 1995-yilda yuridik shaxslarning
foyda solig'i stavkasi 38 foizni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekiston
Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda **PQ-2699-**
sonli qaroriga muvofiq bazaviy stavkasi 2017-yil darajasida 7,5
foiz miqdorida saqlanib qolindi.

Tijorat banklari uchun soliq stavkasi ham 2017-yilda – 15
foiz miqdorida saqlanib qolindi. 2017-yilning 1-yanvaridan
boshlab mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar
(uyali aloqa kompaniyalari) uchun rentabellik darajasidan kelib
chiqib foyda solig'ini hisoblash tartibi belgilandi.

3.2. Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyektiva soliq bazasi

Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa
orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbayi
O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni
oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga
oshirishdan daromadlar, shuningdek, Soliq kodeks 132-moddasi
birinchi qismining 2, 3 va 15-bandlarida ko'rsatilgan daromadlar
olinganda notijorat tashkilotlar mazkur daromadlarga taalluqli
qism bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini
to'lovchilar bo'ladi. Bunda Soliq kodeksning 132-moddasida
ko'rsatilgan boshqa daromadlarni olganlik tadbirkorlik faoliyati
sifatida qaralmaydi. Dividendlar va foizlarga Soliq kodeksda
nazarda tutilgan tartibda to'lov manbayida soliq solinadi;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan

yuridik shaxslar.

Soliqqa tortishning alohida tartibiga o'tgan korxonalar, jumladan yagona soliq to'loviga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lovchisi hisoblanishmaydi. Ular o'zlari uchun ixchamlashtirilgan soliqni to'laydilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat'iy stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliqni to'lovchilari hisoblanmaydi.

Soliqqa tortish maqsadida foydaga soliq to'lovchilarni rezidentlar va nerezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb, O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan foyda solig'iga tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining nerezidentlari esa, faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.

Rezidentlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchilar bo'lsa, nerezidentlar faoliyati Respublikada vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan **foyda solig'ining obyekti** quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi nerezidentlarining foydasi;

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi nerezidentlarining chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbayida soliq solinadigan daromadlari.

Soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan baza -jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda Soliq kodeksning 159-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summolari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

Foyda solig'ini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

$$F(s) = (Jd - Ch - SI - SBK) \times St / 100;$$

bu yerda,

F(s) – yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

Jd –jami daromad;

Ch –soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan chegirmalar;

SI –soliq imtiyozlari;

SBK –soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish summasi;

St –soliq stavkasi.

O'tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o'tkazilishi lozim bo'lgan zararlar mavjud bo'lsa, soliq solinadigan baza Soliq kodeksning 161-moddasiga muvofiq taqsimlab o'tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

3.3. Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha soliqni to'liq, to'g'ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromadlari tarkibiga nimalar kirishini mukammal o'rganish zarur bo'ladi.

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi.

Yuridik shaxslarning **jami daromadlari tarkibiga** quyidagilar kiradi:

- *tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;*

- *boshqa daromadlar.*

Soliq to'lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlari milliy valyutada olingan daromadlar bilan jamlangan holda, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Quyidagilar soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aktsiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), yoki muassis (ishtirokchi) ulushining miqdori kamaytirilganda, shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) oddiy shirkat shartnomasi sherigining (ishtirokchisining) shartnoma sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi ulushi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo'nak) tarzida olingan

mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) qonun hujjatlariga muvofiq majburiyatlarni ta‘minlash tariqasida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar) ularga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tadigan paytga qadar;

6) byudjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag‘larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o‘tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo‘lsa, tekin olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

10) notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta‘minoti va uni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko‘ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag‘lar;

11) sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovonini (sug‘urta summasi) tariqasida olingan mablag‘lar;

12) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko‘rsatish yuzasidan boshqa shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek, komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to‘lovi bundan mustasno);

13) ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to‘lovining qismi tariqasida olgan moliyaviy ijara (lizing) obyektini qiymatining qoplamasi;

14) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlardan olingan daromadlar;

15) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektini

muassislaridan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, ushbu mablag'lar jami daromad tarkibiga kiritiladi hamda soliqqa tortiladi;

16) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan, shu jumladan, yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromaddir.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo'natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo'natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo'lgan haq summasi tushuniladi.

Nashriyot va tahririyatlar uchun gazeta va jurnallarni realizatsiya qilishdan olingan tushum ularda reklamani joylashtirishdan olingan daromadlar kiritilgan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan foizlar, royalti, daromadlar

olish imkonini beruvchi mol-mulkni va mulkiy huquqlarni boshqa shaxslarga foydalanishga berish, shuningdek, talab qilish huquqidan boshqa shaxsning foydasiga voz kechishdan olingan daromadlar, agar ushbu daromadlar summasi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarning umumiy summasidan ortiq bo'lsa, xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar deb e'tirof etiladi. Mazkur norma notijorat tashkilotlarga tatbiq etilmaydi, ular uchun ushbu daromadlar boshqa daromadlar sifatida qaraladi.

Kredit, sug'urta tashkilotlari, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari uchun Soliq kodeksning 148, 150 va 152-moddalarida ko'rsatilgan daromadlar xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, deb e'tirof etiladi.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishdan olinadigan daromadlar ularning haqiqatda bosqichma-bosqich bajarilishiga taalluqli qismida hisobot davri mobaynida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli kontraktning hisobot davri oxirida haqiqatda bajarilganligi kontraktni bajarishga kirishilganidan e'tiboran qilingan xarajatlarning kontraktni bajarish uchun ketadigan xarajatlarning umumiy summasidagi solishtirma salmog'ini hisob-kitob qilish asosida belgilanadi.

Hisobot davri oxiridagi daromad kontrakt bo'yicha qilingan xarajatlarning hisoblangan solishtirma salmog'i va jami daromad summasining (kontrakt bahosining) hosilasi sifatida aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo'yicha ilgari hisobga olingan daromadlar joriy hisobot davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni aniqlashda chegirib tashlanadi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar (xizmatlar) bo'yicha, shuningdek, obyektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog'ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko'rsatilgan) va tasdiqlangan ishlarning

(xizmatlarning) qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymati daromadga qo‘shiladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan bahosidan past baholarda (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda) realizatsiya qilinganda, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul topshirilganda soliq solish maqsadlari uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi yoki tovarlar olingan baho asosida (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda) aniqlanadi. Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholar (tariflar) asosida aniqlanadi

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o‘zgarganda;
- 3) baholar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish yuqorida ko‘rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (ishni, xizmatni) yetkazib beruvchi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritishni Soliq kodeksning 222-moddasida nazarda

tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga yuqorida nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Boshqa daromadlar

Boshqa daromadlarga, agar Soliq kodeksi 130-moddasining beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;

2) mol-mulknini operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

3) muvofiq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

4) tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar;

5) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;

6) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;

7) majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;

8) talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;

9) ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromadlar;

10) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;

11) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan

daromadlar;

12) undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penya, shuningdek, qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar va penya;

13) kursdagi ijobiy farq;

14) dividendlar va foizlar;

15) royalti;

16) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan boshqa daromadlar qo'shilgan qiymat solig'i summasi chegirilgan holda aniqlanadi.

Notijorat tashkilotlari uchun ham yuqoridagi boshqa daromadlarga soliq solinmaydi. Biroq, birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar, dividendlar va foizlar va royalti daromadlar mustasno.

Asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromadlar:

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan foyda asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromaddir.

Asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyektlarining chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natijani (foydani yoki zararni) aniqlashda asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyektlarining ilgari qayta baholashlardagi ortgan summasining ushbu asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyekti qiymatining ilgari qayta baholashlardagi kamayishi summasidan ortgan qismi asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad tarkibiga kiritiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar:

Ijara to'lovining summasi mol-mulkni operativ ijaraga

berishdan olinadigan daromaddir.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromad ijaraga beruvchining foizli daromadidir.

Tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar:

Soliq to'lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, soliq to'lovchining daromadi bo'ladi.

Mol-mulk, mulkiy huquqlar tekin asosda olinayotganda oluvchi shaxsning daromadlari bozor qiymati bo'yicha belgilanadi.

Mol-mulkning, mulkiy huquqlarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi tashkilotning baholash to'g'risidagi hisoboti bilan tasdiqlanadi. Hujjatlar bilan tasdiqlash deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- jo'natish, yetkazib berish yoki topshirish hujjatlari;
- yetkazib beruvchilarning narxlarga oid ma'lumotlari (prays-varaqlar);
- ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar;
- birja ma'lumotlari;
- davlat statistikasi organlarining ma'lumotlari.

Qarz beruvchiga foizli daromad to'lash majburiyatisiz zayom (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordam) olinayotganda qarz oluvchining daromadi zayomni (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamni) olish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Daromadni aniqlashning xuddi shunday tartibi zayomni (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamni) olish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan past bo'lgan stavkada foizlar to'lash sharti bilan berilgan zayomlarga (qaytarib berish sharti

bilan moliyaviy yordamga) nisbatan qo‘llaniladi.

SK-135 modda to‘rtinchi qismining qoidalari kredit tashkilotlari tomonidan berilgan kreditlarga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan berilgan zayomlarga (ssudalarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar:

Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da’vo muddati o‘tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar;

- sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar.

Soliq to‘lovchining byudjet va davlat maqsadli jamg‘armalari oldidagi qarzining qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summalari daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Talablardan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olinadigan daromadlar:

Talablardan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olinadigan daromadlar asosiy qarz talablari bo‘yicha qarzdor tomonidan to‘langan summalar, shu jumladan, qarzdor tomonidan asosiy qarzdan tashqari to‘langan summalar bilan soliq to‘lovchi tomonidan olingan qarz qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq tarzida aniqlanadigan daromadlardir.

Ilgari chegirilgan xarajatlar yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzida olinadigan daromadlar:

Qoplash tarzida olinadigan daromadlarga soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirilgan va joriy soliq davrida o‘rni qoplangan xarajatlar va (yoki) zararlar kiradi.

Qoplash summasi qaysi soliq davrida olingan bo‘lsa, o‘sha soliq davrining daromadi bo‘ladi.

Soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarning va (yoki) zararlarning o'rnini qoplash summasi boshqa daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Zaxiralarni tashkil etish xarajatlari soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlangan shubhali qarzarlar (tavakkalchilik operatsiyalari) bo'yicha zaxiralar qisqargan hollarda ularning qisqarish summasi boshqa daromadlar tarkibida hisobga olinadi yoki buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xarajatlarni kamaytiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar:

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar deganda faoliyati soliq to'lovchining asosiy faoliyatiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan va mazkur soliq to'lovchining maqsadi bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan xo'jaliklar tushuniladi. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga yordamchi xo'jaliklar, uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha obyektlari, oshxonalar va bufetlar, o'quv kombinatlari hamda shunga o'xshash xo'jaliklar, o'z xodimlariga yoki boshqa shaxslarga xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarishlar va xizmatlar kiradi.

Uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga uy-joy fondi, mehmonxonalar (turistik mehmonxonalar bundan mustasno), boshqa joydan keluvchilar uchun uylar va yotoqxonalar, tashqi obodonlashtirish obyektlari, sun'iy inshootlar, suv havzalari, plyajlar uchun inshoot hamda jihozlar, shuningdek, aholini gaz, issiqlik va elektr bilan ta'minlash obyektlari, uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha, jismoniy tarbiya va sport obyektlariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash uchun mo'ljallangan uchastkalar, tsexlar, bazalar, ustaxonalar, garajlar, maxsus mashinalar va mexanizmlar, omborxonalar kiradi.

Ijtimoiy-madaniy soha obyektlariga sog'liqni saqlash, madaniyat obyektlari, bolalar maktabgacha tarbiya obyektlari,

bolalar dam olish oromgohlari, sanatoriylar (profilaktoriylar), dam olish bazalari, pansionatlar, jismoniy tarbiya va sport obyektlari (shu jumladan, treklar, otchoparlar, otxonalar, tennis kortlari, golf, badminton o‘yinlari uchun maydonchalar, sog‘lomlashtirish markazlari), aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan obyektlari (hammomlar, saunalar, kir yuvish, tikish hamda maishiy xizmat ko‘rsatuvchi boshqa ustaxonalar) kiradi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan daromadlar xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar tomonidan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan (olinadigan) mablag‘lar summasi va xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar summasi o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Kursdagi ijobiy farq:

Valyuta hisobvaraqlari bo‘yicha, shuningdek, chet el valyutasidagi operatsiyalar bo‘yicha kursdagi ijobiy farq buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda daromadlar tarkibiga kiritiladi:

- chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tayotgan sanada shu chet el valyutasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori bahoda sotilganda;

- chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tayotgan sanada shu chet el valyutasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past bahoda sotib olinganda;

- chet el valyutasi kursidagi o‘zgarish munosabati bilan balansning valyutaga oid moddalari tegishli hisobot davri uchun qayta baholanganda.

Baholari chet el valyutasida belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun o‘zaro hisob-kitoblarni milliy valyutada amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilingan yoki olingan sanadan ushbu

tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanagacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdagi o'zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi ijobiy farq tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanadagi jami daromad tarkibiga buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori bilan 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab ko'chmas mulkni, shu jumladan, uy-joylarni ijaraga topshirishdan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish shartnomada belgilangan ijara haqi miqdoridan kelib chiqqan holda, biroq yuridik shaxslarga - davlatning ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalaridan kam bo'lmagan holda belgilandi

Yuridik shaxslarning xarajatlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom bilan aniqlanadi va quyidagi ketma-ketlikdagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.

YaF=SST-IT, bu yerda:

YaF-yalpi foyda, SST-sotishdan olingan sof tushum, IT-sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2) asosiy faoliyatdan olingan foyda.

AFF=YaF-DX+BD-BZ, bu yerda:

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX-davr xarajatlari, BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, BZ-asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3) umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

UF=AFF+MD-MX,

bunda: UF-umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD-moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX-moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4) *soliq to'languncha olingan foyda.*

STOF=UF+FF-FZ,

bunda: STOF-soliq to'laguncha olingan foyda; FF-favqulodda vaziyatdan olingan foyda; FF-favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.

Yilning sof foydasi, korxonada foyda solig'ini va undan keyin obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lagandan so'ng korxonaning o'zida qoladi.

Jami daromaddan chegirmalar - soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlar haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegiriladi. Soliq kodeksiga ko'ra (141-modda) xarajatlar chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

3.4. Jami daromaddan chegirmalar, xarajatlar tarkibi va guruhlanishi

Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi, chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bundan mustasno.

Chegirib tashlanadigan xarajatlar quyidagilardir:

- 1) moddiy xarajatlar (142-modda);
- 2) mehnatga haq to'lash xarajatlari (143-modda);
- 3) amortizatsiya xarajatlari (144-modda);
- 4) boshqa xarajatlar (145-modda);
- 5) kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlar (146-modda).

Quyidagilarga soliq to'lovchining xarajati sifatida qaralmaydi:

- 1) vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik

xizmatlarini ko'rsatish uchun boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishi munosabati bilan, shuningdek, komitent yoki boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarga haq to'lash hisobiga vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan topshirilgan mol-mulk tarzidagi to'lovlar, agar bunday xarajatlar tuzilgan shartnomalarning shartlariga muvofiq vositachi yoki boshqa ishonchli vakilning yoxud boshqa topshiriq beruvchining xarajatlari tarkibiga kiritilishi lozim bo'lmasa;

2) soliq to'lovchi emitent tomonidan topshirilgan, aksiyadorlar o'rtasida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan o'zlariga tegishli aksiyalar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadigan aksiyalarning qiymati yoxud emitentning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilgan taqdirda aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlashda dastlabki aksiyalar o'rniga berilgan yangi aksiyalarning nominal qiymati bilan aksiyadorning dastlabki aksiyalarining nominal qiymati o'rtasidagi farq;

3) boshqa yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki oddiy shirkatga hissa sifatida berilgan mol-mulk, mulkiy huquqlar qiymati.

Moddiy xarajatlar

Moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

2) ishlab chiqarilgan va (yoki) realizatsiya qilinadigan tovarlarni o'rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan, sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta'mirlash uchun materiallar va ehtiyot qismlar;

3) inventar, xo'jalik anjomlari, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo'lmagan boshqa mol-mulk;

4) soliq to'lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab

chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdagi yoqilg‘i, energiya, shu jumladan, soliq to‘lovchining o‘zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo‘jalik ehtiyojlari uchun barcha turdagi energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek, energiyani bir shakldan o‘zga shaklga o‘tkazish va uzatish xarajatlari;

5) yerlarni rekultivatsiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlari uchun xarajatlar;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar doirasida suv xo‘jaligi tizimlaridan soliq to‘lovchilar tomonidan iste‘mol qilinadigan suv uchun to‘lov;

7) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida ishlab chiqarish va (yoki) tashish chog‘idagi texnologik yo‘qotishlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan tabiiy kamayish normalari doirasida tovar-moddiy zaxiralarni saqlash hamda tashish chog‘idagi yo‘qotishlar va buzilishlar.

Mehnatga haq to‘lash xarajatlari

Mehnatga haq to‘lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1) haqiqatda bajarilgan ish uchun mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi;

2) ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

3) predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to‘lanadigan to‘lovlar, bundan yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnomalar mustasno;

4) yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a‘zolariga yuridik

shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar;

5) rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar:

a) yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot;

b) yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi lokal hujjatlarida nazarda tutilgan to‘lovlar;

c) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va mansab maoshlariga ustamalar;

d) ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar;

e) ratsionalizatorlik takliflari uchun to‘lovlar;

f) mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan bir yo‘la beriladigan mukofotlar;

g) ta‘tilga qo‘shimcha haqlar va Soliq kodeksning 173-moddasida nazarda tutilgan moddiy yordam;

6) kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya):

a) qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo‘yicha to‘lovlar);

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

c) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda mansab maoshlariga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar;

d) ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek, bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo‘lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

e) doimiy ishi yo‘lda kechadigan yoki ko‘chib yurish va harakatlanish xususiyatiga ega bo‘lgan xodimlarning jo‘nab ketish paytidan qaytib kelish paytigacha yo‘ldagi har bir sutka uchun to‘lanadigan ish haqiga ustamalar;

g) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilganda xodimlarning ish haqiga ustamalar;

h) yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig‘ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo‘lga ketadigan kunlar, shuningdek, xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va (yoki) transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, mansab maoshi miqdorida to‘lanadigan summalar;

i) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to‘lovlar;

j) yer osti ishlarida doimiy band bo‘lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me‘yoriy vaqti uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haqlar;

k) qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida dala ta‘minoti.

l) oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash.

7) ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash:

a) qonun hujjatlariga muvofiq:

-yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta‘tilga haq to‘lash, shuningdek, undan foydalanilmaganda, shu jumladan, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lash;

-noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek, og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘shimcha ta‘tilga haq to‘lash;

-o‘qish bilan bog‘liq ta‘tilga va ijodiy ta‘tillarga haq to‘lash;

-o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo‘shimcha ta‘tilga haq to‘lash;

b) asosiy ish joyi bo‘yicha asosiy ish haqi qisman saqlab qolinganda majburiy ta‘tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar;

c) donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to‘lash;

d) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to‘lash;

e) qishloq xo‘jaligi ishlariga va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

f) avvalgi ish joyi bo‘yicha mansab maoshi miqdorlari muayyan bir muddat davomida saqlab qolinganda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek, vazifani vaqtincha bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to‘lash;

g) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o‘qishi vaqtida asosiy ish joyi bo‘yicha to‘lanadigan ish haqi;

h) xodimning aybisiz bekor turib qolinganda vaqt uchun haq to‘lash;

i) sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta‘siridan xoli bo‘lgan kamroq haq to‘lanadigan ishga o‘tkazilganda saqlanadigan avvalgi o‘rtacha oylik ish haqini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan

hollarda to‘lash, shuningdek, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalariga ish haqining haqiqiy miqdorigacha qo‘shimcha haq to‘lash;

j) majburiy progul vaqti yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qaroriga ko‘ra haq to‘lash;

k) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek, tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

l) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun, o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan malakali xodimlari mehnatiga haq to‘lash;

m) oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislariga ta‘til vaqti uchun yuridik shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqalar.

n) xodimlarga ta‘til uchun mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘langan haq va ular bo‘yicha pullik kompensatsiyalar.

8) nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo‘shimcha to‘lovlar.

Amortizatsiya xarajatlari

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to‘lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya qilinadigan mol-mulk, deb e‘tirof etiladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinmaydi:

1) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);

2) mahsuldor chorva mollari;

3) kutubxona fondi;

- 4) muzey qimmatliklari (muzey ashyolari);
- 5) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- 6) arxitektura yodgorliklari;
- 7) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;
- 8) qiymati ilgari to'liq chegirilgan mol-mulk;
- 9) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar.

Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo'lgan mol-mulk amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruhlarga taqsimlanadi:

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo'yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali, biroq soliq kodeksda belgilangan eng yuqori normadan oshmagan holda hisoblab chiqiladi.

Soliq solish maqsadlari uchun amortizatsiyani belgilanganidan pastroq va soliq to'lovchining hisob siyosatida mustahkamlab qo'yilgan normalar bo'yicha hisoblashga yo'l qo'yiladi.

Soliq solinadigan foydaning to'liq hisoblanmagan amortizatsiya summasiga soliq solish maqsadlarida ushbu moddada nazarda tutilgan normalarga zid ravishda qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalar obyektlarini oladigan soliq to'lovchi ushbu asosiy vositalar obyekti bo'yicha amortizatsiya normasini mazkur asosiy vositalar obyektidan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilashga haqlidir. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lovchi

texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan unumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo‘lmagan muddatga belgilashga haqlidir. Foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, amortizatsiyani hisoblash yangi asosiy vositalarga bo‘lgani singari amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar uchun qilingan xarajatlar soliq to‘lovchi tomonidan, ularning boshlang‘ich qiymati va unumli foydalanilishi muddatidan, lekin soliq to‘lovchining faoliyati muddatidan ortiq bo‘lmagan muddatdan kelib chiqqan holda, hisoblab chiqilgan normalar bo‘yicha har oyda eskirish tariqasida jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Nomoddiy aktivlar obyektidan unumli foydalanish muddatini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga yoki chet davlatning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek, nomoddiy aktivlardan foydalanishning tegishli shartnomalar bilan bog‘liq unumli muddatidan kelib chiqqan holda patentning, guvohnomaning amal qilish muddati va (yoki) intellektual mulk obyektlaridan foydalanish muddatlarining boshqa cheklanishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Unumli foydalanish muddatini aniqlab bo‘lmaydigan nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya normalari besh yilga, lekin soliq to‘lovchining faoliyat muddatidan ortiq bo‘lmagan muddatga mo‘ljallab belgilanadi.

Boshqa xarajatlar

Boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) soliq to‘lovchining faoliyatini amalga oshirish uchun o‘zga yuridik yoki jismoniy shaxslar bajargan ishlar va xizmatlar qiymati, bularga quyidagilar kiradi:

-mahsulot ishlab chiqarish (tayyorlash) bo‘yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish,

xomashyoga (materiallarga) ishlov berish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy vositalarga texnik xizmat ko'rsatish va boshqa shu kabi ishlar;

-o'zga yuridik va jismoniy shaxslarning transport xizmatlari;

-ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish uchun yoki soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq boshqa vazifalarni bajarish uchun o'zga yuridik shaxslar tomonidan xodimlarni (texnik personalni) taqdim etishga doir xizmatlar uchun xarajatlari;

2) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy hamda kapital ta'mirlash xarajatlari). Asosiy vositalarni kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlarining bir maromda kiritib borilishini ta'minlash uchun soliq to'lovchi asosiy vositalarning kelgusi ta'mirlanishi uchun belgilangan tartibda zaxiralar tashkil etishga haqli;

3) ijara to'lovlari, shuningdek, ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar;

4) konservatsiyaga qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

5) vakolatli tashkilotlar tomonidan muayyan huquqlar yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berishni nazarda tutuvchi hujjatlarni berganlik uchun yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlar, shuningdek, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ekspertizadan o'tkazish hamda mahsulotni sertifikatlashtirish bilan bog'liq xarajatlar;

6) mahsulotni sotish bozorlarini o'rganish xarajatlari;

7) inventarni, xo'jalik anjomlarini va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfeksiya qilish xarajatlari summasi yoki ularga to'langan haq;

8) qat'iy hisobotdagi blanklarni, kvitansiyalar va boshqa hujjatlarni tayyorlash xarajatlari summasi yoki ularni olish

uchun to‘langan haq;

9) tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;

10) reklama uchun xarajatlar;

12) kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli ta‘mirlash va ularga kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

13) telekommunikatsiyalar va pochta xizmatlari uchun to‘lanadigan haq;

14) xizmat safarlari uchun xarajatlar:

a) tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safarlari joyiga borish va qaytib kelish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan, joyni band qilib qo‘yish haqi. Yo‘l hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, xarajatlar temir yo‘l transportidagi (yoki agar temir yo‘l aloqasi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda chegirib tashlanadi;

b) O‘zbekiston Respublikasi doirasida tasdiqlovchi hujjatlar asosida joyni ijaraga olish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan, joyni band qilib qo‘yish xarajatlari. Yashaganlikni tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmasa, mazkur xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegirib tashlanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqilganda joyni ijaraga olish uchun qilingan xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegiriladi;

c) xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

d) qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa xarajatlar;

15) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshiriladigan kompensatsiya to‘lovlari (Soliq kodeksning 143-moddasida ko‘rsatilganlari bundan mustasno);

16) soliq to‘lovchining faoliyatida talab etiladigan boshqa

shaharlik, chet ellik mutaxassislarni ishga taklif qilish bilan bog'liq xarajatlar;

17) auditorlik tekshiruvlari bo'yicha xarajatlar;

18) maslahat, axborot xizmatlariga, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritish va tiklash bo'yicha xizmatlarga haq to'lash;

19) bankning, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining va qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlariga haq to'lash;

20) soliq to'lovchining faoliyatida zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari;

21) qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan hamda soliq to'lovchining xarajatlariga kiritiladigan byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar;

22) assotsiatsiyalarga, jamg'armalarga va boshqa tashkilotlarga, shu jumladan, xalqaro tashkilotlarga to'lanadigan badallar, agar bunday badallarni to'lash soliq to'lovchi faoliyatining amalga oshirilishi uchun majburiy shart bo'lsa yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan amalga oshirilsa;

23) mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ta'minlash, texnika xavfsizligi, yong'inga qarshi va soqchilik muhofazasini hamda texnikaviy foydalanish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash xarajatlari;

24) litsenziya bitimlariga ko'ra huquq egasi bilan shartnoma bo'yicha elektron-hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazalari dasturlaridan foydalanish huquqini olish bilan bog'liq xarajatlar. Mazkur xarajatlarga elektron-hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazalari uchun dasturlarni yangilashga doir xarajatlar ham kiradi;

25) intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlardan

va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalardan (xususan, ixtirolarga, sanoat namunalariga va intellektual mulkning boshqa turlariga boʻlgan patentlardan yuzaga keladigan huquqlardan) foydalanganlik uchun toʻlovlar;

26) buxgalteriya hisobotini eʼlon qilish, shuningdek, boshqa axborotni, agar qonun hujjatlarida ularni eʼlon qilishni (oshkor qilishni) amalga oshirish majburiyati soliq toʻlovchining zimmasiga yuklangan boʻlsa, eʼlon qilish va boshqacha tarzda oshkor qilish xarajatlari;

27) xodimning mehnatda mayib boʻlishi yoki uning sogʻligʻiga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi yoxud xodim oila aʼzosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila aʼzolariga beriladigan moddiy yordam;

29) qonun hujjatlariga muvofiq qayta tashkil etilishi, xodimlar (shtatlar) sonining qisqarishi munosabati bilan ozod etiladigan xodimlarga toʻlovlar;

30) tibbiy yordam punktini saqlab turish xarajatlari, xodimlarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazganlik va profilaktika tadbirlari uchun tibbiyot muassasalariga toʻlanadigan haq;

31) sogʻliqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, sogʻlomlashtirish oromgohlari, madaniyat hamda sport obyektlari, taʼlim obyektlari, shuningdek, uy-joy fondi obyektlari taʼminotiga doir xarajatlar (shu jumladan, amortizatsiya ajratmalari va barcha turdagi taʼmirlash ishlarini oʻtkazish xarajatlari);

32) ixtiyoriy sugʻurta uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan qoʻshilgan qiymat soligʻi va aksiz soligʻini qoʻshgan holda tushgan tushum hajmining 2 foizi doirasidagi sugʻurta mukofotlari (badallari), yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxslar foydasiga toʻlanadigan sugʻurta mukofotlari (badallari), agar SK-145 moddasining 33-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, bundan mustasno;

33) O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari summalari;

34) sug‘urtaning majburiy turlariga sug‘urta mukofotlari (badallari);

35) atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida kompensatsiya to‘lovlari;

36) faoliyat bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari uchun xarajatlar, bundan asosiy vositalarni sotib olish, ularni o‘rnatish hamda kapital tusdagi boshqa xarajatlar mustasno. Loyiha-smeta hujjatlari, bajarilgan ishlar dalolatnomasi va tegishli ilmiy-tadqiqot, loyihalash, izlanish hamda tajriba-konstruktorlik ishlari o‘tkazilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bunday xarajatlarni chegirmalar jumlasiga kiritish uchun asos bo‘ladi;

37) ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperimental ishlarini o‘tkazish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo‘yicha modellar va namunalarni tayyorlash hamda ularni sinash, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo‘yicha ko‘rgazmalar va ko‘riklar, tanlovlar tashkil etish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo‘yicha boshqa tadbirlar, mualliflik haqini to‘lash, yangi texnologiyalar yaratish hamda qo‘llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, yangi turdagi xomashyo va materiallarni yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash xarajatlari;

38) soliq to‘lovchi tomonidan geologik tadqiqotlar va tabiiy resurslarni qazib olish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan, jami daromaddan keyingi yillar mobaynida bir maromda yiliga 15 foizdan oshmagan miqdorda chegirib tashlanadigan xarajatlar;

39) qazib oluvchi tarmoqlarda xarajatlarni qoplashning

belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmiga va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladigan tayyorgarlik ishlariga doir xarajatlar;

40) zararlar va yo‘qotishlar:

41) kreditlar (zayomlar) bo‘yicha foizlar, bundan investitsiya davrida kapital qo‘yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo‘yicha foizlar mustasno;

42) kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalar doirasida muddati o‘tgan va uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo‘yicha foizlar, bundan investitsiya davrida kapital qo‘yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo‘yicha foizlar mustasno;

43) valyuta hisobvaraqlari, shuningdek, chet el valyutasidagi operatsiyalar bo‘yicha kursdagi salbiy farq, bu farq buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda jami daromaddan chegirib tashlanadi:

-chet el valyutasi ushbu chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqining o‘tish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past narxda sotilganda;

-chet el valyutasi ushbu chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqining o‘tish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori narxda sotib olinganda;

-chet el valyutasi kursining o‘zgarishi munosabati bilan tegishli hisobot davri uchun balansning valyuta moddalari qayta baholanganda.

44) o‘zining qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar;

45) moliyaviy ijara, shu jumladan, lizing bo‘yicha ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi bo‘lgan mablag‘larni to‘lashga doir xarajatlar;

46) soliq to‘lovchi tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar

va boshqa qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar tarzidagi xarajatlar;

47) favqulodda zararlar.

Favqulodda zararlar - soliq to'lovchilarning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiquvchi voqealar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlarning moddalaridir. U yoki bu modda favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- yuridik shaxsning odatdagi xo'jalik faoliyati uchun xos bo'lmasligi;

- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi;

48) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyekting muassislari (ishtirokchilari) tomonidan uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar chegirib tashlanadigan xarajatlar sifatida qaralmaydi;

49) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini, bolani ikki yoshga to'lguniga qadar parvarishlash nafaqalarini, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalarni to'lash xarajatlari;

50) xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar;

51) mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash xarajatlari;

52) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;

53) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formal kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida oziq-ovqat bilan ta'minlash xarajatlari;

54) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) xarajatlari;

55) mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlar:

-jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlar (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo'lgan taqdirda, zararining o'rnini uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo'lmagan miqdorda qoplanadi);

-maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to'lovlar;

-jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo'shimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to'lovlar;

-xodimning sog'lig'iga shikast yetganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlar;

56) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlar:

-marhum o'rtacha oylik ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati

bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlar;

-boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlar;

57) abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq.

Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari

Ushbu xarajatlar ular yuzaga kelgan paytda, joriy hisobot davrida soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegirilmaydi, ular keyingi davrlarda, soliq to'lovchining hisob siyosati bilan belgilangan, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddat ichida chegirilishi lozim. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) yangi ishlab chiqarishlar, sexlar, agregatlarni, shuningdek, seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlarini hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirish xarajatlari;

2) barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks sinab ko'rish (ishlab turgan holatida) xarajatlari;

3) ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan korxonada ishlash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar;

4) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hisoblangan amortizatsiya summasi bilan SK-144-moddasiga muvofiq belgilangan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi ijobiy farq.

Shubhali qarzlar bo'yicha zaxira tashkil etish uchun qilingan xarajatlar soliq kodeksiga muvofiq umidsiz deb e'tirof etilgan qarzdorlikni hisobdan chiqarilayotganda, hisobdan chiqarilishi

lozim boʻlgan umidsiz qarzdorlik miqdoridan oshmaydigan summada chegirib tashlanadi.

Chegirilmaydigan xarajatlar

Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yoʻqotishlar va buzilishlar;

2) xodimlarga beriladigan yoki soliq toʻlovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xoʻjaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) boʻyicha narxdagi farqlar (zararlar);

3) Soliq kodeksi 145-moddasining 11, 14 va 32-bandlarida belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar (xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sugʻurta turlari boʻyicha sugʻurta mukofotlari (badallari);

4) nodavlat pensiya jamgʻarmalariga ajratmalar;

5) xoʻjalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

6) umumiy ovqatlanish korxonalari yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar koʻrsatish qiymatini toʻlash;

7) yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan oʻtkazish xarajatlari;

8) soliq toʻlovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar boʻyicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

9) jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan soliq toʻlovchining xarajatlari;

11) dala taʼminoti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy avtotransportdan foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha toʻlangan toʻlovlar;

12) pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat

faxriylariga biryo'la to'lanadigan nafaqalar;

13) xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam, Soliq kodeksning 143 (ta'tilga qo'shimcha haqlar) va 145-modda (bankning, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining va qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlariga haq to'lash)larida nazarda tutilgan moddiy yordam bundan mustasno;

14) mehnatdamayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi sababli xodimlarga yetkazilgan zararining o'rini qoplash uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan to'lovlar;

15) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga badallar, homiylik va xayriya yordamlari tarzidagi mablag'lar;

16) ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;

17) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar) bajarishga sarflangan xarajatlar;

18) atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha bo'lganligi uchun kompensatsiya to'lovlari;

19) kredit shartnomasida muddatli qarzlarni uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to'lov muddati o'tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar;

20) loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek, obyekt yonidagi omborga tashib

keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobiga o'rnini qoplash mumkin bo'lmagan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

22) sud chiqimlari;

23) aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summalarning o'rnini qoplash mumkin bo'lmaganda ko'rilgan zararlar;

24) soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mulkining (aktivlarining) chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar;

25) xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdagi sanksiyalar;

26) investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar;


26-1) ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskuna uchun to'lanadigan haq;

27) boshqa xarajatlar Soliq kodeksning 142–145-moddalarida ko'rsatilganlari (Moddiy xarajatlar va boshqa xarajatlar) bundan mustasno.

3.5. Foyda solig'i stavkalari va ularning tabaqalanishi

Yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun

makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.



3.2-rasm. Yuridik shaxslar foyda solig'i stavkalari o'zgarish dinamikasi²⁰

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 1998-yilda 36 foizni tashkil etgani holda, 2001-yilda 26 foizga tushgan. 2002-yilda esa 24 foiz, 2003-yilda 20 foiz, 2004-yilda 18 foiz, 2005-yilda 15 foiz, 2009-yilda 12 foiz, 2007-yilda 10 foiz, 2010-yilda 9 foiz, 2014-yilda 8 foiz, 2015–2016-yilda 7,5 foiz va 2017-yildan 7,5 foiz qilib belgilangan.

Agar 1995-yilda yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkasi 38 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 7,5 foizni tashkil qildi yoki 5 baravarga pasaydi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra 2017-yilda yuridik shaxslarning foydasiga soliq stavkalari keltirilgan.

20 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i STAVKALARI²¹

N	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Yuridik shaxslar (2-4-bandlarda nazarda tutilganlaridan tashqari)	7,5
2	Tijorat banklari	15
3	Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan Yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi Yuridik shaxslar	35
4	Rentabellik* darajasiga bog'liq holda mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan Yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari):	
	20 foizgacha	7,5
	20 foizdan yuqori	rentabellikning 20 foizlik darajasidan oshadigan foyda summasi-ning 50 foizi**
5	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-son farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xomashyo mahsulotlari bundan mustasno:***	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

**) Rentabellik foyda solig'i to'lanishiga qadar foydaning realizatsiya qilingan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxi summasiga nisbati sifatida aniqlanadi. Mobil aloqa xizmatini ko'rsatadigan Yuridik shaxslar (uyali*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori 8-ilova.

aloqa kompaniyalari) tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi belgilaydi.

****) Eksport ulushiga bog'liq holda stavkaga tuzatishlar kiritish amalga oshirilmaydi.*

****Bozorda ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mobil aloqa xizmatiga narxlarni davlat tomonidan tartibga solish uchun joriy etilgan. Foyda solig'ini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:*

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2016-yil 28-yanvardagi 3, 2016-05-sonli qaroriga muvofiq, "Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan rentabellik darajasiga qarab yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini qo'llash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2759-sonli Nizom qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan **2016-yil 3-fevralda 2759-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.**

Uyali aloqa kompaniyalaridan O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga tushumlarni hisobini yuritish maqsadida rentabellik darajasining 20 foizidan yuqori qismiga to'g'ri keladigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi tegishli davlat soliq xizmati organlariga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarida ochiladigan alohida hisobvaraqqa o'tkaziladi.

3.2-jadval

Rentabellik darajasiga qarab soliq solish bazasi summasini aniqlash va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasini hisoblab chiqarishga doir

SHARTLI MISOLLAR

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	1-misol	2-misol
		Summa	
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi («Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» – 2-sonli shaklning 020-satri)	010	77 000,0	80 000,0
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) («Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» – 2-sonli shaklning 240-satri)	020	20 000,0	12 000,0
Rentabellikning haqiqatdagi darajasi, %da (020-satr / 010-satr × 100%)	030	26,0%	15,0%
Soliq solish bazasi (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hisob-kitobining 150-satri)	040	25 000,0	17 000,0
Soliq solish bazasi, shu jumladan:	050	×	×
rentabellik darajasining 20 foizigacha to'g'ri keladigan soliq solish bazasi[040-satr × ((20% / 030-satr) × 100%), biroq 040-satrdan ko'p bo'lmagan miqdorda]	051	19 250,0	17 000,0
rentabellik darajasining 20 foizdan yuqori qismiga to'g'ri keladigan soliq solish bazasi (040-satr – 051-satr)	052	5 750,0	0,0
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkalari:	060	×	×
rentabellik darajasi 20 foizgacha bo'lganda	061	7,5%	7,5%
rentabellik darajasi 20 foizdan yuqori bo'lganda	062	50%	50%

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi – jami(071-satr + 072-satr), shu jumladan:	070	4 318,8	1 275,0
rentabellik darajasi 20 foizgacha bo'lganda(051-satr × 061-satr)	071	1 443,8	1 275,0
rentabellik darajasi 20 foizdan yuqori bo'lganda (052-satr × 062-satr)	072	2 875,0	0,0

3.6. Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar va yengilliklar

Soliq kodeksining 158-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

- ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek, nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

3) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

4) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi;

5) Fond birjasida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan olingan foydasi.

Ishlovchilari umumiy sonining **3 foizidan ko'prog'ini nogironlar** tashkil etgan yuridik shaxslar uchun yuridik

shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi belgilangan normadan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi **bir foiz kamaytiriladigan** hisob-kitob asosida kamaytiriladi.

Soliq kodeksining 159-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) ekologiya, sog‘lomlashtirish va xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta‘lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va xayriya tariqasidagi mablag‘lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning **ikki foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda**;

2) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatining o‘rnini qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning **30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda**.

Soliq solinadigan foydani kamaytirish yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xarajatlar qilingan soliq davridan e‘tiboran, texnologik jihoz bo‘yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e‘tiboran besh yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologik jihoz xarid qilingan (import qilingan) paytdan e‘tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekinga berilgan taqdirda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash bo‘yicha majburiyatlar tiklangan holda, mazkur imtiyozning amal qilishi

imtiyoz qoʻllanilgan butun davr uchun bekor qilinadi. Ushbu imtiyoz tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi soliq toʻlovchilar tomonidan qoʻllaniladi;

4) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari toʻlashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

5) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamgʻarmalarining mulkida boʻlgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamgʻarmalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yoʻnaltiriladigan ajratmalari summasiga.

Banklarning soliq solinadigan foydasi jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar boʻyicha omonatlar hamda joylashtirilgan jamgʻarma sertifikatlari hajmlarining koʻpaygan summasiga boʻshagan mablagʻlarni yuqorida koʻrsatilgan omonatlar boʻyicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yoʻnaltirish sharti bilan kamaytiriladi;

7) qoʻshimcha foyda soligʻini toʻlovchilar uchun sof qoʻshimcha foyda summasiga.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlariga muvofiq iqtisodiyotning real sektori korxonalariga quyidagi soliq imtiyozlari taqdim etilgan:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-yanvardagi “Mahalliy nooziq-ovqat isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini ragʻbatlantirish toʻgʻrisida”gi **PQ-1050**-sonli qaroriga koʻra, tayyor nooziq-ovqat tovarlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni foyda va mulk soliqlaridan, mikrofirma va kichik korxonalarni esa yagona soliq toʻlovidan 2012-yil 1-yanvargacha ozod etilgan. Mazkur imtiyozlarning amal qilish muddati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2099-

sonli qaroriga muvofiq 2016-yil 1 yanvargacha hamda 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli qaroriga asosan 2018-yil 1-yanvarga qadar uzaytirildi.

Mazkur qaroriga asosan **2018-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda 15 turdagi nooziq-ovqat iste'mol tovarlari** (bosh va oyoq kiyimi mahsulotlari, trikotaj, paypoq mahsulotlari, parfyumeriya, mebel garniturasini va b.) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar uchun quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalari berilgan:

- foyda solig'i va mulk solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, Respublika yo'l jam'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etilgan;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha import qilinadigan, nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, respublikada ishlab chiqarilmaydigan xomashyo hamda materiallarni bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvini yig'imlaridan tashqari) ozod etilgan;

- Nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan korxonalar jumlasiga sotuv umumiy hajmida ushbu tovarlarni ishlab chiqarishdan tushum ulushi hisobot davri yakunlari bo'yicha kamida **60 foizini tashkil** etadigan korxonalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 29-yanvardagi "Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1051-sonli qaroriga asosan yangidan tashkil etilayotgan ta'mirlash-qurilish tashkilotlari **2014-yil 1-yanvargacha** ozod etilgan edi. Mazkur imtiyozlarning muddati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 7-yanvardagi **PQ-2282-sonli** qaroriga

muvofig **2017-yil 1-yanvargacha uzaytirildi:**

-solisqlarning barcha turlarini va davlat maqsadli fondlariga majburiy ajratmalarni to‘lashdan ozod qilindi;

-Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan qurilish texnikasi va kichik mexanizatsiyalash vositalari uchun bojxona to‘lovlari to‘lashdan (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlari bundan mustasno) ozod qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 7-yanvardagi “2015-yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi dasturi va 2016-yilgi qurilishning asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2282-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan OTB ishtirokida «Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish» loyihasini ko‘p transhli moliyalashtirish dasturini hamda ITB ishtirokida «Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish davrida, shuningdek, kafolat muddati davrida:

-O‘zbekiston Respublikasining norezident - yuridik shaxslari (loyihalarning ijrochilari) **foyda solig‘i to‘lashdan;**

-mazkur loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etayotgan xorijiy jismoniy shaxslar - jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lashdan;

-loyihalarni amalga oshirish doirasida OTB va ITBning qarz mablag‘lari hisobiga sotib olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) - qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilindi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyati kengaytirilishini yanada rag‘batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo‘naltirilgan uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash hajmlarini oshirish uchun ularning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari

ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” **PQ-1166**-qaroriga muvofiq **2020-yilning 1 yanvarigacha** tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan stavkalar bo‘yicha foyda solig‘i to‘lashlari belgilandi;²²

3.3-jadval

Tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig‘i bo‘yichatabaqalashtirilgan STAVKALAR

№	Tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi	Foyda solig‘ining imtiyozli stavkalari (amaldagi stavkaga nisbatan %da)
1	35dan 40% gacha	80%
2	40 dan 50% gacha	75%
3	50% yuqori	70%

Tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan stavkalar bo‘yicha foyda solig‘i to‘lashlari belgilandi, 3.3-jadvalga muvofiq.

Shartli misol: *Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining amaldagi stavkasida - 15 foiz va kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalash ulushi sharoitida tuzatilgan soliq stavkasi 12 foizni (15 x 80 %) tashkil etadi.*

Uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

Uumim = Umim/KP * 100, bunda:

Uumim - uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi;

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli qaroriga muvofiq, foyda solig‘ini to‘lash yuzasidan berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati 2020-yilning 1-yanvariga qadar uzaytirildi.

Umim - uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalash;

KP - Kredit portfeli.

Bunda, kredit yoki lizing bo'yicha xizmatlarning berilgan sanasidan qat'i nazar, uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalash summasi va kredit portfeli summasi hisobot davri oyining oxirgi sanasiga qabul qilinadi.

Oldindan uch yildan kam bo'lmagan muddatga berilgan investitsiyaviy kredit yoki lizing bo'yicha xizmatlar uch yillik davr tugagunga qadar muddatidan ilgari so'ndirilgan taqdirda, yuqoridagi jadval talablari uchun mazkur kredit yoki lizing bo'yicha xizmatlar uzoq muddatli sifatida qaraladi.

Imtiyozni qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan **2015-yil 29-sentabrda 2716-son** bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibidagi uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashtirish ulushiga qarab yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi nizomga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda «Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risida»gi **PQ-1672-sonli** qarorga muvofiq quyidagi soliq imtiyozlari amal qilishi muddati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda **PQ-2699-sonli** qaroriga muvofiq, **2020-yil 1-yanvarga qadar uzaytirildi:**

- ommaviy axborot vositalari tahririyatlari va nashriyotlar ijtimoiy-siyosiy hamda bolalar adabiyotini, imkoniyatlari cheklangan shaxslar (ko'zi ojizlar, kar-soqovlar va boshqalar) uchun adabiyotlarni sotishdan olingan foydadan foyda solig'ini hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan ozod etildi;

- tahririyatlar, nashriyot va bosmaxonalar ommaviy axborot vositalarining mahsulotlari, kitob mahsulotlarini sotishdan

va ularning nusxalarini ko‘paytirish bo‘yicha xizmatlardan olinadigan daromadlar qismida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga hamda ta‘lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lashdan ozod etildi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha ommaviy axborot vositalari va kitob mahsulotlari ishlab chiqarish uchun ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyotlar, teleradioeshittirish kompaniyalari va poligrafiya tashkilotlari tomonidan olib kelinadigan qog‘oz, poligrafiya materiallari va axborot saqlash moslamalari, uskunalar bojxona to‘lovlaridan (bojxona yig‘imlari bundan mustasno) ozod etish tarzidagi imtiyozlar muddati **2019-yil 1-yanvarga** qadar uzaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 17-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-325-sonli qarorining 7-bandida belgilangan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun foyda solig‘i hamda yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda **PQ-2699-sonli** qaroriga muvofiq, **2020-yil 1-yanvarga qadar uzaytirildi:**

Quyidagi ro‘yxatga muvofiq xizmatlarga tatbiq etiladi:

1) qishloq joylarda poyabzal va charmdan tayyorlangan buyumlarni ta‘mirlash sohasidagi xizmatlar;

2) qishloq joylarda soat ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar;

3) qishloq joylarda maishiy elektron va elektr uskunalar (televizorlar, audio-videoapparaturalar, kompyuter, printer texnikasi, sovutkichlar, konditsionerlar va boshqalar)ni ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar;

4) qishloq joylarda sataroshxonalar va go‘zallik salonlari

tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar;

5) qishloq joylarda kiyim-kechak tikish va yamash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar;

6) yakka tartibdagi turarjoy qurilishi sifatida qurilgan, qishloq mavzellarida tashkillashtirilgan, kirlarni yuvishga qabul qilish korxonalarini tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar;

7) yakka tartibdagi turarjoy qurilishi sifatida qurilgan, qishloq mavzellarida tashkillashtirilgan, kimyoviy tozalash korxonalarini tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar.


8) ta‘lim sohasidagi xizmatlar, jumladan kompyuterda ishlashni o‘rgatish;

9) sanatoriylar, bolalar sog‘lomlashtirish muassasalari, bolalar sport muassasalari va to‘garaklari xizmatlari;

10) bolalar, nogironlar va kekxa fuqarolarni parvarishlash bo‘yicha ijtimoiy xizmatlar;

11) axborot-resurs markazlari, axborot-kutubxona markazlari, elektron ta‘lim xizmatlari;

12) qishloq joylarda ko‘rsatiladigan kompyuterda dasturlash bo‘yicha xizmatlar (jumladan, maslahat xizmatlari).



3.3-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasining mamlakat YaIM dagi ulushi²³

Xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasida faoliyat yurituvchi

yuridik shaxslarni foyda va yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etish tarzida soliq imtiyozlari **12 ta faoliyat turlarini**, shundan **4 tasi** respublikaning barcha hududlarida va **8 tasi** qishloq joylarda amalga oshirganlik uchun **2020-yil 1-yanvargacha** tatbiq etilishi belgilandi. Bunda, mazkur imtiyozlar mikrofirmalar va kichik korxonalarining barcha daromadlariga tatbiq etiladi, agarda ularning imtiyoz qo‘llaniladigan xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan tushumi tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum umumiy hajmining 80 va undan ortiq foizini tashkil etsa foydalanadi.

Berilgan imtiyozlar natijasida 2015-yil yakunlariga ko‘ra, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 foizga, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2000-yildagi 37 foizdan 54,5 foizga o‘sdii.²⁴

Ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlarni qo‘llash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan **2009-yil 17-iyulda 1594-son** bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan nizomga asosan belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 20-sentabrdagi “Mamlakatimizning dasturiy ta’minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag‘batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi **PQ-2042-sonli qaroriga** muvofiq, Milliy reestrqa kiritilgan dasturiy ta’minot vositalarini ishlab chiquvchilar **2017-yilning 1-yanvariga** imtiyoz berilgan edi. Mazkur soliq imtiyozlari amal qilishi muddati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq **2020-yil 1-yanvarga qadar uzaytirildi:**

-barcha turdagi soliqlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l fondiga, byudjetdan

24 Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir” – Toshkent.: Xalq so‘zi gazetasi, 2016, 16-yanvar.

tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan;

-O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha o'z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan uskunalar, butlovchi qismlar, detallar, uzellar, texnologiya hujjatlari, dasturiy ta'minot vositalariga boj to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod etildi.

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009-yil 5-yanvardagi PF-3706-sonli farmonining amal qilishi Milliy reestruga kiritilgan yuridik shaxslar - dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilariga, agar ular xonadonlarda ishlovchi (kasanachi) jismoniy shaxslar bilan mehnat shartnomalari tuzadigan bo'lsalar, tatbiq etilishi belgilandi;

-Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq va yagona soliq to'lovi bo'yicha yangi texnologiya uskunalarini xarid qilish chog'ida soliqqa tortiladigan bazani kamaytirishga doir amaldagi tartib respublika korxonalari va tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining har yilgi Investitsiya dasturiga kiritiladigan axborot tizimlarini yaratish bo'yicha investitsiya loyihalari doirasida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan dasturiy ta'minot vositalarini sotib olishga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdoriga joriy qilinishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 3-martdagi «Qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi **PQ-2137-sonli qaroriga** asosan qurilish faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga bir qator imtiyozlar

joriy etildi.

Qurilish-pudrat tashkilotlarining Reyestriga kiritilgan tashkilotlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan import qilinadigan qurilish texnikasi, asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar, kichik mexanizatsiya vositalari, texnologik uskunalar, shuningdek, asbob-anjomlar, ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlar uchun **2018-yilning 31-dekabrigacha** bojxona to'lovlari (bojxona yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod etildi.

Qurilish-pudrat tashkilotlari Reestriga kiritilgan kundan boshlab **3 yil muddatga** yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod etilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 18-fevraldagi "Respublika oziq-ovqat sanoati boshqaruvini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-2492-sonli qaroriga** muvofiq, quyidagilar belgilandi:

1) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining "O'zbekoziqovqatxolding" xolding kompaniyasi qoshida Oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish jamg'armasini tashkil etish va uning daromadlarini shakllantirish manbalari sifatida:

- xolding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi korxonalarga davlat ulushlari bo'yicha hisoblanadigan dividendlarning **50 foizi**;

-xolding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning sof foydasidan **0,5 foiz** miqdorida ajratma;

-qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalarni belgilash to'g'risidagi takliflari qabul qilinganligi.

-yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, davlat maqsadli jamg'armalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-xunar kollejlari, akademik litseylar

va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jixozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblashda soliq solinadigan baza Jamg'armaga yo'naltirilgan summaga kamaytirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 12-apreldagi "Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-2520-sonli qarori** 6-bandiga muvofiq **2019-yilning 1-yanvarigacha**:

- meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzumni qayta ishlaydigan xususiy mulk shaklidagi korxonalar, idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, zamonaviy uskuna va texnologiyalar olib kirishda bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'imlaridan tashqari);

- «O'zbekoziqovqatxolding» xolding kompaniyasi tarkibiga kiradigan qayta ishlash korxonalari yagona ijtimoiy to'lovdan tashqari daromad solig'i, yuridik shaxslar mulk solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq, davlat maqsadli fondlariga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etilganligi;

- soliq va bojxona imtiyozlari berilishi hisobidan bo'shaydigan mablag'lardan ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish uchun maqsadli foydalanilishi lozimligi. Bo'shagan mablag'lardan maqsadsiz foydalanilgan taqdirda ular qaytarib olinib, byudjet va tegishli davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi **O'RQ-391-sonli qonuniga muvofiq**:

1.O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik

to'g'risidagi kodeksiga **192⁶-modda** "Imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish" **kiritilib** - tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish, –mansabdor shaxslar va xizmatchilarga eng kam ish haqining **o'n baravaridan yigirma baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilangan.

2.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga **241⁶-modda** "Imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish" kiritilib: Tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, – eng kam oylik ish haqining **ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha** miqdorda jarima yoki **ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari** bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, – eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

3.Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan imtiyozlar (preferensiyalar) foydalanishni yengillashtirish va nazorat qilishning yagona mexanizmini belgilash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi **qonunining 5-moddasiga** kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra:

-kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda

tutilgan imtiyozlar va preferensiyalar, kafolatlar va huquqlar ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan vakolatli organlarga va tashkilotlarga (davlat soliq, bojxona xizmati organlariga, davlat statistika organlariga, banklarga va boshqalarga) yozma ravishdagi murojaatlarsiz qo‘llaniladi.

-Shuningdek, Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlar va preferensiyalarning yagona reestrda e‘lon qilinadi hamda doimiy ravishda yangilab boriladi.

-O‘zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlar va preferensiyalarning yagona reestrini shakllantirish hamda doimiy ravishda yangilab borish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

-Mazkur qonunning **30¹-moddasiga** muvofiq davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llash tartibini o‘z vakolatlari doirasida tushuntirishi, shuningdek, ularning qo‘llanilishini ta‘minlashi shartligi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 27-dekabrda O‘RQ-417-sonli Qonuniga muvofiq, Soliq kodeksining 30-moddasiga kiritilgan qo‘shimchaga asosan 2017-yildan soliq to‘lovchiga maqsadli imtiyozlarni qo‘llash hisobiga bo‘shagan mablag‘larni imtiyoz davri tugagandan keyingi bir yil davomida imtiyozlar berilayotgan chog‘da belgilangan maqsadlar uchun foydalanish huquqini beradi, shuningdek, foydalanilmagan mablag‘lar qoldig‘ini respublika byudjetiga o‘tkazish muddatini belgilandi.

3.7. Kredit tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari va qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Kredit tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) kredit tashkilotining o'z nomidan va o'z hisobidan pul mablag'larini joylashtirishdan, kreditlar hamda zayomlar berishdan olinadigan foizlar, boshqa foizli daromadlar. O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida berilgan kreditlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq foizlarni to'lash bo'yicha imtiyozli davr berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar kredit shartnomasiga ko'ra olish muddati yetib kelmagunicha soliq solinadigan daromad sifatida qaralmaydi;

2) mijozlarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochganlik va yuritganlik hamda ularning topshirig'iga binoan hisob-kitoblarni amalga oshirganlik uchun olingan haq, shu jumladan, jo'natma, inkasso, akkreditiv va boshqa operatsiyalar, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan to'lov kartalarini hamda boshqa maxsus vositalarni rasmiylashtirganlik va xizmat ko'rsatganlik uchun, hisobvaraqlar bo'yicha ko'chirmalarni hamda boshqa hujjatlarni taqdim etganlik uchun va summalarni qidirganlik uchun vositachilik haqi hamda boshqa pul mukofotlari;

3) pul mablag'larini inkassatsiya qilishdan, veksellardan, to'lov va hisob-kitob hujjatlaridan hamda mijozlarga kassa xizmati ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

4) naqd pulli va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarini o'tkazishdan, shu jumladan, chet el valyutasini sotib olish yoki sotish, jumladan mijozning hisobidan va uning topshirig'i bo'yicha operatsiyalarda vositachilik va boshqa mukofotlar, valyuta boyliklari bilan operatsiya qilishdan

olinadigan daromadlar;

5) uchinchi shaxslar uchun pul shaklida ijro etilishini nazarda tutuvchi bank kafolatlari, majburiyatlari, avallari va kafilliklari berishga doir operatsiyalardan olinadigan pul shaklidagi mukofot;

7) hujjatlarni va qimmatliklarni saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalar va seyflarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

8) pul mablagʻlari, qimmatli qogʻozlar, boshqa boyliklar va bank hujjatlarini yetkazib berganlik, tashiganlik uchun haq;

9) qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni tashiganlik va saqlab turganlik uchun haq;

10) forfeyting va faktoring operatsiyalarini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

12) kredit tashkilotlari tomonidan oʻz professional faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar.

Balansning valyutaga oid moddalari qayta baholanganda olinadigan daromadlar, shuningdek, chet el valyutasining Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki olish sanasidan ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq toʻlangan sanagacha boʻlgan davrda oʻzgarishi munosabati bilan yuzaga kelgan ijobiy farq Soliq kodeksning 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar sifatida qaraladi.

Oʻstirmaslik maqomini olgan kredit boʻyicha hisoblangan foizlar Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq daromadlar hisobvaraqlaridan chiqarib tashlanadi.

Kredit tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlarini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Kredit tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga Soliq kodeksning 142-146-moddalarida nazarda tutilgan xarajatlardan tashqari quyidagilar kiradi:

1) kredit resurslari uchun to'lovlar, pul mablag'lari va qimmatliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari;

2) mijozlarning depozit hisobvaraqlari, shu jumladan, jismoniy shaxslarning omonatlari bo'yicha hisoblangan va to'langan foizlar;

3) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan normalar doirasida tavakkalchilik operatsiyalari bo'yicha zaxiralarga ajratmalar.

Tijorat banklarining soliq solinadigan foydasidan ular o'z filiallariga beradigan mol-mulk qiymati chegirib tashlanadi.

Sug'urta tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlari

Sug'urta tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari). Bunda birgalikda sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari) sug'urtalovchining (birgalikda sug'urta qiluvchining) daromadlari tarkibiga faqat uning birgalikda sug'urta qilish shartnomasida belgilangan sug'urta mukofotidagi ulushi miqdorida qo'shiladi;

2) avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug'urtaviy texnik zaxiralarni kamaytirishning (qaytarishning) qayta sug'urta qiluvchilarning sug'urta zaxiralardagi ulushi o'zgarishi hisobga olingan holdagi summalari;

3) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha pul mukofoti, shuningdek, qayta

sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha tantemalar (foydadan olinadigan haq);

4) qayta sugʻurta qilishga oʻtkazilgan tavakkalchilik boʻyicha sugʻurta toʻlovlari ulushining oʻrnini qayta sugʻurta qiluvchilar tomonidan qoplash summalari;

5) qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha mukofotlar deposiga hisoblangan foizlar summalari;

6) sugʻurta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslarga nisbatan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan, qonun hujjatlariga muvofiq sugʻurtalovchiga oʻtgan daromadlari;

8) sugʻurta agenti, broker, vositachi xizmatlarini koʻrsatganlik uchun mukofot;

9) sugʻurta bozorining professional ishtirokchilariga xizmatlar koʻrsatganlik uchun sugʻurtalovchi tomonidan olingan pul mukofoti;

10) sugʻurta xizmatlari koʻrsatishdan va qoʻshimcha sugʻurta faoliyatidan olingan boshqa daromadlar.

Sugʻurta tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlarini aniqlashning oʻziga xos xususiyatlari

Sugʻurta tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga Soliq kodeksning 142-146-moddalarida nazarda tutilgan xarajatlardan tashqari quyidagilar kiradi:

1) qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha toʻlangan toʻlov summalari;

2) avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sugʻurta texnik zaxiralari oʻsishining qayta sugʻurta qiluvchilarning sugʻurta zaxiralaridagi ulushi oʻzgarishi hisobga olingan holdagi summasi;

3) sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish majburiyatlari boʻyicha amalga oshirilgan hamda hisoblangan toʻlov summalari;

4) fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq oʻtgan yillardagi

sugʻurta hodisalari boʻyicha tugallanmagan toʻlov summalari, shu jumladan, daʼvo muddati doirasidagi majburiyatlar summasi;

5) sugʻurta hodisasi roʻy berganligi haqida maʼlum qilingan, lekin zarar miqdori taqdim etilmagan shartnomalar boʻyicha sugʻurta summalari;

6) sugʻurta tashkiloti sugʻurta hodisalari roʻy berishini bartaraf etish va uning oldini olishga doir tadbirlarni (preventiv tadbirlarni) moliyalashtirishga sarflaydigan mablagʻlar summalari;

7) sugʻurta tashkilotlari zaxira fondlarining miqdori sugʻurta tashkilotlari ustav fondining 25 foiziga yetguniga qadar mazkur tashkilotlar oʻz daromadlarining 20 foizigacha miqdorida zaxira fondlariga qiladigan ajratmalar summasi;

8) sugʻurta faoliyati bilan bogʻliq oʻzga yuridik shaxslarning xizmatlariga toʻlangan haq.

Qimmatli qogʻozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlari

Qimmatli qogʻozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) qimmatli qogʻozlarni realizatsiya qilishdan olinadigan, quyidagicha aniqlanadigan daromadlar:

qimmatli qogʻozlar, bundan qarz qimmatli qogʻozlari (obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) mustasno va ishtirok etish ulushi boʻyicha - realizatsiya qilish qiymati va olish qiymati (hissa) oʻrtasidagi ijobiy farq sifatida;

qarz qimmatli qogʻozlari boʻyicha - realizatsiya qilish qiymati bilan realizatsiya qilish sanasidagi diskont amortizatsiyasi va (yoki) mukofot inobatga olingan holda olish qiymati oʻrtasidagi ijobiy farq sifatida;

2) qimmatli qogʻozlar bozorida vositachilik va boshqa xizmatlar koʻrsatishdan olinadigan daromadlar;

3) mijozlarning mablag'laridan foydalanishdan yuzaga keladigan daromadning bir qismi;

4) depozitar xizmatlar, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar to'g'risida axborot taqdim etish, depo hisobvarag'ini yuritish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

6) qimmatli qog'ozlar bilan birjada va birjadan tashqarida savdolari tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

8) qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha daromadlar;

9) qimmatli qog'ozlar bozorida maslahat xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

10) professional faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining chegiriladigan xarajatlarini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining chegiriladigan xarajatlariga Soliq kodeksning 142-146-moddalarida nazarda tutilgan xarajatlardan tashqari quyidagilar kiradi:

1) tegishli litsenziyaga ega bo'lgan savdoni tashkil etuvchilarga badallar tarzida to'lanadigan xarajatlar;

2) professional faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan paydo bo'ladigan savdo qilish joylarini saqlab turish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

3) qimmatli qog'ozlar muomalasi va ularni hisobga olish bilan bog'liq o'zaro elektron aloqani tashkil etish hamda olib borish bo'yicha xarajatlar;

4) qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining faoliyati to'g'risidagi axborotni oshkor etish bilan bog'liq xarajatlar;

5) o‘z mijozlarining topshirig‘iga binoan aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlarida ishtirok etish xarajatlari.

3.8. Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga hamda oddiy shirkat ishtirokchilarining daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Dividendlar va foizlarga to‘lov manbayida soliq solinadi.

Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalarining hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra tashkil qilinadigan byudjetdan tashqari jamg‘armalarning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini moliya bozorlarida joylashtirishdan foizlar tarzida olinadigan daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan kredit tashkilotlariga to‘lanadigan foizlarga to‘lov manbayida soliq solinmaydi, balki ushbu Kodeksda belgilangan tartibda kredit tashkilotida soliq solinadi. Xuddi shunday tartib mol-mulki moliyaviy ijaraga (lizingga) berishda ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to‘lanadigan foizli daromadlarga ham tatbiq etiladi.

Yuridik shaxsdan olinib, uning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo‘naltirilgan dividendlar tarzidagi daromadlarga soliq solinmaydi. Ushbu imtiyoz qo‘llanilganidan so‘ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinadi.

Oddiy shirkat shartnomasi sheriklariga (ishtirokchilariga) soliq solish

Soliq kodeksning 380 va 381-moddalarida belgilangan

tartibda aniqlanadigan, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromad boshqa daromadlar tarkibida jami daromadga kiritiladi va unga ushbu bo'limga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i solinishi lozim.

Oddiy shirkat shartnomasining amal qilishi tugatilganda va mol-mulk ushbu shartnoma sheriklariga (ishtirokchilariga) qaytarilganda:

- oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) yoki uning huquqiy vorisi tomonidan qo'yilma doirasida olingan mol-mulk va mulkiy huquqlar tarzidagi tushumlar, uning ulushi shartnoma sheriklarining (ishtirokchilarining) umumiy mulkidagi mol-mulkdan ajratilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat sherigining (ishtirokchisining) daromadlari tarkibiga kiritilmaydi;

-qaytarilayotgan mol-mulk qiymati bilan bu mol-mulkning ilgari oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha topshirilgan qiymati o'rtasidagi salbiy farq soliq solish maqsadlari uchun zarar deb e'tirof etilmaydi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

3.9. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasi norezidentining soliq solinadigan foydasini aniqlashda foyda solig'ini hisoblab chiqarish maqsadi uchun soliq solinadigan foyda summasi ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlar summasining **10 foizidan**

kam bo‘lishi mumkin emas;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxsning – O‘zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga doimiy muassasa faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha turdagi daromadlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxsning – O‘zbekiston Respublikasi norezidentining xarajatlariga O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirishdan olingan daromadlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ular O‘zbekiston Respublikasida yoki uning tashqarisida qilinganligidan qat’iy nazar, barcha turdagi xarajatlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga tegishli bo‘lgan, u tomonidan ijaraga olinayotgan yoki boshqacha tarzda foydalanilayotgan omborlardan (shu jumladan, bojxona omborlaridan) tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza tovarlarni realizatsiya qilish qiymati bilan ularni olish qiymati o‘rtasidagi O‘zbekiston Respublikasida omborga tovarlar yetkazib berish xarajatlari hisobga olingan holdagi farq sifatida aniqlanadi.

Yuridik shaxs – O‘zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaga quyidagilar sifatida taqdim etilgan summalarni doimiy muassasaga chegirishga kiritish huquqiga ega emas:

1) O‘zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining mol-mulkidan va intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik yoki foydalanish huquqini berganlik uchun olinadigan royalti, gonoralar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar;

2) O‘zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining xizmatlari uchun vositachilik daromadlari;

3) O‘zbekiston Respublikasining ushbu norezidenti tomonidan berilgan zayomlar bo‘yicha pul mukofotlari;

4) shu norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar;

5) hujjatlar bilan tasdiqlanmagan xarajatlar;

6) O‘zbekiston Respublikasi ushbu norezidentning O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida qilingan boshqaruv va ma‘muriy xarajatlari.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentning doimiy muassasa alomatlariga javob beradigan faoliyatidan, davlat soliq xizmati organida doimiy muassasa sifatida hisobga qo‘yilguniga qadar olingan daromadlariga belgilangan tartibda to‘lov manbayida soliq solinadi. Bunda to‘lov manbayida soliq agenti tomonidan ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i u O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organida doimiy muassasa sifatida hisobga qo‘yilganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi norezidentning soliq majburiyatlarini uzish hisobiga hisobga olinishi kerak.

Agar O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyatdan daromad olingan bo‘lsa va shu daromaddan O‘zbekiston Respublikasida to‘lov manbayida haqiqatda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolingani hamda byudjetga o‘tkazilgan bo‘lsa, ushbu norezidentning doimiy muassasasida ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisobga olinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentning yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘iga qo‘shimcha ravishda sof foydasiga ham **10 foizli stavka** bo‘yicha soliq solinadi.

Sof foyda deganda O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyatdan olingani, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisoblangani summasi chegirib

tashlangan foyda tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga soliq solish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga, boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, mazkur daromatlarni olish bilan bog‘liq xarajatlar chegirib tashlanmagan holda to‘lov manbayida soliq solinadi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilingan kreditlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan xorijiy moliya institutlariga to‘lanadigan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining to‘lov manbayida soliq solinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) dividendlar va foizlar;

2) oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;

3) O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar:

-yuridik shaxslarning - O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalari (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan aksiyalar mustasno), ulushlari (paylari);

-ko‘chmas mulk.

-To‘lov manbayida soliqqa tortiladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lov manbayida ushlab qolish mol-mulkni realizatsiya qilish qiymatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi;

4) O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga tegishli tovarlarni

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining o‘zi yoxud O‘zbekiston Respublikasi rezidenti tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar. Bunda tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan mazkur daromadlar O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga to‘lanadigan summaning olib kirilgan tovarning kontrakt (faktura) qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi;

5) royalti;

6) O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalaniladigan mol-mulkn ijaraga yoki ikkilamchi ijaraga topshirishdan olinadigan daromadlar;

7) tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari;

8) o‘tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektromagnitli tizimlar orqali belgilar, signallar, matnlar, tasvirlar, tovushlarni uzatganlik, qabul qilganlik va qayta ishlaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlariga haq to‘lanishini nazarda tutuvchi xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar xizmatlariga to‘lov;

9) dengiz, daryo va havo kemalaridan, temir yo‘l yoki avtomobil transporti vositalaridan xalqaro tashishlarda foydalanishdan olinadigan daromadlar. Ushbu daromadlarga transport vositalaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanishdan, ularni ijaraga berishdan yoki har qanday boshqa shakllarda foydalanishdan, shu jumladan, konteynerlardan, konteynerlarni tashish uchun treylerlar va qo‘shimcha uskunalardan foydalanish, ularni saqlash yoki ijaraga berishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar) kiradi. Ayrim hollarda fraxt (shartnoma shartlaridan kelib chiqib) yukni ortish, qayta yuklash, tushirish va joylashtirish uchun to‘lovlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunda, agar jo‘natish punkti yoki tayin etilgan punkt

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo‘lsa, tashish xalqaro tashish deb hisoblanadi, bundan faqat O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan punktlar o‘rtasida amalga oshiriladigan tashish mustasno;

10) xalqaro tashishlarda va O‘zbekiston Respublikasi hududidagi tashishlarda transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar. Bunda yuk jo‘natuvchidan (yukni qabul qilib oluvchidan) olingan summa bilan yuk tashuvchiga to‘lanishi kerak bo‘lgan, yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bilan tasdiqlangan summa o‘rtasidagi farq sifatida hisoblangan haq summasi soliq solinadigan daromad hisoblanadi. Yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga norezidentning fraxtdan olinadigan daromadlariga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘langan umumiy summaga soliq solinadi;

11) O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarimalar hamda penya;

11¹) tekinga olingan mol-mulk;

12) O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olgan daromadlariga quyidagilar kirmaydi:

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining, faqat shu norezident nomidan amalga oshiriladigan va faqat tovarlar xarid qilish (olish), shuningdek, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish bilan bog‘liq tashqi savdo operatsiyalari (shu jumladan, tovar ayirboshlash operatsiyalari) bo‘yicha olingan daromadlari;

banklarning – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining

vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishdan, shuningdek, xalqaro to'lov kartochkalari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar bundan mustasno.

Daromadni to'lash deganda naqd pulli va (yoki) naqd pulsiz shaklda pulni, qimmatli qog'ozlarni, ishtirok etishdagi ulushni, tovarlarni, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar to'lash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti oldidagi qarzdorlikni uzish hisobiga amalga oshiriladigan, daromad oluvchining – O'zbekiston Respublikasi norezidentining qarzi talabini hisobdan chiqarish yoki hisobga olish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga soliq solish mazkur O'zbekiston Respublikasi norezidenti o'z daromadlarini uchinchi shaxslar, boshqa davlatlardagi o'z bo'linmalari foydasiga va boshqa maqsadlarda tasarruf etishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lov manbayida ushlab qolishni O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi va O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentiga daromad to'lovchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari amalga oshirishlari shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi daromadni O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lash sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Sugʻurta badallaridan olingan daromadlar boʻyicha soliqlarning toʻlangan summalari sugʻurta hodisasi yuz berganda qayta koʻrib chiqilishi mumkin.

Sugʻurta hodisasi yuz berganda sugʻurta uchun toʻlovga doir xarajatlar toʻlov manbayida yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi ushlab qolingani va byudjetga oʻtkazilgan sugʻurtalovchining – Oʻzbekiston Respublikasi norezidentining daromadlarini kamaytirish uchun hisobga olinadi. Mazkur qayta hisob-kitobni Oʻzbekiston Respublikasi norezidentiga daromadni toʻlagan va toʻlov manbayida soliqni ushlab qolgan yuridik shaxs bajarishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasining norezidentiga toʻlov manbayida yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi ushlab qolinmagan holda daromadni toʻlash Soliq kodeksning 20-moddasiga muvofiq doimiy muassasani tashkil etishga olib keladigan faoliyatdan olinadigan daromadlar boʻyicha – Oʻzbekiston Respublikasining norezidenti faoliyatni Oʻzbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi sifatida amalga oshirishi va davlat soliq xizmati organida hisobda turganligi toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan maʼlumotnoma mavjud boʻlgan taqdirda amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasining norezidentiga daromadlarni toʻlash toʻlov manbayida Oʻzbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan taqdim etilgan, chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan, Oʻzbekiston Respublikasi qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega boʻlsa, oʻsha davlatda mazkur shaxsning rezidentligi borligi faktini tasdiqlovchi hujjat mavjud boʻlgan taqdirda ham Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq toʻlov manbayida yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi ushlab qolinmagan yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻining pasaytirilgan stavkasi

qo‘llanilgan holda amalga oshiriladi.

Daromadlar xorijiy banklarga va xalqaro banklararo telekommunikatsiya tizimlariga to‘langan taqdirda, qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnoma mavjud bo‘lsa, o‘sha davlatda xorijiy bankning yoki xalqaro banklararo telekommunikatsiya tizimining doimiy joylashgan yeri mavjudligi faktini tasdiqlash, agar ushbu doimiy joylashilgan yer hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot manbalaridagi ma’lumotlar bilan tasdiqlangan bo‘lsa, talab qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan to‘langan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlaridan ushlab qolingan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i byudjetga to‘langan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq Soliq kodeksning 38-moddasida belgilangan soliq majburiyatlari bo‘yicha da’vo muddati ichida to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini byudjetdan qaytarish huquqiga ega. Bunda O‘zbekiston Respublikasining norezidenti O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shakldagi soliqni qaytarish uchun ariza;

daromadni to‘lash paytida O‘zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O‘zbekiston Respublikasi soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo‘lgan mamlakatda doimiy joylashgan joyiga (rezidentligiga) ega bo‘lganligini tasdiqlovchi, tegishli chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan rasmiy tasdiqnomaga;

O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga qaysi kontrakt yoki boshqa hujjatga muvofiq daromad to‘langan bo‘lsa, o‘sha kontrakt yoki boshqa hujjatning nusxalari, shuningdek, daromadning to‘langanligini va qaytarilishi lozim bo‘lgan,

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini ushlab qolingan va byudjetga o'tkazilganligini tasdiqlovchi to'lov hujjatlarining nusxalari.

Agar Soliq kodeksi 155-moddasi o'n birinchi va o'n to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan hujjatlar, shuningdek, Soliq kodeksning 155¹-moddasida ko'rsatilgan tasdiqlovchi hujjatlar chet tilida tuzilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organi ularning notarial tartibda tasdiqlangan davlat tilidagi tarjimasini talab etishga haqli. Bunda hujjatlarni taqdim etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ular konsullik orqali legallashtirilgan yoki apostil qo'yilgan holda amalga oshiriladi.

Ortiqcha hisoblangan va to'langan soliqni qaytarish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan qaytarish to'g'risida chiqarilgan qaror asosida, ariza berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida Soliq kodeksning 57-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti mazkur shaxsning rezidentligini tasdiqlovchi hujjatda ko'rsatilgan vaqt davri mobaynida O'zbekiston Respublikasi tomonidan qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnoma tuzilgan bo'lsa, o'sha davlatning rezidenti deb e'tirof etiladi. Agar rezidentlikni tasdiqlovchi hujjatda rezidentlik vaqtining davri ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu hujjat berilgan kalendar yil davomida O'zbekiston Respublikasi norezidenti O'zbekiston Respublikasi tomonidan qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnoma tuzilgan bo'lsa, o'sha davlatning rezidenti, deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olgan daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yuridik shaxslarning – O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining ustav kapi-

talidagi aksiyalari, ulushlari (paylari), ko'chmas mulk bir yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan boshqa yuridik shaxsga – O'zbekiston Respublikasi norezidentiga, jismoniy shaxsga – O'zbekiston Respublikasi norezidentiga yoki rezidentiga realizatsiya qilingan taqdirda qo'llaniladi.

Yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini ushlab qolish va to'lash majburiyati soliq agenti, deb e'tirof etiladigan daromadni to'lash manbayiga (mol-mulkni sotib oluvchining zimmasiga) yuklatiladi.

Mol-mulkni realizatsiya qiluvchi yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasi norezidenti soliq agentiga mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalarini (mavjud bo'lsa) taqdim etishi shart. Taqdim etilgan hujjatlar asosida soliq agenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasini SK-155-moddasi uchinchi qismining 3-bandigamuvofiq aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va SK-160-moddasi ning 4-bandida belgilangan 20 % stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi hamda ushlab qoladi.

Soliq agenti olinayotgan mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi ro'yxatdan o'tkazilguniga (rasmiylashtirilguniga) qadar O'zbekiston Respublikasi norezidentining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olgan daromatlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobini:

- yuridik shaxsning – O'zbekiston Respublikasi rezidentining ustav kapitalidagi aksiyalari, ulushlari (paylari) realizatsiya qilinganda – ushbu yuridik shaxs ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga;

- ko'chmas mulk realizatsiya qilinganda – ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha

mustaqil ravishda yoki vakolatli shaxs orqali taqdim etishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobi O‘zbekiston Respublikasi norezidenti qaysi valyutada daromad olayotgan bo‘lsa, o‘sha valyutada tuziladi. Hisob-kitobga mol-mulk oldi-sotdi shartnomasining ko‘chirma nusxasi va sotuvchi tomonidan taqdim etilgan mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalari (mavjud bo‘lsa) ilova qilinadi. Agar mol-mulkni olish qiymati hisob-kitob tuzilgan valyutada ifodalanmagan bo‘lsa, u holda ushbu qiymat mol-mulkni olish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob tuzilgan valyutada qayta hisoblab chiqariladi. Davlat soliq xizmati organlari hisob-kitob taqdim etilgan sanadan e‘tiboran uch ish kuni ichida soliq agenti yoki uning vakolatli shaxsi nomiga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitob taqdim etilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisoblangan milliy valyutadagi summasi ko‘rsatilgan to‘lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi olingan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi ro‘yxatdan o‘tkazilguniga (rasmiylashtirilguniga) qadar byudjetga to‘lanishi lozim.

Davlat soliq xizmati organlari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat asosida soliq agentiga yoki uning vakolatli shaxsiga olingan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (rasmiylashtiruvchi) organga taqdim etiladigan soliq to‘langanligi to‘g‘risida ma’lumotnoma beradi.

Olinadigan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (rasmiylashtiruvchi) organlar mulk huquqini soliq to‘langanligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma taqdim etilgan taqdirdagina ro‘yxatdan o‘tkazishni (rasmiylashtirishni) amalga

oshiradi.

Aksiyalar O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlarining birja bozori va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilinganda qo'llanilmaydi.

Aksiyalar qimmatli qog'ozlarning birja bozori va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilinganda O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlari bozoridagi hisob-kitob-kliring palatasi soliq agenti deb e'tirof etiladi.

Aksiyalarning oldi-sotdisi bo'yicha amalga oshirilgan bitimlarga doir savdo yakunlari reyestri asosida soliq agenti hisob-kitob-kliring operatsiyalarini amalga oshirish vaqtida sotuvchining pul mablag'laridan realizatsiya qilingan aksiyalarning qiymati va 20 % belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini ushlab qoladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi sotuvchining hisobiga aksiyalar qiymatini to'lash hisobidan pul mablag'larini o'tkazish bilan bir vaqtda to'lov valyutasida byudjetga o'tkaziladi. Soliq agenti bitim summasi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ushlab qolingani summasi to'g'risida aksiyalarni sotuvchining talabiga ko'ra ma'lumotnoma berishi shart.

Soliq agenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobini taqdim etish muddatlarida soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ushlab qolingani aksiyalar oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar reestrini taqdim etadi.

Aksiyalarni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda sotuvchi ortiqcha to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini qaytarish to'g'risidagi arizani soliq agentining soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat

soliq xizmati organlariga taqdim etish huquqiga ega. Arizaga aksiyalarni realizatsiya qilish va olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalari hamda soliq agenti tomonidan berilgan bitim summasi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ushlab qolingani summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomaning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ortiqcha to‘langan summasini qaytarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan norezidentning daromadi hech qanday chegirmasiz daromad manbayida quyidagi stavkalarda soliqqa tortiladi:

- dividendlar va foizlardan – **10 foiz**;

- sug‘urta mukofotlari, sug‘urtalash va qayta sug‘urtalash – **10 foiz**;

- O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar bilan Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiya va transport xizmati (fraxta daromadi) – **6 foiz**;

royalti, ijaradaromadlari, xizmat ko‘rsatish, shu jumlada, boshqaruv xizmati, maslahatlar va boshqa daromadlar – **20 foiz**.

Soliqqa tortish maqsadida dividend, deb aksiyalardan va boshqa xo‘jaliklar subyektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlari tushuniladi.

Foizlarga esa deposit qo‘yilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qog‘ozlardan olgan daromadlar kiradi.

Yuridik shaxslar tomonidan olinadigan dividend tarzidagi daromadlarning kapitallashuvga, investitsiyalarga, avval olingan kreditlar uchun hisob-kitob qilishga yo‘naltirilgan qismi soliq solishdan ozod etiladi.

Mazkur imtiyoz O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 10-fevralda ro‘yxat raqami **1901-son bilan** ro‘yxatdan o‘tkazilgan nizomga asosan olib boriladi.

Manbayida soliqqa tortilgan va dividend, foiz olgan norezident jami daromadidan tegishli tartibda belgilangan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda chegirma olish huquqiga ega bo‘ladi.

3.10. Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni byudjetga to‘lash muddatlari

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning **har choragida hisobot choragidan keyingi oying 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobida byudjetga to‘lanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda ko‘rsatiladi. Faoliyat kalendar yil tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin **bir oydan kechiktirmasdan** taqdim etilishi shart.

Soliq to'lash tartibi

Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini joriy to'lovlarni kiritish orqali to'laydilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining **10-kunigacha** davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning **10-kunidan kechiktirmay** hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining **uchdan bir qismi** miqdorida to'lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining **ikki yuz baravaridan kam** miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan **10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda**, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblangan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, shuningdek, sof foydadan olinadigan soliqni joriy to'lovlarni to'lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan **keyin bir oy ichida to'laydi**.

Yuridik shaxslardan to'lov manbayida olinadigan foyda solig'i belgilangan stavkalarni chegirmalarni amalga oshirmasdan to'lanadigan daromad summasiga nisbatan qo'llash orqali hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslardan to'lov manbayida olinadigan foyda solig'ini yuridik shaxslar quyidagilarni to'lash paytida ushlab qolishlari shart:

- dividendlar va foizlarni;
- O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga daromadlarni.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi to'lov manbayida ushlab qolinmagan yoki O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnoma qoidalarining g'ayriqonuniy tarzda qo'llanilishi mazkur soliq ushlab qolinmasligiga yoxud to'liq ushlab qolinmasligiga sabab bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi rezidenti yoki O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ushlab qolinmagan summasini va u bilan bog'liq penya summasini qonun hujjatlariga muvofiq byudjetga kiritishi shart.

Yuqorida ko'rsatilgan yuridik shaxslar:

1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga dividendlar, foizlar va to'lovlarni to'lash sanasidan kechiktirmay byudjetga o'tkazishi. Banklar O'zbekiston Respublikasining norezidentlariga amalga oshirilgan to'lovlar (dividendlar va foizlar to'lovidan tashqari) bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lov amalga oshirilgan oydan keyingi oying beshinchi kunidan kechiktirmay byudjetga o'tkazadi;

2) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobini davlat soliq xizmati organlariga to‘lov amalga oshirilgan hisobot davri tugagandan keyin yigirma besh kundan kechiktirmay taqdim etishi;

3) davlat soliq xizmati organlariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi, bu shaxslarning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, ularning nomi, daromadining umumiy summasi va soliq davri uchun ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining umumiy summasi ko‘rsatilgan ma‘lumotnomani soliq davri tugaganidan keyin **o‘ttiz kun ichida** taqdim etishi;

4) daromad oluvchi shaxslarga ularning talabiga binoan, daromad summasi va soliq davri uchun ushlab qolingani soliqning umumiy summasi haqida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda ma‘lumotnoma taqdim etishi shart.

Mavzuga doir masalalar:

1-MASALA. Umumbelgilangan tartibda soliq to‘lovchi “A” korxonaning quyidagi ma‘lumotlarga asosan foyda solig‘ini hisoblang (ma‘lumotlar ming so‘m hisobida keltirilgan).

1. Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum – 3192
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i – 688
3. Aksiz solig‘i – 500
4. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi – 2695
5. Sotish xarajatlari – 35
6. Ma‘muriy xarajatlar – 83
7. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad – 35
8. Olingan dividendlar – 75
9. Valyuta kursi bo‘yicha musbat farq - 29
10. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar – 15

11. Favqulotda foyda – 5
12. Qayta qo‘shiladigan xarajatlari - 312
13. Soliq imtiyozi - 100

Yechilishi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblash uchun korxonaning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobotidan foydalaniladi. Bunda soliq obyektini aniqlash quyidagi tartibda olib boriladi.

$$\mathbf{YaF} = \mathbf{SST} - \mathbf{IT} = 3192 - 2695 = 497$$

(bu yerda, YaF - yalpi foyda; SST - sotishdan olingan sof tushum; IT- sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi).

$$\mathbf{AFF} = \mathbf{YaF} - \mathbf{DX} + \mathbf{BD} - \mathbf{BZ} = 497 - 118 + 35 = 414$$

(bu yerda, AFF - asosiy faoliyatdan olingan foyda; DX - davr xarajatlari; BD - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar; BZ - asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar).

$$\mathbf{UF} = \mathbf{AFF} + \mathbf{MD} - \mathbf{MX} = 414 + 104 - 15 = 503$$

(bu yerda, UF - umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda; MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar; MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari).

$$\mathbf{STOF} = \mathbf{UF} + \mathbf{FF} - \mathbf{FZ} = 503 + 5 = 508$$

(bu yerda, STOF- soliq to‘langungacha olingan foyda; FF-favqulotda foyda; FZ- favqulotda zarar).

2. STOFga xarajatlarining farqi tiklanadi, ya’ni bizning misolimizda:

$$508 + 312 = 820 \text{ ming so‘mni tashkil etadi.}$$

Ushbu summadan aksiyalar va qimmatli qog‘ozlardan dividendlar (foizlar) to‘lov manbayida soliqqa tortilganligi bois chegiriladi, ya’ni:

$$820 - 75 = 745 \text{ ming so‘mni tashkil etadi.}$$

Shundan soliq bo‘yicha imtiyozlar chegiriladi, ya’ni

$$745 - 100 = 645 \text{ ming so‘mni tashkil etadi.}$$

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra, 2017-yil uchun

foyda solig‘i stavkasi 7,5 foizligini hisobga olgan holda soliq summasi:

$$D(f)s = 645 \times 7,5/100 = 51,06 \text{ ming so‘mni tashkil etadi.}$$

2-MASALA.

Quyidagi ma‘lumotlar asosida foyda solig‘ini hisoblang (ming so‘m):

1. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum – 3192
- shundan eksport faoliyatidan tushum – 670
2. Soliq to‘langunga qadar olingan foyda – 508
3. Olingan dividendlar – 75
4. Soliq bo‘yicha imtiyozlar – 100

Yechilishi:

1. Respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxslarning erkin almashtiriladigan valyutadagi eksportiga imtiyozli stavkalar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori 8-ilovasiga ko‘ra foyda solig‘i stavkasi 7,5 % belgilangan: mahsulot (tovar) exporti umumiy realizatsiya hajmida 15 foizdan 30 foizgacha bo‘lganda belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi, agar 30 foiz va undan yuqori bo‘lganda belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

Demak, imtiyozli stavkalarining qaysi birini qo‘llashni aniqlash uchun eksport mahsulotining umumiy sotish hajmidagi salmog‘i aniqlanadi, ya‘ni:

$$(670 / 3192) \times 100 = 20,9$$

Ushbu misolda eksport mahsulotining umumiy sotish hajmidagi salmog‘i 20,9 foizni tashkil etadi. Bunday holda belgilangan foyda solig‘i stavkasi 30 foizga kamayadi, ya‘ni:

$8 \times 30 / 100 = 2,4$ ga, demak korxonada foyda solig‘ini 5.3 foizda (7,5 – 2,2) to‘laydi.

$$2. 508 + 312 - 75 - 100 = 645 \text{ ming so‘m.}$$

$$645 \times 5,36 / 100 = 36,12 \text{ ming so‘m.}$$

3-MASALA.

Yuridik shaxs 7540 ming soʻmga 5 ta kompyuterni maktabga homiylik yordam koʻrsatish uchun sotib oldi. Ushbu davrda soliqqa tortiladigan foyda 403640 ming soʻmni tashkil etdi.

Soliqqa tortiladigan foyda 8072,8 ming soʻmdan (403640 ming soʻm x 2 %) yuqori boʻlmasligi kerak.

Maktabga koʻrsatilgan yordam summasi 7540 ming soʻmni tashkil etar ekan, u holda soliqqa tortiladigan bazadan yordam summasini toʻliq cherish mumkin. Chegirish natijasida soliqqa tortiladigan foyda quyidagini tashkil etdi.

$403640 \text{ ming soʻm} - 7540 \text{ ming soʻm} = 396100 \text{ ming soʻm}.$

Agar maktabga koʻrsatilgan yordam 12200 ming soʻmga teng boʻlganda, soliqqa tortiladigan foyda 8072,8 ming soʻmga kamaytirilar edi. Oʻrtasidagi 4127,2 ming soʻm (12200 - 8072,8) farq soliqqa tortiladigan foydadan kamaytirilmaydi.

Mavzuga doir test savollari:

1. 2017-yilda yuridik shaxslar foyda soligʻi stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

- A) 7,5*;
- B) 35;
- C) 15;
- D) 9.

2. 2017-yil tijorat banklari uchun foyda soligʻi stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

- A) 9;
- B) 35;
- C) 15*;
- D) 10.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1166-sonli qaroriga muvofiq tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi 40

%dan 50 %gacha tashkil qilsa foyda solig'ining imtiyozli stavkasi amaldagi stavkaga nisbatan necha foiz bo'ladi?

- A) 80;
- B) 70;
- C) 75*;
- D) 50.

4. Yuridik shaxslarning foyda solig'i quyidagi summaga kamaytiriladi:

A) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalariga xayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning 2 %dan ko'p bo'lmagan miqdorda;*

B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

C) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalariga xayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning 1 %dan ko'p bo'lmagan miqdorda;

D) A va B javoblar to'g'ri*

5. Jami realizatsiya ulushida eksportning ulushi 26 % tashkil etsa foyda solig'i stavkasi

- A) 20 %ga pasaytiriladi;
- B) 30 %ga pasaytiriladi;*
- C) 40 %ga pasaytiriladi;
- D) 50 %ga pasaytiriladi

6. Qaysi korxonalar foyda solig'i bo'yicha joriy (avans) to'lovlar to'lamaydilar?

A) Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining uch yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar;

B) Hisobot davrida taxmin qilinayotgan yalpi tushum eng kam ish haqining yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan

tijorat banklari;

C) Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar*;

D) To'g'ri javob yo'q.

7. Jami realizatsiya ulushida eksportning ulushi 34 % tashkil etsa foyda solig'i stavkasi

A) 20 %ga pasaytiriladi;

B) 30 %ga pasaytiriladi;

C) 40 %ga pasaytiriladi;

D) 50 %ga pasaytiriladi*.

8. Dividendlar va foizlardan 2017-yil uchun necha foiz stavkada soliq undiriladi?

A. Bir yilgacha tortilmaydi;

B. Uch yilgacha tortilmaydi;

C. 15 foiz;

D. 10 foiz*.

9. Tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish qanday holatlarda amalga oshiriladi?

A. Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda; bitim shartlari o'zgarganda; baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda; bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda*;

B. Soliq kodeksining 132 moddasiga asosan;

C. Qisman amalga oshiriladi;

D. Avvaldan kelishib olingan miqdorda amalga oshiriladi.

10. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar kimlar?

A. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va jismoniy shaxslar;

B. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari*;

C. O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va notijorat tashkilotlari;

D. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari va notijorat tashkilotlari.

11. Kimlar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lovchilari bo‘lmaydi?

A. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o‘tgan yuridik shaxslar, umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchi yuridik shaxslar;

B. Umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchi yuridik shaxslar, notijorat tashkilotlari;

C. Fermer xo‘jaliklari, ishlab chiqarish korxonalarini;

D. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o‘tgan yuridik shaxslar, notijorat tashkilotlari.*.

12. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining obyekti qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlarining tushumi;

B. O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlarining daromadi;

C. O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi;*

D. O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlarining xarajatlari.

13. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘lash muddati

A. Har oyning 10-kunidan kechiktirmay*;

B. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay;

C. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

D. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunidan

kechiktirmay .

14. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobi qaysi muddatda DSiga taqdim etiladi.

A. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay;

B. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

C. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay*;

D. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Foyda solig‘i O‘zbekistonda qachon joriy qilingan?
2. Qanday yuridik shaxslar foyda solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadi?
3. Rezident va norezidentlar kim va ular qandan tartibda soliqqa tortiladi?
4. Soliq obyektini va soliqqa tortish bazasi qanday aniqlanadi?
5. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtirilgan?
6. Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalar uchun qanday stavkalar belgilangan?
7. Qanday yuridik shaxslar foyda solig‘idan to‘liq ozod etiladi?
8. Yuridik shaxslarning qanday foydasi yuridik shaxslar foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi?
9. Yuridik shaxslarning qanday xarajatlari soliqqa tortiladigan daromadlardan kamaytiriladi?
10. Foyda solig‘i bo‘yicha 2017–2020-yillarda qanday soliq imtiyozlari berildi?
11. Foyda solig‘ini hisoblashda 2015–2017-yildan qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi?

4-BOB: OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG‘I

4.1. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i to‘lovchilari

Tayanch so‘z va iboralar: *foyda solig‘i, resident va norezident, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushum, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, erkin industrial-iqtisodiy zona, foyda yoki zarar, soliq to‘languncha olingan foyda, moliyaviy hisobot, imtiyozlar, joriy to‘lovlar, sof foyda, soliq hisoboti.*

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchilardir.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchisi hisoblanadilar.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchilar bo‘lmaydi:

-notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan daromadlar, shuningdek, Soliq kodeksining 132-moddasi birinchi qismining 2, 3 va 15-bandlarida ko‘rsatilgan daromadlar olinganda notijorat tashkilotlar mazkur daromadlarga taalluqli qism bo‘yicha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchilar bo‘ladi. Bunda Soliq kodeksning 132-moddasida ko‘rsatilgan boshqa daromadlarni olish tadbirkorlik faoliyati sifatida


qaralmaydi;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Notijorat tashkilotlari, deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i mahalliy soliq hisoblanib, davlat byudjeti daromadlarining 2016-yilgi prognoz ko'rsatkichlarida 665,8 mln so'm rejalashtirilgan.

Notijorat tashkilotlariga byudjet tashkilotlari, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.



4.1.-rasm. 2011–2017-yillarida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i²⁵

25 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar, deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balans va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan alohida bo'linmalar ham tushuniladi.

4.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i 2011-yilda 2,2 foizni tashkil etgani holda, 2017-yilda 1,9 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bu holat soliq to'lovchilar sonining kamayishi bilan izohlanadi.

4.2. Soliq solish obykti, bazasi va soliq stavkalari

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish obykti va soliq solinadigan bazadir. Bunda soliq solinadigan baza quyidagi summalarga kamaytiriladi:

- olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar summasiga;
- qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun – sof qo'shimcha foyda summasiga;
- tekin olingan pul mablag'lari summasiga, agar ularni o'tkazib berish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa;
- joriy soliq davrida foydalanilganda xarajatlar vujudga kelmaydigan byudjetdan ajratiladigan subsidiyalar summasiga.
- sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar summasiga;
- byudjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi qarzning qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summasiga.
- xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foyda summasiga

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2699-sonli qarori bilan soliq solish obyektining **8 foizi** miqdorida belgilangan.

4.3.Soliqni hisoblash, hisobotlarni taqdim etish va byudjetga to'lash tartiblari

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliq davri - kalendar yildir. Yil choragi hisobot davridir.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Soliq to'lovchilar hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha hisobot davrining birinchi oyi **10-kuniga qadar** soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining **uchdan bir qismi miqdorida har oyning**

10-kunidan kechiktirmay to‘lanadi.

Quyidagilar joriy to‘lovlarni to‘lamaydi:

Hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo‘lgan soliq to‘lovchilar joriy to‘lovlarni to‘lamaydi.

Taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining summasi hisobot davri uchun byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i summasiga nisbatan **10 foizdan ko‘proq** kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarni obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan **yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini **to‘lash** mazkur soliq bo‘yicha **hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay** amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4453-sonli farmoniga muvofiq, **2013-yil 1-yanvardan boshlab** quyidagilar belgilandi:

-yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblari birlashtirilib unifikatsiya qilingan holda

Davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi;

-yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlari bo'yicha joriy to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotnoma birlashtirilib unifikatsiya qilingan holda Davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasining **2016-yil 27-dekabr**dagi **O'RQ-417-sonli qonuniga** muvofiq Soliq kodeksining 300-moddasiga kiritilgan qo'shimchaga asosan, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar summasini kamaytirib ko'rsatuvchi soliq to'lovchilarga javobgarlik choralari belgilandi. Bunda joriy to'lovlar summasi bilan hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi o'rtasidagi farq 10 foizdan ko'proqni tashkil etgan hollarda davlat soliq xizmati organlari tomonidan penya hisoblanadi. Joriy to'lovlarni to'lashni nazarda tutuvchi barcha soliqlar bo'yicha xuddi shunday norma belgilandi.

4.4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3594-sonli farmoniga asosan:

2005-yilning 1-iyulidan boshlab to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarini asosiy faoliyati bo'yicha foyda solig'i, mulk solig'i, **obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i**, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovi to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilindi. To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi

quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

-300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga;

-3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha - 5 yil muddatga;

-10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrda "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PQ-2454**-sonli qaroriga muvofiq, PF-3594-sonli farmoniga asosan berilgan imtiyozlar tabaqalashtirilgan tarzda xorijiy investorning ulushi ustav kapitalining **15 foizidan 33 foizigacha** miqdorni tashkil etadigan aksiyadorlik jamiyatlariga tatbiq etilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PF-4853** -sonli farmoniga muvofiq, **2017-yildan «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Angren» va «Jizzax» maxsus industrial zonalari nomini birxillashtirish maqsadida ularni «Navoiy», «Angren» va «Jizzax» erkin iqtisodiy zonalar** deb atash belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-sentabrdagi R-4351-sonli farmoyishiga muvofiq tashkil etilgan Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tahlil qilish va ishlab chiqish komissiyasining erkin iqtisodiy zonalar hududida amalda qo'llanilayotgan soliq va bojxona rejimlarini birxillashtirish hamda ushbu zonalar ishtirokchilarining quyidagilardan:

➤ yer solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslar mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi,

shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta’mir olib borish va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalaridan;

➤ o‘zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinadigan uskunalar, xomashyo, material va butlovchi buyumlar, shuningdek, mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha olib kelinadigan qurilish materiallari uchun bojxona to‘lovlaridan ozod etilishi belgilandi:

Bunda qayd etilgan bojxona imtiyozlari qo‘llangan holda olib kelingan uskunalar, xomashyo, material va butlovchi buyumlar sotilgan yoki beg‘araz berilgan hollarda, ular olib kelingan paytdan boshlab uch yil davomida bojxona to‘lovlari qonunchilikda belgilangan tartibda to‘liq hajmda undirilishi belgilandi.

Farmonga asosan berilgan imtiyozlar quyidagi kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha ozod etiladi jumladan:

❖ 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 3 yil muddatga;

❖ 3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 5 yil muddatga;

❖ 5 million AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 7 yil muddatga;

❖ 10 million va undan ko‘p AQSH dollari hajmidagi investitsiyalar so‘nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig‘i va yagona soliq to‘lovi stavkalari qo‘llangan holda – 10 yil muddatga beriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi **PF-4931-sonli farmoniga asosan** “Urgut,

G'ijduvon, Qo'qon va Hazorasp erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etilib, ushbu zonalar qatnashchilariga ham yuqorida qayd qilingan “Navoiy”, “Angren” va “Jizzax” erkin iqtisodiy zonalarini bo'yicha berilgan **soliq imtiyozlari va yengilliklari tatbiq etilishi** belgilandi.

Yaratilgan sharoitlar va soliq imtiyozlari zamonaviy yuqori samaraga ega uskuna va texnika, texnologik liniya va modullar, innovatsion texnologiyalar, xorijiy sarmoyalarni to'g'ridan to'g'ri jalb qilish hisobiga jahon bozorlarida raqobatbardosh, keng turdagi yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni kengaytirishga ko'maklashishi kutilmoqda.

Mavzuga doir test savollari:

1. Quyidagi yuridik shaxslardan qaysi biri obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'laydi.

- A. Ulgurji va chakana savdo korxonalarini;
- B. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar *;
- C. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar
- D. Notijorat tashkilotlari.

2. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliqqa tortish obyekti ko'rsating.

- A. Mahsulot sotishdan tushgan tushum, qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda;
- B. Foyda solig'i to'langandan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qolgan foyda *;
- C. Muomala xarajatlari;
- D. Asosiy faoliyatdan olingan foyda.

3. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliq solish bazasini aniqlang?

- A. Mahsulot sotishdan tushgan tushum;

B. Foyda solig‘i to‘langandan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qolgan foyda;

C. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda *;

D. Korxonada daromadi.

4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining stavkasini aniqlang.

A. 8 %*;

B. 10 %;

C. 16 %;

D. 12 %.

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘lash muddati?

A. Har oyning 10-kunidan kechiktirmay*;

B. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay;

C. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

D. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay.

6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘lashda qancha miqdorda to‘lanadi?

A. uchdan bir qismi miqdorida *;

B. to‘rttdan bir qismi miqdorida;

C. o‘n ikkidan bir qismi miqdorida;

D. teng qismi miqdorida.

7. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i qanday soliq turiga kiradi?

A. Mahalliy soliq*;

B. Umumdavlat soliq;

C. Resursdan olinadigan soliq;

D. Oborotdan olinadigan soliq.

8. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining hisob-kitobi qaysi muddatda DSIGa taqdim etiladi.

A. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay;

B. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

C. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay*;

D. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay.

9. Qaysi korxonalar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlar to‘lamaydilar?

A. Soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining uch yuz baravaridan ko‘p miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar;

B. Hisobot davrida taxmin qilinayotgan yalpi tushum eng kam ish haqining yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan tijorat banklari;

C. Soliq solinadigan baza eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha bo‘lgan yuridik shaxslar*;

D. Moliyaviy faoliyatdan olingan foydasi eng kam ish haqining besh yuz baravaridan ko‘p bo‘lsa.

10. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lash muddatini ko‘rsating.

A. Har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay;

B. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

C. Hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay *;

D. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Qanday yuridik shaxslar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining to‘lovchilari hisoblanishadi?

2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?

3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i stavkasi necha foizni tashkil etadi?

4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i qanday tartibda to‘lanadi?

5. Joriy to‘lovlar qachon amalga oshiriladi?

6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha qanday imtiyozlar berilgan?

7. Soliq hisobotlari qachon soliq organlariga topshiriladi?

8. Soliqni byudjetga to‘lash muddatlari qachon amalga oshiriladi?

9. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha imtiyozlar?

10. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha imtiyozlar?

5-BOB: AKSIZ SOLIG‘I

Tayanch so‘z va iboralar: *aksiz solig‘i, aksiz solig‘ini to‘lovchilari, aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, aksizlanadigan mahsulot, import qilinayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar, dal, tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti, realizatsiya qilingan joyi, hisobvara-q-faktura, import qilingan tovarlar, eksport qilingan tovarlar, stavka, soliq hisoboti.*

5.1. Aksiz solig‘ining joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Bilvosita soliqlar tovar va xizmatlar narxlariga pirovard natijada iste‘molchi tomonidan to‘lanadigan ustamadir. Shunday qilib, bilvosita soliqlarni o‘z daromadlarini tovar yoki xizmatlar sotib olish maqsadlariga sarflaydigan shaxslargina to‘laydilar. Bilvosita soliqlarning bojxona bojlari, aksizlar hamda tovar va xizmatlar iste‘moliga solinadigan boshqa soliqlar; bitimlarga solinadigan soliqlar; korxonalarining ijtimoiy sugurta jamg‘armalariga to‘laydigan badallari kabi to‘rt turi bo‘ladi. Bojxona bojlari tovarlar importi, eksporti va tranzitidan undiriladigan bilvosita soliqlardir. Rivojlangan mamlakatlarda asosan bojxona import bojlari qo‘llaniladi.

Aksiz so‘zi - fransuz tilida kesib tashlash, degan ma‘noni anglatadi. Aksiz solig‘i tovarlar narxi ustiga qo‘yiladi va sotilganda shu qismi kesib olinib, byudjetga o‘tkaziladi. Asosiy iste‘mol tovarlari (spirtli ichimliklar, pivo, tamaki mahsulotlari, yengil avtomobil va hokazolar)ning narxlariga ustama bo‘lgan aksizlar bilvosita soliq solishning asosiy shaklidir.

O‘zbekistonda aksiz solig‘i 1992-yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birgalikda oborot solig‘i va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga joriy qilingan. Uning qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Aksiz solig‘i individual xarakterga ega bo‘lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.


Aksiz solig‘ining tavsifiy belgilari va asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

➤ Aksiz solig‘i jamiyat uchun iste‘mol qilish zarur bo‘lmagan tovarlar(alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari) ga ko‘proq qo‘yiladi;

➤ Aksiz solig‘i tovarlar narxi ustiga qo‘shimcha ravishda qo‘yiladi va mahsulot ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligiga bog‘liq ham emas, ta‘sir ham etmaydi.

➤ Aksiz solig‘ini haqiqiy to‘lovchilari bo‘lib iste‘molchilar hisoblanadi. Soliq yuki korxonaga emas iste‘molchi zimmasiga tushadi.

Aksiz solig‘i qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo‘natilgan tovarlar qiymatining bir qismini bilvosita soliq sifatida byudjetga undirish shakli hisoblanadi. Aksiz solig‘i Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o‘rin egallaydi, jumladan, davlat byudjetining solikli daromadlari tarkibida 2007-yilda 18 foizni, 2008-yilda 16,5 foizni, 2009-yilda 14,4 foizni, 2010-yilda 16,7 foizni tashkil etgani holda 2011-yilgi davlat byudjeti daromadlarida uning ulushi 15,3 foizni, 2012-yilda 15,1 foizni, 2013-yilda 14,8 foizni, 2014-yilda 14,9 foizni, 2015-yilda 16,3 foizni, 2016-yilda 16,0 foizni va 2017-yilda esa 15,5 foizni tashkil etishi prognozlashtirilgan.



5.1-rasm. Aksiz solig‘ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi²⁶

Aksiz solig‘ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushining pasayish tendensiyaga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, Hukumat Qaroriga asosan “GM Uzbekistan” aksionerlik jamiyatining ishlab chiqarayotgan avtomobillari (Lasetti, Neksiya, Damas, Matiz va boshqalar), billurdan qilingan mahsulotlar, mebel, video va audioapparatura hamda kumushdan yasalgan pichoq va sanchqilarga hisoblangan aksiz soliqlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, iste’mol tovarlarining assortimentini ko‘paytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish uchun korxonalarining o‘z ixtiyorlarida qoldiriladigan bo‘ldi. Shuning hisobiga hozirgi vaqtda aksiz solig‘ining ulushi davlat byudjeti daromadlari tarkibida kam salmoqni egallamoqda. Aksiz solig‘i to‘liq respublika byudjetining daromadlar qismiga kelib tushadi va uning soliq yuki iste’molchilar zimmasida bo‘ladi.

5.2. Aksiz solig‘i to‘lovchilari, soliq obyekt va bazasi

Aksiz solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib, mulk shaklidan va soliqqa tortishning qanday tartibi o‘rnatilganligidan qat‘iy nazar aksizosti tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari oddiy shirkat aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarganda oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi aksiz solig‘ini to‘lovchi bo‘lib hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar, deganda mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo‘lgan va o‘z majburiyatlari bo‘yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balans va hisob-kitob varag‘iga ega bo‘lgan alohida korxonalar tushuniladi.

Soliq kodeksining 230-moddasiga ko‘ra quyidagi operatsiyalar aksiz solig‘i solinadigan obyekt hisoblanadi:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

-tovarni sotish (jo‘natish);

-garov bilan ta‘minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan topshirish;

-aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul topshirish;

-aksiz to‘lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;

-aksiz to‘lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikning (ishtirokchining)

hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni ulush qo‘shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek, ulush qo‘shish asosida xomashyo va materiallarni, shu jumladan, aksiz to‘lanadigan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to‘lanadigan tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Tekinga beriladigan aksizlanadigan mahsulot bo‘yicha quyidagilar soliq solish obyekti bo‘lib hisoblanadi:

-aksiz solig‘ining qat‘iy stavkalari belgilangan alkogolli mahsulot, tamaki mahsulotlari, o‘simlik (paxta) yog‘i, etil spirti, pivo, vino bo‘yicha - sotilgan mahsulot hajmi natura ifodasida;

-boshqa aksizlanadigan mahsulotlar bo‘yicha soliq to‘lovchida tovarni berish paytida shakllangan narxlar darajasidan kelib chiqib hisoblangan, biroq mazkur aksizlanadigan tovarni ishlab chiqarish bo‘yicha haqiqatda shakllangan xarajatlardan past bo‘lmagan qiymat.

Quyidagilarga aksiz solig‘i solinmaydi:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchi-

lari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

-davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida;

-O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag‘lari hisobiga, shuningdek, grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qilishga.

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjatlarida belgilanadi;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Soliq solinadigan baza

Aksiz solig‘ining stavkalari mutlaq summada (qat’iy)

belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning **naturada** ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (**advalor**) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek, tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Aksizlanadigan tovarlar uchun soliq solish bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- aksiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan tamaki mahsulotlari, o'simlik (paxta) yog'i, etil spirti, pivo, kon'yak, aroq va boshqa alkogolli aroq mahsulotlari, filtrli va filtrsiz sigaretalar, neft mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg'isi va aviakerosin) bo'yicha - sotilgan mahsulotning natural ko'rinishidagi xajmi;

~~• aksiz solig'i to'lanadigan boshqa mahsulotlar (zargarlik buyumlari, kumushdan qilingan oshxona buyumlari, tabiiy gaz, suyultirilgan gaz, "JeneralMotorsO'zbekiston" YoAJ avtomobillari) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i hisobga olmagan holda, shartnomaviy narxlar bo'yicha yuklab jo'natilgan tovarning qiymatiga foiz hisobida.~~

Buyurtmachi tomonidan beriladigan xomashyodan mahsulotga aksiz solig'ini hisoblash chog'ida aksiz solig'i solinadigan mahsulotni sotishga doir aylanma quyidagicha belgilanadi:

-aksiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan mahsulot bo'yicha tayyor mahsulotning fizik hajmidan kelib chiqib;

-boshqa mahsulotlar bo'yicha tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatidan va buyurtmachi tomonidan beriladigan xomashyo qiymatidan kelib chiqib.

Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlash

Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

-eksport qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlarni yetkazib berish uchun tuzilgan kontrakt;

-tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

-O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

5.3. Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati va aksiz solig'i stavkalari

Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada

ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek, tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarga aksiz solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq 2017-yil 1 yanvardan aksiz solig'ining stavkalari indeksatsiya qilindi:

Aksiz solig'i stavkalari respublikada ishlab chiqariladigan etil spirtiga – 25 foizga, tabiiy vinoga (etil spirti qo'shilmagan) – 5 foizga, boshqa turdagi vinolar – 20 foizga, konyak – 27 foizga, aroq va boshqa alkogol mahsulotlari – 25 foizga, pivo - 25

foizga, tamaki mahsulotlari – 30 foizga indeksatsiya qilindi

5.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan, aksiz solig‘i solinadigan tovarlarga nisbatan aksiz solig‘i STAVKALARI²⁷

<i>Tovarlar nomi</i>	<i>Soliqstavkasi</i>	
	<i>aksiz solig‘i va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda</i>	<i>bir o‘lchov birligiga so‘mda</i>
1. Etil spirti (1 dal uchun)		6 275
2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun)(1):		
tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar (etil spirti qo‘shilmagan holda)		6 358
boshqa vinolar		10 000
3. Konyak (1 dal tayyor mahsulot uchun)(1)		58 265*
4. Aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)(1)		54 057**
5. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)(1)		6 416
6. O‘simlik (paxta) yog‘i (1 tonna uchun)(1):		
oziq-ovqat yog‘i (salomac ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog‘ va «O‘zbekiston» yog‘idan tashqari)		919 448

31 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori 13-1-ilovasi

texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KON/g dan yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroqsiz bo'lgan)		505 773
7. Filtrli, filtsiz sigaretalar, papirosalar (1 ming dona uchun) (1)		37 432
8. Zargarlik buyumlari	25	
9. «Jeneral Motors O'zbekiston» AJ ishlab chiqargan avtomobillar(2)	***27	
10. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11	
11. Qimmatbaho metallar(2)		
12. Neft mahsulotlari(1):		
Ai-80 benzini		321 430 so'm/tonna
Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzini		353 430 so'm/tonna
Ai-95 benzini		408 890 so'm/tonna
dizel yoqilg'isi		273 400 so'm/tonna
EKO dizel yoqilg'isi		284 250 so'm/tonna
aviakerosin		50 580 so'm/tonna
dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi		207 000 so'm/tonna
13. Tabiiy gaz, shu jumladan, eksport(2)	25	

14. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz («Oʻztransgaz» AK mintaqalararo unitar korxonalar tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan, eksport(2)	26	
15. Paxta tolasi(3)		

** Hajmiy ulushda etil spirti 40 foizdan koʻp boʻlgan konyakka aksiz soligʻi stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun **96 006** soʻm miqdorida belgilanadi.*

*** Hajmiy ulushda etil spirti 40 foizdan koʻp boʻlgan aroq va boshqa alkogolli mahsulotlarga aksiz soligʻi stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun **89 071** soʻm miqdorida belgilanadi.*

5.2-jadval

Alkogol mahsulotlarini ulgurji va chakana sotish narxlari

№	Tovar nomi	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
Ulgurji-sotish narxlari:					
1	Vino uchun	3300 soʻm	3800 soʻm	4500 soʻm	5400 soʻm
2	Konyak uchun	9400 soʻm	11100 soʻm	13900 soʻm	17200 soʻm
3	Aroq va boshqa alkogol ichimliklarga	7800 soʻm	9000 soʻm	10500 soʻm	12900 soʻm

Chakana narxlar:					
1	Vino uchun	4000 so‘m	4600 so‘m	5400 so‘m	6500 so‘m
2	Konyak uchun	11400 so‘m	13400 so‘m	16700 so‘m	20900 so‘m
3	Aroq va boshqa alkogol ichimliklarga	9500 so‘m	10900 so‘m	12600 so‘m	15500 so‘m

***O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi “2017-2021 yillarda Avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3028-sonli qaroriga muvofiq, «Jeneral Motors O‘zbekiston» AJ ishlab chiqargan avtomobillarga aksiz solig‘i stavkasi 29 %dan 27 % pasaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga asosan pivo va o‘simlik yog‘i bo‘yicha aksiz solig‘i tushumi mahalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini ko‘paytirish maqsadida to‘liq miqdorda mahalliy byudjetlar daromadiga o‘tkaziladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq o‘mitasining **2016-yil 29-noyabrdagi 89, 2016-36-sonli** qaroriga asosan, 2017-yil 1 yanvardan (AV-2845 ro‘yxatga olgan) alkogol mahsulotlarini ulgurji va chakana sotish narxlarining qat’iy minimal miqdorlari oshirilmoqda. 1 litr tayyor mahsulot uchun minimal narx uyidagicha belgilanmoqda:

Aksiz solig‘i stavkalari va aksizosti tovarlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi. 2017-yilda aksizosti tovarlarga belgilangan soliq stavkalari quyidagilardan iborat:

5.4. Ayrim turdagi tovarlarga aksiz solig'ini hisoblash tartibi

2012-yildan chakana savdo tarmog'ida sotiladigan, oltindan bo'lgan zargarlik buyumlarining 1 grammi uchun 10 AQSh dollariga teng miqdorda aksiz solig'ini to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi **Adliya vazirligida 2012-yil 16-fevralda 2328-son** bilan ro'yxatga olingan "Chakana savdo tarmog'ida sotiladigan oltindan ishlangan zargarlik buyumlariga aksiz solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizom asosida tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi "Zargarlik sanoatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-3199-sonli** qaroriga muvofiq quyidagilar belgilandi:

2018-yil 1-yanvardan chakana savdo tarmog'ida sotiladigan zargarlik buyumlariga aksiz solig'i **bekor bo'ldi**.

2020-yil 1-yanvargacha tijorat banklari qimmatbaho metallarni sotish borasida QQS va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod etildi;

2020-yil 1-yanvargacha zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilar zargarlik buyumlarini sotishda, jumladan, eksportga sotishda bo'shaydigan mablag'larni ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilishga, shuningdek, aylanma mablag'larini to'ldirishga maqsadli yo'naltirgan holda aksiz solig'i va QQS to'lamaydi.

Respublikamizda ayrim turdagi aksizli tovarlarni ishlab chiqarish va sotishning tartibi belgilab qo'yilgan. Bu tartib O'zbekiston Respublikasi **Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 26 iyulda 1390-son** bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Ayrim turdagi aksizli tovarlarni ishlab chiqarish va sotishning hisobi tizimi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlatsoliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori bilan tasdiqlangan.

Vaqtinchalik nizomga asosan quyidagi ayrim turdagi aksizli tovarlarni ishlab chiqarish va sotish tartibi belgilanagn:

- Alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish tartibi
- O‘simlik moyini sotish tartibi
- Avtomobil benzini va dizel yoqilg‘isini sotish tartibi
- Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yangi yengil avtomobillarni sotish tartibi.

Alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish tartibi

Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan alkogolli mahsulotning ulgurji sotilishi “O‘zvinosanoat-xolding” xolding kompaniyasining hududiy ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo bazalari orqali amalga oshirilib, keyin alkogolli mahsulot bilan chakana savdo qilish huquqiga doir ruxsat guvohnomalariga va fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg‘un savdo shoxobchalariga (zallariga) ega bo‘lgan yuridik shaxslarga sotiladi.

Alkogolli mahsulot importi va uning ulgurji sotilishi faqat ulgurji savdo qilishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ular import qilgan alkogolli mahsulot faqat alkogolli mahsulot bilan chakana savdo qilish huquqiga doir ruxsat guvohnomalariga va fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg‘un savdo shoxobchalariga (zallariga) ega bo‘lgan yuridik shaxslarga sotiladi.

Alkogolli mahsulot importi va uning chakana sotilishi bilan faqat alkogolli mahsulot bilan chakana savdo qilish huquqiga doir ruxsat guvohnomalariga va fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg‘un savdo shoxobchalariga (zallariga) ega bo‘lgan yuridik shaxslar shug‘ullana oladilar. Respublikada ishlab chiqariladigan tamaki mahsulotlarini ulgurji

sotish ularni ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan faqat ulgurji savdoni amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarga, shuningdek, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg‘un savdo shoxobchalariga (zallariga) ega bo‘lgan yuridik shaxslarga amalga oshiriladi.

Ulgurji savdo korxonalari respublikada ishlab chiqarilgan tamaki mahsulotlarini faqat fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg‘un savdo shoxobchalariga (zallariga) ega bo‘lgan yuridik shaxslarga sotadilar.

Tamaki mahsulotlari importi va ularning ulgurji sotilishi faqat ulgurji savdoni amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ular import qilgan tamaki mahsulotlari faqat fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg‘un savdo shoxobchalariga (zallariga) ega bo‘lgan yuridik shaxslarga sotiladi. Tamaki mahsulotlari importi va ularning chakana sotilishi bilan faqat fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg‘un savdo shoxobchalariga (zallariga) ega bo‘lgan yuridik shaxslar shug‘ullanishlari mumkin.

O‘simlik moyini sotish tartibi

Keyin aholiga sotish uchun ishlab chiqaruvchi korxonalar va ulgurji savdo korxonalari tomonidan o‘simlik moyi faqat fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg‘un savdo shoxobchalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga sotiladi.

O‘simlik moyini naqd pulsiz tartibda, mablag‘larni xaridorning talab qilib olingungacha depozit hisob raqamidan faqat ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning ishlab chiqarish ehtiyojlariga pul o‘tkazish yo‘li bilan sotishga yo‘l qo‘yiladi.

O‘simlik moyi importi va uning ulgurji sotilishi faqat ulgurji savdoni amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ular import qilgan o‘simlik moyi faqat fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari

bilan jihozlangan turg'un savdo shoxobchalariga (zallariga) ega bo'lgan yuridik shaxslarga sotiladi.

O'simlik moyi importi va uning chakana sotilishi bilan faqat fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg'un savdo shoxobchalariga (zallariga) ega bo'lgan yuridik shaxslar shug'ullana olishlari mumkin.

Avtomobil benzini va dizel yoqilg'isini sotish tartibi

Neft bazalari tomonidan avtomobilga yonilg'i quyish shoxobchalariga avtomobil benzini va dizel yoqilg'isini sotish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-fevraldagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan Moddiy-texnika resurslarining strategik turlarini sotish maxsus tartibi to'g'risidagi nizom bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Neft bazalari tomonidan ularni aholiga sotish maqsadida avtomobilga yonilg'i quyish shoxobchalariga avtomobil benzini va dizel yoqilg'isini berish faqat avtomobilga yonilg'i quyish shoxobchalarida yuridik shaxs maqomi va neft mahsulotlarini sotish huquqiga doir litsenziya mavjud bo'lganida amalga oshiriladi.

Avtomobilga yonilg'i quyish shoxobchalari avtomobil benzini va dizel yoqilg'isini faqat oldindan 100 foiz haq to'lash sharti bilan xarid qiladilar.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yangi yengil avtomobillarni sotish tartibi

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yangi yengil avtomobillarni sotish faqat yuridik shaxslar hisoblangan va ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan tegishli bitimlar tuzgan rasmiy dilerlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yangi import avtomobillarini sotishni faqat yuridik shaxslar - ishlab chiqaruvchi korxonalarining rasmiy dilerlari amalga oshiradilar.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yangi yengil avtomobillarni yuridik shaxslarga sotish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

pul mablag‘larini ularning talab qilib olingungacha depozit hisob raqamlaridan o‘tkazish yo‘li bilan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda korporativ bank plastik kartalari vositasida;

yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning ssuda hisob raqamlaridan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yangi yengil avtomobilni xarid qilishga tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar hisobidan o‘tkazish yo‘li bilan.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yangi yengil avtomobillar sotilishi paytida rasmiy dilerlar xaridorlarga xarid qilingan avtomobillar uchun ma’lumotnoma-hisobvaraqa yozib berishlari shart.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘ini hisoblash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz to‘lanadigan tovarlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko‘ra ro‘yxatlar va stavkalar bo‘yicha aksiz solig‘i solinadi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i bojxona xizmatlari tomonidan so‘mlarda undiriladi va har 5 kunda respublika byudjetiga kirim qilinadi.

Olib kiriladigan, aksiz to‘lanadigan tovarlarga aksiz solig‘ining hisobi va uning byudjetga kelib tushishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmatining hududiy boshqarmalari amalga oshiradi.

Respublika hududiga aksiz to‘lanadigan tovarlarni olib kiruvchi, mulkchilik shaklidan qat‘i nazar yuridik shaxslar, shuningdek, jismoniy shaxslar aksiz solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar

bo'yicha aksiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solish obyekti bo'lib bojxona yuk deklaratsiyasining 45-ustunida ko'rsatilgan, tovarning bojxona rasmiylashtiruvi paytida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha so'mlarda qayta hisoblangan tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S \times A/100,$$

bu yerda:

S- bojxona qiymati;

A - aksiz solig'i stavkasi.

Pivo, alkogolli va tamaki mahsulotlariga aksiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan oborot quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$O = S \times 100/ (100-A),$$

bu yerda:

O - soliq solinadigan oborot;

S - bojxona qiymati;

A - aksiz solig'i stavkasi.

Olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan alohida turdagi tovarlar bo'yicha aksiz solig'i summasi tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki bir birlik o'lchovi uchun AQSh dollarlarida belgilanadi.

«O'zbekiston Respublikasi hududiga aksiz solig'i olinmaydigan tovarlarning jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilishi bo'yicha belgilangan normalar»ga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarga nisbatan aksiz solig'i tatbiq etilmaydi.

Majburiy ravishda markalanadigan, olib kiriladigan aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'ini to'lovchilar aksiz

markalarini xarid qilish chog'ida kontrakt (bayonot berilgan) qiymatidan hisoblangan aksiz solig'i summasining 100 foizini to'laydilar, bunda aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i summasidan ortiq miqdorda to'lanadi, mablag'lar belgilangan tartibga ko'ra respublika byudjetiga kirim qilinadi.

Markalangan, aksiz to'lanadigan tovarlar olib kirilganda aksiz solig'i summasi bojxona qiymatidan kelib chiqib qayta hisoblanadi.

Davlat bojxona qo'mitasi hududiy bojxona boshqarmalarining qaroriga ko'ra to'lovchiga, tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi sanasidan boshlab 2 oydan oshmaydigan muddatga aksiz solig'ini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilishi mumkin.

Ortiqcha kelib tushgan aksiz solig'i summasi o'ttiz kun ichida qaytarilishi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga kiritilishi kerak.

Ular to'langan yoki undirilgan paytdan boshlab bir yil davomida to'lovchi ortiqcha to'langan yoki undirilgan aksiz solig'i summolari qaytarilishini talab qilib, murojaat etishi mumkin.

Ortiqcha to'langan aksiz solig'i summalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etish bilan amalga oshiriladi:

- to'lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to'lash yoki undirish sabablari ko'rsatiladi, shuningdek, pul mablag'lari qaytarilishi kerak bo'lgan to'lovchining bank rekvizitlari beriladi;

- aksiz solig'ini hisoblab chiqarish va undirish uchun asos bo'lgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

- ijrosi to'g'risida bank belgisi qo'yilgan, aksiz solig'ining tegishli summalarini to'lashga oid to'lov hujjati;

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) chegaradan haqiqatda olib o'tilgani to'g'risida chegara bojxonasining belgisi qo'yilgan (zarur hollarda) tovarga ilova qilinuvchi hujjatlar.Ortiqcha

to‘langan aksiz solig‘i summalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi.

5.5. Aksiz to‘lanadigan tovarlarni aksiz markalari bilan tamg‘alash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek, uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg‘alanishi shart.

Tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarilishi, import qilinishi, saqlanishi, tashilishi va sotilishi ustidan davlat nazoratini o‘rnatish, shuningdek, aksiz solig‘i to‘liq undirilishi, ko‘rsatilgan tovarlarni yashirincha ishlab chiqarish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelishning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi 285-son “O‘zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tasdiqlangan Nizomga asosan 1996-yil 1-oktabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kelinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni, pivodan tashqari, majburiy tarzda belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan markalash joriy etildi va ularni aksiz markalarini yopishtirmasdan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish, tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish ta’qiqlandi.

Aksiz markalarini qalbakilashtirganlik uchun, shuningdek, qalbaki aksiz markalarini sotganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikka muvofiq jinoiy javobgarlik choralari qo‘llanilishi belgilab qo‘yildi. Bunda quyidagi spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari aksiz

markalari bilan markalanmaydi:

- respublikadan tashqariga eksport qilinayotgan;
- bojsiz savdo qiluvchi do‘konlar uchun respublika hududiga keltirilayotgan;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsatnomasi bo‘lgan taqdirda, ko‘rgazmalar o‘tkazish uchun keltirilayotgan;
- xalqaro tranzit bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinayotgan va olib chiqishga mo‘ljallangan;
- jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga O‘zbekiston Respublikasining qonunida belgilangan aksizsiz olib kirish me‘yorlari doirasida keltirilayotgan alkogol va tamaki mahsulotlari.

Respublika hududida ishlab chiqarilayotgan va import qilinayotgan pivo O‘zbekiston Respublikasining aksiz markalari bilan markalanmaydi.

Markalanadigan aksiz to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar «Davlat belgisi» DICHning Toshkent bosma fabrikasiga O‘zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnomaning (AVda 07.01.1999 589-son bilan ro‘yxatga olingan MV, DSQ va DBQ Qarori)1- ilovasiga muvofiq shaklda aksiz markalarining turlari bo‘yicha zarur miqdorini xarid qilishga (alkogolli mahsulot bo‘yicha iste‘mol idishiga quyiladigan mahsulotning hajmini litrda ko‘rsatgan holda) buyurtmanoma bilan, fabrikaning tegishli bank hisobvarag‘iga alkogolli mahsulot uchun buyurtirilayotgan aksiz markalari miqdori nominal qiymatining 50 %i va tamaki mahsulotlari uchun aksiz markalarining to‘liq nominal qiymatini o‘tkazgandan keyin, murojaat etadilar.

Markalanadigan aksizli mahsulot ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi korxonalarga aksiz markalarini berish “Agrobank” OATBning mintaqaviy bo‘linmalari tomonidan

buyurtmanoma asosida amalga oshiriladi.

Aksiz markalarini “Agrobank” OATBning mintaqaviy bo‘linmalari buyurtmanomada ishlab chiqaruvchi korxonalar bo‘yicha “Davlat belgisi» DICHBning Toshkent bosma fabrikasining va importchilar bo‘yicha Davlat bojxona qo‘mitasi hududiy organlarining belgilari mavjud bo‘lganida beradilar:

- alkogolli ichimliklarni mahalliy ishlab chiqaruvchilarga
- aksiz markalarining buyurtirilayotgan miqdori nominal qiymatining 50 foizi to‘langanligi to‘g‘risida;

- tamaki mahsulotlarini mahalliy ishlab chiqaruvchilarga - aksiz markalari buyurtirilayotgan miqdorining to‘liq nominal qiymati to‘langanligi to‘g‘risida;

- alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini import qiluvchilarga - aksiz markalari buyurtirilayotgan miqdorining to‘liq nominal qiymati va aksiz solig‘ining butun summasi to‘langanligi to‘g‘risida.

Bunda aksiz solig‘i to‘lanayotganida aksiz markalarining qiymati hisobga kiritilmaydi.

Aksiz markalarining nominal qiymatini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «Davlat belgisi» DICHBning hisob-kitoblari bo‘yicha tasdiqlaydi.

Respublikaga ko‘rgazmalar o‘tkazish uchun olib kelingan aksiz tovarlari, ular ko‘rgazmalar yakunlanganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi hududida sotilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi aksiz markalari bilan majburiy tarzda markalanishi kerak va ular bo‘yicha umumiy belgilangan tartibda aksiz solig‘i to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2009-yil 7-noyabrdagi PQ-505-sonli qaroriga muvofiq hamda alkogolli mahsulotlar va tamaki mahsulotlari noqonuniy ishlab chiqarilishi va sotilishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan nazoratni yanada

kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 5-fevraldagi «Alkogolli mahsulotlarga va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalari joriy etish to‘g‘risida»gi 27-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar belgilandi:

- 2013-yil 1-apreldan boshlab alkogolli mahsulotlar va tamaki mahsulotlariga dizayni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi va «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, qo‘shimcha himoya darajalariga ega bo‘lgan yangi namunadagi aksiz markalari joriy etildi;

- eski namunadagi aksiz markalari bilan markalangan hamda ulgurji va chakana savdo tarmoqlarida bo‘lgan alkogolli mahsulotlar va tamaki mahsulotlari yangi namunadagi aksiz markalari joriy etilgan kundan boshlab to‘qqiz oy o‘tgandan keyin markalanmagan deb hisoblanadi va belgilangan tartibda olib qo‘yilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi hamda Davlat bojxona qo‘mitasiga:

- alkogolli mahsulotlar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarini hamda import qiluvchilarini yangi namunadagi aksiz markalari joriy etilganligi to‘g‘risida xabardor qilish;

- 2014-yil 1-yanvardan boshlab belgilangan tartibda eski namunadagi aksiz markalari bilan markalangan hamda ulgurji va chakana savdo tarmoqlarida bo‘lgan alkogolli mahsulotlar va tamaki mahsulotlarini aniqlash, chetdan keltirish, ularni ishlab chiqarish va sotishning oldini olish, shuningdek, ushbu mahsulotlarni olib qo‘yish yuzasidan tegishli nazorat chora-tadbirlarini amalga oshirish topshirildi.

Aksiz markalari ishlab chiqarilayotgan va import qilinayotgan aksizli tovarlarning turlariga qarab quyidagi turlarga bo‘linadilar:

<i>Aksizli tovarlar</i>	<i>Harfli belgi</i>	<i>Kodli belgi</i>
TAMAKI MAHSULOTLARI		
Import qilingan:		
IMPORT, TAMAKI MAHSULOTLARI	IM	Import qiluvchining kodi
IMPORT, TAMAKI MAHSULOTLARI	IM	9898
Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan:		
TAMAKI MAHSULOTLARI	O'Z	Korxonada kodi
ALKOGOLLI ICHIMLIKLAR		
Import qilingan:		
IMPORT, AROQ	IM	Import qiluvchining kodi
IMPORT, AROQ	IM	98098
IMPORT, VINO	IM	Import qiluvchining kodi
IMPORT, VINO	IM	98098
IMPORT, SPIRTLII ICHIMLIKLAR	IM	Import qiluvchining kodi
IMPORT, SPIRTLII ICHIMLIKLAR	IM	98098
Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan:		
AROQ	O'Z	Korxonada kodi
VINO	O'Z	Korxonada kodi
SPIRTLII ICHIMLIKLAR	O'Z	Korxonada kodi

Aksiz markalarida yozilgan harfiy va raqamli belgilarning ta'rifi:

IM - mahsulot import bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelingan;

O'Z - mahsulot O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab

chiqarilgan;

98 - ikkita birinchi belgi - aksiz markasi bosib chiqarilgan yil;

01 yoki 001 - ikkita yoki uchta keyingi belgilar - tegishincha tamaki yoki alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalariga (importchilarga) beriladigan kod raqamlari;

aksiz markalaridagi 4 ta raqamli belgi tamaki mahsulotini anglatadi;

aksiz markalaridagi 5 ta raqamli belgi alkogolli mahsulotni anglatadi;

98 bilan tugaydigan soʻnggi raqamlar Oʻzbekiston Respublikasi hududiga mayda turkumdagi aksizli tovarlar keltirilganligini anglatadi.

Alkogolli mahsulot uchun aksiz markalarida alkogolli ichimlik quyiladigan isteʼmol idishining hajmini litrlarda bildiradigan quyidagi yozuvlar qayd etiladi:

Oʻzbekiston Respublikasi hududiga import boʻyicha olib kirilganda: “0,1 L gacha”, “0,11 L dan 0,25 L gacha”, “0,26 L dan 0,37 L gacha”, “0,38 L dan 0,5 L gacha”, “0,51 L dan 0,75 L gacha”, “0,76 L va yuqori”;

Oʻzbekiston Respublikasida ishlab chiqarilganda: “0,05 L”, “0,1 L”, “0,2 L”, “0,25 L”, “0,45 L”, “0,5 L”, “0,7 L”, “0,75 L”, “1,0 L”, “1,75 L”, “3 L”.

5.6. Aksiz soligʻini hisoblash, hisobotlarini taqdim etish va byudjetga toʻlash tartiblari

Aksiz soligʻini hisoblab Soliq kodeksning 232-moddasiga muvofiq aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va aksiz soligʻining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Hisoblab chiqarilgan aksiz soligʻining summasi ushbu moddada belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi:

-Aksiz toʻlanadigan tovarlar olinayotganda yoki Oʻzbekis-

ton Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aksiz solig'i summasi chegirib tashlanadi.

-Aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) yetkazib beruvchilar mazkur tovar (xomashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasini hisobvara-q-fakturada ajratib ko'rsatishlari kerak. Olinayotgan aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasi hisobvara-q-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, aksiz solig'ining mazkur summasi chegirib tashlanmaydi.

-Chegirma soliq davrida realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlar hajmiga to'g'ri keladigan aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) hajmidan kelib chiqqan holda aniqlangan aksiz solig'ining hisobvara-q-fakturada yoki bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan summasiga nisbatan amalga oshiriladi.

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan aksiz to'lanadigan tovarlar topshirilayotganda ham qayta ishlashga berilgan aksiz to'lanadigan xomashyo va materiallarning mulkdori aksiz solig'i to'laganligini tasdiqlashi sharti bilan qo'llaniladi.

Aksiz solig'ini **soliq davri** - Yil choragi soliq davridir.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$O \times A/100,$$

bu yerda:

O - soliq solinadigan oborot;

A - aksiz solig'i stavkasi.

Hisob-kitobni taqdim etish tartibi

Aksiz solig'ini yil oyi soliq davridir.

Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga **har oyda, soliq davridan keyingi oynning 10-kunidan** kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliq to'lash tartibi

Aksiz solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

AMALIY MASALALAR

1-MASALA. Korxonada tomonidan aksiz osti tovar ishlab chiqariladi. Oltindan ishlangan yuvelir mahsulotning (uzuk) tannarxi 65000 so'm (QQS va aksiz solig'isiz). Ushbu mahsulotga QQS va aksiz solig'ini hisoblang va hisobvaraqq-fakturada aks ettiring?

Yechilishi:

1-bosqich: Amaldagi qonunchilikka ko'ra aksiz solig'i summasi QQSning bazasiga kiritiladi. Shu munosabat bilan oldin aksiz solig'i hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra zargarlik buyumlariga aksiz solig'i stavkasi 25 foiz belgilangan.

$$65000 * 25\% = 16250 \text{ so'm};$$

2-bosqich: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra QQS stavkasi 20 foiz belgilangan.

$$\text{QQS bazasi} = (65000 + 16250) = 81250 \text{ so'm};$$

$$\text{QQS summasi} = 81250 * 20\% = 16250 \text{ so'm};$$

Mahsulotning sotish bahosi (QQS va aksiz solig'i) bilan birgalikda 97500 so'mni tashkil etadi. Hisobvaraqq faktura quyidagicha rasmiylashtiriladi:

HISOBVARAQ-FAKTURA

Tovar Ish xizmatlar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Yetkazib berish qiymati	Aksiz solig'i		QQS		Yetkazib berishning hisobga olingani qiymati
					Stavka	Summa	Stavka	Summa	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Mahsulot Uzuk	dona	1	65000	65000	25%	16250	20%	16250	97500
Jami to'lashga:	To'qson yetti ming besh yuz so'm								

2-MASALA. Toshkentdagi aroq mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonasi tomonidan 2017-yilda ishlab chiqarilgan 0,5 litr sig'imli 40% quvvatiga ega bo'lgan "Standart" aroq'ini 2000 ming donasi realizatsiya qilingan. Korxonaga aksiz solig'ini hisoblang?

Yechilishi:

1. Hisob-kitoblarda 1 dal = 10 litrni tashkil etadi;
2. Realizatsiya hajmi 100 dalni tashkil etadi ($0,5 \cdot 2000 / 10$);
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori 13-1 ilovasiga ko'ra, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun) aksiz solig'i stavkasi 54057 so'm belgilangan.

$$54057 \cdot 100 = 5\,405\,700 \text{ mln so'm}$$

Demak korxonadan byudjetga 5405,7 ming. so'm aksiz solig'ito'lanadi.

3-MASALA. Korxonadan 2017-yil 1-choragida

28 Gadoyev E.F., i dr. Kosvenniye nalogi: nalog na dobavlenyuyu stoimost, aksizniy nalog. – Tashkent: «NORMA», 2011. – 220 s.

0,4 ming dal aroq ishlab chiqarish uchun 1 ming dal etil spirti oigan. Berilgan ma'lumotlrga ko'ra korxonaga aksiz solig'ini hisoblang?

Yechilishi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699-sonli qarori 13-1 ilovasiga ko'ra, etil spirti 1 dal uchun aksiz solig'i stavkasi 6275 so'm belgilangan.

Spirit uchun to'langan aksiz solig'i summasi, - 6275 ming so'm;

2. Ishlab chiqarilgan aroq bo'yicha aksiz solig'i summasi 21622 ming so'm. ($54057 \times 0,4$);

3. Aroq ishlab chiqarish uchun olib kelingan to'langan spirtning aksiz solig'i summasi aroqqa hisoblangan aksiz solig'i summasidan chegiriladi:

Chegirmalar hisobga olgan holda byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i summasi 12278,0 ming so'mni tashkil etadi.

21622 - 6275 = 15347,0 mingso'm.

Demak korxonadan tomonidan byudjetga 15347,0 ming. so'm aksiz solig'ito'lanadi.

4-MASALA. Rasmiy dillerlar orqali chakana narxda sotilgan "Matiz" avtomashinasi 12 mln so'mni tashkil etadi, dillarning komission haqi – chakana narxdan 2% tashkil etadi. Aksiz solig'ini hisoblang?

Yechilishi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699-sonli qarori 13-1 ilovasiga ko'ra, «Jeneral Motors O'zbekiston» YoAJ ishlab chiqargan aksiz solig'i stavkasi 29% belgilangan.

2. Soliqqa tortiladigan baza 11,76 mln so'mni tashkil etadi. ($12 - 12 \times 2 / 100$) = 11,76 mln so'm.

3. Aksiz solig'i summasi 2,64 mln so'mni tashkil etadi.

$\{11,76 \times 29 / (100 + 29)\} = 2,64$ mln so'm.

5-MASALA. Korxonadan kumushdan yasalgan oshxona

anjumlari ishlab chiqaradi. Yanvar oyida har bir komplekti 200 ming soʻmdan 5 ta komplekt ishlab chiqardi. Ushbu mahsulotga talab yoʻqligi sababli korxonada pasaytirilgan narxlarda sotdi – xar bir komplektni 180 ming soʻmdan (Aksiz soligʻi va QQSni hisobga olmaganda). Ishlab chiqarilgan mahsulotning oʻz tannarhidan ham pasaytirilgan narxlarda sotilgan boʻlsada, soliqqa tortiladigan baza 200 ming soʻm (aksiz soligʻi stavkasi 11%) qilib qabul qilinadi yaʼni, mahsulot tannarhi boʻyicha.

Bir komplekt uchun hisoblangan aksiz soligʻi summasi 22 ming soʻmni tashkil etadi. $(200 \times 11/100) = 22$ ming soʻm.

Mavzuga doir test savollari:

1. Aksiz soligʻi Oʻzbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- A. 1991-yil;
- B. 1992-yil*;
- C. 1995-yil;
- D. 1998-yil.

2. Oʻzbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan va aksiz markasi bilan markalangan tovarlarga sarflangan aksiz markasining nominal qiymati:

- A. Aksiz soligʻining hisob-kitobida hisobga olinmaydi*;
 - B. Aksiz soligʻining hisob-kitobida hisobga olinadi;
 - C. Avval aksiz soligʻining hisob-kitobida hisobga olinadi keyin chegiriladi;
 - D. Aksiz soligʻining hisob-kitobida qisman hisobga olinadi.
3. Aksiz markalarining joriy etilish yilini koʻrsating.

- A. 1992-yil 1-yanvar;
- B. 1993-yil 6-may;
- C. 1995-yil 1-yanvar;
- D. 1996-yil 1-oktabr*.

4. Aksiz solig‘i stavkalari va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?

- A. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
- B. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*;
- C. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- D. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi.

5. Aksiz solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?

A. Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar;

B. Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar;

C. Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar*;

D. Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar.

6. Aksiz solig‘i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?

A. Aksiz to‘lanadigan tovarlarning eksportiga*;

B. Aksiz to‘lanadigan tovarlarning importiga;

C. Berilgan xomashyodan tayyorlangan mahsulotga; D. Vino va vinomateriallariga.

7. Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza nimani o‘z ichiga oladi.

A. Aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini;

B. Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini*;

C. Aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini;

D. Tovarlarning naturada ifodalangan hajmini.

8. Aksiz solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga qachon taqdim etiladi?

A. Yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay*;

B. Yilning har oyida soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay;

C. Yilning yakunida keyingi yilning 1-fevraligacha;

D. Yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay.

9. Qaysi mahsulot aksiz marka bilan markalanmaydi?:

A. Pivo*;

B. Aroq;

C. Konyak;

D. Vino.

10. Aksiz solig‘ini byudjetga to‘lov muddatlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. Hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay*;

B. Joriy oyning 10-20- va kelgusi oyning 1-kunidan kechiktirmay;

C. Joriy oyning 15-25- va kelgusi oyning 5-kunidan kechiktirmay;

D. Joriy oyning 13-23- va kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay.

11. Zargarlik buyumlariga aksiz solig‘ining hisob-kitobini taqdim yetish muddati qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. Yilning har choragida, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay*;

B. Yilning har oyida soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay;

C. Yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

D. Yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrdagi PQ-2455-sonli qaroriga asosan, 2016-yilga «Jeneral Motors O‘zbekiston» AJ ishlab chiqargan avtomobillarga aksiz solig‘i stavkasi qancha miqdorda belgilangan?

- A. 25 %;
- B. 27 %*;
- C. 11 %;
- D. 15 %.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699-sonli qaroriga asosan, 2017-yilga zargarlik buyumlariga aksiz solig‘i stavkasi qancha miqdorda belgilangan?

- A. 25 %*;
- B. 29 %;
- C. 11 %;
- D. 15 %.

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699-sonli qaroriga asosan, 2017-yilga kumushdan ishlangan oshxona anjomlari aksiz solig‘i stavkasi qancha miqdorda belgilangan?

- A. 25 %;
- B. 29 %;
- C. 11 % *;
- D. 15 %.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699-sonli qaroriga asosan, 2017-yilga etil spirti (1 dal uchun) aksiz solig‘i stavkasi qancha miqdorda belgilangan?

- A. 5020 so‘m*;
- B. 29 %;

- C. 11 %;
- D. 6050 so‘m*.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga asosan, mahalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini ko‘paytirish maqsadida to‘liq miqdorda qanday tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i tushumlari mahalliy byudjetga o‘tkazildi?

- A. pivo va o‘simlik yog‘i*;
- B. tamaki mahsulotlari;
- C. Alkogol ichimliklar va pivo;
- D. Tamaki mahsulotlar va pivo.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Aksiz solig‘i qachon joriy etildi?
2. Aksiz solig‘i to‘lovchilar qanday guruhlanadi?
3. Aksiz osti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
4. Aksiz solig‘i obyekt nimalardan iborat?
5. Aksiz solig‘ining bazasi qanday aniqlanadi?
6. Aksiz solig‘ini to‘lashdan kimlar ozod etilgan?
7. Aksiz solig‘i stavkalari va aksizosti tovarlar ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?
8. Aksiz solig‘ini hisobga olish tartibi qanday?
9. Alohida tovarlar bo‘yicha byudjetga to‘lanadigan aksiz solig‘ini hisoblab chiqishning xususiyatlari nimada?
10. Aksiz solig‘i hisobini taqdim etish va soliqni to‘lash muddatlari qanday?
11. Aksiz markalari nima va u qachon joriy etilgan?
12. Qanday holatda aksizga tortiladigan tovarlar markalanmaydi?

6-BOB: QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I

Tayanch so‘z va iboralar: *qo‘shilgan qiymat, qo‘shilgan qiymat solig‘i, resident va norezident, soliq solinadigan oborot, notijorat tashkilotlar, tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti, realizatsiya qilingan joyi, hisobvara-q-faktura, import qilingan tovarlar, eksport qilingan tovarlar, moliyaviy xizmatlar, sug‘urta xizmatlari, soliqdan ozod etiladigan import, nol darajali stavka, soliq hisoboti.*

6.1. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

O‘zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida bilvosita soliqlarning asosiy turlaridan biri – qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko‘p qirrali bilvosita soliqdir. Korxonada kundalik xo‘jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xomashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo‘shilgan qiymat yaratiladi.

Qo‘shilgan qiymat o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste‘mol qilingan tovarlar, xomashyolar va xizmatlarning qiymati o‘rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma‘lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va

muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya byudjet amaliyotida joriy etishni 1919-yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M.Lorening taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i haqiqatda 1968-yildan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarning soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977-yilda qabul qilindi va unda bilvosita soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obykti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

*Iqtisodiy adabiyotlarda, ko'pchilik hollarda, qo'shilgan qiymat solig'ini «Yevropacha» soliq deb ham atashadi. Buning asosiy sabablari shundaki, **birinchidan**, qo'shilgan qiymat solig'i dunyoda birinchi marta Yevropa davlati bo'lgan Fransiyada joriy etildi; **ikkinchidan**, 1977-yilda qabul qilingan Direktivaga asosan qo'shilgan qiymat solig'i bir vaqtning o'zida Yevropaning bir necha davlatlarida joriy etildi; **uchinchidan**, qo'shilgan*

qiymat solig‘i G‘arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekiston soliq tizimida qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992-yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga aksiz solig‘i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig‘idan farqli ravishda faqat qo‘shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig‘i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi.

6.1.-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rni²⁹ (foizda)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar									2017-yilda 2009-yilga nisbatan o‘zgarishi,
		2006	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	
1.	Davlat byudjeti daromadlari – jami Shu jumladan: -bilvosita soliqlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
		49,1	53,2	53,5	54,3	51,9	51,8	52,8	55,0	54,6	+5,5
1	QQS jami daromadlardagi ulushi	19,9	30,4	32,3	32,9	30,8	30,2	29,6	30,9	30,2	+11,3
2	QQS bilvosita soliqlarda ulushi	59,0	59,9	57	57,1	59,5	58,3	56,0	56,0	55,3	-3,7

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbasi sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i hozirga qadar o‘zining muhim o‘rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapdi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra 2017-yilda qo‘shilgan

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

qiymat solig‘ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 30,2 foizni, bilvosita soliqlar tarkibida esa 55,3 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini byudjet daromadlarining asosiy manbayi ekanligini bildiradi.

6.2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib, amaldagi qonun hujjatlariga asosan ushbu soliqni byudjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar;
2) O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).


Quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanmaydi:

-notijorat tashkilotlar. Soliq kodeksining 197-moddasi birinchi qismining 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotini hamda Soliq kodeksi 199-moddasi birinchi qismining 5 va 6-bandlarida ko‘rsatilgan oborotlarni amalga oshirganda notijorat tashkilotlar ushbu

oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'ladi. Bunda Soliq kodeksining 132-moddasida ko'rsatilgan boshqa daromadlarni olish tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralmaydi;

- Soliq kodeksiga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar;

-Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan holda yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan **ixtiyoriy asosda** qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.



6.1.-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari³⁰

Soliq kodeksining 16 moddasiga ko'ra yuridik shaxs deb

quyidagilar e'tirof etiladi:

- yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot;

- chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti;

- O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

- notijorat tashkilotlari - deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi.

Notijorat tashkilotlariga byudjet tashkilotlari, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699 sonli qaroriga ko'ra QQS stavkasi **20 foiz** belgilangan

6.3. Qo'shilgan qiymat solig'i o'behti va bazasi

Qo'shilgan qiymat solig'ining o'behti bo'lib:

- tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti

- tovarlarning importi hisoblanadi.

*Tovarlar*ni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deganda – yuklab joʻnatilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, yaʼni yuklab joʻnatilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablagʻi kelib tushishi davridan qatʼiy nazar korxonaga qoʻshilgan qiymat soligʻi boʻyicha byudjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deb quyidagilar eʼtirof etiladi:

1) mol-mulkka boʻlgan mulk huquqini oʻtkazish, ishlar bajarish, xizmatlar koʻrsatish, shu jumladan:

-tovarni va boshqa mol-mulkni joʻnatish (sotish);

-ustav fondiga (ustav kapitaliga) qoʻshilgan hissa;

-mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul koʻrsatish), shu jumladan, yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul koʻrsatish);

-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar koʻrsatish);

-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisga (ishtirokchiga) dividendlar toʻlash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar koʻrsatish);

-garov bilan taʼminlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qoʻyuvchi tomonidan garov narsasini berish;

-zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy boʻlinmasi tomonidan boshqa tarkibiy boʻlinmasiga, agar tarkibiy boʻlinmalar ushbu Kodeksga muvofiq mustaqil soliq toʻlovchilar boʻlsa, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar koʻrsatish;

3) mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan, lizingga) berish;

4) to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish;

5) mol-mulkni operativ ijaraga berish;

6) intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish;

7) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda Soliq kodeksning 147-moddasigamuvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

Quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'lmaydi:

1) soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan, uning o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, bundan (banklar va sug'urta tashkilotlari tomonidan mol-mulkni o'z filiallariga berish) nazarda tutilgan xarajatlar mustasno;

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun, agar tarkibiy bo'linmalar ushbu Kodeksga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lmasa, mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;

3) soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

4) qaytariladigan tarani jo'natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontraktda) belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;

5) yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisi) muassislar

(ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqib ketganda), shu jumladan, tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqib ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnoma bo'yicha sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkida bo'lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish;

6) asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va tugallanmagan qurilish obyektlarini bepul asosda berish;

7) banklar va sug'urta tashkilotlari tomonidan mol-mulkni o'z filiallariga berish;

8) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;

9) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish;

10) ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;

11) ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

12) obyekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplash.

13) tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish.

Soliq solinadigan va solinmaydigan oborotlarni belgilash

Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir.

Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) quyidagi realizatsiya qilish oborotlari soliq solinmaydigan oborotdir:

-Soliq kodeksning 208, 209 va 210-moddalariga muvofiq

qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan oborot;
-realizatsiya qilingan joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lmagan oborot.

O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti uchun bajariladigan ishlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar mazkur ishlarni, xizmatlarni oluvchining soliq solinadigan oborotiga Soliq kodeksning 207-moddasida belgilangan tartibda kiritiladi.

Soliq solinadigan import deganda esa – O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari).

Tovarlar natural haq tarzida berilganda yoki kassa orqali o‘z xodimlariga tannarx bahosidan past qilib sotilganda soliqqa tortiladigan oborot tovarlar (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatidan kam bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

Soliq to‘lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir.

Soliq to‘lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) quyidagi realizatsiya qilish oborotlari soliq solinmaydigan oborotdir:

-qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan oborotlar;

-realizatsiya qilingan joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lmagan oborot.

O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti uchun bajariladigan ishlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar mazkur ishlarni, xizmatlarni oluvchining soliq solinadigan oborotiga Soliq kodeksining 207-moddasida belgilangan tartibda kiritiladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlariga, agar ularni realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘lsa, qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi.

Quyidagi shartlar yoxud ulardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda,

O‘zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb e‘tirof etiladi:

-tovar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa va bitim natijasida O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo‘lsa (yuklab jo‘natilmaydigan va tashilmaydigan bo‘lsa);

-jo‘natish yoki tashish boshlangan paytda tovar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa.

Quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasi hududi ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e‘tirof etiladi, agar:

1) ishlar, xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lsa. Bunday ishlar, xizmatlar jumlasiga, xususan, qurilish, montaj, qurilish-montaj, ishga tushirish-sozlash, ta‘mirlash, restavratsiya qilish, ko‘kalamzorlashtirish ishlari, shuningdek, ko‘chmas mulkni ijaraga berish kiradi;

2) ishlar, xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan ko‘char mulk bilan bog‘liq bo‘lsa. Bunday ishlarga, xizmatlarga montaj qilish, sozlash, yig‘ish, qayta ishlash, ishlov berish, ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish kiradi;

3) xizmatlar haqiqatda O‘zbekiston Respublikasi hududida turizm, madaniyat, san‘at, ta‘lim, jismoniy tarbiya va sport sohasida ko‘rsatilayotgan bo‘lsa;

4) ishlarni, xizmatlarni sotib oluvchi faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirayotgan bo‘lsa. Ishlarni (xizmatlarni) sotib oluvchi yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi asosida, bunday asos bo‘lmagan taqdirda esa, yuridik shaxsning ta‘sis hujjatlarida ko‘rsatilgan joy, yuridik shaxsning doimiy faoliyat ko‘rsatadigan ijro etuvchi organi joylashgan yer, agar ishlar (xizmatlar) muayyan doimiy muassasa orqali bajarilgan (ko‘rsatilgan) bo‘lsa, ushbu doimiy muassasa joylashgan yer asosida O‘zbekiston Respublikasining hududida haqiqatda hozir bo‘lib turgan bo‘lsa, O‘zbekiston

~~Respublikasining hududi sotib oluvchining faoliyati amalga oshiriladigan joy hisoblanadi. Ushbu tartib quyidagi hollarda qo'llaniladi:~~

-intellektual mulk o'bektlariga bo'lgan huquq o'tkazilgan yoki ulardan foydalanish huquqi berilganda;

-maslahat berish, auditorlik, yuridik (advokatlik), buxgalterlik, reklama, injiniring xizmatlari, shuningdek, axborotga ishlov berish xizmatlari ko'rsatilganda. Injiniring xizmatlari jumlasiga mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish jarayoniga tayyorgarlik, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa obyektlar qurilishi hamda ulardan foydalanilishga tayyorgarlik bo'yicha muhandislik-maslahat berish yo'sinidagi xizmatlar, loyihalash oldi va loyihalash xizmatlari (texnik-iqtisodiy asoslarni, loyiha-konstruktorlik yechimlarini tayyorlash va boshqa shunga o'xshash xizmatlar) kiradi. Axborotga ishlov berish xizmatlari jumlasiga axborot massivlarini to'plash va umumlashtirish, tizimlashtirish hamda bu axborotga ishlov berish natijalarini foydalanuvchilar tasarrufiga taqdim etish xizmatlari kiradi;

-xodimlar berish agar xodimlar sotib oluvchi o'z faoliyatini amalga oshirayotgan joyda ishlayotgan bo'lsa;

-ko'char mulk ijaraga berilganda, transport vositalari bundan mustasno;

-tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olish bo'yicha vositachi (ishonchli vakil), shuningdek, ushbu badda nazarda tutilgan xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnomaning (kontraktning) asosiy ishtirokchisi nomidan jalb etuvchi shaxs xizmatlari ko'rsatilganda;

-aloqa xizmatlari ko'rsatilganda;

5) xizmatlarni ko'rsatayotgan shaxsning tadbirkorlik yoki har qanday boshqa faoliyati O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilsa. Ishlarni bajarayotgan, xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi asosida, bunday

asos bo‘lmagan taqdirda esa, yuridik shaxsning ta`sis hujjatlarida ko‘rsatilgan joy, yuridik shaxsning doimiy faoliyat ko‘rsatadigan ijro etuvchi organi joylashgan yer, agar ishlar (xizmatlar) bu doimiy muassasa orqali bajarilgan bo‘lsa, mazkur doimiy muassasa joylashgan yer asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda hozir bo‘lib turgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining hududi ushbu faoliyat amalga oshiriladigan joy hisoblanadi.

Agar ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish boshqa asosiy ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilishga nisbatan yordamchi xususiyatga ega bo‘lsa, asosiy ishlar, xizmatlar realizatsiya qilingan joy yordamchi realizatsiya qilish joyi sifatida e`tirof etiladi.

Realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana

Tovarlar jo‘natilgan (berilgan) kun tovarlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Agar tovarlarni jo‘natish amalga oshirilmasa, tovarga bo‘lgan mulk huquqi oluvchiga o‘tkazilgan kun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo‘yilgan mol-mulk (tovar) garovga qo‘yuvchi tomonidan topshirilganda garov narsasiga bo‘lgan mulk huquqi o‘tkazilgan sana garovga qo‘yuvchi uchun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Yuridik shaxsning xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun ish haqi hisobiga, shu jumladan, bepul tovarlar berilganda, ishlar bajarilganda, xizmatlar ko‘rsatilganda tovar berilgan, ishlar bajarilgan, xizmatlar ko‘rsatilgan hamda hisobvaraqa-faktura va (yoki) ishlar bajarilgani, xizmatlar ko‘rsatilgani faktini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar rasmiylashtirilgan kun oborot amalga oshirilgan sanadir.

Tara shartnomada nazarda tutilgan muddatda qaytarilmasa, bu tarani qaytarish uchun belgilangan sana qaytarilishi lozim

bo'lgan taraning realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana quyidagi shartlardan biri bajarilganda boshlanadi:

-hisobvaraƒ-faktura yozib berilganda;

-ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilganda. Ushbu qism qoidalari boshlanishi bir hisobot davriga, tamomlanishi esa boshqa hisobot davriga to'g'ri keladigan ishlarga, xizmatlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Ishlar, xizmatlar doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilingan taqdirda, hisobvaraƒ-faktura yozilgan sana ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Shartnomaning (kontraktning) amal qilishi davrida ishlarni, xizmatlarni oluvchi ularning natijalaridan o'z ishlab chiqarish faoliyatida doimiy asosda foydalanishi mumkin bo'lgan taqdirda, doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilish ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini anglatadi.

Ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi norezidentidan olingan taqdirda, ishlar, xizmatlar olinganligi to'g'risidagi hujjat rasmiylashtirilgan sana oborot amalga oshirilgan sanadir.

Soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan baza - realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to'lovchiga o'z ehtiyojlari tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun

soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bogʻliq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qoʻshilgan qiymat soligʻini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz toʻlanadigan tovarlar boʻyicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida, Soliq kodeksning 232-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz soligʻini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va taʼmirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar boʻyicha, shuningdek, oʻbektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq toʻlash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qoʻshilgan qiymat soligʻi kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan taʼminlash majburiyati buyurtmachining zimmasida boʻlsa, ushbu materiallarga boʻlgan mulk huquqi buyurtmachining oʻzida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qoʻshilgan qiymat soligʻi kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qoʻshilgan qiymat soligʻini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past boʻlishi mumkin emas.

Aksiz toʻlanadigan tovarlar boʻyicha soliq solinadigan bazaga aksiz soligʻining summasi kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qoʻshilgan qiymat soligʻi

summasini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu jumladan, lizingga berilganda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi, soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda esa, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktivning qiymati soliq solinadigan bazadir. Bunda chiqib ketayotgan aktivning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan, moliyaviy ijara ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida aktiv sifatida e'tirof etiladigan summa tarzida belgilanadi.

Qurilishi tugallanmagan o'bekt realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, qurilishi tugallanmagan o'bektning realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta'minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi bilan qarzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Realizatsiya qilishda soliq solinmaydigan oborotlar hisoblanuvchi chiptalar, abonementlar, yo'llanmalar (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlar olishga huquq

beruvchi boshqa hujjatlar mazkur xizmatlarni ko'rsatmaydigan yuridik shaxslar tomonidan o'z xodimlari va ularning oila a'zolari uchun realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish bahosi va ularni olish bahosi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish nazarda tutilmagan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda (mazkur mol-mulk qo'shilgan qiymat solig'i bilan olinganligi yoki olinmaganligidan qat'i nazar), soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, uni realizatsiya qilish (chiqib ketish) qiymati bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasiga binoan komitent yoki topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Garovga qo'yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo'yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda mazkur garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan o'bektlar bo'yicha garovga qo'yuvchining soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Keyinchalik realizatsiya qilish uchun yuridik shaxslar tomonidan davlat rezervidan olingan, narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi belgilangan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza realizatsiya qilish narxi va davlat rezervidan olingan narx o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq kiritilmagan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan)

foydalanganda;

4) bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq solinadigan bazaga bunday tuzatishlarni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish qo'shimcha hisobvaraqq-faktura yoki yuqorida ko'rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga - tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'ining, bojxona bojlarining summolari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentidan olinadigan ishlar, xizmatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari (SK-207)

O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan taqdim etilgan ishlar, xizmatlar, agar ularning realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lsa va Soliq kodeksiga muvofiq ularga qo'shilgan qiymat solig'i solinishi kerak bo'lsa, ishlarni, xizmatlarni oluvchi O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchisining soliq solinadigan oborotidir.

Ishlar, xizmatlarni oluvchida soliq solinadigan baza yuqorida ko'rsatilgan O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad bo'yicha to'lov manbayida ushlab qolinishi lozim bo'lgan soliq summasi chegirib tashlanmagan holda belgilanadi.

Byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi belgilangan stavka va soliq solinadigan bazadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Olingan ishlar, xizmatlar uchun haq to‘lash chet el valyutasida amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan oborot bu oborot amalga oshirilgan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lov hujjati Soliq kodeksning 218-moddasiga muvofiq soliq summasini hisobga olish huquqini beradi.

Agar bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar Soliq kodeksning 208, 209 va 210-moddalarida sanab o‘tilgan ishlardan, xizmatlardan iborat bo‘lsa, yuqorida ko‘rsatilgan qoidalar qo‘llanilmaydi.

6.4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining bo‘yicha imtiyozlar va preferensiyalar

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko‘proq imtiyozlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular Soliq kodeksida to‘rt guruhga bo‘lib berilgan. Ular:

1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda);

2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda);

3) soliqdan ozod etiladigan sug‘urta xizmatlari (210-modda);

4) soliqdan ozod etiladigan import.

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan quyidagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

1) yuridik va jismoniy shaxslarga muayan huquqlar berilganda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji, patent boji, yig'im yoki boshqa to'lovlar undiriladigan xizmatlar;

2) maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

3) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

4) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;

5) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek, nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;

6) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

7) pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

8) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;

9) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;

10) shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek, temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari. Shahar

yo'lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo'lovchilar tashish bo'yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayan yo'nalishlar bo'yicha qatnov jadvaliga binoan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ushbu bandning qoidalari yuridik va jismoniy shaxslarning buyurtmalariga ko'ra shahar yo'lovchilar tashish transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo'yicha xizmatlarga, tadbirlar o'tkazish uchun tashish bo'yicha xizmatlarga, shu jumladan, shahar tashqarisiga tashishga ham tatbiq etiladi;

11) oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;

12) tibbiy xizmatlar (kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno) va veterinariya xizmatlari, dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar. Ushbu bandning qoidalarini qo'llash maqsadlarida:

-tibbiy xizmatlar jumlasiga tibbiy yordam xizmatlari va sanitariya xizmati ko'rsatish, diagnostika, profilaktika va davolash xizmatlari, gomeopatik, stomatologik xizmatlar, tish protezlari tayyorlash bo'limlari va kabinetlari, narkologiya ambulatoriyalari, haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish komissiyalari, dezinfeksiya stansiyalari, sanitariya va epidemiyaga qarshi kurash yo'nalishidagi laboratoriyalar hamda bo'linmalar, boshqa tibbiy hamda tibbiy-sanitariya yo'nalishidagi muassasalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi;

-veterinariya xizmatlari jumlasiga hayvonlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, hayvonlar kasalliklari paydo bo'lishining, tarqalishining oldini olish hamda bu kasalliklarni tugatish, aholini hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan

kasalliklardan muhofaza qilish, O‘zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari olib kirilishidan muhofaza qilish, hayvonlarga veterinariya xizmati ko‘rsatilishini amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida veterinar osoyishtalikni, davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya, veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta’minlash kiradi;

13) havo kemalariga xizmat ko‘rsatish yuzasidan bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan, aeronavigatsiya xizmati;

14) sanatoriy-kurort, sog‘lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari. Ushbu bandni qo‘llash maqsadida:

- sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko‘rsatiladigan xizmatlar ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ko‘rsatilishidan qat’i nazar sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish xizmatlari jumlasiga kiradi

- turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazarda tutilgan turistik xizmatlar ko‘rsatish uchun yo‘llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kiradi. Barcha turistik-ekskursiya xizmatlari turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasida belgilangan transportda xizmat ko‘rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doir xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo‘ladi;

- jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari jumlasiga sport inshootlarida sport musobaqalari, bayramlari, sport-tomosha tadbirlari, sport inshootlarida o‘tkaziladigan kalendar va match uchrashuvlari, sport turlari bo‘yicha

o'quv guruhlari hamda komandalarida, sog'lomlashtirish, umumjismaniy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish yo'nalishidagi, chiniqish, suzish, sog'lomlashtirish maqsadidagi yugurish va yurish, atletika, ritmika va davolash gimnastikasi maktablari hamda klublarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari o'tkazish bo'yicha, sport inshootlariga qatnovchilarga biletning (abonementlarning) qiymatida nazarda tutilgan sport-texnika asbob-uskunalarini, trenajyorlarni, inventarlarni, sport ust-boshlarini berib turish bo'yicha xizmatlar hamda boshqa xizmatlar kiradi;

15) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

16) geologiya va topografiya ishlari;

17) bosma mahsulotlar, shuningdek, bosma mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari).

- bosma mahsulotlar jumlasiga kitoblar, gazetalar, jurnallar, ma'lumotnomalar, risolalar, albomlar, plakatlar, bukletlar, otkritkalar, daftarlar, rasm va chizmachilik albomlari, blankalar hamda boshqa bosma mahsulotlar kiradi;

- tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari) jumlasiga maket tayyorlash, kompyuter grafikasi, sahifalash, original maketlar tayyorlash, muqovalash, adadlarni tayyorlash, reklama murojaatlarini qabul qilib olish, rasmiylashtirish va nashrlarda joylashtirish, rang berish, yuridik va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta'minlash, axborot to'plash hamda uni qayta ishlash, matnlarni tarjima qilish ishlari, magnit va qog'oz nusxalarda pochta aloqasi hamda Internet orqali realizatsiya qilish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdagi tahririy, matbaa va noshirlik ishlari kiradi. Alohida va uzil-kesil ishlar (xizmatlar) tarzida amalga oshiriladigan, matbaa mahsuloti ishlab chiqarish hamda uni realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan tahririy, matbaa va noshirlik ishlariga (xizmatlariga) qo'shilgan qiymat solig'i solinadi;

18) O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O‘zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

19) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlilar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek, grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

20) uy-joy fondini saqlash va ta‘mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta‘mirlash yuzasidan ko‘rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo‘jaliklari, umumiy foydalanishdagi antennalarni o‘rnatish hamda ularni tasarruf etish bo‘yicha xo‘jaliklar, yer resurslari va davlat kadastri, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta‘mirlash boshqarmalari hamda bo‘limlarining bevosita aholi tomonidan haq to‘lanadigan xizmatlari, shu jumladan, ushbu xizmatlarga xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari orqali haq to‘lash kiradi;

21) vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo‘linmalari o‘tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari;

22) davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o‘rgatish xizmatlari;

23) o‘zi yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti;

24) ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlov bo‘linmalari xizmatlari;

25) byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproq va geobotanika ishlari;

26) davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda;

27) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;

28) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk;

29) davlat mulkini ijaraga berish bo'yicha xizmatlar;

30) ommaviy axborot vositalarini va kitob mahsulotlarini yetkazib berish xizmatlari.

31) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra tijorat banklari tomonidan o'z mablag'lari hisobidan qurilayotgan ko'chmas mulk obyektlari.

Moliyaviy xizmatlarning quyidagi turlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan:

1) kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan, bank kafolatlari berish;

2) depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan, vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;

3) to'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar;

4) milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno;

5) yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, investitsiya vositachilarining qimmatli qog'ozlar depo-hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

6) qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni o'tkazish hamda qimmatli qog'ozlar reyestrini yuritish bo'yicha operatsiyalar, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha operatsiyalar kiradi,

ularni tayyorlash bo'yicha xizmatlar bundan mustasno;

7) qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish;

8) kliring operatsiyalari;

9) akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

10) pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar;

11) chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;

12) kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);

13) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

14) forfeyting va faktoring operatsiyalari;

15) lombard operatsiyalari (garovga qo'yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);

16) jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining oboroti;

17) mijozlarning hisob raqamlariga banklar tomonidan elektron masofali xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 29-mayda 2460-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank boshqaruvi va Davlat soliq qo'mitasining 2013-yil 29-apreldagi 38-sonli, 8/1-sonli hamda 2013-15-sonli qarori bilan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlarga taalluqli operatsiyalar ro'yxati tasdiqlangan.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan sug'urta xizmatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sugʻurta qilish, birgalikda sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlari;

b) qayta sugʻurta qilishga topshirilgan shartnomalar boʻyicha vositachilik haqi va tantemalar;

v) sugʻurta agenti, sugʻurta va qayta sugʻurta brokeri, syurveyer hamda sugʻurta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

g) qayta sugʻurta qilishga topshirilgan shartnomalar boʻyicha sugʻurta toʻlovlari ulushining qayta sugʻurtalovchilar tomonidan toʻlanadigan toʻlovini;

d) sugʻurta qilish, birgalikda sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish boʻyicha daromadlar;

e) sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) koʻrsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

j) qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sugʻurta qildiruvchi tomonidan qayta sugʻurtalovchiga oʻtkazilgan foizlar;

z) hayotni sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha sugʻurta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

i) sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan, sugʻurta rezervlari va sugʻurta fondlari mablagʻlarini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sugʻurta qilish, birgalikda sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sugʻurtalovchiga oʻtgan, sugʻurta qildiruvchining (naf oluvchining) etkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sugʻurta qilish shartnomalari muddatidan ilgari

tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

n) bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta to'lovi (sug'urta to'voni);

b) preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

v) sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

g) sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

Soliqdan ozod qilinadigan import

Quyidagi tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan, ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) mablag'lari, shuningdek, grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek, dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariyaga mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xomashyo. Mazkur imtiyoz olib kirilayotgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

7) O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarni yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yog'och-taxta materiallari va yog'och.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh

pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-726-qaroriga muvofiq 2008-yilning 1 yanvaridan boshlab respublika inkassatsiya birlashmasi - bo'shaydigan mablag'larni inkassatsiya xizmatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga maqsadli yo'naltirish sharti bilan qo'shilgan qiymat solig'i va mulk solig'i to'lashdan ozod etildi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-1166-qaroriga muvofiq quyidagi soliq imtiyozlari berilgan:

Tijorat banklari tomonidan, jumladan, ishlab chiqarishni tashkil etish va yo'lga qo'yish hamda mahsulotlarni sotishda muvaffaqiyatli ish tajribasiga ega boshqa investorlar ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-noyabrdagi F-4010-son farmoyishi-ning 2-bandida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tatbiq etildi.

“Tijorat banklariga iqtisodiy nochor korxonalarini realizatsiya qilish tartibini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.11.2008-yildagi 4010-sonli farmoyishiga muvofiq berilgan soliq imtiyozlari:

- Bankrot korxonalarini yoki ularning mol-mulkini tijorat banklari mulkiga topshirish, sotish, uni xo'jalik subyektlari ustav fondiga kiritish, shuningdek, bankrot korxonalar mol-mulki bazasida yangidan tashkil etilgan xo'jalik subyektlarini keyingi navbatda banklar tomonidan realizatsiya qilish **qo'shilgan qiymat solig'iga** tortishda ozod etiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda «Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risida »gi **PQ-1672-sonli** qaroriga ko'ra, **2012-yilning 1 yanvaridan boshlab** ommaviy axborot vositalari va kitob

mahsulotlarini yetkazib berish xizmatlari **qo‘shilgan qiymat solig‘iga** tortilmasligi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 7-yanvardagi “2015-yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi dasturi va 2016-yilgi qurilishning asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi **PQ-2282**-sonli qaroriga muvofiq loyihalarni amalga oshirish doirasida OTB va ITBning qarz mablag‘lari hisobiga sotib olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) - **qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilindi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi PQ-2699 sonli qaroriga ko‘ra quyidagi soliq imtiyozlarinin amal qilish muddati **2020-yil 1 yanvarga qadar uzaytirildi:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 4-apreldaqi “Samarqand avtomobil zavodida avtotransport vositalari ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1736-sonli qarori 3-bandidagi “Samarqand avtomobil zavodi” MCHJga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 14-dekabrdaqi “Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish va respublika avtotransport parkini yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-531 qarori bilan ko‘zda tutilgan: “Samarqand avtomobil zavodi” MCHJni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘idan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘idan, yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘idan, qo‘shilgan qiymat solig‘idan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlesh va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalardan **2020-yil 1-yanvargacha** ozod etildi.

2. Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 7-avgustdaqi “Xorijiy investitsiyalar jalb etilgan “JV MAN Auto - Uzbekistan”

mas'uliyati cheklangan jamiyat korxonasini tashkil etish to'g'risida"gi 224-sonli qarorining 4-bandida belgilangan: "JV MAN Auto - Uzbekistan" MCHJni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan, **qo'shilgan qiymat solig'idan**, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'idan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etilgan.

6.5. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992-yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996-yilda 17 foizni, 1997-yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999-yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'ining 3 xil stavkasi (20 %, 15 %, va 0 %) amalda qo'llanilgan. Faqat 3 ta band, ya'ni eksport, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga beriladigan mineral o'g'it va yoqilg'i moylash materiallari hamda diplomatik vakolatxonalar va unga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilinadigan tovar (ish va xizmat)lar "0" stavkasi bo'yicha soliqqa tortilgan. 15 %li qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi esa un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari hamda import qilinadigan tirik mol va bug'doy kabi mahsulotlarga nisbatan belgilandi.

2000-yildan hozirgi kungacha respublikamizda 20 foizli va "0" foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda. Umuman olganda "0" stavka deganda korxonalar ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilmaydi, ya'ni "nol" ga teng degani.

Tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga **nol darajali stavka** bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq olib chiqish **tovarlar eksportidir**.

Quyidagilarga "0" darajali stavka bo'yicha soliq solinadi:

◆ ***Tovarlarni eksport qilishga:***

Tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. Tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq olib chiqish tovarlar eksportidir.

Tovarlarning eksport qilinganligi tasdiqlanmagan taqdirda, mazkur tovarlarni realizatsiya qilish oborotiga belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

◆ ***Tovarlarning eksport qilinganligini tasdiqlash***

Tovarlarning eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

- kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi);

- tovarlarni eksport qilish rejimiga chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayin etilgan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi qayd belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo'yicha realizatsiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (topshiriq beruvchi) tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- soliq to'lovchi bilan vositachi yoki ishonchli vakil o'rtasidagi vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko'chirma nusxasi);

- soliq to'lovchining topshirig'iga ko'ra (vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasiga muvofiq) eksportga tovarlar yetkazib berishni amalga oshirayotgan shaxsning tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga yetkazib berish uchun chet ellik shaxs bilan tuzilgan kontrakti (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi);

- tovarlarni eksport rejimiga chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasining ko'chirma nusxasi.

◆ ***Chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga):***

Chet el tarafi o'zarolik prinsipiga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining, shu jumladan, ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda nol

darajali stavka qo'llanilishi tatbiq etiladigan O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarining va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

◆»Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga:

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa, nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq «erkin muomalaga chiqarish» rejimiga joylashtiriladigan bo'lsa, belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

◆ Xalqaro yo'nalishda tashishlarga:

Xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi:

-tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish. Tranzit yuklarni tashish jumlasiga yukning tranzitini amalga oshirish uchun chet ellik shaxslar bilan to'g'ridan to'g'ri tuzilgan shartnomalar yoki xalqaro (idoralararo) transport bitimlari hamda bojxona organlarining mazkur tranzit yuklar haqiqatda olib kirilganligi va olib chiqilganligi to'g'risida belgilari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet el tranzit yuklarini tashish va ularga xizmat

ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi;

-yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochmani xalqaro yo'nalishda tashish. Agar jo'natish punkti yoki tayin etilgan punkt O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, xalqaro yo'nalishlarda tashish hisoblanadi.

◆ **Aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlarga:**

Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan, shuningdek, idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining bo'linmalari tomonidan olinadigan ana shunday xizmatlarga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan (imtiyozli) oborotlardan farqli "0" stavka qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarning tannarxiga olib borilmasdan, hisobga kiritiladi.

Agarda hisobot davrida hisobga kiritilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan "0" stavkada hisoblanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi qiymati jihatidan ko'p bo'lsa, u holda oshiqcha summa soliq to'lovchining boshqa soliq va to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, unga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 16-mayda 1807-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Soliq to'lovchilarga nol darajali stavkani qo'llash natijasida xosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasini qaytarish to'g'risida nizomni tasdiqlash xaqida" gi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining Qarori bilan belgilangan tartibda qaytariladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining vatani hisoblangan Fransiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha to‘rtta stavka amal qiladi, ya‘ni standart stavka, qisqartirilgan stavka, oraliq stavka va oshirilgan stavka.

6.6. Import qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartibi

Import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari bo‘lib, tovarlarni import qiladigan yuridik shaxslar, shuningdek, boj to‘lamasdan o‘z ehtiyojlari uchun me‘yorida ortiqcha tovarlar olib kiradigan jismoniy shaxslar hisoblanadi (demak, jismoniy shaxslar ham bevosita qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lishi mumkin).

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan obyekt bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O‘zbekiston hududiga import qilinadigan tovarlar hisoblanadi.

Tovar deganda iste‘molga mo‘ljallangan va qiymatga ega bo‘lgan barcha narsalar tushuniladi.

Import tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun asos bo‘lib, bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo‘yicha soliq solinadigan oborot hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aksiz solig‘i summasi (aksiz osti tovarlar bo‘yicha) kiritiladi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_{QQS} = (IQT BQ + BBS + AS) \times QQS_{ST} / 100$$

Bu yerda:

S_{QQS} – qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi

IQTBQ – Import qilinadigan tovarlarning bojxona qiymati;

BBS – Bojxona boji summasi;

AS – aksiz solig‘i;

QQS_{ST} – qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i **20 foizli** stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Tovarlar respublika hududiga import qilinishida qo‘shilgan qiymat solig‘i bojxona deklaratsiyasi qabul qilinishiga qadar yoki u bilan bir vaqtda to‘lanadi. Agar bojxona deklaratsiyasi belgilangan muddatda topshirilmasa qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash muddatlari bojxona deklaratsiyasi topshirish muddati tugagan kundan boshlab hisoblab chiqariladi.

Jismoniy shaxslar soliqni naqd pul bilan bojxona organi posti kassasiga belgilangan tartibda to‘lashlari mumkin.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘langan summalari hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kirim qilinib, keyin ular respublika byudjeti daromadlariga qayd etiladi. Bojxona organlari 3 kun muddat ichida undirilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini respublika byudjetiga o‘tkazadilar.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi hududiga ishlar, xizmatlarni import qiluvchi yuridik shaxslar ana shu import qilinadigan ishlar, xizmatlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanadi.

Tuzilgan shartnomalar (kontraktlar)ga muvofiq respublika hududiga import qilinadigan ishlar va xizmatlar qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan obyekt hisoblanadi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i ishlar, xizmatlar bajarilganligi dalilini tasdiqlovchi hujjatlar (dalolatnoma, ma`lumotnoma yoki boshqa hujjatlar) asosida quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

$$\mathbf{Sqqs = S \times N/100,}$$

bu yerda:

Sqqqs - qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

S - dalolatnoma, ma‘lumotnoma yoki boshqa hujjatlarga ko‘ra tasdiqlanadigan, import qilinadigan ishlar, xizmatlar qiymati;

N - qo‘shilgan qiymat solig‘ining foizdagi stavkasi.

Realizatsiya qilinadigan joyi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan import qilinadigan ishlar, xizmatlar import qilinadigan ishlar, xizmatlar deb tan olinadi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘idan quyidagilar ozod qilinadi:

- O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan shartnomalar (bitimlar) bo‘yicha xalqaro va hukumatga qarashli xorijiy moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlar bergan qarzlar va grantlar hisobiga yuridik shaxslar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lmagan yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan ishlar, xizmatlar;

- byudjet tashkilotlari buyurtmalari bo‘yicha byudjet mablag‘lari hisobiga O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan ishlar va xizmatlar;

- Soliq kodeksi amalga kiritilguniga qadar qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida soliq to‘lovchilarga taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugaguniga qadar saqlanib qoladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i 20 (yigirma) foiz stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Bajarilgan ishlar, xizmatlar dalili tasdiqlangan kundagi Markaziy bank kursi bo‘yicha qayta hisoblangan ishlar, xizmatlar qiymatidan kelib chiqqan holda amalda ishlar bajarilganini, xizmatlar ko‘rsatilganini tasdiqlaydigan hujjatlar asosida import qilinadigan ishlar va xizmatlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i milliy valyuta (so‘m)da hisoblab chiqariladi.

Montaj qilish, ishga tushirish, sozlash, maslahatlar, o'qitish va boshqa ishlar, xizmatlarga doir import qilinadigan ishlar va xizmatlarga, olib kelinadigan uskunalarga doir xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i tuzilgan shartnomalar (kontraktlar) ga muvofiq belgilangan mazkur ishlar, xizmatlarning qiymati asosida hisoblab chiqariladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovi ana shu ishlar, xizmatlarni import qiluvchi shaxs yozib bergan hamda unda «import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi to'lovi» degan yozuv bitilgan to'lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i amalda ishlar, xizmatlar bajarilgan kundan boshlab 5 kun ichida byudjetga to'lanadi. qo'shilgan qiymat solig'i faqatgina milliy valyuta - so'mda to'lanadi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi ishlar, xizmatlar importi amalga oshirilgan hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmasdan, belgilangan shaklda oylar bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

Tovarlarni import qilishda quyidagi hollarda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan, ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib

kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlilar (kreditlar) mablag‘lari, shuningdek, grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo‘ljallangan buyumlar, shuningdek, dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo‘ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kirilayotgan xomashyo. Mazkur imtiyoz olib kirilayotgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalariga tatbiq etilmaydi;

7) O‘zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarini yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e‘tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari

va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yog'och-taxta materiallari va yog'och.

6.7. Soliqni hisobga olish va hisobvaraqq-fakturani rasmiylashtirish tartibi

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlashda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi haqiqatda olingan va (yoki) soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan hamda o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'ining summasini hisobga olish huquqiga ega, agar bunda quyidagi shartlar bajarilsa:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi Soliq kodeksning 197-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lsa;

1-1) tovarlardan (ishlardan, xizmatlardan) soliq solinadigan oborotlar, shu jumladan, nol darajali stavka qo'llaniladigan oborotlar maqsadida foydalanilsa;

2) olingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) yetkazib beruvchi tomonidan yozilgan hisobvaraqq-faktura yoki Soliq kodeksning 222-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan qo'shilgan qiymat solig'i alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat mavjud bo'lsa;

3) tovarlar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'i byudjetga to'langan bo'lsa. Agar import qilingan tovarlar bo'yicha soliqni byudjetga to'lashdan ozod etish tarzida bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan imtiyoz berilgan bo'lsa ham qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinadi;

4) Soliq kodeksning 207-moddasida nazarda tutilgan hollarda

qo‘shilgan qiymat solig‘i byudjetga to‘langan bo‘lsa;

5) nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirma mavjud bo‘lsa.

Mol-mulk ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘yilma sifatida olinganda oluvchi yetkazib beruvchi tomonidan to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilgan holda hisobga olish huquqiga ega.

Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan tovarlarni eksportga realizatsiya qilish oboroti maqsadida foydalaniladigan, haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) qo‘shilgan qiymat solig‘i tovarlar eksportidan soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag‘iga kelib tushgan valyuta tushumining ulushida hisobga olinadi. Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachi, ishonchli vakil orqali eksportga realizatsiya qilingan taqdirda, qo‘shilgan qiymat solig‘i vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga kelib tushgan valyuta tushumining summasi ulushida hisobga olinadi.

Tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shimcha haq olmasdan ishlar bajarilganda, xizmatlar ko‘rsatilganda moddiy resurslar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi, shu jumladan, ehtiyot qismlar va detallar qiymati ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda hisobga olinadi.

Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha olingan taqdirda, komitent, topshiriq beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishda to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobot davrida realizatsiya qilingan tovarlar ulushida hisobga olinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga va (yoki) qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy to‘lashga o‘tilgan taqdirda, yuridik shaxs bunday turdagi to‘lovlarga o‘tilgan paytdan e‘tiboran tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qoldiqlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini hisobga olish huquqiga ega, ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno. Shunday tartib imtiyozlar bekor qilinganda, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash bo‘yicha majburiyat yuzaga kelgan soliq to‘lovchilarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchida soliq solinadigan va solinmaydigan oborotlar, shu jumladan, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan oborotlar mavjud bo‘lgan taqdirda, qo‘shilgan qiymat solig‘i Soliq kodeksning 221-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Mol-mulkni ijaraga berishga, intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqini berishga xizmatlar sifatida qaraladi.

Quyidagilar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi hisobga olinmaydi:

1) olinayotgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo‘yicha, shuningdek, moliyaviy ijaraga, shu jumladan, lizingga berish uchun olinayotgan mol-mulk bo‘yicha;

2) qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lmagan yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek, Soliq kodeksga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar tomonidan foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha;

3) O‘zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e‘tirof etilmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha;

4) tekinga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha, bundan oluvchi tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha belgilangan tartibda hisobga olinishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘langan hollar mustasno;

5) chegirib tashlanmaydigan xarajatlarni amalga oshirish maqsadida olingan mol-mulk bo'yicha.

Hisobga olinadigan soliq summalariga tuzatish kiritish

Ilgari hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi hollarda hisobga olishdan chiqarib tashlanishi kerak:

- qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun yuridik shaxslar tomonidan foydalanilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha;

- Soliq kodeksining 218-moddasining birinchi qismida belgilangan qoidalarga rioya etilmagan taqdirda;

qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan normalardan, bunday normalar mavjud bo'lmaganda esa soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalardan ortiqcha moddiy resurslar bo'yicha yo'qotishlar va buzilishlar;

issiq suv ta'minoti (hisobga olish asboblari mavjud bo'lmagan taqdirda) va markaziy isitish uchun tasdiqlangan iste'mol normalaridan ortiq miqdorda aholiga yetkazib beriladigan issiqlik energiyasi bo'yicha.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga (qo'shilgan qiymat solig'i to'lamaydiganlar toifasiga) o'tganda ilgari hisobga olingan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari, shuningdek, tayyor mahsulot qoldiqlari bo'yicha hisobga olishga kiritilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritiladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha imtiyoz berilganligi munosabati bilan soliq solinmaydigan oborotlar yuzaga kelgan soliq to'lovchilarga ham tuzatish kiritishning shunga o'xshash tartibi tatbiq etiladi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritish yuzaga kelgan soliq davrida amalga oshiriladi.

Soliq solinmaydigan realizatsiya qilish oboroti mavjud bo'lgan taqdirda soliqni hisobga o'tkazish tartibi

Soliq solinmaydigan oborot uchun foydalaniladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha mahsulot yetkazib beruvchilarga va import bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmaydi, balki ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatida hisobga olinadi.

Soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot mavjud bo'lganda soliq solinadigan oborotga, shu jumladan, nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborotga, shuningdek, yuridik shaxsning o'z ehtiyojlari uchun (xarajatlar sifatida qaraladigan) oborotga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summa qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchining tanloviga binoan alohida-alohida va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashning tanlangan usuli kalendar yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas.

Mutanosib usul qo'llanilganda hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi soliq solinadigan oborotning umumiy oborot summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanadi.

Alohida-alohida usul qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot maqsadlarida foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan xarajatlar hamda qo'shilgan qiymat solig'i summalari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkoni bo'lmagan umumiy xarajatlar bo'yicha xarajatlarni taqsimlash mutanosib usulda amalga oshiriladi.

Hisobvaraqa-fakturani rasmiylashtirish tartibi

Hisobvaraqa-faktura qat'iy hisobot hujjati bo'lib, unda

quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

1) hisobvaraqa-fakturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi;

2) hisobvaraqa-faktura ilova qilinadigan tovar jo'natish hujjatlarining yoki shartnomaning raqami va sanasi;

3) soliq to'lovchining va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib oluvchining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda identifikatsiya raqami;

4) realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning nomi va o'lchov birliklari (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa);

5) o'lchov birligidan (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa) kelib chiqqan holda realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning hisobvaraqa-faktura bo'yicha soni (hajmi);

6) shartnoma (kontrakt) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar) qo'llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o'lchov birligiga to'g'ri keladigan narx (tarif);

7) realizatsiya qilinayotgan tovarlar, bajarilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar jami sonining (hajmining) qo'shilgan qiymat solig'isiz qiymati;

8) aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ining stavkasi va summasi;

9) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va summasi;

9¹) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkasi va summasi;

10) realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar jami sonining (hajmining) aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat

solig‘i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisobga olingan qiymati.

Hisobvaraqa-faktura qog‘ozdagi shaklda yoki elektron hujjat tarzida tuzilishi mumkin.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan oborotni va qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lmagan yuridik shaxslar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi shaxsga hisobvaraqa-faktura taqdim etishlari shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

1) yo‘lovchilar tashishni yo‘l chiptalari bilan rasmiylashtirish;

2) tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitansiya berish;

3) tovarlarning eksport-import tarzida yetkazib berilishini rasmiylashtirish;

4) qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladigan moliyaviy ijara (shu jumladan, lizing) shartnomasi bo‘yicha mol-mulkni topshirish, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash majburiyatlari yuzaga keladigan hollar bundan mustasno. Bunda tegishli hujjatlar (moliyaviy ijara shartnomasining tarkibiy qismi bo‘lgan ijara (lizing) to‘lovlari jadvali; hisobvaraqa; ijaraga (lizingga) oluvchiga ijara (lizing) to‘lovlarni to‘lash uchun yuborilgan yozma bildirish va shu kabilar) bilan rasmiylashtirilgan har bir ijara (lizing) to‘lovgiga ham hisobvaraqa-faktura yozilmaydi;

5) bank operatsiyalarini mijozning shaxsiy hisobvarag‘idan ko‘chirma berish orqali rasmiylashtirish;

6) sug‘urta xizmatlarini topshiriq shartnomasi va (yoki) sug‘urta polisi orqali rasmiylashtirish;

7) Hisobvaraqa-fakturada ko‘rsatilgan ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda, ishlarni (xizmatlarni) haqiqatda mazkur ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko‘rsatilganligini) tasdiqlovchi

hujjatlar bilan rasmiylashtirish.

1–6-qismida ko‘rsatilgan hujjatlar hisobvara-q-faktura o‘rnini bosadigan hujjatlardir. Bunda qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilgan taqdirda, ushbu hujjatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi albatta ajratib ko‘rsatilishi kerak.

Kelgusida tovarlarni yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish uchun oldindan to‘langan haq (bo‘nak) yozilgan hisobvara-q hisobvara-q- faktura bo‘lmaydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lmagan, shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar hisobvara-q-fakturada qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ko‘rsatmaydilar hamda «qo‘shilgan qiymat solig‘isiz» degan shtamp bosadi (yozib qo‘yadi).

Hisobvara-q-faktura tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanada yoziladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo‘lda tashishlar, transport-ekspeditorlik xizmati, bank operatsiyalari, shuningdek, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) uzluksiz yetkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar o‘yning oxirgi kunida bir marta hisobvara-q-faktura yozadi.

Hisobvara-q-fakturada tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati va qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi milliy valyutada ko‘rsatiladi.

Tuzilgan shartnomalarning shartlariga binoan tovarlariga, ishlari va xizmatlariga narxlar (tariflar) chet el valyutasida belgilanadigan yuridik shaxslar hisobvara-q-fakturalarni chet el valyutasida yozib, ayni bir vaqtda uni hisobvara-q-faktura yozib berilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha qayta hisoblagan holda milliy valyutada ifodalaydi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi soliq solinadigan bazaga uni ko'paytirishga (kamaytirishga) qaratilgan tuzatish kiritgan taqdirda, mazkur tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi tomonidan tasdiqlanadigan qo'shimcha hisobvaraƒ-faktura tuziladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi qo'shimcha hisobvaraƒ-fakturada quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi kerak:

1) qo'shimcha hisobvaraƒ-fakturaning raqami va tuzilgan sanasi;

2) hisobvaraƒ-fakturani to'ldirishda zarur bo'lgan, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan rekvizitlar;

3) tuzatish kiritilayotgan hisobvaraƒ-fakturaning raqami va sanasi;

4) qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobiy);

5) qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobiy).

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar o'zlari olgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraƒ-fakturalarning, shuningdek, realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha taqdim etilgan hisobvaraƒ-fakturalarning reestrini yuritishi shart. Bunda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraƒ-fakturalar reestriga faqat qo'shilgan qiymat solig'i ajratib ko'rsatilgan hisobvaraƒ-fakturalar kiritiladi.

Hisobvaraƒ-fakturaning shakli, uni to'ldirish tartibi, shuningdek, kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraƒ-fakturalar reestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

1998-yil 1 yanvardan O'zbekistondagi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun, shu jumladan, soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan kichik korxonalar, savdo va umumiy

ovqatlanish korxonalari hamda qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod bo‘lgan korxonalar ham tovarlarni sotganda, ish va xizmatlar ko‘rsatganda hisobvaraƒ fakturani to‘ldirishi qonun asosida shart qilib belgilandi.

Hisobvaraƒ-faktura mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan tovarlarni yuklab jo‘natilishi, ish va xizmatlar ko‘rsatilishi sanasi (kuni)dan kechiktirmasdan yoziladi.

Hisobvaraƒ-fakturada - uning tartib raqami va yozilgan sanasi, jo‘natiladigan tovarlar bo‘yicha shartnomalar raqami va sanasi hamda soliq to‘lovchi va xaridorning nomi, manzili STIR va shu kabi rekvizitlari ko‘rsatiladi.

Jadvalli shaklni to‘ldirishda quyidagilarni qayd etish kerak (6-iloƒa):

1-ustunda, tovarlar (ish va xizmatlar) nomi;

2-ustunda tovarlarning o‘lchov birligi (dona, metr, kg, va xokazo);

3-ustunda yuklab jo‘natiladigan tovarlarning miqdori yoki soni;

4-ustunda tovarlarning shartnoma bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘isiz narxi;

5-ustunda tovarlarning jami yetkazib berish qiymati (qo‘shilgan qiymat solig‘isiz);

6-ustunda qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi, agar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod bo‘lsa chiziqcha tortib qo‘yiladi;

7-ustunda jo‘natilayotgan tovarlar bo‘yicha tegishli stavkalarga ko‘ra hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

8-ustunda, jo‘natilayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan hisoblangan summasi.

Soliq kodeksiga ko‘ra qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lmagan, shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar 6- va 7- ustunga “Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiz” degan

shtampini qo'yishadi, agar shtamp bo'lmasa qo'lda yozib qo'yishadi va 8 ustunni to'ldirishmaydi.

Agarda korxonada aksiz osti tovarlar ishlab chiqarsa unda hisobvaraƒ-fakturaga qo'shimcha ustunlar kiritiladi va ushbu ustunlarda aksiz stavkasi va summasi aks ettiriladi (chunki aksiz summasi ham qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi).

1-Misol. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi korxonada 100000 so'mga (QQS siz) mahsulot yuklab jo'natdi. Ushbu holatda QQS summasi 20 foizli stavkada hisoblansa 20000 so'mni ($100000 * 20\%$) tashkil etadi. Demak, mahsulot sotishda tushgan tushum QQS bilan birgalikda 120000 so'mni ($100000+20000$) tashkil etadi. Hisobvaraƒ faktura quyidagicha rasmiylashtiriladi:

6.2-jadval³¹

HISOBVARAQ-FAKTURA

Tovar ish xizmatlar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Yetkazib berish qiymati	Aksiz solig'i		QQS		Yetkazib berishning hisobga olingan qiymati
					Stavka	Summa	Stavka	Summa	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Mahsulot A	dona	1	100000	100000	Aksiz solig'isiz		20%	20000	120000
Jami to'lashga:	Bir yuz yigirma ming so'm								

2-Misol. Korxonada tomonidan aksiz osti tovar ishlab chiqariladi. Oltindan ishlangan yuvelir mahsulotning (uzuk) tannarxi 65000 so'm (QQS va aksiz solig'isiz). Ushbu mahsulotga QQS va aksiz solig'i quyidagicha hisoblanadi.

31 Gadoyev E.F., i dr. Kosvenniye nalogi: nalog na dobavlenyuyu stoimost, aksizniy nalog. – Tashkent: «NORMA», 2011. – 220 s.

1-bosqich: Amaldagi qonunchilikka ko‘ra aksiz solig‘i summasi QQSning bazasiga kiritiladi. Shu munosabat bilan oldin aksiz solig‘i hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra zargarlik buyumlariga aksiz solig‘i stavkasi 25 foiz belgilangan.

$$65000 * 25 \% = 16250 \text{ so‘m};$$

2-bosqich: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699 sonli qaroriga ko‘ra QQS stavkasi 20 foiz belgilangan.

$$\text{QQS bazasi} = (65000 + 16250) = 81250 \text{ so‘m};$$

$$\text{QQS summasi} = 81250 * 20 \% = 16250 \text{ so‘m};$$

Mahsulotning sotish bahosi (QQS va Aksiz solig‘i) bilan birgalikda 97500 so‘mni tashkil etadi. Hisobvaraqa faktura quyidagicha rasmiylashtiriladi:

6.3-jadval³²

HISOBVARAQ-FAKTURA

Tovar Ish xizmatlarnomi	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Yetkazib berish qiymati	Aksiz solig‘i		QQS		Yetkazib berish- ning hisobga olingan qiymati
					Stavka	Summa	Stavka	Summa	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Mahsulot Uzuk	dona	1	65000	65000	25 %	16250	20%	16250	97500
Jami to‘lashga:	To‘qson yetti ming besh yuz so‘m								

Hisobvaraqa-faktura korxonaga rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolandi hamda muhr bilan tasdiqlandi.

Hisobvaraqa-faktura yetkazib beruvchi korxonaga tomonidan 2 nusxada to‘ldiriladi, 1-nusxasi xaridorga beriladi va u xaridorga

32 Gadoyev E.F., i dr. Kosvenniye nalogi: nalog na dobavlenyuyu stoimost, aksizniy nalog. – Tashkent: «NORMA», 2011. – 220 s.

qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini belgilangan tartibda hisobga kiritish uchun huquq beradi, 2-nusxasi esa korxonaning o‘zida qoladi.

6.4-jadval

**Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to‘lovchilari uchun
HISOBVARAQ-FAKTURA**

Tovar (ish, xizmat)lar nomi	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Yetkazib berish qiymati	Aksiz solig‘i		QQS		Yetkazib berishning QQSni hisobga olgan holda qiymati	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq		Yetkazib berishning transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisobgaolingan qiymati
					stavkasi	summasi	stavkasi	summasi		stavkasi	summasi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
Jami to‘lashga:												

Izox: Qo‘shilgan qiymat solig‘i solig‘i bo‘yicha hisobvaraqq-faktura shakli Adliya vazirligida 2013-yil 22-martda 2439-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining «Soliq hisobotlarining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga asosantadirlangan

Ta’kidlash joizki, bevosita aholiga pullik xizmatlar (ishlar) ni ko‘rsatadigan korxonalar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni sotishda kassa cheki yoki xizmatlar ko‘rsatilishi (ishlar bajarilishi)ni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar hisobvaraqq-faktura

hisoblanadi. Bunda bu hujjatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i ajralib turishi lozim.

O‘z mahsulotlarini (tovarlarini, ishlarini, xizmatlarini) uzluksiz yetkazib beradigan korxonalar bo‘yicha hisobvaraqq-fakturalar iste‘molchilarga hisobvaraqqni rasmiylashtirish bilan bir vaqtda, lekin bir oyda bir martadan kam bo‘lmagan tarzda yoziladi. Bunda hisobvaraqq-fakturalarning yozilishi mahsulot sotilgan hisobot davrida amalga oshiriladi.

Banklar uchun, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan operatsiyalar bajarilganda, hisobvaraqq-faktura bo‘lib mijoz shaxsiy hisobvaraqq‘idan ko‘chirma hisoblanadi.

Lizing operatsiyalari bo‘yicha lizing beruvchilar uchun hisobvaraqq-faktura bo‘lib lizing o‘bektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi hisoblanadi. Bunda tegishli hujjatlar (lizingning tarkibiy qismi hisoblanadigan lizing to‘lovlari jadvali; hisobvaraqq; lizing to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha lizing oluvchiga taqdim etiladigan bildiruvnoma va hokazo) bilan rasmiylashtiriladigan har bir lizing to‘lovi qo‘shimcha hisobvaraqq-faktura yozilmaydi.

Agar lizing shartnomasi lizing beruvchiga qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatishni nazarda tutsa, bunda mazkur xizmatlarga belgilangan tartibda hisobvaraqq-faktura yoziladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda, hisobvaraqq-faktura o‘rniga birlamchi hujjat bo‘lib quyidagi hujjatlar:

- sug‘urta korxonalar uchun - sug‘urta polisi;
- sug‘urta agentlari uchun - sug‘urta polisi va shartnoma topshirig‘i (agentlik bitimi);
- sug‘urta brokerlari uchun - sug‘urta polisi va shartnoma topshirig‘i hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo‘lda

tashishlar, bank operatsiyalari, shuningdek, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) uzluksiz yetkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar hisobot davrining oxirgi kunida bir marta hisobvaraƒ-faktura yozadi.

Agar ishlar bajaradigan korxonalarda buyurtmachiga imzo chekish uchun taqdim etiladigan, bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma - hisobvaraƒ-fakturada yoki hujjatda hisobvaraƒ-fakturaning belgilangan shaklida aks ettirilgan barcha majburiy rekvizitlar ushbu hujjatda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi ko'rsatilgan yoki qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmaganlar uchun «Qo'shilgan qiymat solig'isiz» yozuvi (shtampi) qo'yilgan holda mavjud bo'lsa, bunda mazkur hujjatlar hisobvaraƒ-fakturaga tenglashtiriladi va bunday korxonalar qo'shimcha ravishda hisobvaraƒ-faktura yozmasligi mumkin.

6.8. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va to'lash tartibi

Qo'shilgan qiymat solig'i to'laydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun hisobot davri – **yil choragidir**. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun – **bir oy**.

Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Tovarlar, ishlar, xizmatlar sotilganda qo'shilgan qiymat solig'i summasi quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$S_{qqs} = St \times S/100 \quad (1)$$

Bu yerda:

S_{qqs}–qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

St - soliqqa tortish obyekti;

S - qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi.

Xizmatlar (ishlar, tovarlar) o‘z ichiga qo‘shilgan qiymat solig‘ini oladigan narxlar va tariflar bo‘yicha sotilganda soliq quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{Cqqs = Q \times S / (S + 100),} \quad (2)$$

Bu yerda:

Q- qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasini hisobga olganda xizmatlar (tovarlar, ishlar) qiymati.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini banklar **20 foizli stavka** bo‘yicha to‘laydilar.

Byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq solinadigan oborot bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4453-sonli farmoniga muvofiq 2013-yil 1-yanvardan boshlab, yuridik shaxlar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblari davlat soliq xizmati organlariga har chorakda taqdim etish belgilandi.

Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi

Qoo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

- qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa – yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvara-q-fakturalar reestrini taqdim etadi. Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvara-q-fakturalar reestrini taqdim etadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Mavzuga doir masalalar

1-MASALA. Quyidagi ma'lumotlarga asosan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materiallar – 6500 ming sum

2. Hisobot davrida jo'natilgan tovarlar qiymati – 13200 ming sum

Yechilishi:

1. Korxonada hisobot davrida jo'natilgan tovarlari buyicha imtiyozga ega bo'lmaganligi bois jami realizatsiyadan soliq to'laydi, ya'ni:

$$\text{Sqqs} = \text{Stob} \times \text{SS} / 100 = 13200 \times 20 \% = 2640 \text{ ming so'm}$$

(bu yerda, Sqqs – iste'molchilardan undiriladigan soliq summasi; Stob – soliqqa tortiladigan oborot; SS – soliq stavkasi).

2. Byudjetga o'tkazilishi lozim bulgan soliq summasini aniqlash uchun hisobot davrida qo'shilgan qiymat solig'i bilan xarid qilingan xomashyo va materiallar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'ini ayirishimiz lozim, ya'ni:

$$\text{Tqqs} = 6500 \times 20 \% = 1300 \text{ ming so'm}$$

3. Byudjetga o'tkazilishi lozim bulgan soliq summasi hisobot davrida jo'natilgan tovarlar bo'yicha hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'idan xarid qilingan xomashyo va materiallar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining chegirmasiga teng, ya'ni:

$$\text{SBqqs} = \text{Sqqs} - \text{Tqqs} = 2640 - 1300 = 1340 \text{ ming so'm.}$$

2-MASALA. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi korxonada 100000 so'mga (QQS siz) mahsulot yuklab jo'natdi. QQS hisoblang va hisobvaraqa-fakturada aks ettiring?

Yechilishi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699 sonli qaroriga ko‘ra QQS stavkasi 2017-yil ushuni 20 foiz belgilangan. Ushbu holatda QQS summasi 20 foizli stavkada hisoblansa 20000 so‘mni ($100000 \cdot 20\%$) ashkil etadi. Demak mahsulot sotishda tushgan tushum QQS bilan birgalikda 120000 so‘mni ($100000 + 20000$) tashkil etadi.

3-MASALA. Quyidagi ma’lumotlarga asosan *qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblang* (ming so‘m).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materillar - 2500

2. Xarid qilingan asosiy vositalar - 4500

3. Hisobot davrida jo‘natilgan tovarlar qiymati - 13000

4. Asosiy vositalar realizatsiyasi - 900

5. Asosiy vositalarning eskirish qiymati - 400

Yechilishi:

1. a) $S_{qqs} = S_{tob} \times SS / 100 = 13000 \times 20 \% = 2600$ ming so‘m;

b) Asosiy vositalar realizatsiyasida qo‘shilgan qiymat solig‘i asosiy vositalarning realizatsiyasi va eskirish qiymati o‘rtasidagi farqdan hisoblanadi, ya’ni:

$S_{qqs} = T_q \times SS / (SS + 100) = 500 \times 20 / (20 + 100) = 83.3$ ming so‘m.

(bu yerda. T_q – qo‘shilgan qiymat solig‘i ham hisobga olingan tovar qiymati).

$S_{qqs} = 2600 + 83.3 = 2683.3$ ming so‘m;

2. $T_{qqs} = 2500 \times 20 \% = 500$ ming so‘m.

O‘z iste’moli uchun xarid qilingan asosiy vositalar uchun to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi hisobga olinmaydi, balki asosiy vositalarning qiymati sifatida kirim qilinadi, shuning uchun 3500 ming so‘mga xarid qilingan asosiy vositalar qiymatidagi qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobga olinmaydi.

3. $B_{qqs} = S_{qqs} - T_{qqs} = 2683.3 - 500 = 2183.3$ ming so‘m.

Mavzuga doir test savollari:

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- A. 1991-yil 15-fevraldan;
- B. 1992-yil 1-yanvardan*;
- C. 1993-yil 6-maydan;
- D. 1997-yil 24-apreldan.

2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i obyektini nima?

- A. Tovar (ish, xizmatlar) sotilishiga doir oborotlar hamda tovar (ish, xizmatlar) importi*;
- B. Muomala xarajatlari;
- C. Ishlab chiqarish tannarxi;
- D. Soliq to‘langunga qadar moliyaviy natija.

3. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda nollik stavka qachon qo‘llaniladi?

- A. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportiga*;
- B. Stenografiya xizmatlariga;
- C. Geologiya va topografiya ishlariga;
- D. Ma‘lumotlarni ishlash va axborot ta‘limotiga doir xizmatlariga.

4. Shahar yo‘lovchi transporti xizmatlari (taksi va yo‘nalishli taksidan tashqari) qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladimi?

- A. Nollik stavkada soliqqa tortiladi;
- B. 20 foizli stavkada soliqqa tortiladi;
- C. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladi*;
- D. 10 foizli stavkada soliqqa tortiladi.

5. Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadigan import tovarini belgilang.

- A. O‘zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro‘yxatida mavjud bo‘lmagan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va

ehtiyot qismlarni kiritish;

B. Aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to‘lash bo‘yicha xizmatlari;

C. Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan me‘yorlari doirasida olib kirilayotgan tovarlar*;

D. Davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan tijorat maqsadida olib kirilayotgan tovarlar.

6. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchisi bo‘lgan subyektlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘laydilar mi?

A. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lamaydilar;

B. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini majburiy to‘laydilar;

C. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar faqat import tovarlari yuzasidan QQS to‘laydilar;

D. Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy ravishda to‘laydilar*.

7. QQS tolovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisob-kitobini taqdim etish muddati qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. Har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi;

B. Har chorakda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi*;

C. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini byudjetga to‘lash hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan keyin 10 kun ichida;

D. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini byudjetga to‘lash hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

8. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini hisob-kitobini taqdim etish muddati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi*;

B. Har chorakda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi;

C. Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan keyin 10 kun ichida;

D. Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

9. QQS tolovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi;

B. Har chorakda, keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi;

C. Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan keyin 10 kun ichida;

D. Har chorakda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi*.

10. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan qo'shilgan qiymat

solig'ini to'lash muddati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi*;

B. Har chorakda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi;

C. Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan keyin 10 kun ichida;

D. Har oyda, keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi*.

11. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bu –

A. Soliq solinadigan oborotga ega bo'lgan yuridik shaxslar hamda tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar*;

B. O'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar oluv kiruvchi jismoniy shaxslar;

C. Barcha tijorat tashkilotlari;

D. Notijorat tashkilotlari.

12. Qo'shilgan qiymat solig'i quyidagicha hisoblab chiqariladi -

A. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi;

B. Soliq kodeksining 223-moddasi asosida;

C. Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi*;

D. Davlat soliq idoralari tomonidan hisoblab chiqariladi.

13. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Soliq solinadigan mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- B. Soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- C. Soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;*

D. Soliq solinadigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar.

14. Qo'shilgan qiymat solig'ini soliq solish obyekti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Soliq solinadigan oborot, soliq solinadigan import;*
- B. Soliq solinadigan daromad, soliq solinadigan import;
- C. Soliq solinadigan mulk, soliq solinadigan import;
- D. Soliq solinadigan foyda, soliq solinadigan import.

15. Qo'shilgan qiymat solig'ini soliq solish bazasi qanday belgilanadi?

A. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi;*

B. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) foydasi asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi;

C. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) miqdori asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi;

D. Realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotish harajatlari asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

16. QQS solinmaydigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek, QQS to'lovchisi bo'lmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda QQSni hisobvara-q-fakturada aks ettirganlik uchun qanday jarima qo'llaniladi?

A. Hisobvara-q-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining 20 foizi miqdorida;*

B. Hisobvaraƒ-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining 50 foizi miqdorida;

C. Hisobvaraƒ-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining 100 foizi miqdorida;

D. Hisobvaraƒ-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining 10 foizi miqdorida.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini mohiyati nimadan iborat?
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ilk bor qaysi davlatda kim tomonidan joriy etilgan?
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qanday shaxslar to‘laydi?
5. Qo‘shilgan qiymat solig‘i o‘bekti qanday aniqlanadi?
6. Soliqqa tortiladigan oborot deganda nimani tushunasiz?
7. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari va ularni qo‘llash tartibi qanday?
8. Nollik stavka qaysi tovarlar (ish va xizmatlar)ga nisbatan qo‘llaniladi?
9. Hisobvaraƒ-fakturalar qanday to‘ldiriladi va unda qo‘shilgan qiymat solig‘i qaysi punktlarda ko‘rsatiladi?
10. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?
11. Import tovarlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i qaysi formula orqali aniqlanadi?
12. Import qilinadigan ish va xizmatlarga qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash formulasini aniqlang.
13. Qanday soliq imtiyozlarining amal qilish muddati 2020-yil 1-yanvarga qadar uzaytirildi?

7-BOB: YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG'I

Tayanch soʻz va iboralar: *yuridik shaxs, mol-mulk soligʻi, rezident va norezident, soliq stavkasi, soliq obyekt va bazasi, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish obyektlari, imtiyozlar, joriy toʻlovlar, soliq hisoboti.*

7.1.Oʻzbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk soligʻining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati

Oʻzbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yoʻlidagi muhim qadamlardan biri korxonalarining mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi boʻldi. Mol-mulk soligʻi dastlab, Oʻzbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar toʻgʻrisida”gi Qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarining ishlab chiqarish fondlariga toʻlov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.

Hozirgi vaqtda ushbu soliqning huquqiy asosi boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, “Davlat soliq xizmati toʻgʻrisida”gi qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bogʻliq boʻlgan meʼyoriy hujjatlar hisoblanadi.

Oʻzbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi bevosita soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga koʻra bu soliq yuridik shaxslarning asosiy vositalari shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq boʻyicha tushumlar summasi toʻliq mahalliy byudjetlarga tushadi va u byudjetning barqaror daromad manbalaridan biri

hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad *birinchidan*, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, *ikkinchidan*, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iborat. Chunki, korxonalarning ma'naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

7.1-jadval

Mol-mulk solig'ining jami soliq tushumlari va resurs soliqlari tarkibidagi ulushi (%)³³


t/r	Soliq nomi	Yillar (%)da								
		2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	
1	Soliq tushumlari jami shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100
1.1	Mol-mulk solig'i	2,7	3,0	3,1	3,3	3,8	4,6	4,6	4,5	
2	Resurs soliqlari jami shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100
2.1	Mol-mulk solig'i	17,9	21,2	23,4	22,1	25,1	29,9	32,3	32,8	

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalardan qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

33 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi tahlili amalga oshirganda hozirgi vaqtda ushbu soliqning tushumi O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining solikli daromadlarida 4–5 foiz oralig‘ini tashkil etmoqda.

Mol-mulkinging o‘rtacha yillik qoldiq qiymati



7.1-Rasm. Yuridik haxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkasining o‘zgarish dinamikasi (%)³⁴

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari tahlili ko‘rsatganidek, 2010-yilda jami soliq tushumlarida mol-mulk solig‘i salmog‘i 2,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2014-yilda 3,8 foiz va 2017-yilda 4,5 foiz yoki 2010-yilga nisbatan 1,8 foiz punktiga ko‘paygan. Shuningdek, resurs soliqlari tarkibida mol-mulk solig‘i salmog‘i 2010-yilda 17,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2014-yilga kelib 25,1 foiz va va 2017-yilda 32,8 foiz yoki 2010-yilga nisbatan 14,5 foiz punktiga oshgan. Ushub holatni yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulklariga soliq stavkalarinini oshirilishi hamda inventarizatsiya qiymatining ko‘tarilganligi bilan izohlash mumkin. Agar 2013-yilga qadar yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkasi 3,5 foiz miqdorda undirilgan bo‘lsa,

2014–2015-yillar davomida 4,0 foiz miqdorda undirilib, 2016–2017-yillardan 5,0 foiz miqdorda belgilandi.

7.2. Mol-mulk solig‘i to‘lovchilari, soliq obyekt, bazasi va soliq stavkasi

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar quyidagilardir:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z mulkida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo‘lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, shu shaxs soliq to‘lovchidir.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining faoliyati Soliq kodeksning 20-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyat deb e‘tirof etiladi.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar bo‘lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan mol-mulk bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar bo‘ladi. Bunda Soliq kodeksning 132-moddasida ko‘rsatilgan boshqa daromadlarni olish tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralmaydi;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Soliqqa tortishning alohida rejimi oʻrnatilgan ayrim toifadagi korxonalariga, jumladan yagona yer soligʻini toʻlovchi qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, yagona soliq toʻlovchini toʻlovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar hamda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shuningdek, notijorat tashkilotlar uchun ularning asosiy faoliyati boʻyicha mol-mulk soligʻini toʻlash tatbiq etilmaydi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda, mulkida, xoʻjalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulkka ega boʻlgan va oʻz majburiyatlari boʻyicha mol-mulki bilan javob bera oladigan hamda mustaqil balans va hisob-kitob varagʻiga ega boʻlgan xoʻjalik yurituvchi subyektlar tushuniladi.

Quyidagi mol-mulk soliq solish obyektidir:

1) asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi boʻyicha olingan asosiy vositalar;

2) tugallanmagan qurilish obyektlari.

Bunda tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga muayyan qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan boʻlsa, qurilish boshlanganidan eʼtiboran yigirma toʻrt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

3) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar.

4. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalariga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruksiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan obyektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qoʻyilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyiha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarini ishga tushirish muddatlari boʻlmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish koʻrayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan

muddatlar soliq solish obyektini belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmashligi kerak.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun quyidagilar soliq solish obyektibo'lib:

- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq qaysi asosiy vositalar bo'yicha hisob yuritayotgan bo'lsa, o'sha asosiy vositalar;

- ushbu doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk soliq solish obyektidir. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu obyektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkalari soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi.

Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortish bazasi bo'lib:

a) asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing)shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar) Asosiy vositalarning qoldiq qiymati

ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

b) normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha - tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

c) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari uchun ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Mazkur jarayonni quyidagiformula orqali ifoda etsak bo'ladi:

$$\begin{array}{l} \text{Mol-mulkning} \\ \text{o'rtacha yillik} \\ \text{qoldiq qiymati} \end{array} = \frac{31.01 + 28(29).02 + \dots + 31.12}{12}$$

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortiladigan bazasini aniqlash uchun korxonalar balans aktivida aks ettiriladigan asosiy vositalarning eskirishini chegirgan holda, buxgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlari bo'yicha summalar qabul qilinadi:

1. Asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari (0100);
2. Uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari (0300);
3. Tugallanmagan qurilishni (belgilangan muddatlarda qurilishi tugallanmagan obyekt qismida) hisobga olish hisobvaraqlari (0800);
4. O'rnatishga mo'ljallangan uskunani (me'yoriy

muddatlarida o‘rnatilmagan uskuna qismida) hisobga olish hisobvaraqlari (0700).

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchi tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy hajmida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog‘idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Eksport mahsulot ishlab chiqaradigan va uni mustaqil ravishda sotadigan yoki ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali sotadigan vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar va kompaniyalarning tarkibiy bo‘linmalari hisoblangan korxonalar uchun sotishning umumiy xajmida o‘zi ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmatlar) ning eksportdagi ulushiga bog‘liq holda mol-mulk solig‘ining tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan.

Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalariga berilgan imtiyoz savdo-vositachi korxonalariga, shuningdek, erkin almashtiriladigan valyutaga xomashyo tovarlari – paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensati, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilmaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699 sonli qaroriga asosan 2017-yil 1-yanvardan boshlab 5,0 foiz miqdorida belgilangan.

**Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i
STAVKALARI³⁵**

N	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi, foizda
1.	Yuridik shaxslar	5,0
2.	Eksport qiluvchi korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-son farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatida keltirilgan xomashyo mahsulotlaridan tashqari, o'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlarining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi eksporti tashkil qiladigan ulush:*	
	umumiy realizatsiya hajmida 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda	belgilangan stavka 30 %ga pasaytiriladi
	umumiy realizatsiya hajmida 30 foiz va undan yuqori bo'lganda	belgilangan stavka 50 %ga pasaytiriladi

*) Belgilangan (me'yoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan, tugallanmagan qurilish va uskunalar qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo'llanilmaydi.

Izoh.

Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki baravar stavka miqdorida to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi **PQ-1449-sonli qaroriga** ko'ra, Eskirgan asbob-uskunalar o'z vaqtida almashtirilishini rag'batlantirish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) foydali ish muddati tamom bo'lgan to'liq eskirgan asbob-uskunalar

35 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori.

foydalanganlik uchun dastlabki qiymatning **0,25** foizi miqdorida to'lov joriy qilingan.

Hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarga ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskunalar uchun to'lovni undirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan **2011-yil 21-fevralda ro'yxat raqami 2199**-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nizom asosida olib boriladi.

7.3. Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar va yengilliklar

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning o'rtacha yil obyekt qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) kommunal xo'jaligi obyektlarining. Kommunal xo'jaligi obyektlariga quyidagilar kiradi: vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan, asbob-uskunalar);

2) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining;

3) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari obyektlarining;

4) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlarning. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

5) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish lini-

yalarining, shuningdek, ushbu obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

6) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

7) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning;

8) shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poezdlari);

9) tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarining (foydalanish davriga);

10) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

11) ko'pi bilan o'n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskunalarining.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlardan quyidagilar ozod qilinadi:

1) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat va san'at tashkilotlari;

2) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va

suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo‘jalik boshqarmalari, o‘t o‘chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo‘jaligining xo‘jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo‘jaligi va shahar xo‘jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalar kiradi;

3) yangi tashkil etilgan korxonalar – davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalariga, shuningdek, boshqa korxonalar hududida shu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalardan foydalangan holda o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlarini – yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e‘tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo‘llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi.

Yuridik shaxslar – davlat mulki obyektlarini sotib oluvchilar uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi davlat mulki obyektlariga to‘g‘ri keladigan soliq summasiga kamaytirilib, bo‘shagan mablag‘lar xususiy lashtirilgan obyektlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo‘naltiriladi. Ushbu imtiyoz oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan e‘tiboran 12 oy mobaynida

qo'llaniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan quyidagi soliq imtiyozlari belgilangan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-maydagi "2012-2016-yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to'g'risida" **PQ-1758-sonli** qaroriga asosan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalari ushbu qarorning 2-ilovasida* nazarda tutilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida, shu jumladan, jahonning yetakchi ishlab chiqaruvchilari bilan litsenziya bitimlari asosida texnika, butlovchi buyumlar va ularga detallarning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishda:

-texnika, butlovchi uzellar, detallar va ularga ehtiyot qismlarning yangi turlari sotilishi yuzasidan **foydadan** olinadigan soliqdan;

-texnika, butlovchi uzellar, detallar va ularga ehtiyot qismlarning yangi turlarini ishlab chiqarish uchun foydalani-ladigan asosiy mablag'lar yuzasidan mol-mulk solig'idan **5 yil muddatga** ozod qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-fevraldagi «Xorijiy investitsiyalar ishtirokida «Jeneral motors O'zbekiston» korxonasini barpo etish to'g'risida»gi PQ-800-sonli qaroriga asosan:

-«Jeneral Motors O'zbekiston» YoAJ O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan barcha soliqlardan, shuningdek Respublika Yo'l jamg'armasiga to'lanadigan majburiy to'lovlardan; butlovchi buyumlar, materiallar va texnologik jihozlar ishlab chiqaruvchi korxonalar qo'shilgan qiymat solig'i va «Jeneral Motors O'zbekiston» YoAJ tomonidan ishlab chiqariladigan avtomobillar uchun ana shu korxonalar tomonidan sotiladigan mahsulotlar foyda solig'i to'lashdan,

~~shuningdek ularni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy vositalar mulk solig'i to'lashdan ozod qilingan.~~

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-4861-sonli farmoniga asosan, 2017-yil 1-yanvardan** boshlab:

- mehmonxonalarda va boshqa joylashtirish joylarida xorijiy fuqarolarga hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, joylashtirish bo'yicha xizmatlar faqat xorijiy valyutada amalga oshirilishi;
- turizm operatorlari xorijiy valyutada tushumni majburiy sotishdan ozod qilinishi;

Bundan tashqari, yuridik shaxslar mehmonxona va motellarni foydalanishga topshirganda (sertifikatlangan, kamida 4 yulduzli darajadagi) foyda solig'i, yer solig'i va mol-mulk solig'idan, shuningdek, yagona soliq to'lovidan **5 yil muddatga ozod qilinishi belgilandi.**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ayrim toifadagi yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 2-oktabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ayrim toifadagi yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi **281-sonli qarori** bilan tasdiqlangan nizom asosida olib boriladi.

Mahalliy soliqlar bo'yicha imtiyozlar quyidagi hollarda beriladi:

- tegishli hududning byudjeti yuqori turuvchi byudjetdan dotatsiya olmaganda va soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish tegishli byudjetning dotatsiya olishiga sabab bo'lmaganda\$;
- tegishli hududning mahalliy byudjeti xarajatlari, shuningdek,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining alohida qarorlarida nazarda tutilgan tadbirlar moliyalashtirilishi to‘liq ta‘minlanganda;

- muayyan soliq bo‘yicha imtiyozlar berish natijasida tegishli byudjetga tushum tushmasligi mumkin bo‘lgan daromadlar (yo‘qotishlar) summasi boshqa manbalar bo‘yicha qo‘shimcha tushumlar hisobiga qoplanganda;

- muayyan soliq bo‘yicha imtiyozlar berish natijasida tegishli byudjetga tushum tushmasligi mumkin bo‘lgan daromadlar (yo‘qotishlar) summasi boshqa manbalar bo‘yicha qo‘shimcha tushumlar hisobiga qoplanganda;

- soliq to‘lovchida byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud bo‘lmaganda.

Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar soliqning bitta turi bo‘yicha, shuningdek, bir nechta turi bo‘yicha bir yo‘la berilishi mumkin. Soliq bo‘yicha imtiyozlar dastlab **12 oygacha bo‘lgan muddatga** beriladi.

Bunda tegishli hududiy moliya organlarining, davlat soliq xizmati organlarining, iqtisodiyot va adliya organlarining xulosasiga ko‘ra soliqlar bo‘yicha imtiyozlarning amal qilishi **12 oygacha bo‘lgan muddatga uzaytirilishi mumkin**. *Keyinchalik ushbu toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq bo‘yicha imtiyoz kamida 5 yil o‘tgandan keyin berilishi mumkin.*

Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo‘shaydigan mablag‘lar yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning turlarini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq tadbirlarga yo‘naltiriladi.

Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilishi natijasida bo‘shaydigan mablag‘lardan belgilangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda, ushbu mablag‘lar to‘liq hajmda, belgilangan tartibda penya

hisoblagan holda tegishli mahalliy byudjetga undiriladi.

7.4.Mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va byudjetga to‘lash tartiblari

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-dekabrda O‘RQ-379-sonli Qonuniga muvofiq, Soliq kodeksining 46 ta moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4453-sonli farmonining 5-bandida barcha tadbirkorlik subyektlari statistik, soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga to‘la hajmda 2014-yilning oxiriga qadar bosqichma-bosqich o‘tkazilishi belgilanganligi munosabati bilan Soliq kodeksining 45-moddasiga o‘zgartirish kiritilib, 2015-yildan Tadbirkorlik subyektlari soliq hisobotini telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida taqdim etishi belgilandi.

Soliq kodeksining **79, 81, 271-moddalariga** kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, ko‘chmas mulkni obyektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish, mol-mulk solig‘i hisob-kitobini topshirish va uni to‘lashni ushbu mulk joylashgan joyida amalga oshirishni hamda soliq to‘lovchining mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha majburiyatlari soliq davrida yuzaga kelganda soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etish muddatini aniqlashtirishni nazarda tutadi.

Bunda, soliq to‘lovchilar mol-mulk solig‘i summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan boshlab **o‘ttiz kundan** kechiktirmasdan taqdim etadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi - O‘zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan

bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. **Agar ko'chmas mulk soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, hisob-kitob ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-4453-sonli** farmoniga muvofiq, **2013-yil 1-yanvardan** boshlab, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi Davlat soliq xizmati organlariga **yilda bir marta** taqdim etish belgilandi. Mazkur tartib amaldagi Soliq kodeksiga kiritildi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan **soliqning hisob-kitobi** soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga **yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.**

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i hisob-kitobi Adliya vazirligida 2013-yil 22-martda 2439-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining «Soliq hisobotlarining shakllarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan shakl bo'yicha DSIGA taqdim etiladi. «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining qarori bilan o'zgartirish kiritildi (Adliya vazirligida 2015-yil 28-yanvarda 2439-2-son bilan ro'yxatga olingan)

Yil mobaynida yagona soliq to'lovini to'lashga o'tayotgan

umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilar – mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan soliqlar ular tomonidan to‘langan davr uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobini yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tilayotgan oyning **10-sanasidan** kechiktirmay taqdim etadi.

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha joriy to‘lovlar to‘laydilar.

Joriy to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining **10 yanvarigacha**, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e‘tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlariga mo‘ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o‘rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani taqdim etadilar. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha majburiyatlari soliq davrida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran **o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.**

Mazkur hisoblab chiqarilgan joriy to‘lovlar quyidagi muddatlarda to‘lanadi:

-mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining **to‘rtdan bir qismi** miqdorida yilning **har choragi uchinchi oyining 25-kunidan** kechiktirmay;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan - yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o‘n ikkidan bir qismi

miqdorida har oyning **10-kunidan kechiktirmay**.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan **10 foizdan ortiq kamaytirilgan** taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, **penya hisoblagan** holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma'lumotnoma asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o'n kun ichida amalga oshiradi va to'lov

xabarnomasini yozib beradi;

- O‘zbekiston Respublikasining ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan norezidentlariga ko‘chmas mulk joylashgan yerdagi O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari soliq to‘lovchining yoki ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma‘lumotlari asosida to‘lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to‘lanishi kerak.

Mavzuga doir masalalarz:

1-MASALA. Korxonaning asosiy vositalarining boshlang‘ich qiymati 2017-yil 31-yanvar holatiga 2600,0 ming. so‘mni tashkil etadi. Korxonaning hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya qiymati 800,0 ming. so‘mni tashkil etadi. Berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra korxonaning yanvar oyi uchun mol mulk solig‘ini hisoblang.

Yechilishi:

Asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati aniqlanadi:

$$2600,0 - 800,0 = 1800,0 \text{ ming so‘m}$$

$$1800 / 12 = 150 \text{ ming so‘m}$$

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699 sonli qaroriga ko‘ra yuridik shaxslarga mol-mulk solig‘i stavkasi 2017-yil ushuni 5,0 foiz belgilangan.

$$(150 \times 5,0 / 100) = 7,5 \text{ ming so‘m} - \text{mol-mulk solig‘i.}$$

2-MASALA. Korxonaning hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda 2017-yilda oyma-oy hisoblab chiqilgan amortizatsiya natijasida o‘rtacha yillik qiymati 2400,0 ming so‘mni tashkil etdi. Ushbu ma‘lumotlarga asosan korxonaga 2017-yil uchun mol-mulk solig‘ini hisoblang.

Yechilishi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699 sonli Qaroriga ko‘ra yuridik shaxslarga mol-mulk solig‘i stavkasi 2017-yil ushun 5,0 foiz belgilangan.

$(2400 \times 5,0 / 100) = 120,0$ ming so‘m – mol-mulk solig‘i.

3-MASALA. Korxonaning hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda 2017-yilda oyma-oy hisoblab chiqilgan amortizatsiya natijasida o‘rtacha yillik qiymati 2800,0 ming so‘mni tashkil etdi. Korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy realizatsiya hajmida eksportning ulushi 32 foizni tashkil etadi. Berilgan ma‘lumotlarga asosan korxonaga 2017-yil uchun mol-mulk solig‘ini hisoblang.

Yechilishi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699 sonli qaroriga ko‘ra yuridik shaxslarga mol-mulk solig‘i stavkasi 2017-yil ushun 5,0 foiz belgilangan. Shuningdek, mahsulot (tovar) exporti umumiy realizatsiya hajmida 15 foizdan 30 foizgacha bo‘lganda belgilangan stavka 30 %ga pasaytiriladi, agar 30 foiz va undan yuqori bo‘lganda belgilangan stavka 50 %ga pasaytiriladi:

$(2800 \times 2,5 / 100) = 70,0$ ming so‘m – mol-mulk solig‘i.

Mavzuga doir test savollari:

1. Mol-mulk solig‘i soliq tizimiga qachon joriy etilgan:

- A. 1991-yil 15-fevraldan*
- B. 1997 yil 1-yanvardan
- C. 1992-yil 1-maydan
- D. 1994-yil 1-yanvardan

2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar bo‘lgan subyektlarni aniqlang?

A. mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida mol-mulkga ega bo‘lgan yuridik shaxslar

B. O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari*

C. mol-mulkga ega bo‘lgan va ijaraga bergan yuridik shaxslar

D. soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar

3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar bo‘lmagan subyektlarni aniqlang.

A. notijorat tashkilotlar va soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar*

B. soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar

C. norezident yuridik shaxslar

D. notijorat tashkilotlari

4. Mol-mulk solig‘ining obyektini nima?

A. asosiy vositalar, tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar *

B. mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan mol-mulk qiymati

S. asosiy vositalar qiymati

D. nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish obyektlari

5. Mol-mulk solig‘ining soliq solinadigan bazasini belgilang?

A. asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish obyektlari qiymati

B. asosiy vositalar, me‘yoriy muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlari va o‘rnatilmagan asbob-uskunalarining o‘rtacha yillik qiymati *

C. asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati

D. nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish obyektlari o‘rtacha yillik qoldiq qiymati

6. Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga qanday

obyektlarga aytiladi?

A) muayyan qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, qurilish boshlanganidan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar*

B) muayyan qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan olti oy ichida belgilangan obyektlar

S) muayyan qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida qurilish boshlanganidan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar

A) muayyan qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda tugallanmagan obyektlar

7. 2017-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni stavkasi qancha miqdorda belgilangan?

A) 6 foiz

B) 4 foiz

C) 5 foiz*

D) 3,5 foiz

8. Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'i qanday tartibda hisoblanadi?

A) stavka ikki baravar miqdorida pasaytiriladi

B) stavka ikki baravar miqdorida qo'llaniladi*

C) soliq stavkasi besh foiz qo'llaniladi

D) soliq stavkasi 3,5 foiz qo'llaniladi

9. Mol-mulk solig'ini to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxonalar uchun byudjetga joriy to'lovlar muddatini ko'rsating?

A. har oyning 10-kunidan kechiktirmay*

B. har oyning 15-kunidan kechiktirmay

C. yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar

D. yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 25-kuniga qadar

10. Mol-mulk solig‘i hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi:

- A. yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda *
- B. yilning har oyida hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay
- C. yilda bir marta keyingi yilning 1 yanvariga qadar
- D. joriy yilning 1 fevraligacha

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Mol-mulk solig‘i qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nima?
2. Mol-mulk solig‘ini davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati qanday?
3. Mol-mulk solig‘ini to‘lovchilari kimlar?
4. Soliqqa tortishning alohida tartibi o‘rnatilgan korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat bilan shug‘ullanganlarida mol-mulk solig‘ini to‘lashadimi?
5. Mol-mulk solig‘ining obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
6. Korxonalar mol-mulking o‘rtacha yillik qoldiq qiymati qanday tartibda topiladi?
7. Mol-mulk solig‘i stavkalari qanday belgilangan?
8. Mahsulotni eksport qilayotgan korxonalarga mol-mulk solig‘ini hisoblanishi qanday tartibda amalga oshiriladi, agarda eksport hajmi mahsulotni sotishda 40 foizni tashkil etgan bo‘lsa?
9. Mol-mulk solig‘idan kimlar imtiyozga ega?
10. Soliq idoralariga qaysi muddatlarda mol-mulk solig‘i bo‘yicha hisob-kitob topshiriladi?

8-BOB: YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

Tayanch so‘z va iboralar: *yer solig‘i, yer fondi, o‘rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari, zaxira yerlar, qishloq xo‘jaligi tovarlar ishlab chiqaruvchilar, , soliq stavkasi, soliq obyekt va bazasi, imtiyozlar, soliq hisoboti, to‘lash muddati.*

1. Yer solig‘ining joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Mamlakatimizda yer solig‘ini undirishning huquqiy asoslari 1990 yil 20 iyunda qabul qilingan “Yer to‘g‘risida”gi qonuni bilan mustahkamlandi va ushbu qonunga ko‘ra yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo‘lishi belgilandi hamda yer uchun haq yillik yer solig‘i sifatida undiriladigan bo‘ldi.

1991-yilda “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”, 1993-yilda “Yer solig‘i to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinib, unda yer solig‘ini undirishda soliqqa tortish obyekt, subyektlari, soliq bo‘yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va byudjetga to‘lash tartiblari ko‘rsatib berildi. 1997-yilda “Soliq kodeksi”ning qabul qilinishi hamda 1998-yildan uning kuchga kiritilishi bilan yer solig‘ining to‘laqonli huquqiy asoslari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yilda qabul qilingan «Yer kodeksi»ga muvofiq, **Yer** - umum milliy boylikdir, O‘zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko‘zlab yerdan

ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo‘jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta‘minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek, bu sohada qonuniylikni mustahkamlashdan iborat.

Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish;

- yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta‘minlash;

- qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarning, eng avvalo sug‘oriladigan yerlarning alohida muhofaza etilishini, kengaytirib borilishini hamda ulardan qat‘iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta‘minlash;

- qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlash;

- yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;

- yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligini ta‘minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;

- yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lash;

- yerlarning holati haqidagi axborotning to‘liq bo‘lishini hamda undan erkin foydalanishga yo‘l qo‘yilishini ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasi “Yer to‘g‘risida”gi Qonunining

16-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida yerga egalik qilish va yerdan foydalanish uchun haq to‘lanadi.

Yer uchun haq har yilgi yer solig‘i shaklida undirilib, uning miqdorlari yer uchastkasining sifati, qanday joydaligi va suv bilan qanday ta‘minlanganligiga qarab belgilanadi.

Yer solig‘ining miqdori yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning xo‘jalik faoliyati natijalariga bog‘liq bo‘lmaydi hamda yer maydoni birligi uchun belgilangan haq tarzida to‘lanib, ishlab chiqarish xarajatlariga kiritiladi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari tomonidan ijaraga beriladigan yer uchun ijara to‘lovi undirilib, uning miqdori tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan belgilanadi, biroq bu miqdor qonunlarda nazarda tutilgan yer solig‘i stavkalaridan kam bo‘lmasligi kerak.

Yer solig‘i to‘lovlaridan tushgan mablag‘lar eng avvalo yerlarni muhofaza qilishni yaxshilashga, yerlarning unumdorligini oshirishga, irrigatsiya va melioratsiya ishlariga, yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilarni, shu jumladan, ijarachilarni rag‘batlantirishga, yer tuzish ishlarini tashkil etishga, davlat yer kadastri yuritish va hududni ijtimoiy rivojlantirishga sarflanadi.

Yer solig‘i O‘zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig‘imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbayi hisoblanadi.

Yer solig‘i boshqa soliq turlaridan farqli o‘laroq, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra u renta to‘lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog‘liq emas. Demak, ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad – yerdan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo‘lgan yerlarda xo‘jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan

joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

2012-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. Respublika bo'yicha korxonalar, tashkilot, muassasalar, fermer xo'jaliklari va fuqarolarning foydalanishidagi jami yerlar 44410,3 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4315,7 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,7 foizini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi yer fondi yerdan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko'ra 8 ta toifaga bo'linadi. Yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi 8.1-jadvalda va 8.1-rasmda ko'rsatilgan.

8.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi³⁶ (ming ga. hisobida)


T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy maydon		Jumladan sug'oriladigan yerlar	
		Jami	%	Jami	%
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	21453,2	48,31	4217,7	9,5
2	Aholi punktlarining yerlari	220,4	0,50	48,3	0,1
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	1995,8	4,49	12,0	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	75,9	0,17	0,6	0,001
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	1,1	0,002	0	0
6	O'rmon fondi yerlari	9462,3	21,31	30,7	0,07
7	Suv fondi yerlari	821,1	1,85	4,6	0,01
8	Zaxira yerlar	10380,5	23,37	1,8	0,004
	Jami yerlar:	44410,3	100	4315,7	9,72

O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo'yicha

36 O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va Davlat kadastri Davlat qo'mitasi ma'lumotlari

taqsimlanishini kuzatar ekanmiz, umumiy maydon hisobida asosiy o‘rinni qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar (48,3 %), zaxira yerlar (23,4 %), o‘rmon fondi yerlari (21,3 %), sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar (4,5 %), suv fondi yerlari (1,9 %), aholi punktlarining yerlari (0,5 %), tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar (0,2 %) hamda tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (0,002 %)ni tashkil etganligini ko‘ramiz (8.1-rasm).

Yer fondi hajmida qishloq ho‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yer maydonlarining o‘sishi fermer xo‘jaliklari sonining yildan yilga ko‘payib borayotganligi va o‘rmon xo‘jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarining bir qismining ular tasarrufiga o‘tkazilishi hamda zaxira yerlarning o‘zlashtirilishi bilan izohlanadi.



8.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (%)³⁷

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va Davlat kadastri Davlat qo‘mitasi ma‘lumotlari

davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi tahlili amalga oshirilganda hozirgi vaqtda ushbu soliqning tushumi O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining solikli daromadlarida 2–2,5 foiz oralig‘ini tashkil etmoqda.

8.2-jadval

Yer solig‘ining jami soliq tushumlari va resurs soliqlari tarkibidagi ulushi (%)³⁸

t/r	Soliq nomi	Yillar (%)da							
		2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
1.	Soliq tushumlari jami, shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100
1.1	Yer solig‘i	2,3	2,1	2,2	2,6	2,2	2,6	2,2	2,5
2.	Resurs soliqlari jami, shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100
2.1	Yer solig‘i	15,4	15,0	15,0	16,2	17,2	14,7	16,2	18,2

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari tahlili ko‘rsatganidek, 2010-yilda jami soliq tushumlarida yer solig‘i salmog‘i 2,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda 2,6 foiz yoki 2010-yilga nisbatan 0,2 foiz punktiga ko‘paygan. Shuningdek, resurs soliqlari tarkibida yer solig‘i salmog‘i 2010-yilda 15,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib 18,2 foiz yoki 2010-yilga nisbatan 2,8 foiz punktiga oshgan. Ushbu holatni yuridik va jismoniy shaxslar yer solig‘i stavkalarinining oshirilishi bilan izohlash mumkin.

Hozirgi kunda yer solig‘ini undirishning huquqiy asoslari 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksiga asosan amalga oshiriladi.

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to‘lovlar yer solig‘i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

38 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara haqi yer solig‘iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig‘i to‘laydilar.

8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i to‘lovchilari, obykti va soliq solinadigan bazasi

Soliq kodeksining 279-moddasiga asosan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig‘ini to‘lovchilaridir.

Ko‘chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig‘ini to‘lovchi bo‘ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun yer solig‘ini to‘lovchidir.

Quyidagilar yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lmaydi:

-Notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari bo‘yicha yer solig‘i to‘lovchilar bo‘ladi. Bunda Soliq kodeksning 132-moddasida ko‘rsatilgan boshqa

daromadlarni olish tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralmaydi;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Soliq kodeksining 280-moddasiga ko‘ra mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari **soliq solish obyekt**i hisoblanadi.

Quyidagilarga soliq solish obyekt i sifatida qaralmaydi:

a) aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, sug‘orish tarmog‘i, sohil bo‘yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;

b) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog‘lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek, ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

c) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig‘ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek, chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilitatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);

d) zaxira yerlar.

Mavjud yer uchastkalaridan qonun hujjatlariga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlarini chegirib tashlash orqali soliq solinadigan baza aniqlanadi.

Yer uchastkasining Soliq kodeksining 282-moddasiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni **soliq solinadigan bazadir**.

Qaysi yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to‘lovchiga o‘tgan bo‘lsa, o‘sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e‘tiboran hisoblab chiqariladi.

Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

8.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari va qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Yer solig'i stavkalari jahon amaliyotida qabul qilinganidek, yer qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida yerning bozor qiymati shakllanmaganligi sababli, 1 gektar sug'oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshiriladi.

Jahon soliq amaliyotida yer solig'i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, sho'rlanganlik darajasi, tuproq qatlamining suv o'tkazaolishi, zichligi kabi boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi. 100 ball 10 ta klassga bo'linadi, ya'ni 1 klass yerlar nol balldan 10 ballgacha,

2 klass yerlar 11 balldan 20 ballgacha, 3 klass yerlar 21 balldan 30 ballgacha va h.k. 10 klass yerlar 91 balldan 100 ballgacha baholanadi. Bunda erning ball boniteti qancha yuqori bo'lsa soliq stavkasi ham shuncha yuqori belgilanadi.

Erlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga asosan quyidagicha guruhlanadi:

1. Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari.

2. Lalmi ekinzorlar, bo'z yerlar va ko'p yillik ko'chatlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari.

3. Sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari.

4. Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari.

5. Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkalari.

6. Shahar va posyolkalarda yer uchastkalaridan olinadigan yer solig'i stavkalari.

7. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan undiriladigan yer solig'i stavkalari.

8. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig'i stavkalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroridan kelib chiqib, mahalliy xokimiyat idoralari ham o'zlarining hududiy territoriyasiga qarab qaror chiqarishadi va unda tegishli koeffitsiyentlar hisobga olinadi.

8.3-jadval

**Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlari uchun
undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavkalariga
tuzatuvchi koeffitsiyentlar³⁹**

<i>Yerlarning toifalari</i>	<i>Ball-bonitet</i>	<i>Koeffitsiyentlar</i>
I	0–10	(bazaviy stavka)
II	11–20	1,50
III	21–30	2,25
IV	31–40	3,29
V	41–50	4,67
VI	51–60	6,78
VII	61–70	9,00
VIII	71–80	11,68
IX	81–90	14,36
X	91–100	17,50
	Baholanmagan yerlar	4,67

8.4-jadval

**Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer
solig'i STAVKALARI⁴⁰**

<i>Zona</i>	<i>Quyidagilardan undiriladigan yer solig'i stavkalari:</i>			
	<i>yuridik shaxslardan 1 gektar uchun, so'mda</i>		<i>fuqarolardan yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan yer uchun, 1 kv. metr uchun, so'mda</i>	
	<i>2016-yil</i>	<i>2017-yil</i>	<i>2016-yil</i>	<i>2017-yil</i>
1	99 187 500	114 065 625	568,7	654,0
2	79 350 000	91 252 500	482,7	555,1
3	59 512 500	68 439 375	396,8	456,3
4	39 675 000	45 626 250	310,8	357,4
5	19 837 500	22 813 125	224,8	258,5

44 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi PQ-2699-sonli qarori 20-ilova

45 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi PQ-2699-sonli qarori

2017-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga asosan barcha viloyatlardagi shahar-tumanlarda yuridik va jismoniy shaxslardan yer solig‘i stavkasi bitta zonaga bixillashirildi.

Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yuridik shaxslardan va fuqarolardan undiriladigan yer solig‘i belgilangan stavkalariga yer uchastkalarining joylashish joyiga bog‘liq holda quyidagi koeffitsiyentlar qo‘llaniladi:

- Toshkent shahri atrofida 20 km.lik aylanada – 1,30,
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km.lik aylanada – 1,20,
- tuman markazlari atrofida 10 km.lik aylanada – 1,15,
- boshqa shaharlar atrofida 5 km.lik aylanada – 1,10.

Yer uchastkalarigacha bo‘lgan masofa avtomobil yo‘llari bo‘yicha shaharlar va tuman markazlarining ma‘muriy chegaralaridan boshlab belgilanadi. Agar yer uchastkasi ikki shahar yaqinida joylashgan bo‘lsa, shaharning yuqoriroq funksional vazifasiga muvofiq keladigan koeffitsiyent qo‘llaniladi.

Dehqon xo‘jaliklaridan undiriladigan yer solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan stavkalariga, yer sifatiga bog‘liq holda, quyidagi koeffitsiyentlar qo‘llaniladi: tuproq boniteti 40 ballgacha bo‘lsa – 0,75, 41 dan 70 ballgacha bo‘lsa – 1,0 va 70 balldan ortiq bo‘lsa – 1,25.

O‘rmon xo‘jaliklarida mollarni o‘tlatish uchun foydalanilmaydigan yaylov yerlar uchun soliq boshqa yerlar uchun stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Shahar va qo‘rg‘onlarning ma‘muriy chegaralarida joylashgan kon va karyerlar band etgan yerlar uchun soliq: Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i va Shaharlar va qo‘rg‘onlarda yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i tegishli zonalar uchun keltirilgan stavkalariga 0,1 koeffitsiyentini qo‘llagan holda to‘lanadi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq yuridik shaxslar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Jamoaviy va shaxsiy garajlar band etgan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan soliq yakka tartibdagi uy-joy quriladigan yerlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarning **ikki baravari miqdorida** to'lanadi.

Soliq kodeksining 121-moddasiga asosan yuridik shaxslar tomonidan yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish yer solig'ining summasiga ekvivalent miqdorda - ikki baravari miqdorida jarima qo'llaniladi.

8.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar

Soliq kodeksining 282-moddasiga ko'ra soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:

1) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;

2) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft)

buyurtma qo‘riqxonalarining, tabiat bog‘larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo‘riqxonalarining (ovchilik xo‘jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo‘riqxonalar bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog‘larning yerlari, yuqorida ko‘rsatilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan yerlari bundan mustasno;

3) sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yer uchastkalari;

4) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo‘jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar, xotira bog‘lari, sag‘analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar;

6) suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko‘llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek, suv xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv havzalari hamda boshqa suv obyektlari sohillari bo‘ylab ajratilgan mintaqalar yerlari kiradi;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar,

~~radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;~~

9) madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash obyektlari egallagan yerlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

11) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan, tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'llar stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek, belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

12) shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan, jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

14) aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan, kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariyaqa qarshi stansiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash

qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan, nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralastiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

17) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan yerlar;

18) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar, ularning konservatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

21) yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

22) ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sohadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalari atrofidagi o'rmonlar; suv

ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar;

23) qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Bunda ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Yuridik shaxslar – davlat mulki obyektlarini sotib oluvchilar uchun yer solig'i summasi davlat mulki obyektlariga to'g'ri keladigan soliq summasiga kamaytirilib, bo'shagan mablag'lar xususiy lashtirilgan obyektlarni modernizatsiya qilish, texnik

va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ularni rivojlantirishga maqsadli tarzda yo'naltiriladi. Ushbu imtiyoz oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan e'tiboran 12 oy mobaynida qo'llaniladi.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga ushbu moddada belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Quyidagi yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:

1) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari - o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun.

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniylar" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

3) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i

yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

8.5.Yer solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va byudjetga to'lash tartiblari

Yer solig'i har bir soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining **15-fevraliga qadar taqdim etiladi.**

Yer solig'ini hisoblab chiqarish Soliq kodeksning 281-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonolari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning **1-dekabr**ga qadar taqdim etadi.

Yil mobaynida yagona soliq to'lovini to'lashga o'tayotgan umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar – mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan soliqlar ular tomonidan to'langan davr uchun yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tilayotgan **oyni**ng **10-sanasi**dan kechiktirmay taqdim etadi

Yer solig'ini to'lash, yuridik shaxslar tomonidan **yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar** teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida yer solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonolari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

-hisobot yilining 1 sentabriga qadar – yillik soliq summasining 30 foizi;

-hisobot yilining 1 dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi.

AMALIY MASALALAR

1-MASALA. Toshkent shahrining 5 zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 5,5 ga ni tashkil etadi. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang?

Yechilishi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabdagi PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra yuridik shaxslarga yer solig'i stavkasi 2017-yil ushun 1 ga yerga 19 837 500 so'm belgilangan.

2. $22\ 813\ 125 \times 5,5 = 125\ 472\ 187$ so'm yer solig'i

2-MASALA. Toshkent shaxrining 1 zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 4,2 ga ni tashkil etadi. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang?

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra yuridik shaxslarga yer solig‘i stavkasi 2017-yil ushun 1 ga yerga 114 065 625 so‘m belgilangan.

$114\ 065\ 625 \times 4,2 = 479\ 075\ 625$ so‘m yer solig‘i

3-MASALA. Farg‘ona shahrida joylashgan korxonaga shahar hokimi qarori bo‘yicha ajratilgan yer maydoni 7,6 ga ni tashkil etadi. Elektr uzatish liniyalari joylashgan yer maydoni 0,4 gani tashkil etadi. Korxonaning hisobot yilida to‘lashi lozim bo‘lgan yer solig‘i summasini hisoblang?

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra yuridik shaxslarga yer solig‘i stavkasi 2017-yil ushun 1 ga yerga 10 371 368 so‘m belgilangan.

2. Soliq kodeksining 282-moddasiga ko‘ra elektr uzatish liniyalari o‘tgan yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalariga kiradi:

$7,6 - 0,4 = 7,2$ ga soliq solinadigan yer maydoni

3. $10\ 371\ 368 \times 7,2 = 74\ 673\ 849$ ming. so‘m yer solig‘i

Mavzuga doir test savollari:

1. Yer solig‘ini undirish soliq tizimiga qachon joriy etilgan?

A. 1993-yildan “Yer solig‘i to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga asosan*

B. 1991-yildan “Yer to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga asosan

C. 1991-yildan “Yer solig‘i to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga asosan

D. 1993-yildan “Yer to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi

qonuniga asosan

2. Qaysi me'yoriy hujjatda yerga egalik qilish va yerdan foydalanish uchun haq to'lanishi belgilab qo'yilgan?

A. "Yer to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 16-moddasi*

B. "Yer to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 6-moddasi

C. "Yer solig'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 12-moddasi

D. "Yer solig'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 16-moddasi

3. Yer solig'i to'lovchilari bo'lgan subyektlarni aniqlang.

A. mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar*

B. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari

C. yer uchastkalariga ega bo'lgan va ijaraga bergan yuridik shaxslar

D. yer uchastkasidan foydalanayotgan yuridik shaxslar

4. Yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan subyektlarni aniqlang.

A. notijorat tashkilotlar va soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar*

B. soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar

C. qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari

D. notijorat tashkilotlari

5. Yer solig'ining obykti nima?

A. qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari

B. mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari*

C. yerning normativ qiymati

D. yerning maydoni

6. Yer solig‘ining soliq solinadigan bazasini belgilang.

A. soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni*

B. ijaraga olingan yer uchastkalari me‘yoriy qiymati

C. foydalanayotgan yer uchastkasining qiymati

D. yer uchastkasining belgilangan normativ qiymati

7. Yer solig‘i bo‘yicha hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi:

A. joriy yilning 15 fevraligacha*

B. joriy soliq davrining 1 dekabrigacha

C. joriy soliq davrining 15 martgacha

D. joriy yilning 1 fevraligacha

8. Yer solig‘ini to‘lash muddatlarini ko‘rsating.

A. Hisobot yilining 1 iyuligacha 50 % va 1 dekabrigacha qolgani

B. Hisobot yilining 1 senyabrigacha 30 % va 1 dekabrigacha qolgani*

C. yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar

D. yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 25-kuniga qadar

9. Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o‘zgarish bo‘lganda yuridik shaxslar tomonidan davlat soliq xizmati organiga yer solig‘ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini qachon taqdim etishlari lozim?

A. bir oylik muddat ichida*

B. bir yil muddat ichida

- C. yilning har choragida
- D. o‘n besh kun muddat ichida

10. Shaharlar va shaharchalarning ma‘muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig‘i qancha miqdorda to‘lanadi?

A. qishloq xo‘jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida*

B. shaxar yerlari uchun belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida

C. qishloq xo‘jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarining uch baravari miqdorida

D. shaxar yerlari uchun belgilangan stavkalarining uch baravari miqdorida

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Yer solig‘ini yuridik shaxslardan undirishning sababi nimada?

2. Yer solig‘ining huquqiy asoslari O‘zbekistonda qachon shakllangan?

3. O‘zbekistonda yer fondi qanday tarkib topgan?

4. Kimlar yer solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib hisoblanishadi?

5. Alohida soliq rejimiga o‘tgan yuridik shaxslar yer solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib hisoblanishadimi?

6. Yer solig‘ini undirish obyeksi nima?

7. Soliq stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?

8. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?

9. Qanday yuridik shaxslar yer solig‘idan ozod qilinadi?

10. Yer solig‘ini hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash muddatlari qanday belgilangan?

9-BOB: SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

Tayanch so‘z va iboralar: *suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer osti suvlari, yer usti suvlari, suv fondi, soliq stavkasi, soliq obyekt va bazasi, yerning normativ qiymati, imtiyozlar, soliq hisoboti, to‘lash muddati.*

9.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig‘ining joriy etilishi, uning iqtisodiy mohiyati va va ahamiyati


O‘zbekiston sharoitida suv qadrlil hisoblanadi. Chunki, respublikamizda qishloq ho‘jaligi asosan sug‘oriladigan yerlardan iborat. Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi va undan samarali foydalanish zarur.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi 2017-yilda Davlat byudjetiga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumi 211,9 mln so‘m tushishi prognozlashtirilgan bo‘lib, bu byudjet daromadlarining 0,5 foizini tashkil etadi.

9.1-jadval malumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, davlat byudjeti daromadlarida jami resurs to‘lovlari tarkibida suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig‘i 2009-yilda 0,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda 0,5 foizni tashkil etgan. Resurs soliqlari tarkibida 2009-yilda 2,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda 3,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda, bu esa 0,5 foiz punktiga o‘sadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig‘ini xududlar bo‘yicha ulushini quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'ining jami soliq tushumlari va resurs soliqlari tarkibidagi ulushi (%)⁴¹

t/r	Soliqlar nomi	Yillar (%)da								
		2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
1.	Soliq tushumlari jami, shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100
2.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,5	0,5	0,5
2.	Resurs soliqlari jami, shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100
2.1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2,6	2,6	2,7	2,7	2,6	2,8	2,8	3,1	3,5



9.1-rasm. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yichahududlar salmog'i⁴²

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha

41 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

42 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

hududlar kesimini o'rganganimizda Toshkent viloyati 28,2% bilan asosiy ulushni, Sirdaryo viloyati 26,2 %ni, Navoiy viloyati 14,9 %ni, Qashqadaryo viloyati 8,8 %ni, Qoraqalpog'iston Respublikasi 8,1 %ni, Toshkent shahri 5,8 %ni, Farg'ona viloyati 2,7 %ni, Buxoro viloyati va Samarqand viloyatlari 1,0 %ni, Surxondaryo viloyati 0,8 %ni, Andijon viloyati, Xorazm viloyati va Namangan viloyatlari 0,7 %ni, hamda Jizzax viloyati 0,5 %ni tashkil etgan.

O'zbekistonda asosiy davlat byudjeti daromadlarini ushbu manba bo'yicha ob-havo qiladigan, ya'ni ta'minlab beradigan soliq to'lovchilar bo'lib, Shirin GRES, Taxiyyatosh GRES, Toshkent GRES va boshqa shu kabi GESlar hisoblanadi.

9.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari, obykti va soliq solinadigan bazasi

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

- yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;
- tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lmaydi:

- Notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik

faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan suv hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar bo‘ladi. Bunda Soliq kodeksning 132-moddasida ko‘rsatilgan boshqa daromadlarni olish tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralmaydi;

-soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslar suvdan foydalanish joyida davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga olinish joyidan qat‘i nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘laydilar.

Soliq obyekt va soliq solinadigan bazasi

Yer usti va yer osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari **soliq solish obyekt**i hisoblanadi.

Yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko‘llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Foydalanilgan suv resurslarining hajmi **soliq solish bazasi** hisoblanadi.

Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o‘lchagich asboblari-ning ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o‘lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste‘molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug‘orish normalaridan yoki ma‘lumotlarning to‘g‘riligini ta‘minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga joriy soliq davrining 15-yanvariga qadar taqdim etishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari besh kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.

Soliq to'lovchi issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda soliq solinadigan baza suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun soliq solinadigan baza soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari tomonidan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi «O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra, Davlat hokimiyati va mahalliy davlat boshqaruvi organlarining barcha darajalardagi mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish, mahalliy byudjetlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlar to'liq hajmda mahalliy byudjetlar daromadlariga o'tkazildi.

9.4.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i stavkalari va soliq bo'yicha imtiyozlar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi PQ-2699-sonli qarorining 14-ilovasiga muvofiq tasdiqlandi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari yuridik shaxslari (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi

PQ-2699-sonli qarorining 14-ilovasining 2 - 4-bandlarida ko'rsatilganlaridan tashqari), dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar uchun **1 kub. metr** yer usti suv manbalari uchun **85,4 so'm** va yer osti suv manbalari uchun **108,5 so'm** miqdorida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari belgilandi.

9.2-jadval


**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
STAVKALARI⁴³**

№	To'lovchilar	1 kub metr uchun stavka (so'm)			
		Yer usti suv resurslari manbalari		Yer osti suv resurslari manbalari	
		2016	2017	2016	2017
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalarini (2 - 4 - b a n d l a r d a ko'rsatilganlaridan tashqari), dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar	71,2	85,4	90,4	108,5
2	Elektr stansiyalari	20,6	24,7	30,6	36,7
3	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini	39,1	46,9	50,5	60,6

43 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli va 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarorlari (**14-ilovasi**).

	Alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalar*:				
4	alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha	11 500	13 800	11 500	13 800
	boshqa maqsadlarda	71,2	85,4	90,4	108,5

Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarishda foydalangan suv hajmlarining **1 kub. metri** uchun **13 800 so‘m** miqdorida hamda boshqa maqsadlar uchun **1 kub. metr** yer usti suv manbalari uchun **85,4 so‘m** va yer osti suv manbalari uchun **108,5 so‘m** miqdorida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lashlari belgilandi. Bunda mazkur tashkilotlar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni soliq solish tartibidan (umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan soliq solish tartibi) qat’iy nazar to‘laydilar.



9.2-rasm. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasini o‘zgarish dinamikasi⁴⁴

44 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-2015-yilgi Qarorlari asosida

Alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan **2016-yil 24 fevralda 2765-son bilan** davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan belgilab berilgan.

Soliq bo'yicha imtiyozlar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

-suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

-birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

-ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar - tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

tuzildi

1) sogʻliqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga, savdo tarmogʻida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;

2) atrof-muhitga zararli taʼsir koʻrsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;

3) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qatriga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

5) qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan shoʻrlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

9.5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soligʻini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va byudjetga toʻlash tartiblari

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xoʻjaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning **hisob-kitobi** suvdan foydalanish yoki suv isteʼmoli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilar tomonidan yiliga bir marta

taqdim etiladi:

- yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo‘jaligi korxonalari bundan mustasno) – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan – joriy soliq davrining 15-dekabrigacha;

- O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - soliq davridan keyingi yilning 25-yanvarigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Yil mobaynida yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tayotgan umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilar – mikrofirmalar va kichik korxonalar umumbelgilangan soliqlar ular tomonidan to‘langan davr uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobini yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tilayotgan oyning **10-sanasidan kechiktirmay** taqdim etadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq byudjetga quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni to‘laydilar, yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari bundan mustasno.

Joriy to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 25-yanvarigacha, yangi

tashkil qilinganlari esa - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (foydalaniladigan suv hajmidan) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Yuqorida belgilangan tartib bo'yicha hisoblab chiqarilgan joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) - **har oyning 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;**

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kamni tashkil etadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar, shuningdek, mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - **yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida.**

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash joriy to'lovlar hisobga olingan holda soliq to'lovchilar

tomonidan, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan **10 foizdan ortiq miqdorga** kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, **penya** hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

AMALIY MASALALAR

1-masala. Sanoat korxonasi 2017-yilda jami 60000 kub. metr suv resurslaridan foydalangan bo'lib, shundan 35 foizi yer osti manbalaridan, qolgan qismi esa yer usti manbalaridan olingan. Korxonaga to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

Yechilishi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra sanoat korxonalari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2017-yilga yer usti manbalaridan olingan suv uchun bir kub metrغا 85,4 so'm, yer osti manbalaridan foydalanilgan suv uchun bir kub metrغا 108,5 so'm belgilangan.

Korxonaga 21000 kub metr (60000 x 35 %) yer osti suvlaridan; 39000 kub metr (60000 - 21000) yer usti suvlaridan foydalangan.

2. $21000 \times 108,5 \text{ so'm} = 2\,278\,500 \text{ so'm}$

$$39000 \times 85,4 \text{ so‘m} = 3\,330\,600 \text{ so‘m.}$$

$2\,278\,500 + 3\,330\,600 = 5\,609\,100 \text{ so‘m}$ jami yillik soliq summasi.

2-masala. Elektrostansiya tomonidan 2017-yilda 450 000 kb.metr yer usti suv resurslaridan, 50 000 kub.metr yer osti suv resurslaridan foydalangan. Korxonaga to‘lashi lozim bo‘lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra elektrostansiyalar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2017-yilga yer usti manbalaridan olingan suv uchun bir kub metrga 24,7 so‘m, yer osti manbalaridan foydalanilgan suv uchun bir kub metrga 36,7 so‘m belgilangan.

$$2. \quad 450\,000 \times 24,7 \text{ so‘m} = 11\,115\,000 \text{ so‘m} \text{ yer usti}$$

$$50\,000 \times 36,7 \text{ so‘m} = 1\,835\,000 \text{ so‘m. yer osti}$$

$11\,115\,000 + 1\,835\,000 = 12\,950\,000 \text{ so‘m}$ jami yillik soliq summasi.

3-masala. Kommunal xo‘jaligi tomonidan 2017-yilda 125 700 kb.metr aholi punktlarini yer osti suv manbalaridan foydalanib suv bilan ta‘minlangan. Shuningdek, o‘z iste‘moli uchun 28 500 metr kub yer usti suv resurslaridan foydalangan. Korxonaga to‘lashi lozim bo‘lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra kommunal xo‘jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2017-yilga yer usti manbalaridan olingan suv uchun bir kub metrga 49,6 so‘m, yer osti manbalaridan foydalanilgan suv uchun bir kub metrga 60,6 so‘m belgilangan.

$$2. \quad 28\,500 \times 60,6 \text{ so‘m} = 1\,727\,100 \text{ so‘m} \text{ yer usti}$$

$$125\,700 \times 49,6 \text{ so‘m} = 6\,234\,720 \text{ so‘m. yer osti}$$

$1727\ 100 + 6\ 234\ 720 = 7\ 961\ 820$ so‘m jami yillik soliq summasi.

4-masala. Yuridik shaxsni tashkil etgan holda tuzilgan dexqon xo‘jaligi tomonidan 2017-yilda 65 700 kb.metr yer usti suv resurslaridan foydalangan. Dexqon xo‘jaligi to‘lashi lozim bo‘lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra dexqon xo‘jaliklariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2017-yilga yer usti manbalaridan olingan suv uchun bir kub metrga 90,4 so‘m belgilangan.

2. $65\ 700 \times 90,4 = 5\ 939\ 280$ so‘m jami yillik soliq summasi.

5-masala. Alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi DENA korxonasi 2017-yilda 5 200 kb.metr yer usti suv resurslaridan foydalanib alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqargan. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo‘yicha soliq stavkalari 2017-yilga yer usti manbalaridan olingan suv uchun bir kub metrga 13800 so‘m belgilangan.

2. $5200 \times 13800 = 71\ 760\ 000$ so‘m jami yillik soliq summasi.

Mavzuga doir test savollari:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad:

A. Davlat byudjetini moliyaviy resurs bilan ta‘minlash

B. Davlat byudjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlash va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni

ragʻbatlantirish*

C. Suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni ragʻbatlantirish

D. Mahalliy byudjet daromadlarini moliyaviy resurs bilan taʼminlash

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq qachon joriy etilgan?

A. 1992-yil 1 yanvardan

B. 2001-yil 1 yanvardan

C. 1997-yil 1 yanvardan

D. 1998-yil 1 yanvardan*

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning toʻlovchilarini aniqlang.

A. Oʻz faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, norezidentlar, dehqon xoʻjaliklari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar*

B. Oʻz faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, norezidentlar

S. Oʻz faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar

D. Oʻz faoliyatida suvdan foydalanuvchi Hidro Elektr Stansiyalar, fermer xoʻjaliklari

4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlang.

A. Yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

B. Yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

S. Yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi*

D. Chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

stavkalari kim tomonidan belgilanadi.

A. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan

B. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan*

S. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan

D. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan

6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2016-yil uchun necha martaga indeksatsiya qilindi.

A. 1,5 martaga

B. 1,3 martaga

C. 1,2 martaga*

D. 2 martaga

7. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq obyektini nima?

A. Yer usti va yer osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari *

B. Suvning sof hajmi

S. Yer usti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari

D. Yer osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari

8. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalaridan suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatlarda taqdim etiladi?

A. yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrighacha*

B. yilda bir marta hisobot davrining 1 dekabrighacha

C. yilda ikki marta hisobot davrining 15 dekabrighacha

D. yilda bir marta hisobot davrining 1 fevralgacha

9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tomonidan suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatlarda taqdim etiladi?

A yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha*

B. yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunigacha C. yilning har oyida yilning hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunigacha

D. yilda bir marta hisobot davrining 1 yanvarigacha

10. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari tomonidan to‘lash muddati qachon belgilangan?

A, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha *

B. suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash yiliga ikki marta, soliq davridan keyingi 6 oyning 1 mayigacha

C. suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash joriy yilning 15 yanvariga qadar

D. yilda bir marta hisobot davrining 1 yanvarigacha

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan ko‘zda tutilgan maqsad nima?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilari kimlar?
3. Soliqqa tortish obyekti qanday tartibda aniqlanadi?
4. Soliq stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
5. Soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida o‘rnatilgan?
6. Qanday yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqdan ozod etiladi?
7. Dehqon xo‘jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni byudjetga to‘lash tartibi qanday amalga oshiriladi?
8. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq qaysi muddatda davlat byudjetiga o‘tkaziladi?

10-BOB. YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR

Tayanch so'z va iboralar: *yer qa'ridan foydalanuvchilar, yer osti boyliklari, imzoli bonus, tijoratbop topilma bonusi, qo'shimcha foyda solig'i, soliq stavkasi, soliq obyeksi va bazasi, imtiyozlar, soliq hisoboti, to'lash muddati.*

10.1. Yer qa'ridan foydalanuvchilarni soliqqa tortish zarurligi va iqtisodiy mohiyati

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim vosita – bu davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli xil to'lovlardir.

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, renta, royalti va soliqlar tashkil etadi. Bonuslar – bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat byudjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar xajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi subyektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bu bitim tuzilgan vaqtda yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar

hisoblanadi.⁴⁵

O‘zbekistonda yer qa‘ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to‘laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi.

Renta tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlarning ikkinchi ko‘rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to‘lov hisoblanadi. Renta kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi.

Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko‘rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat‘iy ulushi o‘zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalti – bu mineral xomashyoni qazib olish xajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xomashyoning bir qismi tarzida to‘lanadigan muntazam to‘lovlardir.⁴⁶

Jahon tajribasida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig‘i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya‘ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga yuqori rentabellikka erishadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun aksiz soliqlari ham amal qiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o‘tdi. O‘zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xomashyo resurslari to‘plangan.

O‘zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog‘i 95 turdagi mineral

45 O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida” gi Qonuni, 20-modda.

46 O‘sha yerda.

xomashyoni oʻzida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud. Mamlakatning umumiy xomashyo salohiyoti 3,3 trillion AQSh dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd. AQSh dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda.⁴⁷


Respublikamiz qonunchiligiga koʻra mavjud yer osti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentabrdagi “Yer osti boyliklari toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq 1995-yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning xajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq toʻlay boshladilar.

Yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat aʼzolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Oʻzbekistonda 2002-yil 13 dekabrda “Yer osti boyliklari toʻgʻrisida” gi Qonunning yangi taxriri tasdiqlandi va ushbu qonunning asosiy vazifasi boʻlib, yer osti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi.

Respublikamizda yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq yer osti boyliklarining 53 turiga nisbatan belgilangan boʻlsada, byudjetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdagi yer osti boyliklariga mutloq ravishda bogʻliq boʻlib qolmoqda.

47 Vahobov A.V, Joʻrayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik-T.:SHARQ, 2009. 448 bet.



10.1-rasm. Yer qa`ridan foydalanilganlik uchun soliq summasini asosiy yer osti boyliklari bo'yicha shakllanishi (foizda)⁴⁸.

10.1-rasm ma`lumotlaridan ma`lumki, 2011-yilda yer qa`ridan foydalanilganlik uchun soliqning tushumlari tarkibida oltin 42,4 foizni, tozalangan mis 39,5 foizni, neft 4,2 foizini, tabiiy gaz va gaz kondensati 10,1 foizini kumush 1,9 foizni tashkil etadi.

Soliq kodeksiga ko'ra yer qa`ridan foydalanilganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta`minlash bilan birga fiskal vazifani bajarib davlat byudjeti daromadlari tarkibida ulushi 2017-yilda 6,2 foyiz prognozlashtirilgan.

⁴⁸ Vahobov A.V, Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik-T.:SHARQ, 2009. 448 bet.


10.1-jadval Yer qa`ridan foydalanganlik uchun solig`ining jami soliq tushumlari va resurs soliqlari tarkibidagi ulushi (%)⁴⁹

t/r	Soliqlar nomi	Yillar %									
		2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
1.	Soliq tushumlari jami shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
1.2	Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq	10,5	9,8	9,6	8,7	7,7	8,7	8,6	8,1	7,1	6,2
2.	Resurs soliqlari jami shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
2.1	Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq	61,2	61,6	64,1	61,0	57,7	56,7	55,5	51,0	49,5	45,4

10.1-jadval malumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, davlat byudjeti daromadlarida jami resurs to'lovlari tarkibida yer ka`ridan foydalanganlik uchun solig`i 2008-yilda 10,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 6,2 foizni tashkil etib 4,3 foiz punktiga pasaygan. Resurs soliqlari tarkibida 2008-yilda 61,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 45,4 foizni tashkil etib 15,8 foiz punktiga kamaygan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning qazib olinadigan xomashyo turlari bo'yicha tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Tabiiy boyliklarni qazib olish paytida renta daromadlarini yanada samarali va adolatli soliqqa tortilishini ta'minlash maqsadida konlarning joylashgan o'rni va qazib olish sharoitlariga ko'ra stavkalarining belgilanishi amalga oshirilmoqda. Yer qa`ridan foydalanganlik uchun solig`ini hududlar bo'yicha ulushini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.

49 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari



10.2-rasm. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar bo'yicha 2011-yilda hududlar salmog'i⁵⁰

2011-yil bo'yicha hududlar kesimini tahlil qilganda Navoiy viloyati 38,9 % bilan asosiy ulushni, Qashqadaryo viloyati 24,5 %ni, Toshkent shahri 23,1 %ni, Toshkent viloyati 10,2 %ni, Buxoro viloyati 1,5 %ni, Qoraqalpog'iston Respublikasi 1,2 %ni, Andijon viloyati 0,3 %ni, Surxondaryo viloyati 0,2 %ni, Samarqand va Farg'ona viloyatlari 0,02 %ni, Namangan viloyati 0,009 %ni, Jizzax viloyati 0,007 %ni, Sirdaryo viloyati 0,002 %ni hamda Xorazm viloyati 0,001 %ni tashkil etgan.

10.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari, obyekti, soliq solinadigan bazasi va stavkalari

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek, foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa`ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa`ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to`lovlarni to`laydilar:

- yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo`shimcha foyda solig`i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Soliqqa tortish maqsadida yer osti boyliklari deganda yer qobig`ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qazib olish mumkin bo`lgan makon, foydali qazilmalar deganda - iqtisodiy va sog`lomlashtirish ahamiyatiga ega geologik hosilalar qaraladi.

Tarkibida rangli, nodir, asl, qora metallar va boshqa mineral xomashyo bo`lgan rudalarni bir korxonaga qazib olib, uni bundan keyin qayta ishlash uchun boshqa korxonalariga bersa (eksport bundan mustasno), qazib olinadigan rudani qayta ishlaydigan va soliq stavkasi belgilangan tayyor mahsulot chiqaradigan korxonaga soliq to`lovchi hisoblanadi. Masalan, Olmaliq mis qazib olish korxonasi tarkibida mis bo`lgan, qazib olingan rudani boyitish fabrikasiga beradi, fabrika boyitilgan rudani Olmaliq tog`-kon metallurgiya kombinatining mis eritish zavodiga topshiradi. Kombinat tayyor mahsulot - tozalangan mis chiqaradi, soliq stavkasi ham unga belgilangan. Mazkur holatda rudani qazib oluvchi korxonaga emas, balki tozalangan misni olganlik uchun kombinat soliq to`lovchi hisoblanadi.

Respublikamizda ushbu soliqni davlat byudjetiga ta`minlab beruvchi eng yirik soliq to`lovchilar bo`lib : Olmaliq tog`-kon metallurgiya kombinati, Farg`ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlari, Sho`rtan va Muborak gazni qayta ishlaydigan zavodlari, Navoiy tog`-kon metallurgiya kombinatishuningdek, Angren ko`mir qazib oluvchi korxonaga va boshqa shu kabi yer osti boyliklarini qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar hisoblanadi.

Ruda qayta ishlash uchun O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga yuklab jo‘natilgan yoki eksport qilingan taqdirda rudani qazib olgan korxonada soliq to‘lovchi bo‘lib hisoblanadi.

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa‘ridan foydalanganlik uchun **soliq solish obyektini bo‘lib** hisoblanadi. Tayyor mahsulotlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan, bepul berish, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o‘z iste‘moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e‘tirof etiladi.

Soliq solish obyektini tayyor mahsulotning har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish obyektini quyidagilardir:

- sanoat yo‘sinida dastlabki qayta ishlovdan o‘tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan, qo‘shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;
- uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish obyektini bo‘lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish obyektidir.

Qolgan qattiq foydali qazilmalar bo‘yicha soliq solish obyektini quyidagilar hisoblanadi:

- kavlab olingan (shu jumladan, qo‘shilib chiqadigan) foydali

qazilmalar;

- foydali qazilmalardan, mineral xomashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar.

Soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati **soliq solinadigan bazadir**.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o'rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o'rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o‘rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo‘lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xomashyo bo‘lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o‘zining ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq stavkalari

O‘zbekistonda qazib olinadigan xomashyo turlari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Hozirgi vaqtda jami 53 turdagi foydali qazilmalarga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda soliq stavkalari o‘rnatilgan

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarorining 15-ilovasiga muvofiq tasdiqlandi. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2016-yilda amal qilgan stavkalar darajasida saqlanib qolindi.

10.1-jadval

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI⁵¹

Soliq solinadigan obyekt nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi, foizda
1. Asosiy va qo‘shimcha foydali qazilmalar kavlab olish uchun	
Energiya manbalari:	

51 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-dekabrda PQ-2699-sonli qarori. (15-ilovasi)

Tabiiy gaz	30,0
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz	9,0*
Yer ostidan kavlab olingan gaz	2,6
Nostabil gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko'mir	4,0
Rangli va noyob metallar:	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0
Konsentratlangan qo'rg'oshin	4,0
Metall rux	4,0
Volfram konsentrati	10,4
Uran	10,0**
Asl metallar:	
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	24,0
Qora metallar:	
Temir	4,0
Kon-kimyo xomashyosi:	
Tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	3,5
Kaliy tuzi	3,5
Natriy sulfat	3,5
Fosforitlar (grafitlarga)	5,0
Karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Glaukonit	3,5
Mineral pigmentlar	4,8
Kon-ruda xomashyosi:	
Plavik shpatli konsentrat	21,2
Tabiiy grafit	8,0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9***
Kvars-dala shpati xomashyosi	6,5
Shisha xomashyosi	3,0

Bentonitli loy	4,8
Talk va talk toshi	4,0
Talkomagnezit	4,0
Mineral bo'yoqlar	5,7
Vollostanit	4,0
Asbest	4,0
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4,0
Barit konsentrati	4,0
Metallurgiya uchun noruda xomashyo:	
O'tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliplash gilmoyasi	4,0
Ohaktoshlar, dolomitlar	4,0
Kvars va kvarsitlar	6,5
Qoliplash qumlari	4,0
Vermikulit	4,0
Noruda qurilish materiallari:	
Sement xomashyosi	5,0
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	5,0
Marmar ushog'i	5,0
Gips toshi, ganch	5,0
Keramzit xomashyosi	5,0
G'isht-cherepitsa xomashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshqalar)	5,0
Gips va angidrit	5,0
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5,0
Qurilish qumlari	5,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	5,0
Qumtoshlar	5,0
Chig'anoq	5,0
Slanetslar	5,0
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5,0

2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilma boyligini kavlab olganlik uchun stavkani 30 foizi
---	--

**) Belgilangan stavka bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi belgilagan tartibda utilizatsiya qilingan tabiiy gazni realizatsiya qiladigan korxonada to'lanadi.*

****) «Navoiy KMK» DK uranni kavlab olganlik bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda va miqdorda to'laydi.*

*****) Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq mahsulotning realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha belgilangan stavkalarda to'lanadi.*

10.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va byudjetga to'lash tartiblari

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha kalendar yil soliq davridir. Hisobot davri yuridik shaxslar uchun - yil choragi, jismoniy shaxslar uchun - kalendar yili.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

-yuridik shaxslar tomonidan - ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oying 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

-jismoniy shaxslar tomonidan - yiliga bir marta, soliq

davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

-mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan - hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

10.4. Yer qa'ridan foydalanuvchilardan maxsus to'lovlarni hisoblash va to'lash tartibi.

Imzoli va tijoratbop topilma bonusi

Bonus – bu yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdur.

Yer qa'ridan foydalanuvchi quyidagi turdagi bonuslarni to'laydi:

-imzoli bonus;

-tijoratbop topilma bonusi.

Faqatgina davlat boshqaruvi organlari bonuslar to'lamaydi.

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdur.

Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan o'ttiz kundan kechiktirmay byudjetga to'lanadi va bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

Imzoli bonus stavkalari⁵²

№	Foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish huquqi	Bonusning eng kam stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karra miqdorda)
1.	Uglevodorodlar konlarini qidirish va aniqlash huquqi	10 000
2.	Oltin qidirish va aniqlash huquqi	10 000
3.	Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va aniqlash huquqi	1 000
4.	Rudali foydali qazilmalar konlarini, 2 va 3-bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari, qidirish va aniqlash huquqi	500
5.	Norudali foydali qazilmalar konlarini qidirish va aniqlash huquqi	100

4.2. Tijoratbop topilma bonusi

Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan, dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdur. Tijoratbop topilma bonusi, agar avval mazkur kon bo'yicha tijoratbop topilma bonusi to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olishda yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi.

Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusi to'lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali

52 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori. **(16-1-ilovasi)**

qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi soliq solish obyektidir.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati quyidagicha hisoblab chiqiladi:

Tovar bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestriga kiritilgan yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun – foydali qazilmaning mazkur turi uchun tasdiqlangan deklaratsiya qilingan narxi bo‘yicha;

- boshqa yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xalqaro birjada belgilangan birja narxi bo‘yicha, jahon bozorida narx mavjud bo‘lmagan taqdirda esa, foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati – belgilangan tartibda kelishilgan tegishli konni sanoat yo‘sinida o‘zlashtirish bo‘yicha texnik-iqtisodiy asoslarda nazarda tutilgan kavlab olishning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib, uni 20 foiz oshirgan holda;

- foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymatini aniqlash va tijoratbop topilma bonusini to‘lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tijoratbop topilma bonusining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beradigan litsenziya olingan kundan e’tiboran **yigirma besh kundan kechiktirmay** soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Tijoratbop topilma bonusini to‘lash foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beradigan litsenziya olingan kundan e’tiboran **to‘qson kundan kechiktirmay** amalga oshiriladi;

Tijoratbop topilma bonusu stavkasi⁵³

Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan stavka, foizda
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va norudali foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	0,1

Izoh:

Tijoratbop topilma bonusining summasi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning yillik summasidan oshgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tijoratbop topilma bonusini 3 yilgacha bo'lgan muddatda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishi mumkin.

Qo'shimcha foyda solig'i***Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar quyidagilar hisoblanadi:***

-ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar;

-foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan ba'zi shaxslar qo'shimcha foyda solig'i to'lovchisi etib belgilanishi mumkin.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga

53 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori. **(16-2-ilovasi)**

oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

Realizatsiya qilishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi (qo'shimcha foyda) qo'shimcha foyda **solig'ini solish obyekti bo'lib hisoblanadi.**

Qo'shimcha foyda summasi bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan sof qo'shimcha foyda **soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.**

Qo'shimcha foyda solig'i solinadigan foydali qazilmalar va mahsulot turlari ro'yxati, shuningdek, soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

10.4-jadval

Ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i STAVKALARI⁵⁴

Mahsulot nomi	Soliq solinadigan bazaning miqdori (QQS va aksiz solig'isiz)	Soliq stavkasi
Katodli mis*	so'mdagi ekvivalentda "kesish narxi" gacha 1 tonna uchun 4 600 AQSh dollaridan yuqori	50 foiz
Tabiiy gaz*	so'mdagi ekvivalentda "kesish narxi" gacha 1 000 kub m. uchun 160 AQSh dollaridan yuqori	
Polietilen granularlar*	1 tonna uchun 1 870 000 so'mdan yuqori	
Sement**	1 tonna uchun 125 000 so'mdan yuqori	
Klinker	1 tonna uchun 105 000 so'mdan yuqori	

54 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori. (17-ilovasi)

**) Qo‘shimcha foyda solig‘ini to‘lovchilar soliq to‘langandan so‘ng qo‘shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to‘liq hajmda maxsus ochiladigan investitsiya hisobvaraqlariga o‘tkazadilar. Ko‘rsatilgan investitsiya hisobvaraqlaridan mablag‘lar faqat O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda sotish uchun ma‘qullangan investitsiya loyihalarini moliyalash, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jalb etilgan kreditlarga xizmat ko‘rsatish, shuningdek, asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.*

****) Oq sement va muqobil yoqilg‘i - ko‘mir asosida ishlab chiqarilgan sementdan tashqari.*

Qo‘shimcha foyda solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Tabiiy gaz bo‘yicha qo‘shimcha foyda solig‘i to‘lovchilari bo‘lib tabiiy gazni eksportga realizatsiya qiladigan, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solish obykti yuzaga keladigan yuridik shaxslar (mahsulot taqsimoti to‘g‘risidagi bitim doirasida faoliyatni amalga oshiradigan operatorlar va investorlar bundan mustasno) hisoblanadi.

Mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) rentabellik darajasi 20 foizdan yuqori bo‘lgan foyda summasiga - 50 foiz miqdorida foyda solig‘i tolashlari belgiland.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 24 fevralda 1908-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Sementga va klinkerga qo‘shimcha foyda solig‘ini hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasining Qarori

bilan tasdiqlangan nizomga asosan sement va klinkerga qo‘shimcha foyda solig‘ini hisoblash chiqarish va to‘lash tartibi olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 24 fevralda 1909-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Tabiiy gazga qo‘shimcha foyda solig‘ini hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasining Qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan tabiiy gazga qo‘shimcha foyda solig‘ini hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash tartibi olib boriladi.

AMALIY MASALALAR:

1-masala. Neft qazib oluvchi korxonada 2017-yilda 1600 tonna neft qazib olgan. Korxonada qayta ishlash uchun 3500,0 ming so‘mga (QQS va aksiz solig‘isiz) realizatsiya qilgan. Korxonaning hisobot davrida to‘lashi lozim bo‘lgan yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang?

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra neft mahsulotlariga yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 20 foiz belgilangan;

2. Neft mahsulotlarining qayta ishlashdan olingan mahsulotning haqiqatda sotilish qiymati va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblaymiz.:

$$3500,0 \times 20 \% = 700,0 \text{ ming so‘m}$$

2-masala. Ko‘mir qazib oluvchi korxonada 2017-yilda 1 900,0 ming tonna ko‘mir qazib olgan va uning 800,0 ming tonnasini 84 000,0 ming so‘mga realizatsiya qilgan. Korxonaning to‘lashi lozim bo‘lgan yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq

summasini hisoblang?

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra ko‘mir mahsulotlariga yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 4 foiz belgilangan;

2. Neft mahsulotlarining qayta ishlashdan olingan mahsulotning haqiqatda sotilish qiymati va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblaymiz:

$84\ 000,0 / 800,0 = 105,0$ ming so‘m (o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi)

$1\ 900,0 \times 105,0 \times 4\ \% = 7\ 980,0$ ming so‘m (soliq summasi)

3-masala. Kumush qazib oluvchi korxonada 2017-yilda 1 200,0 tonna ko‘mir qazib olgan va 96 000,0 ming so‘mga realizatsiya qilgan. Korxonaning to‘lashi lozim bo‘lgan yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang?

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra kumush mahsulotlariga yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 8 foiz belgilangan;

2. Kumushni qayta ishlashdan olingan mahsulotning haqiqatda sotilish qiymati va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblaymiz:

$96\ 000,0 \times 8\ \% = 7\ 680,0$ ming so‘m soliq

Mavzuga doir test savollari:

1. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq qachon joriy etilgan?

A. 1994-yil 1 maydan

- B. 1995-yil 1 yanvardan*
- C. 1996-yil 1 maydan
- D. 1993-yil 1 yanvardan

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 1994-yil 23 sentabr*
- B. 1995-yil 25 yanvar
- C. 1996-yil 1 may
- D. 1993-yil 23 sentabr

3. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilarni aniqlang.

- A. Foydali qazilmalarni qazib oluvchi yuridik shaxslar
- B. Foydali qazilmalarni qazib oluvchi jismoniy shaxslar
- C. Foydali qazilmalarni sotuvchi yuridik va jismoniy shaxslar
- D. Foydali qazilmalar qazib oluvchi va qayta ishlovchi yuridik va jismoniy shaxslar*

4. Yer qa‘ridan foydalanuvchilar qanday soliqva to‘lovlarni to‘laydilar?

A. yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq, qo‘shimcha foyda solig‘i va bonus *

B. yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq va qo‘shimcha foyda solig‘i

- C. imzoli va tijoratbop topilma bonuslar
- D. yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq va bonus

5. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq obykti nima?

- A. foydali qazilmalarni qazib olish hajmi *
- B. foydali qazilmalarni sotishdan olingan foyda
- C. Jami daromad
- D. Tovar oboroti

6. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solinadigan bazasini belgilang?

A. Yuridik shaxslar sanoat yo‘sinida dastlabki qayta ishlovdan

o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar qiymati

B. Jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida kavlab olgan hamda O'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi

*C. Kavlab olingan tayyor mahsulot hajmining o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymat

D. Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mahsulotni sotishdan tushgan tushumi

7. Qo'shimcha foyda solig'ini soliq soliq obykti nima?

A. Realizatsiya qilishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi *

B. Foydali qazilmalarni sotishdan olingan foyda

S. Jami daromad

D. Realizatsiya qilishdan olingan sof tushum

8. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi yuridik shaxslar tomonidan soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi:

A. yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda*

B. joriy soliq davrining 1 dekabrigacha

C. har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay

D. yilda bir marta, joriy soliq davrining 1 fevralgacha

9. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash muddatini ko'rsating.

A. yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay

B. mikrofirmalar va kichik korxonalarhisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay, qolgan yuridik shaxslar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim

etiladigan muddatdan kechiktirmay*

C.har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 15 kundan kechiktirmay

D. yilda bir marta, joriy soliq davrining 1 fevralgacha

10. Imzoli bonus byudjetga qachon to‘lanadi?

A litsenziya olingan kundan e‘tiboran soliq to‘lovchi tomonidan o‘ttiz kundan kechiktirmay byudjetga to‘lanadi*

B. litsenziya olingan kundan e‘tiboran soliq to‘lovchi tomonidan yigirma kundan kechiktirmay byudjetga to‘lanadi

C. foydali qazilma topilgandan keyin soliq to‘lovchi tomonidan o‘ttiz kundan kechiktirmay byudjetga to‘lanadi

D. foydali qazilma sotilib foyda olingandan keyin soliq to‘lovchi tomonidan o‘ttiz kundan kechiktirmay byudjetga to‘lanadi

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Yer qa‘ridan foydalanganda soliqqa tortishning zarurligi nimada?

2. Yer qa‘ridan foydalanganda soliqqa tortish obyekt va bazasi qanday aniqlanadi?

3. Soliq kodeksida yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqdan imtiyozlar ko‘zda tutilganmi?

4. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi muddati?

5. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lashtartibi?

6. Bonuslar nima?

7. Imzoli bonus to‘lovchilari kimlar?

8. Tijoratbob topilma bonus to‘lovchilari kimlar?

9. Qo‘shimcha qoyda solig‘i to‘lovchilari va obyekt?

10. Imzoli bonus stavkalari?

11. Tijoratbob topilma bonus stavkalari?

12. Qo‘shimcha qoyda solig‘i stavkalari?

11-BOB: SODDALASHTIRILGAN SOLIQ TIZIMI

Tayanch soʻz va iboralar: *soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi, mikrofirmalar va kichik korxonalar, tadbirkorlik faoliyati subyektlari, kichik tadbirkorlik subyektlari, oilaviy korxonalar, mikrofirma va kichik korxonalar, yagona soliq toʻlovi, yagona yer soligʻi, qatʻiy belgilangan soliq.*

11.1. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi haqida tushuncha uning joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va qoʻllanishi tartibi

Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy oʻsishni taʼminlash va aholi bandligini taʼminlash muhim rol oʻynaydi va Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov taʼkidlab oʻtganlaridek: “Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi. Mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik toʻsiq va gʻovlarni bartaraf etish boʻyicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim”.


Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi boʻlgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur.

Oʻrta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish oʻrinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili boʻlgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish boʻyicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Darhaqiqat kichik biznes va oylaviy tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar olib borilishi natijasida, yagona soliq toʻlovi stavkasini 2005-yildagi 13 foizdan 2015-yilda 5 foizgacha yoki 2,5 barobardan ortiq kamaytirilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun katta imkoniyatlar berdi. Jumladan, 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi kichik biznes subyektlari ulushi 31 foizni tashkil qilgan boʻlsa, 2015-yil yakuni bilan bu koʻrsatkich 56,7 foizni tashkil etdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev taʼkidlab oʻtganlaridek: Xususiy mulk va tadbirkorlikni har tomonlama qoʻllab- quvvatlash va himoya qilish boʻyicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi 2016-yilda 32 mingtaga yaqin yoki 2015-yilga nisbatan 18 foizga koʻp kichik biznes subyektlari tashkil qilinishiga turtki boʻldi. **Kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi 56,9 foizgacha, sanoatda esa 45 foizgacha oshdi.**

Ijobiy tarkibiy oʻzgartirishlar va iqtisodiyotning yuqori oʻsish surʼatlari tufayli aholining real daromadlari 11 foizga oshdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi 15 foizga, pensiya va ijtimoiy nafaqalar – 12,1 foizga, aholi jon boshiga real daromadlar – 11 foizga oʻsdi, 726 ming nafarga yaqin aholining, shu jumladan, 438,5 ming kollej bitiruvchisining bandligi taʼminlandi.




11.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni YaIM dagi ulushi va yagona soliq to'lovi stavkasining o'zgarish dinamikasi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida"gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona soliq bo'yicha soliq idoralari soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada korxonalar hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

Mamlakatimizda kichik biznesni soliqlar vositasida qo'llab-quvvatlash Respublika Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida»gi PF-3620-sonli farmonini alohida takidlab o'tish lozim. Unga asosan 2005-yilning 1 iyulidan boshlab mikrofirma va kichik korxonalar uchun ilgari to'lab kelingan 4 ta to'lov - yagona soliq hamda byudjetdan tashkari Pensiya jamg'armasi, o'l va Maktab talimi jamg'armalariga majburiy ajratmalar o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etilishi kichik biznes zimmasidagi soliq yukining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi.



11.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3620- sonli farmoniga asosan kichik korxonalarda soliq yukini kamayishi⁵⁵

Kichik korxonalarda soliq yuki ham 2005-yilgacha 15,2 % tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilda 13% , 2009 yida 8%, 2010 yida 7%, 2011 yida 6% va 2016-yilda esa 5% (sanoat ishlab chiqarish va qurilish sohasi korxonalariga) ga tushirildi.

Shuningdek, 2016-yilda soliq yuki, 1991-yil bilan solishtirganda, yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 2 barobar kamayib, 41,2 foizdan 20 foizga tushganini qayd etish zarur.

55 O'rmonov J.J. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Monografiya – T.: MChJ “El-presst” – 2011, 132-bet.

Soliq yukini kamayishining «Istiqlob» ishlab chiqarish korxonasini moliyaviy xo`jalik faoliyatiga ta`siri tahlili

Ko`rsatkichlar	Farmon chiqqunga qadar	Farmon chiqqandan so`ng	Farqi
Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum (mln so`mda)	154	154	0
Soliq va ajratmalar miqdori (mln so`mda)	23,4	20,0	- 3,4
Foyda (mln so`mda)	38,2	41,6	+ 3,4
Ishchilar soni (kishi hisobida)	57	62	+ 5
Soliq yuki	15,2%	13%	-2,2%

Farmon chiqishidan oldin

Yagona soliq: 154 mln so`m x 12% = 18,48 mln so`m

Maktab ta`limi: 154 mln so`m x 1% = 1,54 mln so`m

Yo`l jamg`armasi 154 mln so`m x 1,5% = 2,31 mln so`m

Pensiya jamg`armasi 154 mln so`m x 0,7% = 1,07 mln so`m

Jami: 23,4 mln so`m

Farmon chiqqandan so`ng

Yagona soliq to`lovi: 154 mln so`m x 13% = 20,02 mln so`m

Tahlillardan ko`rinib turibdiki, farmon chiqishidan oldin korxonaga byudjetga 23,4 mln so`m soliqlar va ajratmalarni to`lagan. Farmon chiqqandan keyin korxonaga soliqlar va ajratmalar o`rniga yagona soliq to`lovini byudjetga 20,02 mln so`m to`lamoqda. Natijada korxonaga to`layotgan soliqlar 3,2 mln so`mga kamaygan va oladigan foydasi 3,2 mln so`mga ko`paygan.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbasi sifatida yagona soliq to‘lovi hozirga qadar o‘zining muhim o‘rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida” gi qaroriga ko‘ra 2017-yilda mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 3,6 foizni, bevosita soliqlar tarkibida esa 15,2 foizni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini bevosita soliq daromadlarining asosiy manbasi ekanligini bildiradi.

11.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to‘loviining o‘rni⁵⁶ (foizda)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar (%)										2017-yilda 2008-yilga nisbatan o‘zgarishi,	
		2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017		X
1	Davlat byudjeti daromadlari –jami Shujumladan:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
2	Bevosita soliqlar	25,3	26,6	26,0	26,2	25,2	26,2	25,8	23,6	23,1	24,0	-1,3	
1.1	Kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini jami daromadlardagi ulushi	2,0	2,5	2,6	2,3	2,6	3,0	3,0	2,9	3,1	3,6	+1,6	
2.1	Yagona soliq to‘lovini bevosita soliqlardagi ulushi	8,1	9,2	10,1	8,9	10,3	11,6	11,7	12,4	13,2	15,2	+7,1	

56 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Soliq kodeksining 22-moddasiga ko‘ra - **soliq solishning soddalashtirilgan tartibi** - soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi deb ta‘rif berilgan.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi -soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun qo‘llaniladi va yagona soliq to‘lovini, yagona yer solig‘ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning maxsus qoidalari qo‘llanilishini, shuningdek, mazkur soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

11.3-jadval

Yagona soliq to‘lovi tushumlarining maqsadli jamg‘armalar o‘rtasida taqsimlanishi⁵⁷

Yagona soliq to‘lovi bo‘yicha tushumlar	Davlat byudjetiga	Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga	Respublika yo‘l jamg‘armasiga	Umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga
23407-sonli tranzit hisobvaraqdagi	23402-sonli tranzit hisobvaraqdagi	20205-sonli tranzit hisobvaraqdagi	20207-sonli tranzit hisobvaraqdagi	20205-sonli Tranzit hisobvaraqdagi
Yagona soliq to‘lovi (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari), shuningdek, ayrim to‘yfalardagi korxonalar tomonidan to‘lanadigan yagona soliq to‘lovi bo‘yicha				
100%	79%	12%	5%	4%
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq to‘lovi				
100%	55%	28,5%	7%	9,5%

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori 6-bandiga muvofiq yagona soliq to‘lovidan tushumlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Respublika

57

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma‘lumotlari

yo‘l jamg‘armasi hamda byudjetdan tashqari Umumiy ta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda taqsimlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2015-yil BYu/03-02-36-32-sonli xati va Davlat soliq qo‘mitasining 2015-yil 12-yanvardagi 166-if-sonli topshirig‘iga asosan quyidagicha belgilangan (11.3-jadval).

Yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliqlar Soliq kodeksda nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning o‘rniga to‘lanadi.

Soliq davri mobaynida, soliq solish tartibi o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchi bu haqda soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o‘tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to‘lash bo‘yicha majburiyatlar soliq to‘lovchilarda saqlanib qoladi.

11.2. Soddalashtirilgan soliq tizimi to‘lovchilari

Soliq kodeksiga muvofiq, soliq solishning soddalashtirilgan tartibida yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliqlarning to‘lovchilari bo‘lib kichik tadbirkorlik sub’yektlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2 mayda yangi taxrir ostida tasdiqlangan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi **O‘RQ-328-sonli Qonuniga** ko‘ra, tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati, uning turlari va

ishtirokchilari quyidagicha belgilangan:

Biznes - foyda keltiradigan iqtisodiy faoliyat, foyda olish yoki shaxsiy manfaatni koʻzlaydigan daromad olishni nazarda tutuvchi har qanday faoliyat turi.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) -tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, oʻzi tavakkal qilib va oʻz mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari – yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy korxonalar, mikrofirma va kichik korxonalar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishidir.

Oilaviy tadbirkorlik - oila aʼzolari tomonidan tavakkal qilib va oʻz mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Yakka tartibdagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, oʻziga mulk huquqi asosida tegishli boʻlgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yoʻl qoʻyadigan oʻzga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

Yakka tartibdagi tadbirkor Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-4725-sonli farmoniga** asosan, 2015-yilning 1 iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir yollangan ishchi uchun Pensiya jamg'armasiga eng kam oylik ish haqining **50 foizi miqdorida** sug'urta badali va yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun belgilangan soliq stavkasining **30 foizi miqdorida** soliq to'lash sharti bilan **bir nafardan uch nafargacha ishchi yollash** huquqi berildi.

Yakka tadbirkorlar kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ishga yollagan hollarda kollejni bitirgandan boshlab o'n ikki oy mobaynida yollanma ishchilar uchun belgilangan **soliqdan ozod etilishi** belgilab qo'yildi.

Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2015-yil 31-iyuldagi 219-sonli** qaroriga asosan "Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida" NIZOM"ga asosan amalga oshiriladi.

Oilaviy tadbirkorlikka maksimal darajada yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkning ustuvorligini mustahkamlash, uni ishonchli kafolatlarini ta'minlash hamda oilaviy tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish va rivojlantirishga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining **2012-yil 26-apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" O'RQ-327-sonli Qonuni** qabul qilindi.

Oilaviy tadbirkorlik - oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oilaviy korxona - qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda yagona soliq to'lovini to'lovchisi hisoblanadi. Oilaviy korxonaning foydasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin uning ishtirokchilari tasarrufiga o'tadi hamda unga soliq solinmaydi.

Oilaviy korxon

a aksiz solig'i to'lanadigan mahsulotni ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalar kavlab olishni, shuningdek, yuridik shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq yoki yagona yer solig'i to'lash nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirishi mumkin emas.

Oilaviy korxon

a mehnat haqi fondidan ijtimoiy fondlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar to'laydi. Oilaviy korxon

a o'zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ozod qilinadi. Bunday buyumlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Oilaviy korxon

a g

a kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, preferentsiyalar va kafolatlar tatbiq etiladi.

Fermer xo'jaligi - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir. Fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy subyektidir.


Dehqon xo'jaligi - oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan

umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

11.3.Soddalashtirilgan soliq tizimi ahamiyati

Ma'lumki soliq siyosatida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. 2007-yil 25 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RBQ-136 sonli Qonuni bilan yangi Soliq kodeksi qabul qilindi hamda 2008-yil 1 yanvardan kuchga kirdi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 2 ta (umumiy va maxsus) qism, 21 bo'lim, 64 bob va 392 ta moddadan iboratdir. Shunga muvofiq soddalashtirilgan soliq tizimi yangi Soliq kodeksining 20 bo'limi 55-58 boblari xamda 348-375 moddalarda o'z aksini topgan. Soddalashtirilgan soliq tizimi 3-ta yo'nalish bo'yicha o'rganiladi (11.3-rasm):



11.3-rasm. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan soliqlari:

- yagona soliq to‘lovi;
- yagona yer solig‘i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to‘lovchilar uchun, to‘lov manbayida soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- to‘lov manbayida undiriladigan foyda solig‘i;
- O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko‘rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- qurilishi moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalarini jalb etgan holda tanlov savdolari asosida amalga oshirilayotgan obyektlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- aksiz to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig‘i;
- yer qa`ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- bojxona to‘lovlari;
- yagona ijtimoiy to‘lov;
- davlat bojlari;
- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im;
- davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to‘lovini va yagona yer solig‘i to‘lovchilar bundan

mustasno);

-avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im.

O‘zbekistonda kichik biznesni (tarmoq belgisi va doimiy ishlovchilar miqdori bo‘yicha) aniqlash mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-1987sonli farmoni bilan belgilab berilgan.

11.4-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarini tarmoqlar bo‘yicha aniqlash mezonlari⁵⁸

Mikrofimlar	09.04.1998 PF-1987 O‘rtacha yillik ishchilar soni	15.05.2009 PQ-1112 + 30 foizga kasanachilar	28.07.2010 PF-4232 + 50 foizga bitiruvchilar
-Ishlab chiqarish tarmoqlarida	20 kishidan	+6 kishi	+10 kishi
-Hizmat ko‘rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan tarmoqlarda	10 kishidan	+3 kishi	+5 kishi
-Ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida	5 kishidan	+2 kishi	+2,5 kishi
Kichik korxonalar			
- engil, oziq-ovqat hamda qurilish materiallari sanoatida	200 kishidan	+60 kishi	+100 kishi
- metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochsozlik hamda mebel sanoatida	100 kishidan	+15 kishi	+50 kishi

58 O‘rmonov J..J. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Monografiya – T.: MChJ “El-presst” – 2011, 132-bet.

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qurilish va boshqa ishlab chiqarish	50 kishidan	+15 kishi	+25 kishi
- ilm-fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida	25 kishidan	+8 kishi	+12

2017-yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-sonli qarori 1-ilovasiga** muvofiq, "Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan tashkilotlarning **IFUT** asosida takomillashtirilgan tasniflagichi 1-ilovaga" muvofiq tasdiqlandi hamda statistika, soliq va moliyaviy hisobotlarni amalga oshirishda tasdiqlangan **IFUT-(Iqtisodiy faoliyat turlarini umumdavlat tasniflagichi)** tasniflagichiga qat'iy amal qilinishi belgilangan.

Kichik biznes subyektlariga amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra tatbiq etiladigan soliq imtiyozlari va preferensiyalar faqat yuqoridagi sanab o'tilgan subyektlarga taalluqli bo'ladi. U yoki bu korxonaning yuqorida aytilgan subyektlar toifalarining birortasiga kiritilish mezonini bo'lib xodimlarning yillik o'rtacha soni, shu jumladan, unitar korxonalarda, filiallarda va vakolatxonalarda ishlaydiganlar soni hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-maydagi "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1112 sonli qaroriga muvofiq, kichik korxonada **o'z uylarida ishlayotgan (kasanachilik bilan shug'ullanayotgan)** fuqarolar bilan, qonun hujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan

normatividan ko‘pi bilan **30 foiz oshgan** miqdorda mehnat shartnomalari tuzganda, kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar mazkur korxonalar uchun saqlanib qolinishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PF-4609-sonli farmoniga** asosan quyidagilar belgilandi:

- **2014-yilning 1 iyunidan** davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida chop etilmagan ularning tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlar masalalarini tartibga soladigan me‘yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlari talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlik subyektlariga javobgarlik choralari qo‘llash taqiqlanadi;

-tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishni va tadbirkorlik subyektlariga yangi yuridik majburiyatlar yuklatishni nazarda tutadigan, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga yuridik javobgarlikning yangi choralarini belgilaydigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ular rasman chop etilgan fursatdan boshlab, uch oydan oldin bo‘lmagan muddatda kuchga kiritiladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga ularning hisobvaraqlaridan soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda banklar xizmatlari uchun to‘lovlar undirish amaliyoti bekor qilindi.

Shuningdek, farmonga ko‘ra quyidagi tartiblar o‘rnatildi:

-xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq, moliyaviy hisobotlarni taqdim etmaslik va ularni ko‘rsatilgan manzilda yo‘qligi holatlarida ularning tijorat banklaridagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish davlat soliq xizmati

organlari tomonidan faqat sudning tegishli qarori asosida amalga oshiriladi;

-2014-yilning ikkinchi choragi uchun soliq solishdan boshlab, yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (chakana savdo tashkilotlaridan tashqari) qurilishi yakunlangan obyektни qabul qilish hujjati tasdiqlanganidan keyin 6 oy davomida, biroq ularning davlat ro‘yxatidan o‘tganidan so‘ng bir yildan ko‘p bo‘lmagan davrda, yagona soliq to‘lovi va yagona ijtimoiy to‘lovni, ushbu to‘lovlarning tasdiqlangan eng kam miqdorlarini hisobga olmagan holda, amalda bajarilgan ish hajmlaridan kelib chiqib to‘laydilar.

Mavzuga oid test savollari

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to‘lashni tanlashga haqlimi?

- A. Tanlashga haqli*
- B. Soliq o‘rganlarining roziligi bilan tanlashga haqli
- C. Yuqori tashkilot va hokimiyat o‘rganlaribi roziligi bilan tanlashga haqli
- D. Tanlashga haqli emas

2. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o‘tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadimi?

- A. Mol-mulk solig‘ini belgilangan tartibda to‘laydilar
- B. Mol-mulk solig‘ini to‘lovchilari hisoblanmaydi*
- C. Ijaraga berilgan mol-mulklari qiymatidan soliq to‘laydilar
- D. Faqat asosiy vositalari bo‘yicha to‘laydilar

3. Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari qo‘shilgan qiymat solig‘ini.....

- A. Ixtiyoriy ravishda to‘laydilar*

- B. Umumbelgilangan tartibda to‘lashga majbur
- C. Nollik stavkada to‘laydilar
- D. Pasaytirilgan stavkada to‘laydilar

4. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llaydigan mikrofirma va kichik korxonalar quyidagi qaysi soliqlarni to‘laydilar?

- A. Aksiz to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig‘i*
- B. Suv resurlaridan foydalanganlik uchun soliq
- C. Yer solig‘i
- D. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i

5. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qaysi soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi?

- A. Yagona soliq to‘lovi, yer solig‘i, yer qa‘ridan foydlanganlik uchun soliq
- B. Yagona soliq to‘lovi, aksiz solig‘i
- C. Yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i
- D. Yagona soliq, yer solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq

6. Soddalashtirilgan yagona soliq tizimiga mulkchilikning qaysi shaklidagi korxonalar o‘tishi mumkin?

- A. Mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar*
- B. Faqat hususiy korxonalar
- C. Mulkchilikning nodavlat shaklidagi barcha korxonalar
- D. Qo‘shma korxonalardan tashqari mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar

7. Oilaviy korxonalar qanday tartibda soliq to‘laydi?

- A. Soddalashtirilgan tartibda yagona soliq to‘lovi*
- B. Umumbelgilangan tartibda barcha soliqlarni
- C. Soddalashtirilgan tartibda qat‘iy belgilangan soliq
- D. Soddalashtirilgan tartibda yagona yer solig‘i

8. Oilaviy korxonalar qanday soliq to‘lamlari

belgilangan?

- A. *yagona soliq to'lovi
- B. foyda solig'i
- C. yer va mol-mulk solig'i
- D. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va yagona soliq to'lovi

9. Yagona soliq to'lovini to'lovchi savdo korxonalari mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadimi?

- A. Mol-mulk solig'ini belgilangan tartibda to'laydilar
- B. Mol-mulk solig'ini to'lovchilari hisoblanmaydi*
- C. Ijaraga berilgan mol-mulkleri qiymatidan soliq to'laydilar
- D. Faqat asosiy vositalari bo'yicha to'laydilar

10. Soddalashgan tartibga o'tishga belgilangan mezon nima hisoblanadi?

- A. o'rtacha yillik ishchilar soni*
- B. tovar aylanma
- C. asosiy vositalar qiymati
- D. yillik foyda

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llanishi tartibi qanday ?
3. Yagona soliq to'lovining huquqiy asoslari qanday ?
4. Kichik tadbirkorlik subyektlarini tarmoqlar bo'yicha aniqlash mezonlari?
5. Yagona soliq to'lovi qachondan joriy etilgan?
6. Yagona soliq to'lovi Soliq kodeksining qaysi bobi va moddalarida o'z aksini topgan?
7. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida qanday soliqlar to'lanadi?
8. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tish mezoniqanday belgilangan?

12-BOB. MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALAR TOMONIDAN YAGONA SOLIQ TO‘LOVINI QO‘LLASHXUSUSIYATLARI

Tayanch so‘z va iboralar: *soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi, mikrofirmalar va kichik korxonalar, tadbirkorlik faoliyati subyektlari, kichik tadbirkorlik subyektlari, oilaviy korxonalar, mikrofirma va kichik korxonalar, yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i, qat‘iy belgilangan soliq.*

12.1. Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari, obykti va bazasi

Soliq kodeksining 350-moddasiga muvofiq, yagona soliq to‘lovi to‘lovchilar quyidagilardir:

- 1) mikrofirmalar va kichik korxonalar,
- 2) xodimlarning sonidan qat‘iy nazar:
 - savdo korxonalarini va umumiy ovqatlanish korxonalarini;
 - lotereyalar tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.
- 3) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yakka tartibdagi tadbirkor.
- 4) Oilaviy korxonalar⁵⁹

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida” O‘RQ-327-sonli Qonuniga muvofiq, **oilaviy tadbirkorlik** - oila a‘zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatiga aytiladi.

Oilaviy korxonalar qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda **yagona soliq to‘lovini to‘lovchisi hisoblanadi.** Oilaviy

59 O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida” O‘RQ-327-sonli Qonuni 26-moddasi

korxonaning foydasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin uning ishtirokchilari tasarrufiga o'tadi hamda unga soliq solinmaydi.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalariga tatbiq etilmaydi:

1) aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qat'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalariga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno;

2) Soddalashtirilgan tartibda yagona yer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalariga;

3) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalariga.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi. Bunda:

- xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

- xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlashda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek, unitar korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;

- yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to'g'ri keladigan xodimlar sonining mezoni qabul qilinadi.

Yagona soliq to'lovi obyekti, bazasi va stavkalari

Mikrofirma va kichik korxonalariga yagona soliq to'lovining **obyekti** yalpi tushumdir (2-son «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi

hisobot» shaklining 010 satri).

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) qo‘shilgan qiymat solig‘ini, aksiz solig‘ini va transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni chegirgan holda (ushbu soliqlarni to‘laydigan soliq to‘lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

◆ qurilish, qurilish-montaj, ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta‘minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, o‘z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

◆ savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun – tovar oboroti;

◆ mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizli daromad summasi;

◆ vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar uchun - ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

◆ tayyorlov tashkilotlari uchun - realizatsiya qilingan

tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

♦ lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum;

♦ tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek, tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun - tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi. Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga tekinga beriladigan tovarlarga tatbiq etilmaydi;

2) Boshqa daromadlar.

Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilardan iborat:

- asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;

- mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

- tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar;

- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;

- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;
- talablardan oʻzganing foydasiga voz kechish shartnomasi boʻyicha olingan daromadlar;
- ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarining oʻrnini qoplash tarzidagi daromadlar;
- xizmat koʻrsatuvchi xoʻjaliklardan olinadigan daromadlar;
- birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penya, shuningdek, qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan toʻlanishi lozim boʻlgan jarimalar va penya;
- kursdagi ijobiy farq;
- dividendlar va foizlar;
- royalti;
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Quyidagilarga soliq solish obyektini sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan, aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi boʻyicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablagʻlar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) oʻrtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablagʻlar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk boʻlingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablagʻlar (mol-mulk yoki

mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytgacha qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) byudjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

9) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

10) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek, komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno);

11) obyekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

12) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

13) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) ularning majburiyatlarini

bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ko'rsatilgan mablag'lar soliq solish obyektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

14) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish objekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Soliq solinadigan baza

Quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

- 1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
- 2) to'lov manbayida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;
- 3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbayida umumiy asoslarda soliq solinadi;
- 4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa

majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar;

Soliq solinadigan baza yuqorida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga;

2) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

3) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga.

Hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

-yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirishdan o'tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan **25 foiziga**. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo'yicha esa - u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi;

-yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan **10 foiziga**.

12.2. Yagona soliq to'lovini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Mikrofirmalar va kichik korxonalar, yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.

Yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda quyidagi muddatlarda xabardor etadi:

-yangi tashkil etilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran **o'n besh kundan kechiktirmay**;

-o'tgan yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lash uchun belgilangan mezonlarga mos keladigan umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi yuridik shaxslar – yagona soliq to'lovini to'lashga o'tayotgan joriy hisobot davri birinchi oyining **10-sanasidan kechiktirmay**

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, oilaviy korxonalar va lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar faqat soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qollashga haqli.

Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan

mikrofirmalar va kichik korxonalar esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmasdan soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so'ng o'n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Hisobot yili tugashi bilan belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot yilidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lash huquqidan mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradi. Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob, shuningdek, Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan, agar ular hisobot yili tugashi bilan Soliq kodeksning 350-moddasi uchinchi qismiga muvofiq hisoblangan, belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmagan bo'lsa, yagona soliq to'lovini to'lagan hisobot davri uchun amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq

xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etadilar:

Soliq kodeksida nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni;

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to'lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa byudjetga to'lanishi lozim.

Hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, byudjet bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi.

Agar Soliq kodeksda nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblar va DSQ tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnoma:

-yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etilsa, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi;

-yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirib taqdim etilsa, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Alohida-alohida hisob yuritish

Turli soliq solish obyektlari va (yoki) yagona soliq to'lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar shu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari kerak. Bunda boshqa

daromadlarga asosiy (soha) faoliyat turi uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkalari bo'yicha soliq solinadi.

Lotereya o'yinlarini tashkil qilish faoliyati bilan birga boshqa faoliyat turlarini amalga oshiradigan yuridik shaxslar ushbu faoliyat turlari bo'yicha quyidagilarni to'laydi:

-agar ular mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirsam - yagona soliq to'lovini yoki umumbelgilangan soliqlarni;

-agar ular mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmasam, -umumbelgilangan soliqlarni.

Maxsus qoidalar

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar, agar o'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar, kamida o'n ikki oydan so'ng yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishga haqlidir.

Yagona soliq to'lovini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan birinchi chorak uchun foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovi to'lash muddatini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran **bir yil muddatga kechiktirish huquqiga ega**, kechiktirilgan summalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda imtiyozli davr tugaganidan so'ng **o'n ikki oy ichida teng ulushlar** bilan to'lanadi (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari) bundan mustasno.

Yagona soliq to'lovini kechiktirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan **2005-yil 2 avgustda 1502-son bilan** ro'xatga olingan "Yangi tashkil etilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga yagona soliq to'lovini to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish tartibi

to'g'risida"gi nizom asosida amalga oshiriladi.

Agar yagona soliq to'lovini to'lovchilar Soliq kodeksning 199-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni amalga oshirsalar, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashlari mumkin. Yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish uchun hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa, o'z faoliyatini amalga oshirishni boshlaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni rad etish keyingi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim etiladigan yozma bildirish asosida faqat navbatdagi soliq davrining boshidan amalga oshirilishi mumkin.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etmagan holda qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashga o'tishga hisobot yili boshlanishidan e'tiboran haqlidir.⁶⁰

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash Soliq kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar - yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bo'yicha ijaraga olingan yer uchastkalari uchun byudjetga ijara haqi to'lashdan ozod qilinadi, umumbelgilangan soliqlar to'lanadigan faoliyat turlarida foydalanilayotgan yer uchastkalari bundan mustasno.

60 O'zbekiston Respublikasi 31.12.2015 y. O'RQ-398-son Qonuni

12.2. Yagona soliq to'lovi stavkalari va soliقدan imtiyozlar

Yagona soliq to'lovi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qaroriga asosan belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Yagona soliq to'lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblaydilar. Yagona soliq to'lovi stavkalari 2017-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2016-yil 27-dekabrdaqi PQ-2699-sonli qarori** bilan tasdiqlangan bo'lib, u quyidagicha tabaqalashtirilgan:

12.1-jadval

Mikrofirmalar va kichik korxonalar (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari) uchun yagona soliq to'lovi STAVKALARI⁶¹

№	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan % da
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalarini, 2-7-bandlarda ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari	5*
2	Bojxona rasmiylashtiruvini bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan Yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5
3	Lombardlar	30

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi PQ-2699-sonli qarori 10-1 ilova.

4	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan Yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
5	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek, vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
6	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
7	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijaraga berishdan olingan daromadlar 60%dan ko'pni tashkil etadi)	30
8	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xomashyo tovarlari bundan mustasno:***	
	realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi
	realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori bo'lganda	belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi


*) Mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga berayotgan korxonalar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

***) Haq summasiga (yalpi daromadga) nisbatan foizlarda.

**) Ushbu norma mazkur ilovaning 8-bandida nazarda tutilgan shartlar bajarilgan hollarda faoliyatning asosiy turidan qat'iy nazar yagona soliq to'lovining barcha to'lovchilariga tatbiq etiladi.

*) Mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga berayotgan korxonalar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

***) Haq summasiga (yalpi daromadga) nisbatan foizlarda.



12.1-Rasm. Yagona soliq to'lovi stavkasining pasayish tendensiyasi⁶²

Mikrofirma va kichik korxonalar to'laydigan yagona soliq to'lovi stavkasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2005-yilda 13 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda 10 foiz, 2008-yilda 8 foiz, 2009-yilda 7 foiz, 2011-yilda 6 foiz va 2012-yildan sanoat korxonalariga 5 foiz qilib belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston

62 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30 -dekabrdagi «Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to‘g‘risida»gi PQ-1672-sonli qaroriga ko‘ra, 2012-yil 1 yanvardan ommaviy axborot vositalari korxonalar uchun ham yagona soliq to‘lovi stavkasi 5 foiz qilib belgilangan.

12.2-jadval

Ayrim toifadagi korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi STAVKALARI⁶³

To‘lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda
Lotereyalar tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar (mazkur faoliyat turi doirasida)	33

Soliq imtiyozlariva preferensiyalar:

Quyidagi mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lashdan to‘liq ozod etiladi:

- nogironlarning jamoat birlashmalari, “Nuroniyl” jamg‘armasi va “O‘zbekiston chernobilchilari” uyushmasining mulki bo‘lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mexnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar (savdo, vositachilik, ta‘minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalardan tashqari);

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar yagona soliq to‘lovi to‘lash muddatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran **bir yil muddatga kechiktirish huquqiga ega**, kechiktirilgan summalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda imtiyozli davr tugaganidan so‘ng **o‘n ikki oy ichida**

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699-sonli qarori 10-3 ilova.

teng ulushlar bilan toʻlanadi (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari) bundan mustasno.

Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish boʻyicha berilgan soliq imtiyozlari va yengilliklar:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi PQ-1474 sonli qaroriga muvofiq, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturga muvofiq hamda davlat va nazorat organlarining korxonalar moliya-xoʻjalik faoliyatiga, birinchi navbatda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini tubdan qisqartirish, ularning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifasini qisqartirish, tekshirishlarni tashkil qilish tizimini yanada takomillashtirish va mansabdor shaxslarning ular faoliyatiga asossiz aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish, shu asosda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishni taʼminlashda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-apreldagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi **PF-4296-sonli farmonini** qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega boʻldi. Ushbu farmonga muvofiq quyidagilar belgilandi:

- yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlarining (aksiz soligʻiga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish, shuningdek, byudjet hamda markazlashtirilgan mablagʻlar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bogʻliq tekshirishlar bundan mustasno) moliya-xoʻjalik faoliyati ular davlat roʻyxatiga olingan paytdan boshlab, dastlabki **3 yil** mobaynida rejali soliq tekshiruvlaridan oʻtkazilmasligi belgilandi;

- kichik tadbirkorlik subyektlarida soliq tekshiruvlari o'tkazishning davriyligini aniq belgilash maqsadida, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq sohasida tekshirish muddatlarini qonun hujjatlarida ularni utkazish ko'zda tutilgan maksimal muddatdan, ya'ni **30 kalendar kunidan ortiq muddatga** uzaytirilishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yildi.

Kichik biznes subyektlarini soliq tekshiruvidan o'tkazish muddatlarini aniq belgilash maqsadida, Farmon bilan ular faoliyatini soliq tekshiruvidan o'tkazish muddatlarining cho'zilishiga yo'l qo'yimaslik belgilangan bo'lib, u qonunchilikdagi tekshirishlar uchun ajratilgan maksimal muddat 30 kalendar kunidan oshmasligi qat'iy belgilangan.

Xususiy bank va boshqa xususiy moliya institutlarida esa rejali tekshirish **besh yilda ko'pi bilan bir marta** o'tkazilishi belgilandi.

Tadbirkorlik subyektlariga rejali tekshirish muddati va predmeti to'g'risida kamida **30 kun oldin** yozma ravishda xabardor qilish tartibi joriy etildi.

Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'ldan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta'minlash maqsadida, 2011-yil 24-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi **PF-4354**-sonli farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2011-yilning 1 oktabridan quyidagi huquqiy me'yorlar, tartiblar va imtiyozlar

belgilandi:

- tadbirkorlik faoliyati subyektlarining barcha darajadagi davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, tijorat banklari bilan o‘zaro munosabatlarida tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi prinsipiga amal qilinadi, ya’ni, unga muvofiq, me‘yoriy-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlar foydasiga talqin etiladi;

- soliqlar, bojxona bojlari va yig‘imlari, shuningdek, boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddatlarini buzganlik uchun penya miqdori kechiktirilgan har bir kun uchun penyani hisoblash tartibi saqlangan holda, amaldagi miqdoriga nisbatan **uchdan bir qismga kamaytiriladi;**

- yuridik shaxslar tekshiruvlar natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni, shuningdek, moliyaviy sanksiyalarni undirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab **olti oy mobaynida teng ulushlarda to‘lash huquqiga ega.**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan birgalikda barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini 2014-yilning oxirigacha soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazishni ta‘minlash maqsadida:

- 2011-yil 1 sentabrdan kichik biznes subyektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada hisobraqami ochganlik uchun to‘lov undirishni bekor qilindi;

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kelishilgan hajmda kreditlar ajratish haqidagi arizalarini ko‘rib chiqish muddatini uch bank kunidan oshmaydigan muddat bilan cheklandi;

- xo‘jalik subyektlari tomonidan savdo va servis sohasida xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar uchun korporativ

plastik kartalaridan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshirishda to'lov terminallari cheklarini **birlamchi buxgalterlik** hujjatlariga tenglashtirildi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga bank muassasalariga **eng kam ish haqining yigirma barobari** miqdorigacha bo'lgan naqd pul tushumini mustaqil topshirish huquqi berildi;

Xususiy mulkning o'rni va rolini tubdan oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari va yengilliklar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **4725-sonli farmoni** qabul qilindi.

Farmonning 2-bandi bilan **2015-yilning 1 iyulidan:**

- **mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari** faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari tomonidan **to'rt yilda bir martadan, boshqa xo'jalik subyektlarida esa ko'pi bilan uch yilda bir marta** faqat Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi qaroriga asosan amalga oshirilishi;

- moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlar o'tkazish muddati **10 kalendar kundan oshmasligi**;

- tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar faqat **so'nggi tekshiruvdan keyingi davrni qamrab olishinisi** belgilab qo'yildi.

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan **qo'zg'atilgan jinoiy ishlar bo'yicha** xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish subyekt jalb etgan **advokat**

ishtirokida (xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan ushbu huquqning rad etilishi holatlari bundan mustasno) amalga oshirilishi;

- Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni (soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash) birinchi marta sodir etgan, jinoyat aniqlangandan keyin 30 kun ichida davlatga yetkazilgan zararni to‘liq qoplagan, moliyaviy sanksiyalarni to‘lagan shaxsga nisbatan **jinoiy ish qo‘zg‘atilmasligi va u javobgarlikdan ozod qilinishi** belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ba‘zi farmonlariga o‘zgartishlar kiritish, shuningdek, ayrimlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” Farmoniga muvofiq quyidagilar belgilandi:

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 2007-yil 19-sentabrda PF-3923-sonli farmonida belgilangan aholiga pullik tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno) tibbiyot muassasalari berilgan soliq imtiyozlari **2018-yil 1 yanvargacha** uzaytirildi. Bunda, barcha turdagi soliqlar va Respublika yo‘l jamg‘armasi hamda Ta‘lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga o‘tkaziladigan majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod etildi. Bo‘shaydigan mablag‘lar tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlashga maqsadli ravishda yo‘naltirilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda «Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to‘g‘risida»gi **PQ-1672**-sonli qarorga muvofiq quyidagi soliq

imtiyozlari amal qilishi muddati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi **PQ-2699-sonli** qaroriga muvofiq, **2020-yil 1 yanvarga qadar uzaytirildi:**

-ommaviy axborot vositalari tahririyatlari va nashriyotlar ijtimoiy-siyosiy hamda bolalar adabiyotini, imkoniyatlari cheklangan shaxslar (ko‘zi ojizlar, kar-soqovlar va boshqalar) uchun adabiyotlarni sotishdan olingan foydadan foyda solig‘ini hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lashdan,⁶⁴

-tahririyatlar, nashriyot va bosmaxonalar ommaviy axborot vositalarining mahsulotlari, kitob mahsulotlarini sotishdan va ularning nusxalarini ko‘paytirish bo‘yicha xizmatlardan olinadigan daromadlar qismida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga hamda umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lashdan;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha ommaviy axborot vositalari va kitob mahsulotlari ishlab chiqarish uchun ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyotlar, teleradioeshittirish kompaniyalari va poligrafiya tashkilotlari tomonidan olib kelinadigan qog‘oz, poligrafiya materiallari va axborot saqlash moslamalari, uskunalar bojxona to‘lovlaridan (bojxona yig‘imlari bundan mustasno) ozod etish tarzidagi imtiyozlar muddati **2019 yil 1 yanvarga** qadar uzaytirildi.

Chop etilgan mahsulotlarni sotishdan, muharrirlik xizmatlari, poligrafiya va nashriyot xizmatlarini ko‘rsatishdan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi “Ijod” Jamg‘armasiga

64 Ushbu imtiyozlarni amal qilishi muddati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq, **2020-yil 1 yanvarga qadar uzaytirildi**

nashriyot va matbaa tashkilotlari to‘laydigan majburiy ajratmalar **miqdori ikki foizdan bir foizga pasaytirildi.**

Gazeta, jurnallar va kitob mahsulotlarini chakana sotishga ixtisoslashgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat‘iy belgilangan soliq stavkasi o‘rta hisobda 2 barobarga pasaytirilishi belgilandi.

Xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasiga soliq imtiyozlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 17-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-325-sonli qarorining 7-bandida belgilangan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun foyda solig‘i hamda yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda **PQ-2699-sonli** qaroriga muvofiq, **2020-yil 1 yanvarga qadar uzaytirildi:**

Quyidagi ro‘yxatga muvofiq xizmatlarga tatbiq etiladi:

1) qishloq joylarda poyabzal va charmdan tayyorlangan buyumlarni ta‘mirlash sohasidagi xizmatlar;

2) qishloq joylarda soat ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar;

3) qishloq joylarda maishiy elektron va elektr uskunalar (televizorlar, audio-videoapparatlar, kompyuter, printer texnikasi, sovutkichlar, konditsionerlar va boshqalar)ni ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar;

4) qishloq joylarda sartaroshxonalar va go‘zallik salonlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar;

5) qishloq joylarda kiyim-kechak tikish va yamash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar;

6) yakka tartibdagi turarjoy qurilishi sifatida qurilgan, qishloq mavzellarida tashkillashtirilgan, kirlarni yuvishga qabul qilish korxonalarini tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar;

7) yakka tartibdagi turarjoy qurilishi sifatida qurilgan, qishloq mavzalarida tashkillashtirilgan, kimyoviy tozalash korxonalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar.

8) ta'lim sohasidagi xizmatlar, jumladan kompyuterda ishlashni o'rgatish;

9) sanatoriylar, bolalar sog'lomlashtirish muassasalari, bolalar sport muassasalari va to'garaklari xizmatlari;

10) bolalar, nogironlar va keksa fuqarolarni parvarishlash bo'yicha ijtimoiy xizmatlar;

11) axborot-resurs markazlari, axborot-kutubxona markazlari, elektron ta'lim xizmatlari;

12) qishloq joylarda ko'rsatiladigan kompyuterda dasturlash bo'yicha xizmatlar (jumladan, maslahat xizmatlari).


Xizmatlar ko'rsatish va servis sohasida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslarni foyda va yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etish tarzida soliq imtiyozlari **12 ta faoliyat turlarini**, shundan **4 tasi** respublikaning barcha hududlarida va **8 tasi** qishloq joylarda amalga oshirganlik uchun **2020-yil 1 yanvargacha** tatbiq etilishi belgilandi.

Bunda, mazkur imtiyozlar mikrofirmalar va kichik korxonalarining barcha daromadlariga tatbiq etiladi, agarda ularning imtiyoz qo'llaniladigan xizmatlar ko'rsatishdan tushgan tushumi tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum umumiy hajmining 80 va undan ortiq foizini tashkil etsa.

Mikrofirma va kichik korxonalariga soliq yukini engillashtirish va ularning mamlakat YaIMdagi ulushini yanada oshirish maqsadida, yagona soliq to'lovi stavkasining pasayishi natijasida xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan yilga ortib borishini ta'minladi.

Mikrofirma va kichik korxonalariga soliq yukini yengillashtirish va ularning mamlakat YaIM dagi ulushini yanada oshirish maqsadida, yagona soliq to'lovi stavkasining pasayishi natijasida xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat

yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan yilga ortib borishini ta'minladi 3-rasm. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis soxasi 2015-yilda jadal sur'atlar bilan rivojlanib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yildagi 37 foiz o'rniga 2015-yil yakuni bilan bu ko'rsatkich 54,5 foizga yetdi.⁶⁵



12.2-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasini mamlakat YaIM dagi ulushi % va yagona soliq to'lovi stavkasini pasayish tendensiyasi⁶⁶

Sanoat va qurilish sohasini rivojlantirish bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1047-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga ko'ra quyidagilar belgilandi:

-2009-yilning 1 iyulidan boshlab go'sht-sut mahsulotini sanoat ko'lamida qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab

65 Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir" – Toshkent.: Xalq so'zi gazetasi, 2016, 16 yanvar.

66 Davlat statistika qo'miti ma'lumotlari

chiqarish borasidagi faoliyat faqat yuridik shaxs shaklida tashkil qilingan tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirish tartibi belgilandi;

-go'sht va sutni qayta ishlaydigan korxonalariga o'z mahsulotini avtofurgonlarda aholiga naqd pulga sotish huquqi beriladi, bunda naqd mablag'lar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kuni inkassatsiya qilinishi;

-2021 yilning 1 yanvariga qadar bo'lgan davrda asosiy faoliyat turi bo'yicha go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashayotgan mikrofirmalar hamda kichik korxonalarining yagona soliq to'lovi stavkasini 50 foizga kamaytirish, bo'shaydigan mablag'larni ishlab chiqarish korxonalarini texnikaviy qayta jihozlash va modernizatsiyalashga, shu jumladan, yangi laboratoriyalar barpo etish va mavjudlarini jihozlashga, yangi mahsulot turlari ishlab chiqarishni o'zlashtirishga, shuningdek, xomashyo bazasini rivojlantirishga maqsadli tarzda yo'naltirish belgilangan. Mazkur imtiyoz muddati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29-dekabrda PQ-2460-sonli qaroriga asosan **2021 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi;**

-go'sht va sut yetishtirish hamda ularni qayta ishlashda foydalaniladigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlarga muvofiq chetdan olib kelinadigan texnologiya uskunalari, ularning ehtiyot qismlari, yordamchi materiallar, tarkibiy qism va komponentlarni bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29-dekabrda "2016-2020-yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-sonli qaroriga asosan, **2021 yilning 1 yanvariga qadarnasldor chorvachilik subyektlari** asosiy faoliyat turi bo'yicha barcha soliqlar va maqsadli davlat jamg'armalariga

majburiy ajratmalarni to‘lashdan ozod etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi **PF-4609-sonli** farmoniga asosan, joriy yilning 2-choragida elektron raqamli imzo kaliti sertifikatining amal qilish muddatini **12 oydan 24 oygacha** uzaytirildi.

Respublikada qishloq aholi punktlarini obodonlashtirish va qishloq aholisi hayot darajasini tubdan oshirish maqsadida Prezidentimizning 2016-yil 21-oktabrdagi qaroriga asosan Dastur doirasida **2022 yil 1 yanvarga qadar**:

✓ pudrat tashkilotlari soliqlarning barcha turlarini va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni to‘lashdan ozod etildi;

✓ subpudrat tashkilotlari bajariladigan ishlar hajmlari uchun - yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod etildi;

✓ qurilish materiallari va asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi tashkilotlar, shuningdek, ularni tashiydigan tashkilotlar - qo‘shilgan qiymat solig‘ini, yagona soliq to‘lovini va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni to‘lashdan ozod etildi;

✓ “Qishloq qurilish invest” jamiyati - soliqlarning barcha turlarini va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni to‘lashdan ozod etildi;

✓ “Qishloq qurilish loyiha” jamiyati - qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etildi;

✓ “Toshkent qishloq qurilish servis” jamiyati va transport korxonalarini - qo‘shilgan qiymat solig‘i, yagona soliq to‘lovi va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni to‘lashdan ozod etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda “2017 – 2019 yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi **PQ-2687-sonli qaroriga** asosan, qarorining

7-ilovasidagi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog‘ining 8 ta turdagi nooziq-ovqat iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari **2020-yilning 1 yanvariga qadar** foyda solig‘i va mulk solig‘i to‘lashdan, yagona soliq to‘lovidan, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lashdan ozod qilindi.

(Bunda, imtiyozni qo‘llash maqsadida ixtisoslashgan korxonalar jumlasiga umumiy sotish hajmida yuqorida qayd qilingan 8 ta turdagi tovarlarni ishlab chiqarishdan tushgan tushumlar ulushi kamida 60 foizni tashkil etadigan korxonalar kiradi.

8 ta turdagi tovarlarga - paxta tolasidan, aralashma va ipak tolalaridan tayyor gazlamalar, tayyor tikuvchilik mahsulotlari va kiyim-kechak, bosh kiyimlari, paypoq mahsulotlari, to‘qimachilik galantereyasi hamda tikuv-trikotaj sanoati uchun furnitura va jihozlar kiradi.

SHuningdek, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog‘i korxonalari uchun qarorning 6-ilovasida keltirilgan 7 ta turdagi nooziq-ovqat iste‘mol tovarlari eksportidan olingan xorijiy valyutadagi tushumning bir qismini vakolatli banklarga majburiy sotish 2017-yil 1 yanvardan boshlab bekor qilindi.

(Bunda, 7 turdagi tovarlarga - paxta tolasidan, aralashma va ipak tolalaridan tayyor gazlamalar, tayyor tikuvchilik mahsulotlari va kiyim-kechak, bosh kiyimlari, paypoq mahsulotlari hamda to‘qimachilik galantereyasi kiradi).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26 dekabrda **PQ-2698-sonli qarori** bilan mahalliy lashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar **3 yil muddatga:**

-mahalliy lashtirish loyihalari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar qismida yuridik shaxslarning foyda solig‘i, yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod qilindi;

-mahalliy lashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari qismida mol-

mulk solig'ini to'lashdan ozod qilindi.

Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir soliq imtiyozlari va preferensiyalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son Farmoniga muvofiq **2017-yilning 1 yanvaridan boshlab** quyidagilar belgilangan:

- tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi, yuridik shaxslarning tugatilayotganida, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilik buzilganligi holatlari bo'yicha bergan murojaatlari asosida faqatgina Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi qaroriga muvofiq o'tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlar bundan mustasno;

- tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi;

- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda birinchi marta huquqbuzarliklar sodir etgan tadbirkorlik subyektlari va ularning xodimlari yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va etkazilgan moddiy zararni qoplagan taqdirda, insonning sog'lig'i va hayotiga zarar etkazilgan holatlar bundan mustasno, ma'muriy va jinoiy javobgarlikdan, jarimalar va moliyaviy sanksiyalar (penyadan tashqari) qo'llanilishidan ozod etilishi;

- noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan

bog‘liq huquqbuzarliklarni birinchi marta sodir etgan shaxslar huquqbuzarlik aniqlangan kundan e‘tiboran bir oy muddatda etkazilgan zararning o‘rnini ixtiyoriy ravishda qoplagan, tadbirkorlik subyekti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan va ruxsat etuvchi zarur hujjatlarni rasmiylashtirgan taqdirda ma‘muriy va jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi;

- tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jinoiy jazo qo‘llanilmasligi;

- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangidan tashkil etiladigan ishlab chiqarish korxonalariga ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish vaqtida amalda bo‘lgan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalarini (resurs va bojxona to‘lovlari bundan mustasno) besh yil mobaynida qo‘llash huquqi berilishi;

- tadbirkorlik subyektlari hakamlilik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risida ariza bergan taqdirda davlat boji to‘lashdan ozod etilishi;

- eksport qilinayotgan tovarlarning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sertifikat ilgari xuddi shunday tovar uchun aynan sertifikat olgan arizachiga bir ish kuni mobaynida berilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga 192⁶-modda “Imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llashni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish, qo‘llamaslik yoki qo‘llashga to‘sqinlik qilish” kiritilib - tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llashni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish, qo‘llamaslik yoki qo‘llashga to‘sqinlik qilish, –mansabdor shaxslar va xizmatchilarga eng kam ish haqining o‘n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga 241⁶-modda “Imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llashni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish, qo‘llamaslik yoki qo‘llashga to‘sqinlik qilish” kiritilib: Tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar

va preferensiyalarni qo‘llashni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish, qo‘llamaslik yoki qo‘llashga to‘sqinlik qilish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, – eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunining 5-moddasiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga ko‘ra:

-kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalar, kafolatlar va huquqlar ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan vakolatli organlarga va tashkilotlarga (davlat soliq, bojxona xizmati organlariga, davlat statistika organlariga, banklarga va boshqalarga) yozma ravishdagi murojaatlarsiz qo‘llaniladi.

-Shuningdek, Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlar va preferensiyalarning yagona reestrini e‘lon qilinadi hamda doimiy ravishda yangilab boriladi.

-O‘zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlar va preferensiyalarning yagona reestrini shakllantirish hamda doimiy ravishda yangilab borish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

-Mazkur Qonunning 30¹-moddasiga muvofiq davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida berilgan

imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llash tartibini o‘z vakolatlari doirasida tushuntirishi, shuningdek, ularning qo‘llanilishini ta’minlashi shartligi belgilandi.⁶⁷

2017-yildan Soliq kodeksining 30-moddasiga kiritilgan qo‘shimchaga asosan soliq to‘lovchiga maqsadli imtiyozlarni qo‘llash hisobiga bo‘shagan mablag‘larni imtiyoz davri tugagandan keyingi bir yil davomida imtiyozlar berilayotgan chog‘da belgilangan maqsadlar uchun foydalanish huquqini beradi, shuningdek, foydalanilmagan mablag‘lar qoldig‘ini respublika byudjetiga o‘tkazish muddatini belgilandi.⁶⁸

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 30-moddasiga asosan, **Soliq imtiyozi** – Soliq kodeksda, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan, soliq va (yoki) boshqa majburiy to‘lov to‘lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar deb e’tirof etiladi. Lekin, Soliq kodeksida soliq preferensiyasiga ta’rif berilmagan.

Preferensiya (praeferentis) – lotincha so‘zidan olingan bo‘lib, qonun hujjatlariga asosan iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va tartibga solish maqsadida, ayrim soha va tarmoqlar, alohida davlatlar, korxonalar va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar (soliq stavkasini pasaytirilishi, bojxona bojlarini to‘lamaslik, soliqni to‘lashdan ozod qilish, imtiyozli kreditlar va x.k.).⁶⁹

Qayd etish joizki, **soliq imtiyozlari va preferensiyalari** xususida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar va

67 O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuni

68 O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 27-dekabrda O‘RQ-417-sonli Qonuni

69 Современный экономический словарь / под ред. Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 125 с.

yondashuvlar mavjud bo‘lib, yagona bir ta’rifga kelinmagan. Soliq imtiyozlari va preferensiyalarining mohiyatini to‘laroq anglab etish uchun avvalo ana shu turli xil fikrlarni keltirish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan I.M.Aleksandrov va N.V.Milyakovlar⁷⁰ tomonidan – “Soliq imtiyozi soliq to‘lovchiga (subyektiga) boshqa soliq to‘lovchiga nisbatan soliq miqdorini kamaytirish yoki afzallik taqdim etish” deb ta’riflashgan bo‘lsa, N.G.Dmitrieva va O.V. Kachur⁷¹– “Soliq imtiyozi soliq to‘lovchini soliqdan to‘liq yoki qisman ozod etilishi” deb ta’kidlagan. SHuningdek, A.V.Aronov, V.A.Kashin va O.V.Skvorsovlar⁷² – Soliq imtiyozi soliq to‘lovchiga qonunchilikka asosan soliq summasi va soliq bazasidan chegirma berilishi (ozod etilishi, kechiktirish, soliq krediti, soliq chegirmalari, soliq stavkasini kamaytirish) deb ta’riflagan.

Milliy iqtisodchilardan professor Q.Yahyoev⁷³ tomonidan – “Soliq imtiyozi soliq to‘lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to‘laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to‘lash shartini yengillashtirish” deb ta’kidlagan bo‘lsa, T.S.Malikov⁷⁴ tomonidan – “Soliq imtiyozlari deganda soliq to‘lovchining soliq majburiyatlari hajmining to‘liq yoki qisman qisqarishi, to‘lov muddatining kechiktirilishi yoki

70 Александров И.М. Налоги и налогообложение: Учебник.–7-е. изд., перераб. И доп.– Издательско-торговая корпорация «Дашков и Ко», 2007. – 314 с.; Мильков Н.В. Налоги и налогообложение. Учебник М.:Инфра-М. 2007.–112-114 с.

71 Н.Г.Дмитриева, Д.Б.Дмитриев. Налоги и налогообложение: Учебник.–3-е. изд., перераб. И доп.– Ростов н/Д: Феникс, 2005.– 18 с.; О.В.Качур. Налоги и налогообложение: Учебное пособие.–М.: Кнорус, 2007.–24 с.

72 А.В.Аронов, В.А.Кашин. Налоги и налогообложение: Учебное пособие.–М.: Магистр, 2007. – 52 с.; О.В.Скворцов. Налоги и налогообложение: Учебное пособие.–М.: Экономистъ, 2006. – 24 с.

73 Yahyoev Q, Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: «Mehnat», 1997 y. 20-bet.

74 Malikov T. Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: 2000 y. 76-bet.

orqaga surilishi” deb ta’rif bergan. SHuningdek, A.V.Vahobov va A.S.Juraevlar⁷⁵ tomonidan – “Soliq imtiyozlari soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha turli hil engilliklar bo‘lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to‘liq yoki qisman va boshqa ko‘rinishlarda berilishi mumkinligini” ta’kidlagan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan A.S.Baladina⁷⁶ tomonidan – “Soliq preferensiyasi davlat tomonidan soliq majburiyatini kamaytirish yuzasidan ayrim soliq to‘lovchilar uchun majburiy tartibda, bajarilishi lozim bo‘lgan taqdim qilinadigan ustuvorliklar” deb ta’kidlagan bo‘lsa, S.V.Barulin va A.V.Makrushinlar⁷⁷ – “Soliq preferensiyasi davlat tomonidan ayrim korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga qulay sharoitlarni yaratish maqsadida, taqdim qilinadigan imtiyoz va ustuvorliklardir” va N.V.Milyakov⁷⁸ tomonidan – “Soliq preferensiya maxsus (afzalliklar) imtiyozlar berilishi. Bunda, soliq to‘lovchilarga investitsion soliq kreditlari, soliqni kechiktirish, investitsion va innovatsion xarajatlarni moliyalashtirish maqsadida beriladigan soliq imtiyozlari” deb ta’kidlagan.

Yuqoridagi, soliq imtiyozi va preferensiyalar xususidagi iqtisodchi olimlarning fikrlari va nazariy qarashlaridan kelib chiqib, ularning ayrim xususiyatlariga to‘xtalib quyidagi xulosalar shakllantirildi:

➤ soliq imtiyozlari va preferensiyalari xususida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar va yondashuvlar mavjud

75 A.Jo‘raev, SH.Toshmatov, O.Abduraxmonov. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. T.: NORMA, 2009. 184- bet.; Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: SHarq, 2009. 448- bet.

76 Баладина А.С. Анализ теоретических аспектов налоговых льгот и налоговых преференций // Вестник Томского государственного университета.- 2011.- №4(16).- С. 45-60.

77 С.В. Барулин, А.В. Макрушин. Налоговая политика России: Монография. - Саратов: Сателлит,2012. С.25-37.

78 Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Учебник М.:Инфра-М. 2007.-112-114 с.

bo‘lib, yagona bir ta’rifga kelinmagan;

➤ iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotda “solih imtiyozi” va “solih preferensiyasi” atamalari mazmunan deyarli bir-biriga yaqin bo‘lgan hamda bir-birini to‘ldiruvchi sinonim so‘zlaridek qaralmoqda;

➤ “Solih imtiyozi” tushunchasiga iqtisodiy adabiyotlar va lug‘atlarda ta’rifi berilgan bo‘lib, Solih kodeksida ham ququqiy asosi belgilangan. Lekin, “solih preferensiyasi” tushunchasining ta’rifi va huquqiy asosi belgilanmagan.

Solih imtiyozi va solih preferensiyasi tushunchalarini o‘rganish va tadqiq qilish natijasida, quyidagi ta’riflarni berish maqsadga muvofiqdir.

Solih imtiyozi – qonun hujjatlariga asosan, davlat tomonidan solih to‘lovchilar uchun solih yukini kamaytirish va majburiyatini qisqartirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati solih imtiyozi deb e’tirof etish mumkin.

Solih preferensiyasi – (**praeferentis - afzalliklar**) lotincha so‘zidan olingan bo‘lib, davlat tomonidan qonun hujjatlariga asosan, iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlantirish maqsadida, alohida davlatlar, ayrim soha va tarmoqlar, tadbirkorlikning ayrim faoliyat turlarini qo‘llab-quvvatlash, solih to‘lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha taqdim qilinadigan afzallik (engillik) va ustuvorliklar deb ta’rif berish mumkin.⁷⁹

Xulosa qilganda, solih imtiyozi va preferensiyalardan foydalanishni samaradorligini oshirish maqsadida mazkur tushunchalar bo‘yicha yagona ta’rifini ishlab chiqish va iqtisodiy adabiyotlar(lug‘atlar) da nazariy asosini belgilash/ Shuningdek, “Solih preferensiyasi” tushunchasi ta’rifini huquqiy asoslash maqsadida, Solih kodeksining 30-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir.

79 N.Haydarov. J.Urmonov. Solih imtiyozlari va preferensiyalarining nazariy asoslari. //Moliya. – Toshkent, 2016. – №6. – B.68-76.

12.4. Yagona soliq to'lovini hisoblash, hisobotlarni taqdim etish va byudjetga to'lash tartiblari

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona soliq to'lovi quyidagi formulaga muvofiq yalpi tushumdan hisoblanadi:

$$\text{YaSTS} = (\text{YaT} - \text{ChS}) \times \text{S}$$

bunda: YaSTS - yagona soliq to'lovi summasi;

YaT - yalpi tushum;

ChS - yalpi tushumdan chegiriladigan summalar;

S - soliq stavkasi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining **50 foizidan ko'p** bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning **har choragida, hisobot davridan keyingi oying 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra soliq solishning sodalashtirilgan tartibini qo'llovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan Davlat soliq xizmati organlari va statistika qo'mitasiga har chorakda buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot va debitorlik va kreditorlik qarzlari

haqida ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Soliqni hisobga olish

Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan tushum soliq to'lovchining yalpi tushumiga to'liq miqdorda qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan foyda solig'ining summasi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasida yagona soliq to'lovini to'lash chog'ida hisobga olinadi.

To'lov xabarnomasi, chet davlat soliq organining ma'lumotnomasi yoki chet elda soliq to'langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat chet elda to'langan foyda solig'ining summasini hisobga olish uchun asos bo'ladi.

Yagona soliq to'lovini hisoblashda eng kam miqdorni qo'llanilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrda PQ-1449-son «O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida **2011-yil 3 martda 2203-son bilan** ro'yxatga olingan Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovini

hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq 2014-yilda ham yagona soliq to‘lovi to‘lovchi barcha shaxslar uchun (chakana savdo korxonalaridan tashqari) yagona soliq to‘lovining (keyingi o‘rinlarda YaST deb yuritiladi) eng kam miqdorini hisoblash uchun yagona baza – ular egallab turgan yer uchastkasi maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadigan yer solig‘ining 3 karra miqdoridagi summasi belgilangan.

YaSTning eng kam miqdori har chorakda hisoblab chiqariladi va quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{EKMyast = 3 \times S \times K1 \times K2, \text{ bu yerda:}}$$

EKMyast - YaSTning eng kam miqdori;

S - yer solig‘i. Yer solig‘ini hisoblab chiqarishda mazkur joy va er toifasi uchun belgilangan eng kam stavkalar qo‘llaniladi.

Misol uchun, Toshkent shahrida - 5-zona uchun, Samarqand shahrida - 4-zona uchun, Xiva shahrida esa 3-zona uchun belgilangan yer solig‘i stavkalari qo‘llaniladi.

Yer solig‘i bir chorak hisobida hisoblab chiqariladi ((yer uchastkasi (ijaraga olingan xona) maydoni x belgilangan stavka) / 4).

Agar yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxs hisobot choragi mobaynida Nizomning 1-bandida belgilangan YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaSTni to‘lashni boshlagan bo‘lsa, yer solig‘i ushbu yuridik shaxsga YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaSTni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi tatbiq etilgan hisobot choragidagi oylarni inobatga olib hisoblab chiqiladi (yer uchastkasi va (yoki) ijaraga olingan xona maydoni) x belgilangan stavka) / 12 x YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaST hisoblab chiqarilgan va to‘langan hisobot choragidagi oylar soni).

K1 - amalga oshirilayotgan faoliyat turidan kelib chiqib

qo‘llaniladigan belgilangan pasaytiruvchi koeffitsiyent;

K2 - yuridik shaxsning joylashgan joyidan kelib chiqib belgilangan pasaytiruvchi koeffitsiyent.

Hisoblangan YaST summasini ushbu tartiblga muvofiq hisoblab chiqarilgan YaST summasi bilan taqqoslash uchun YaSTning hisob-kitob summasi butun korxonaga bo‘yicha aniqlanadi.

YaSTning hisob-kitob summasi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{HSyast = SYaT \times S, \text{ bunda:}}$$

HSyast - YaSTning hisob-kitob summasi;

SYaT - YAST bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar qo‘llanilmagan holdagi hisobot choragi uchun soliq solinadigan yalpi tushum (YAST hisob-kitobining “040”-satri ma‘lumotlari asosida);

S - YaSTning belgilangan stavkasi.

YaSTning hisob-kitob summasi butun korxonaga bo‘yicha belgilangan shakldagi Ma‘lumotnoma-hisob-kitob (keyingi o‘rinlarda Ma‘lumotnoma-hisob-kitob deb yuritiladi) asosida aniqlanadi.

Agar yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxs hisobot choragi mobaynida Nizomning 1-bandida belgilangan YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaSTni to‘lashni boshlagan bo‘lsa, YaSTning hisob-kitob summasi ushbu yuridik shaxsga YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaSTni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi tatbiq etilgan hisobot choragidagi oylarni inobatga olib aniqlanadi (YaSTning hisob-kitob summasi / 3 × YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaST hisoblab chiqarilgan va to‘langan hisobot choragidagi oylar soni).

Misol, yuridik shaxs 2016-yilning fevral oyida YaSTning eng

kam miqdorini hisobga olgan holda YaSTni to‘lashni boshladi. Belgilangan formula bo‘yicha hisoblangan 2016-yilning I choragi uchun YaSTning hisob-kitob summasi 300 ming so‘mni tashkil etdi. Ushbu yuridik shaxsga YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaSTni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi 2016-yil I choragining ikki (fevral va mart) oyi mobaynida tatbiq etilganligini hisobga olgan holda, 2016-yilning I choragi uchun YaSTning hisob-kitob summasi 200 ming so‘mni (300 ming so‘m / 3 x 2) tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish tartibi to‘g‘risidagi nizom bilan belgilangan tartibda YaSTni to‘lash muddatini kechiktirish huquqi berilgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalar qo‘shimcha hisoblangan YaST summasini yagona soliq to‘lovining kechiktirilgan summalarini to‘lash bilan bir vaqtda to‘laydilar.

1-ilova

Kamaytiruvchi koeffitsiyentlar

To‘lovchilar	Koeffitsiyent
Amalga oshirayotgan faoliyat turiga bog‘liq holda (K1)	
1. Asosiy faoliyat turi tovar ishlab chiqarish (sanoat sohasi) bo‘lgan mikrofirma va kichik korxonalar	0,5
2. Asosiy faoliyat turi quyidagilar bo‘lgan tashkilotlar: ulgurji savdo (o‘zining yoki ijaraga olgan omborxonalari mavjud bo‘lgan taqdirda); avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni tashish bo‘yicha xizmatlar (avtotransportni saqlash uchun er uchastkalari mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘rsatish; bojxona nazorati ostida bojxona omborlarida tovarlarni saqlash bo‘yicha xizmatlar (o‘zining yoki ijaraga olgan omborxonalari mavjud bo‘lgan taqdirda) ko‘rsatish	0,35
3. Mashina-traktor parklari	0,35
4. Ulgurji, ulgurji-chakana va chakana dorixona tashkilotlariga	0,2

5. Yangi sexlarni qurishni, ularning modernizatsiyasini, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni amalga oshiruvchi, shu jumladan, investitsiya majburiyatlariga muvofiq investitsiyalarni amalga oshiruvchi, ushbu ishlarni amalga oshirish davrida tovarlar ishlab chiqarishni amalga oshirmayotgan mikrofirma va kichik korxonalar - ushbu ishlarni amalga oshirish davriga, biroq ushbu ishlarni amalga oshirishni boshlash sanasidan boshlab 24 oydan oshmagan davrga	0,35
6. Qurilish uchun ajratilgan erlarda uy-joy qurishni amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar - normativ qurilish davri (u mavjud bo'lmaganda - 1 yil) uchun	0,35
7. Kon va karerlarni obodonlashtirishni, shu jumladan, ularning rekultivatsiyasini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar	0,1
8. Avtovokzallar, avtostansiyalarni tashkil etadigan yuridik shaxslar	0,35
Yuridik shaxsning joylashgan joyiga bog'liq holda (K2)	
Amalga oshirayotgan faoliyat turidan qat'i nazar, borish qiyin bo'lgan va tog'li hududlarda joylashgan tashkilotlar uchun	0,7

Yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini hisobga olgan holda yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishga doir shartli misollar

1-misol.

YaSTni to'lovchi kichik korxonalar, asosiy faoliyat turi trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish bo'lib, bir necha yer uchastkasiga ega, ma'muriy, ishlab chiqarish va savdo (firma do'koni) yuritilishi uchun egallagan xonalari:

1-son uchastka (1 200 kv.m (0,12 ga) maydonga ega ma'muriy bino) va 2-son uchastka (1 500 kv.m (0,15 ga) maydonga ega firma do'koni) - Toshkent shahrida joylashgan;

3-son uchastka (3 800 kv.m (0,38 ga) maydonga ega ishlab

chiqarish xonalari) - Chirchiq shahrida joylashgan.

O‘zi ishlab chiqargan tovarlarning erkin almashtiriladigan valyutada eksportning umumiy realizatsiyasi hajmidagi hissasi 50 foizni tashkil etadi.

Ushbu korxonaning 2016-yilning yanvar - iyun oylari uchun ko‘rsatkichlari quyidagicha:

Davr	Soliq solinadigan yalpi tushum (YaST hisob-kitobining 040-satri)	Yagona soliq to‘lovi	
		stavka, foizda	summa (YaST hisob-kitobining 120-satri)
2016-yilning yanvar - mart oylari	98 400,0	2,5	2 460,0
2016-yilning yanvar - iyun oylari	177 120,0	2,5	4 428,0

Ilgarigi hisobot davrida (2016-yilning birinchi choragida) YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaST qo‘shimcha hisoblanmagan.

2016-yilda, 1 ga uchun belgilangan yer solig‘ining stavkalari quyidagicha:

Toshkent shahrida 5 zona –1 ga uchun 19837500 so‘m;

Chirchiq shahrida 4-zona - 1 ga uchun 10315125 so‘m.

Asosiy faoliyat turi tovarlar ishlab chiqarish (sanoat sohasi) bo‘lgan kichik korxonalarga, amalga oshirilayotgan faoliyat turiga nisbatan pasaytiruvchi koeffitsiyent belgilangan - 0,5 (K1).

YaSTning eng kam miqdorining yillik hisob-kitob summasini aniqlaymiz:

EKMyastyil uchun = $3 \times [(0,12 \times 19\,837\,500) + (0,15 \times 19\,837\,500) + (0,38 \times 10\,315\,125)] \times 0,5 = 13913\,808,5$ so‘m.

YaSTning eng kam miqdori 2016-yilning ikkinchi choragi

(aprel - iyun) uchun quyidagicha:

EKMyastchorak uchun = $13913\ 808,5 / 4 = 3478452,2$ so‘m.

Belgilangan formulaga muvofiq butun korxonaga bo‘yicha YaSTning hisob-kitob summasi 2016-yilning ikkinchi choragi (aprel - iyun) uchun quyidagicha:

Hsyastchorak uchun = $(177\ 120\ 000 - 98\ 400\ 000) \times 5\% = 3\ 936\ 000$ so‘m.

YaSTning hisob-kitob summasi (3 936 000 so‘m) YaSTning eng kam miqdoridan ortganligi uchun (3478452,2 so‘m) YaST qo‘shimcha hisoblanmaydi.

2-misol.

O‘ziga tegishli yoki ijaraga olingan omborxonalari mavjud bo‘lmagan ulgurji savdo korxonasi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun Toshkent shahrida joylashgan ko‘p qavatli binoda ofis xonalarini ijaraga olgan. Binoning egallagan umumiy maydoni - 5 000 kv. m. Yuridik shaxsning ijaraga olgan xonasiga to‘g‘ri keladigan ulushi - 0,3 ni tashkil etadi. Shunday qilib, YaSTning eng kam miqdorini aniqlashda yer solig‘i 1 500 kv. m (0,15 ga) dan kelib chiqib hisoblanadi.

Ushbu korxonaning 2016-yilning yanvar - iyun oylari uchun ko‘rsatkichlari quyidagicha:

Davr	Soliq solinadigan yalpi tushum (YaST hisob-kitobining 040-satri)	Yagona soliq to‘lovi	
		stavka, foizda	summa (YaST hisob-kitobining 120-satri)
2016-yilning yanvar - mart oylari	38 600,0	5	1 930,0
2016-yilning yanvar - iyun oylari	69 480,0	5	3 474,0

Ilgarigi hisobot davri uchun (2016-yilning birinchi choragida) YaSTning eng kam miqdorini hisobga olgan holda YaST qo‘shimcha hisoblanmagan.

2016-yilda, Toshkent shahrida 1 ga uchun belgilangan yer solig'ining eng kam stavkasi 19 837 500 so'mni tashkil etadi.

Ushbu ulgurji savdo korxonasining o'ziga tegishli yoki ijara-ga olingan omborxonalari mavjud emasligini e'tiborga olganda, asosiy faoliyat turi ulgurji savdo bo'lgan korxonalarga belgilangan, amalga oshirayotgan faoliyat turiga bog'liq holda pasaytiruvchi koeffitsiyent (K1) qo'llanilmaydi.

YaSTning eng kam miqdorining yillik hisob-kitob summasini aniqlaymiz:

$EKMyast\ yil\ uchun = 3 \times (0,15 \times 15\ 000\ 000) = 8926875$ so'mni tashkil etadi.

YaSTning eng kam miqdori 2014-yilning ikkinchi choragi (aprel - iyun) uchun quyidagicha:

$EKMyast\ chorak\ uchun = 8926875 / 4 = 2231718$ so'm.

Belgilangan formulaga muvofiq butun korxonaga bo'yicha YaSTning hisob-kitob summasi 2014-yilning ikkinchi choragi (aprel - iyun) uchun quyidagicha:

$HSyast\ chorak\ uchun = (69\ 480\ 000 - 38\ 600\ 000) \times 5\% = 1\ 544\ 000$ so'm.

2016-yilning ikkinchi choragi (aprel - iyun) uchun YaSTning qo'shimcha hisoblangan summasi $= 2\ 231\ 718 - 1\ 544\ 000 = 687\ 718$ so'mni tashkil etadi.

Shunday qilib, YaSTning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan butun korxonaga bo'yicha 2016-yilning ikkinchi choragi uchun to'lanishi lozim bo'lgan YaSTning summasi 4161718 so'mni (3 474 000 + 687718) tashkil etadi.

Mavzuga oid test savollari

1.Yagona soliq to'lovini to'lovchilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Mikrofirmalar va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi

notariuslar, notijorat tashkilotlari

B. Mikrofirmalar va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar*

C. Mikrofirmalar va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar, fermer xo'jaliklari

D. Mikrofirmalar va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar, qat'iy belgilangan stavkada soliq to'lovchi yuridik shaxslar

2. Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarni qaysi biriga tatbiq etilmaydi?

A. Aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga*

B. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga

C. Ayollar gigiena mahsulatlari ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga

C. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga

3. Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun davlat soliq xizmati organiga qaysi muddat ichida murojaat qilishlari lozim?

A. Keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida o'n kun qolganda

B. Keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida yugirma kun qolganda

C. Keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda*

D. Keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida ikki oy qolganda

4. Mikrofirma va kichik korxonalariga yagona soliq to'lovini obyekt qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Yalpi tushum*
- B. Yalpi foyda
- C. Jami ish haqi fondi
- D. Olingan grantlar

5. Yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda

B. Yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda

C. Yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 20-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda

D. Yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda *

6. Agar korxonada ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini 35 foizini eksport qiladigan bo'lsa, yagona soliq to'lovi stavkasini toping.

A. Yagona soliq to'lovi stvkasi stavkasi 50 %ga pasaytiriladi *

B. Yagona soliq to'lovi stvkasi 20%ga pasaytiriladi.

C. Umumbelgilangan tartibda yagona soliq to'lovi stvkasi qo'llaniladi.

D. Yagona soliq to'loviga tortilmaydi.

7. Yagona soliq to'lovining obyekt nima?

A. Korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda

B. Sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq

C. Davr xarajatlari

D. Yalpi tushum*

8. Agar korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini 18 foizini eksport qiladigan bo'lsa, yagona soliq to'lovi stavkasini toping.

A. Yagona soliq to'lovi stavkasi 30%ga pasaytiriladi*

B. Yagona soliq to'lovi stavkasi 50%ga pasaytiriladi

C. Umumbelgilangan tartibda yagona soliq to'lovi qo'llaniladi

D. Yagona soliq to'loviga tortilmaydi

9. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yangi texnologik jixozlar olganda va modernizatsiya qilinganda soliq bo'yicha qanday imtiyoz berilgan?

A. soliq bazasi ko'pi bilan 25% kamaytiriladi *

B. soliq bazasi ko'pi bilan 15% kamaytiriladi

C. soliq bazasi ko'pi bilan 10% kamaytiriladi

D. soliq bazasi ko'pi bilan 30% kamaytiriladi

10. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga qanday yuridik shaxslar kiradi?

A. Hodimlarning o'rtacha yillik soni qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar*

B. Hodimlarning o'rtacha yillik soni 100 kishidan ortiq bo'lgan va yillik tovar aylanmasi 100 mln tashkil etgan yuridik shaxslar

C. Hodimlarning o'rtacha yillik soni 200 kishigacha bo'lgan yuridik shaxslar

D. Yillik tovar aylanmasi 100 mln so'mgacha bo'lgan yuridik shaxslar

11. Adliya vazirligidan 2011-yil 3 martda 2203-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan nizom qaysi korxonalariga tatbiq etilmaydi?

A. oilaviy korxonalariga*

B. sanoat va xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik korxonalariga

C. poligrafiya tashkilotlariga

D. ulgurji korxonalariga

12. Soliq kodeksiga asosan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo‘jaliklari moliya xo‘jalik faoliyati necha yilda bir marotaba tekshiriladi?

- A) 4 yilda 1 marta*
- B) 3 yilda 1 marta
- C) 2 yilda 1 marta
- D) 5 yilda 1 marta

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:


1. Yagona soliq to‘lovining huquqiy asoslari qanday?
2. Yagona soliq to‘lovini qo‘llash tartibi qanday?
3. Yagona soliq to‘lovining stavkalari qanday belgilangan?
4. Yagona soliq to‘lovining bazasi qanday belgilanadi?
4. Yagona soliq to‘lovining to‘lovchilari kimlar va mezonlari?
5. Yagona soliq to‘lovi Soliq kodeksining qaysi bobi va moddalarida o‘z aksini topgan?
6. Mikrofirma va kichik korxonalariga qanday soliq imtiyozlari berildi?
7. Yagona soliq to‘lovi bo‘yicha qanday soliq imtiyozlar belgilangan?
8. Yagona soliq to‘lovini hisoblashda yalpi tushum qanday aniqlanadi?
9. Yagona soliq to‘lovining hisob kitob muddatlari qanday belgilangan?
10. Yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarishda qanday eng kam me‘yorlar qo‘llaniladi?
11. 2015-2017-yildan yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarishda qanday o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritildi?
12. 2017-yildan yagona soliq to‘lovi bo‘yicha qanday soliq imtiyozlari berildi?

13-BOB. SAVDO VA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI

Tayanch so‘z va iboralar: *savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini, restoran, bar, kafe, oshxona, kafeteriy, choyxona, bufet, chakana savdo korxonalarini, tarmoqli marketing, chakana savdo, ulgurgi savdo, turg‘un savdo shoxobchalari, ko‘chma savdo obyektlar, tadbirkorlik faoliyati subyektlari, yagona soliq to‘lovi, yagona soliq to‘lovi obyektiva bazasi, tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti, soliq hisoboti.*

13.1. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini tomonidanyagona soliq to‘lovini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

Ma‘lumki, 2007-yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 12dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi №-532 Qaroriga ko‘ra, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa torgish tizimi birmuncha soddalashtirilgan edi. Ya‘ni, avvalgi soliqqa tortish tartibida savdo va umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonalar uchun belgilangan yalpi daromad solig‘i, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga, Respublika yo‘l jamg‘armasiga, Makgab talimini rivojlantirish jamg‘armasiga ajratiladigan majburiy to‘lovlar o‘rniga yalpi tushumdan to‘lanadigan yagona soliq to‘lovi joriy etildi (rasm-13.1).



13.1-rasm. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini yagona soliq to'loviga o'tkazilishi⁸⁰

Soliq solish maqsadida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat o'tgan hisobot yili yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga ko'ra umumiy ovqatlanish va chakana savdo tartiblari quyidagicha belgilangan:

Chakana savdoning savdo obyektlariga quyidagilar tegishlidir: bozor, gipermarket, supermarket, savdo markazi, savdo kompleksi, universam, univermag, minimarket, oziq-ovqatlar do'koni, ixtisoslashtirilgan do'konlar, palatkalar, lotoklar, avtodo'konlar, pavilonlar, kiosklar, laryoklar.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyekt bu umumiy ovqatlanish sohasida kulinariya, shuningdek, boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, sotish va iste'mol qilishni tashkil etish hamda xizmatlar ko'rsatish bo'yicha funksiyalarni bajaruvchi yuridik shaxsdir.

80 O'rmonov J.J. Kichik biznes subyektlarini soliqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Monografiya – T.: MChJ “El-press” – 2011, 132-bet.

Umumiy ovqatlanish korxonalari quyidagi talablar asosida mulkdor deb belgilanadigan quyidagi turlarga bo‘linadi: restoran, vagon-restoran, bar, kafe, yozgi kafe, kafeteriy, oshxona, choyxona, bufet va kichik oshxona.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbai sifatida yagona soliq to‘lovi hozirga qadar o‘zining muhim o‘rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

13.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlaritarkibida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq to‘lovining o‘rni⁸¹ (foizda)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar (%)								2017-yilda 2008-yilga nisbatan o‘zgarishi	
		2008	2010	2011	2012	2013	2015	2016	2017	X	
1	Davlat byudjeti daromadlari jami Shujumladan:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
2	Bevosita soliqlar	25,3	26,1	26,2	25,2	26,2	23,6	23,1	24,0	-2,2	
1.1	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq to‘lovini jami daromadlardagi ulushi	2,0	2,3	3,3	3,4	3,3	3,3	3,4	3,6	+1,6	
2.1	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan Yagona soliq to‘lovini bevosita soliqlardagi ulushi	8,1	8,7	12,4	13,5	12,4	13,9	14,8	15,1	+6,7	

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbai sifatida yagona soliq to‘lovi hozirga qadar o‘zining

81 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

muhim o‘rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida” gi qaroriga ko‘ra 2017-yilda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq to‘lovining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 3,6 foizni, bevosita soliqlar tarkibida esa 15,1 foizni tashkil etidi. Ushbu ko‘rsatkichlar kichik korxonalaridan yagona soliq to‘lovini bevosita soliq daromadlarining asosiy manbayi ekanligini bildiradi.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan yagona soliq to‘lovini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq solish maqsadida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat o‘tgan hisobot yili yakunlari bo‘yicha asosiy faoliyat turi bo‘lgan yuridik shaxslar kiradi.

Quyidagilarga savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

-o‘zi ishlab chiqargan mahsulot bo‘lgan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan, ularni mustaqil yuridik shaxs bo‘lmagan firma do‘konlari orqali realizatsiya qilish;

-vositachi, ishonchli vakil tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan, davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;

-tayyorlov faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek, boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste‘mol qilishni tashkil etish bo‘yicha faoliyat tushuniladi.

O‘tgan yil yakunlari bo‘yicha asosiy (soha) faoliyat turi

savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar Soliq kodeksda belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashi kerak.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar yagona soliq to'lovini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran joriy yil tugaguniga qadar, 1 oktabrdan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar esa keyingi yil tugaguniga qadar to'laydi.

Agar yagona soliq to'lovi to'lovchilarda joriy soliq davrining ketma-ket keluvchi ikki choragi davomida savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat asosiy faoliyat turi bo'lmasa, ular belgilangan tartibga muvofiq umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishga haqli.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakunlari bo'yicha belgilangan shartlarga javob bermasalar, ya'niasosiy faoliyat turi savdo faoliyati yoki umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'yicha ular kelgusi yil boshidan e'tiboran umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tishi kerak, bundan soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

Shuningdek, yuridik shaxslar, bundan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno, yagona soliq to'lovini to'lash huquqidan mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan belgilangan tartibda qayta hisob-kitobni amalga oshiradi.

Maxsus qoidalar

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar, agar o'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar, kamida o'n ikki oydan so'ng yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishga

haqlidir.

Yagona soliq to'lovini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan birinchi chorak uchun foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Agar yagona soliq to'lovini to'lovchilar Soliq kodeksning 199-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni amalga oshirsalar, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashlari mumkin. Yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish uchun hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa, o'z faoliyatini amalga oshirishni boshlaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni rad etish keyingi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim etiladigan yozma bildirish asosida faqat navbatdagi soliq davrining boshidan amalga oshirilishi mumkin.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etmagan holda qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashga o'tishga hisobot yili boshlanishidan e'tiboran haqlidir.⁸²

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash Soliq kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar - yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston

82 O'zbekiston Respublikasi 31.12.2015 y. O'RQ-398-son Qonuni

Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bo'yicha ijaraga olingan yer uchastkalari uchun byudjetga ijara haqi to'lashdan ozod qilinadi, umumbelgilangan soliqlar to'lanadigan faoliyat turlarida foydalanilayotgan yer uchastkalari bundan mustasno.

13.2. Soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza va stavkalari

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovining **obyekti tovar oborotidir**(2-son «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» shaklining 010 satri).

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarini) qo'shilgan qiymat solig'ini, aksiz solig'ini va transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni chegirgan holda (ushbu soliqlarni to'laydigan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarini) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

♦ savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun – tovar oboroti;

2) Boshqa daromadlar.

Boshqa daromadlarga tovarlarini (ishlarni, xizmatlarini) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilardan iborat:

– asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;

– mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

– asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarini moliyaviy ija-

raga berishdan olinadigan daromadlar;

- tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar;

- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;

- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;

- talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;

- ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromadlar;

- xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;

- birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;

- undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penya, shuningdek, qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar va penya;

- kursdagi ijobiy farq;

- dividendlar va foizlar;

- royalti;

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan, aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) byudjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

9) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

10) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek, komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno);

11) obyekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

12) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

13) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) ularning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ko'rsatilgan mablag'lar soliq solish obyektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

14) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish objekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Soliq solinadigan baza

Quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

- 1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
- 2) to'lov manbayida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;
- 3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar

(ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo‘llanilganidan so‘ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to‘lov manbayida umumiy asoslarda soliq solinadi;

4) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko‘p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo‘lsa;

6) mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar;

Soliq solinadigan baza yuqorida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) lotereya o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo‘lmagan miqdoriga;

2) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

3) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlari summasiga.

Hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga kamaytiriladi:

-yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirishdan o'tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo'yicha esa - u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi;

-yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

Soliq stavkalari

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qaroriga asosan belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi. Yagona soliq to'lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblaydilar. Yagona soliq to'lovi stavkalari 2017-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, u quyidagicha tabaqalashtirilgan:

13.2-jadval

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining STAVKALARI⁸³

<i>N</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Umumiy ovqatlanish korxonalari	10
	ulardan:	
	umumiy ta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8
2	CHakana savdo korxonalari, 3 va 4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari:	
2.1	quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li erlarda	1
2.2	Joylashgan joyidan qat'iy nazar:	
	alkogolli mahsulot, tamaki mahsuloti, benzin, dizel yoqilg'i va suyultirilgan gaz realizatsiyasidan tovar oboroti bo'yicha	4
3	Ulgurji, shuningdek, ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	5
4	Dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar, shuningdek, dorixonalar, quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li erlarda	1

83 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori 10-2 ilova.

Izoh:

Agar chakana savdo korxonalari mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va yagona soliq to'lovining turli stavkalari belgilangan turli aholi punktlarida joylashgan bir necha savdo nuqtalariga ega bo'lsa, unda ular har bir savdo nuqtasi bo'yicha tovar oborotining alohida hisobini yuritishlari hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida **2008-yil 11 noyabrda 1868-sonli** "Aholi punktlarini borish qiyin bo'lgan va tog'li hududlar tarkibiga kiritish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaga muvofiq, borish qiyin bo'lgan va tog'li hududlarda tashkil etilayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat bojlarini undirish, shuningdek, mazkur aholi punktlarida o'z faoliyatlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan yagona soliq to'lovlarining tabaqalashgan tizimini qo'llash maqsadida aholi punktlarini borish qiyin bo'lgan va tog'li hududlar tarkibiga kiritish tartibini belgilangan:

3.3-jadval

Borish qiyin bo'lgan tumanlar (1-ilova)

RO'YXATI

No	Tumanlar nomi	Tumanlar nomi
Qoraqalpog'iston Respublikasi		Navoiy viloyati
1.	Qonliko'l	Tomdi
2.	Muynoq	Uchquduq
3.	Shumanay	
Jizzax viloyati		Farg'ona viloyati
1.	Forish	So'x
Qashqadaryo viloyati		
1.	Dehqonobod	

Dengiz sathidan 1000 metr balandlikdagi zonalar mavjud tumanlar (2-ilova)
RO‘YXAT

№	Tumanlar nomi	Tumanlar nomi	Tumanlar nomi
	Jizzax viloyati	Qashqadaryo viloyati	Surxondaryo viloyati
1.	Baxmal	Yakkabog‘	Denov
2.	G‘allaorol	Qamashi	Boysun
3.	Zomin	Kitob	Oltinsoy
4.	Yangiobod	Shahrisabz	Qumqo‘rg‘on
	Namangan viloyati	Samarqand viloyati	Sariosiyo
1	Pop	Qo‘shrabot	Sherobod
2	Yangiqo‘rg‘on	Urgut	Uzun
	Farg‘ona viloyati	Toshkent viloyati	
1	Farg‘ona	Bo‘stonliq	

Mazkur yo‘riqnomaga muvofiq, quyidagi qishloq aholi punktlari borish qiyin bo‘lgan hududlar tarkibiga kiradi:

-yaqin joylashgan tuman markazlari va shahar chegaralaridan 50 kilometrdan ortiq masofada joylashgan hududlar;

-yo‘riqnomaning 1-ilovasida ko‘rsatilgan tumanlar chegarasida joylashgan hududlar.

-yo‘riqnomaning 2-ilovasida ko‘rsatilgan tumanlar chegarasidagi dengiz sathidan 1000 metr balandlikdagi zonalarda joylashgan qishloq aholi punktlari tog‘li hududlarda joylashgan hisoblanadi.

Aholi punktlarining uzoqligini aniqlashda, masofasi yaqin joylashgan tuman markazi yoki shahar chegarasidan to qishloq, shaharcha va ovul chegarasigacha bo‘lgan eng yaqin avtomobil yo‘llari bo‘ylab hisoblangan masofa qabul qilinadi.

13.4. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan chakana savdo qoydalarini amalga oshirish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini buzganlik quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga va O‘zbekiston Respublikasining Jinoiy kodeksiga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi:

- narxlarni asossiz ravishda oshirish;
- tovarlar, mahsulotlarni noto‘g‘ri o‘lchash, noto‘g‘ri tortish yoki xizmatlar ko‘rsatmaslik;
- tovarlar, mahsulotlarni (xizmatlarni) chek (kvitansiya, schet) bermasdan sotish;
- xaridorga tovarning, mahsulotning miqdori, vaznini tekshirish imkoniyati yaratishdan bosh tortish;
- nosoz yoki tamg‘alanmagan tortish va o‘lchash priborlaridan foydalanish;
- to‘lov terminallari bilan jihozlash va pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda ularni qo‘llash tartibiga;
- nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash tartibiga;
- alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini sotish tartibiga rioya qilmaslik;
- quyidagilarni:
 - sifatsiz tovarlarni, kulinariya buyumlarini va atayin nostandart mahsulotlarni sotish, shuningdek, xaridorga sotilgan sifatsiz tovarni, mahsulotni almashtirib berishni yoki pullarni qaytarishdan bosh tortish;
 - tovarlarni, mahsulotlarni ularning sifatini va ishlab chiqarish markasini tasdiqlovchi yoki sertifikatlangan mahsulotning

belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarsiz sotish;

- ishlab chiqarish markasida yoki tovar belgisida tayyorlovchining nomi va joylashgan o'rnini to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan tovarlarni sotish;

- yaroqlilik muddati o'tgan tovarlarni sotish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 17-noyabrdagi "Fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat - kassa mashinalarining qo'llanishini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **306-sonli qarori** qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar tasdiqlandi:

1. "Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat kassa mashinalarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi nizom.

2. "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llanilishi ruxsat etilgan fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat kassa mashinalarining davlat reestrini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizom.

3. Yuridik va jismoniy shaxslarning o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra aholi bilan pulli hisob-kitoblarni fiskal xotiraga ega bo'lmagan nazorat kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirish mumkin bo'lgan ayrim toifalari ro'yxati.

Yuqoridagi qarorga muvofiq, tasdiqlangan nizomlar talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlariga yuklatildi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra aholi bilan pulli hisob-kitoblarni fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirishi mumkin bo'lgan ayrim toifalari ro'yxati:

1. Aholiga xizmat ko'rsatishda qat'iy hisobda turadigan hujjat hisoblangan talon, bilet va ularga tenglashtirilgan boshqa cheklar beradigan yuridik va jismoniy shaxslar.

2. Quyidagilarni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar:

a) gazeta va jurnallar sotadigan;
b) dehqon bozorlarida savdo o‘rinlari tashkil etgan holda o‘zi yetishtirgan mahsulotlar, shuningdek, so‘yilgan mollar go‘шти bilan savdo qiladigan;

v) samolyotlarda va poyezdlarda (vagon-restoranlar bundan mustasno) umumiy ovqatlanish mahsulotlarini sotadigan;

g) davlat hokimiyati organlari ruxsatnomalari asosida ko‘chma (tashqarida) savdo qiladigan.

3. Turg‘un joydan tashqaridagi maishiy xizmatlar, temirchilik, tunukachilik ishlari.

4. Davlat chegarasi bo‘ylab joylashgan harbiy savdo obyektlari.

5. Umumta‘lim maktablarining oshxonalari va bufetlari.

6. Dorixonalarning qishloq vrachlik punktlari hududida tashkil etilgan filiallari.

7. Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni dam olish kunlari yarmarkalarda, avtomobillar sotish bozorlarida, shuningdek, ilgari ishlatilgan tovarlarni, tirik mollarni, parrandalarni, jonivorlarni va boshqalarni sotish.

Sotib olingan tovarlar (bajarilgan ishlar) va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlarga beriladigan kassa cheklarida quyidagi ma‘lumotlar bo‘lishi kerak:

a) soliq to‘lovchining – xo‘jalik yurituvchi subyektning nomi va identifikatsiya raqami;

b) to‘lov summasi;

v) tovarlar va xizmatlar nomi;

g) to‘lov sanasi va vaqti;

d) nazorat-kassa mashinasining zavod raqami;

e) chekning tartib raqami;

j) fiskal rejim belgisi.

Kassa cheklarida boshqa rekvizitlar ham bo‘lishi mumkin.

13.4. Yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish, uning hisob-kitoblarini taqdim etish va uni to'lash tartibi

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona soliq to'lovi quyidagi formulaga muvofiq yalpi tushumdan hisoblanadi:

$$\text{YaSTS} = (\text{YaT} - \text{ChS}) \times \text{S}$$

bunda: YaSTS - yagona soliq to'lovi summasi;

YaT - yalpi tushum;

ChS - yalpi tushumdan chegiriladigan summalar;

S - soliq stavkasi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning **har choragida, hisobot davridan keyingi oyni 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. **Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:**

-mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan

soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Kalendar yil soliq davridir. Yil choragi hisobot davridir.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga yagona soliq to'lovi bo'yicha eng kam miqdorlarni qo'llanilish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida **2013-yil 4 aprelda 2449-son** bilan ro'yxatga olingan Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan chakana savdo korxonalarini tomonidan yagona soliq to'lovini (YAST) hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqilgan.

Ushbu Nizomga muvofiq chakana savdo korxonalarini YaSTni qonun hujjatlariga muvofiq, lekin aynan shunday faoliyat turini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydilar.

Hisoblangan YAST summasini YaSTning eng kam miqdori bilan solishtirish uchun YaSTning hisob-kitob summasi butun chakana savdo korxonasi bo'yicha mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovining ma'lumotnoma-hisob-kitobi (bundan buyon matnda Ma'lumotnoma-hisob-kitob deb yuritiladi) asosida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$HSast = SSAT \times S$$

bunda:

HSast - YaSTning hisob-kitob summasi;

SSAT - YAST bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar qo'llanilmagan holdagi hisobot choragi uchun soliq

solinadigan yalpi tushum (YAST hisob-kitobining «040»-satri ma'lumotlari asosida);

S - YaSTning o'rnatilgan stavkasi.

Agar YaSTning hisob-kitob summasi YaSTning eng kam miqdori summasidan kam bo'lsa, YAST qo'shimcha hisoblanadi. Bunda YaSTning eng kam miqdori summasining YaSTning hisob-kitob summasidan ortgan qismi YAST hisob-kitobi bo'yicha hisoblangan YAST summasiga qo'shimcha hisoblanadi.

Agar YaSTning hisob-kitob summasi YaSTning eng kam miqdoriga teng yoki undan ortiq bo'lsa, unda YAST qo'shimcha hisoblanmaydi va YAST O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda to'lanishi lozim, ya'ni YAST hisob-kitobi bo'yicha hisoblangan summa to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrda PQ-1245-son qaroriga muvofiq **2010-yil 1 yanvardan** ulgurji savdo korxonalarini uchun har bir o'tkazilgan savdo operatsiyasidan tushadigan tushum summasining **5 foizi miqdorida yagona soliq to'lovi bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'lash tartibi kiritildi.**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 14 yanvarda **2065-son** bilan ro'yxatga olingan "Ulgurji savdo korxonalarini tomonidan yagona soliq to'lovi bo'nak to'lovlarini hisobga olgan holda to'lash tartibi to'g'risidagi" Nizom ishlab chiqilgan.

AMALIY MASALALAR

1-masala. Toshkent shahrida joylashgan "Bahor" milliy taomlari firmasining asosiy faoliyati umumiy ovqatlanish hisoblanib, 2017-yilning 1-choragida savdo tushumi summasi 12000,0 ming so'mni tashkil etgan. Ushbu firmaning qo'shimcha chakana savdo faoliyatidan tushum miqdori 4000,0 ming. so'mni tashkil qiladi. Berilgan ma'lumotlarga asosan korxonaga yagona

soliq to'lovini hisoblang.

Yechilishi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra umumiy ovqatlanish korxonalariga yagona soliq to'lovi stavkasi 10 foiz va aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda joylashgan korxonalariga savdo faoliyatiga 4 foiz qilib belgilangan.

2. Soliq kodeksiga ko'ra, agar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari asosiy faoliyat bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansa, ular o'sha faoliyat turiga oid alohida hisob yuritib yagona soliq to'lovini to'laydilar.

$12\ 000\ 000 * 10\% = 1\ 200\ 000$ so'm.-umumiy ovqatlanish faoliyatiga YaST

$4\ 000\ 000 * 4\% = 160\ 000$ so'm. – savdo faoliyatiga YaST

$1\ 200\ 000 + 160\ 000 = 1\ 360\ 000$ so'm jami YaST summasi

2-masala. Toshkent shahrida joylashgan “Umid-farm” firmasining asosiy faoliyati dori-darmon savdosi bilan shug'ullanadi. Dorixonona 2017-yilning 1-choragida dori-darmondan savdo tushumi (yalpi tushum) summasi 24000,0 ming so'mni tashkil etgan. Berilgan ma'lumotlarga asosan korxonaga yagona soliq to'lovini hisoblang.

Yechilishi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra, aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda joylashgan dorixonalariga yagona soliq to'lovi stavkasi 3 foiz qilib belgilangan.

2. $24\ 000\ 000 * 3\% = 720\ 000$ so'm. Yagona soliq to'lovi summasi

3-masala. Toshkent shahrida joylashgan “Imkon” kichik korxonasining asosiy faoliyati chakana savdo hisoblanib, unga qarashli savdo do'konida 2017-yilning 1-choragida umumiy

savdo tushumi summasi 9000,0 ming so‘mni shundan 3000,0 ming. so‘mi plastik kartochkaga savdo qilingan. Berilgan ma’lumotlarga asosan korxonaga yagona soliq to‘lovini hisoblang.

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra aholisi soni 100 ming va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda joylashgan savdo korxonalariga yagona soliq to‘lovi stavkasi 4 foiz qilib belgilangan. Shuningdek, 2016 1 yanvardan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini sotilgan tovarlari (ko‘rsatilgan xizmatlari)ni plastik kartochkalar orqali amalga oshirsalar, yagona soliq to‘lovi stavkasi shu qismiga 5% ga kamaytirilishi bekor bo‘lgan.

2. $9\ 000\ 000 * 4\% = 360\ 000$ so‘m. YaST summasi

Mavzuga oid test savollari

1. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to‘lovining obyektini nima?

- A. Korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda
- B. Sotib olish va sotish qiymatini o‘rtasidagi farq
- C. Davr xarajatlari
- D. Tovar oboroti*

2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini to‘laydigan soliqlarni ko‘rsating.

- A. Yer va mol-mulk solig‘i
- B. Yalpi daromadidan soliq va mol-mulk solig‘i
- C. Yalpi tushum (tovaroborot)dan yagona soliq to‘lovi *
- D. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i

3. Savdo korxonalariga qo‘llaniladigan soliq stavkalarini tabaqalanishining asosiy mezonini ko‘rsating.

- A. Joylashgan joyi va aholi soniga qarab *
- B. Ishchilar soniga qarab
- C. Daromadlik darajasiga qarab
- D. Aholi soniga qarab

4. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun 2007-yilda soliq solishning qanday tartibi belgilandi?

- A) Ishchilar sonidan qat'iy nazar ushbu korxonalar yagona soliq to'lovi tizimiga o'tkazildi*
- B) Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasig ajratmadan ozod qilindi
- C) Pensiya, yo'l jamg'armasiga ajratmalardan ozod qilindi
- D) Tovarni olib kelish va solish bilan bog'liq xarajatlarni chegirib tashlagan holda yalpi daromaddan soliqqa tortish tartibi belgilandi

5. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari deb qanday yuridik shaxslarga aytiladi?

- A) O'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar*
- B) Umumiy realizatsiya xajmida savdo tushumi 50 foiz va undan ko'prog'ini tashkil etadigan yuridik shaxslar.
- C) Ikki yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar
- D) Umumiy realizatsiya xajmida savdo tushumi 60 foiz va undan ko'prog'ini tashkil etadigan yuridik shaxslar.

6. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga qaysi muddatlarda taqdim etiladi?

- A. Yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay*
- B. Yilning har oyida soliq davridan keyingi oyning

15-kunidan kechiktirmay

C. Yilning yakunida keyingi yilnng 1-fevraligacha

D. Yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

7. 2017-yil 1 yanvardan ulgurji va chakana savdo korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi qanday belgilangan?

A) 5 foiz*

B) 3,2,1 foiz

C) 5,3,1 foiz

D) 4, 2, 1 foiz

8. 2017-yil 1 yanvardan dorixonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi qanday belgilangan?

A) 4,2,1 foiz

B) 3,2,1 foiz*

C) 5,3,1 foiz

D) 6,5,4 foiz

9. Chakana savdo korxonalari uchun yagona soliq to'lovini eng kam miqdorini hisoblashda qanday me'yor belgilangan?

A. aynan shu turdagi faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq summasidan kelib chiqib amalga oshiriladi*

B. aynan shu turdagi faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq summasini ikki barobaridan kelib chiqib

C. ular egallab turgan yer uchastkasi maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan yer solig'ining uch karra miqdoridagi summadan kam bo'lmasligi belgilangan

D. ular egallab turgan yer uchastkasi maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan yer solig'ining bsh karra miqdoridagi summadan kam bo'lmasligi belgilangan

10. 2017-yilda umumiy ovqatlanish korxonalar uchun

yagona soliq to'lovi stavkasi?

- A) 6 foiz
- B) 10 foiz*
- C) 12 foiz
- D) 7 foiz

11. 2017-yilda ulgurji korxonalari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi?

- A) 6 foiz
- B) 7 foiz
- C) 8 foiz
- D) 5 foiz*

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish taribini tushuntib bering.

2. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari nimalardan iborat?

3. Soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?

4. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliq obyektini aytib bering?

5. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliq stavkalari qanday?

6. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqlarni hisoblash tartibini aytib bering?

7. Chakana savdo qoydalari nimalardan iborat? Ulgurji faoliyatni amalga oshirish tartibini tushuntirib bering.

8. Umumiy ovqatlanish qoydalari nimalardan iborat?

9. Savdo va hizmat ko'rsatish korxonalari yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda qanday me'yorlarga e'tibor qaratish kerak?

10. 2017-yildan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda qanday o'zgarish va qo'shimchalar kiritildi?

14-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI TOVARLAR ISHLAB CHIQUARUVCHILARI UCHUN YAGONA YER Solig‘i

Tayanch so‘z va iboralar: *qishloq xo‘jaligi tovarlar ishlab chiqaruvchilar, yagona yer solig‘i, soliq stavkasi, soliq obyeksi va bazasi, yerning normativ qiymati, imtiyozlar, soliq hisoboti, tolash muddati.*

14.1. Yagona yer solig‘ini joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va qo‘llanishi tartibi

O‘zbekistonda yer solig‘i Respublika Oliy Kengashi tomonidan 1993-yil 6 mayda qabul qilingan «Yer solig‘i to‘g‘risida»gi hamda «Yer kodeksi to‘g‘risida»gi qonunlarga va qonun osti meyoriy hujjatlarga asosan belgilanadi va davlat byudjetiga undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi «Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘i joriy qilish to‘g‘risida»gi №2086-sonli farmoniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabrda «Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘i to‘g‘risida»gi № 539-sonli qaroriga muvofiq 1999-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining byudjetga to‘lovlarini soddalashtirish, ixchamlashtirish maqsadida yagona yer solig‘i joriy etilgan.

Yagona yer solig‘i amaldagi barcha umumdavlat soliqlari (alkogolli mahsulotga aksiz solig‘idan tashqari) hamda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan quyidagi mahalliy soliqlar va yig‘imlarni to‘lash o‘rniga joriy etilgan:

- daromad (foyda) solig‘i;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yer ostidan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;
- boshqa mahalliy soliqlar va yig‘imlar.

Yagona yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lmish qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun boj to‘lovi, davlat boji, litsenziya yig‘imlari, byudjetdan tashqari jamg‘armalarga ajratmalar to‘lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi. Yagona yer solig‘ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining mehnatning pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, ularning soliq tizimini soddalashtirishdir.

2008-yil 1 yanvardan boshlab yagona yer solig‘ining huquqiy asoslari soliq kodeksining XX-bo‘limi, 57-bobi, 362- 369 moddalarda o‘z aksini topgan.

Soliq solinadigan qishloq xo‘jalik yer maydonlari yer uchastkalarining joylashishi tuproq boniteti va yerning boshqa tavsiflari bo‘yicha kadastr ma‘lumotlari bo‘yicha qabul qilindi. Qishloq xo‘jaligi yerlari maydonlari, ularning sifati va joylashgan joyi bo‘yicha yer balansi, yer xaritasi, tekshiruv materiallari va boshqa yer kadastr hujjatlari bo‘yicha qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrda 567- sonli qarori bilan 2004-yil 1 yanvardan boshlab tajriba tariqasida Toshkent, Samarqand viloyatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 28-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining 2005-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat

byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 610-sonli qaroriga asosan esa 2005-yil 1 yanvardan boshlab tajriba tariqasida Surxondaryo viloyatlari qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini yerlarning normativ qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblash tartibi joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 27-dekabrda PQ-244-sonli qaroriga asosan 2009-yil 1 yanvardan boshlab Andijon, Buxoro va Xorazm viloyatlari qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun, eksperimentni davom ettirish doirasida, qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda yagona yer solig‘ini hisoblab chiqish tatbiq etildi.

2007-yil 1 yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-532-sonli qarori bilan Navoiy, Jizzax va Farg‘ona viloyatlari qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-744-sonli qarori bilan esa 2008-yil 1 yanvardan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahri qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda yagona yer solig‘ini hisoblab chiqarish tatbiq etildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, 2008-yilda Respublikamizning barcha hududlaridagi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig‘ini qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarish tartibiga to‘liq o‘tkazildi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998-yil 30 aprelda qabul qilingan «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan, fermer xo‘jaligini tashkil etishda, chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo‘lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo‘jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent,

Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi. Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida 10 gektarni, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etadi.

Fermer xo‘jaligi - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir. Fermer xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy subyektidir.⁸⁴

Dehqon xo‘jaligi - oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.⁸⁵

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

84 O‘zbekiston Respublikasi 1998-yil 30 aprelda qabul qilingan «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni 3-modda

85 O‘zbekiston Respublikasi 1998-yil 30 aprelda qabul qilingan «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni 1-modda

14.2. Yagona yer solig'i to'lovchilari, obyekti va bazasi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari quyidagilardir:

-qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;

-qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

-yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

-qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

-qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va mazkur o'zi yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.


Yoqoridagi talablarga javob beradigan yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona yer solig'i to'lovchilar bo'ladilar.

Quyidagilarga yagona yer solig'i to'lovchilari sifatida qaralmaydi:

-o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;

-yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Yagona yer solig‘ining stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har yili qabul qilinadigan “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat byudjeti prognozi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrdaqiPQ-2455-sonli qaroriga ko‘ra, yagona yer solig‘i stavkasi 2015-yildagi 6 foizli stavka o‘rniga 2016-yil 1 yanvardan qishloq xo‘jaligi erlarining qayta hisoblangan normativ qiymatiga nisbatan **0,95 foiz miqdorida** belgilandi.



14.1.-rasm. Yagona yer soligi stavkasini o‘zgarish dinamikasi⁸⁶

Izoh. Bunda, har bir xo‘jalik bo‘yicha qishloq xo‘jaligi erlarining normativ qiymatini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasining O‘zbek davlat er tuzish ilmiy-loyihalash instituti “O‘zdaverloyiha” tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 235-sonli qarorining 5-bandiga asosan, tasdiqlangan Nizomga muvofiq aniqlangan qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining

86 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari

normativ qiymatidan kelib chiqqan holda yagona yer solig'ini hisoblab chiqarish 2016-yil 1 yanvardan boshlab amalga oshiriladi.

Bunda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi 235-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida"gi nizamning 7-bandiga asosan, normativ qiymatni aniqlash davri har yili o'tkaziladi.

Soliq solish obyekti

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish obyektidir.

Soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

-ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

-yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab **besh yil muddatga**.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar - yagona yer solig'i to'lovchilarga Soliq kodeksining 282-moddasidagi yuridik shaxslar yer solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar ham tatbiq etiladi. Kalendar yil soliq davridir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi **235-sonli qaroriga** asosan, "Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar belgilandi:

-O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrida davlat qo'mitasi **2015-yil 1-iyungacha** qaror bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlashi;

-Tasdiqlangan Nizomga muvofiq aniqlangan qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda yagona yer solig'ini hisoblab chiqarish **2016-yil 1-yanvardan**

boshlab amalga oshirilishi.

- Yagona yer solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligi ustidan nazoratni ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga yuklatildi.

14.3. Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1 fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda Soliq kodeksning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi.

Agar o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha yagona yer solig'i to'lovchi korxonalar belgilangan shartlarga javob bermasa, soliq to'lovchi joriy soliq davrining boshidan e'tiboran umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiradigan soliq to'lovchilar belgilangan shartlarga javob bermay qo'yan soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibini tanlash to'g'risida yozma bildirish taqdim etadi. Soliq to'lovchining yozma bildirishni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga roziligi deb hisoblanadi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchi umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq davrining birinchi choragi uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tgan yagona yer solig'ini to'lovchi faqat navbatdagi soliq davri boshidan e'tiboran yana yagona yer solig'ini to'lashga o'tishga haqlidir.

Belgilangan shartlarga javob beradigan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari faoliyatning yagona yer solig'ini to'lash tatbiq etiladigan qismi bo'yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq kodeksiga muvofiq soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolingan mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo'yicha korxonalarining tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi to'lashi mumkin. Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan soliq to'lovchi umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishi kerak.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar uchun Soliq kodeksning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar bundan mustasno.

Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer

solig‘i to‘lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha soliq solinadi.

Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan, ichki xo‘jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig‘ini to‘lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

14.4. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Yagona yer solig‘i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yerlarning qayerda joylashgani va sifatiga (ball-bonitetga) bog‘liq ravishda bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffitsiyentlariga tuzatiladi.

Yerlarning har bir turi bo‘yicha yagona yer solig‘i summasi quyidagi formula bo‘yicha belgilanadi:

$$H = Szu \times Sb \times Kp,$$

bu yerda:

N - yagona yer solig‘i summasi, so‘mlarda;

Szu - yer uchastkasi maydoni, gektarlarda;

Sb – yerning normativ qiymati, 1 gektar uchun so‘mlarda;

Kp - soliq stavkasi normativ qiymatga nisbatan

Yagona yer solig‘ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig‘i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to‘lanadi. Yer uchastkasi olib qo‘yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig‘ini to‘lash yer uchastkasi olib qo‘yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to‘xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o‘zgargan, shuningdek, yagona yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga

bo‘lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to‘lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig‘ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona yer solig‘ini to‘lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 sentabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi;

- hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliqning qolgan summasi.

O‘zbekiston Respublikasining **O‘RQ-359 sonli Qonuni bilan SK-349** moddasiga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq, yagona yer solig‘ini to‘lovchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar **2014-yil 1 yanvardan** boshlab davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar: respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratma, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar hamda umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lamasligi belgilandi.

Mavzuga doir masalalar:

1-masala. «Umid» Fermer xo‘jaligi Toshkent viloyati Qibray tumanida 2003-yil yanvar oyida ro‘yxatdan o‘tgan. Tuman xokimiing qaroriga ko‘ra unga ajratilgan umumiy tasarrufidagi yer maydoni 42 gektarni tashkil etadi. Tuman “Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrı” davlat qo‘mitasi tomonidan yerining normativ qiymati bir gektar uchun 3200,0 ming. so‘m qilib belgilangan. Berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, fermer xo‘jaligiga 2017-yil uchun yagona yer solig‘ini hisoblang.

Yechilishi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil

27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun 2016-yilga yagona yer solig'i stavkasi normativ qiymatga nisbatan 0,95 foiz qilib belgilangan.

2. $(3200,0 * 42) * 0,95\% = 1276,8$ ming. so'm. Yagona yer solig'i summasi

2-masala. «Sarbon» Fermer xo'jaligi Farg'ona viloyati Quva tumanida 2009-yil yanvar oyida ro'yxatdan o'tgan. Tuman xokimiing qaroriga ko'ra unga ajratilgan umumiy tasarrufidagi yer maydoni 60 gektarni tashkil etadi. Shundan jamoat binolari va hovlilari band qilgan yer maydoni 3 gektarni tashkil etadi. Tuman "Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr" davlat qo'mitasi tomonidan yerining normativ qiymati bir gektar uchun 2800,0 ming. so'm qilib belgilangan. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, fermer xo'jaligiga 2017-yil uchun yagona yer solig'ini hisoblang.

Yechilishi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko'ra qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun 2016-yilga yagona yer solig'i stavkasi normativ qiymatga nisbatan 0,95 foiz qilib belgilangan.

2. $(2800,0 * 60) * 0,95\% = 1596,0$ ming. so'm. Yagona yer solig'i summasi

Mavzuga doir test savollari:

1. Yagona yer solig'i soliq tizimiga qachon joriy etilgan:

- A. 1991-yil 1 maydan
- B. 2004-yil 1 yanvardan*
- C. 1998-yil 1 maydan
- D. 1999-yil 1 yanvardan

2. Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lgan subyektlarni aniqlang.

A. Fermer va dehqon xo‘jaliklari, o‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari

B. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo‘jaliklari va ta‘lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari *

C. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, dehqon xo‘jaliklari

D. Faqatgina paxta etishtirish bilan shug‘ullanuvchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari

3. Yagona yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lmagan subyektlarni aniqlang.

A. Dehqon xo‘jaliklari, o‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari*

B. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo‘jaliklari va ta‘lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari

C. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari

D. Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo‘jaliklari va ta‘lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari

4. Yagona yer solig‘ining obyektini nima?

A. qishloq xo‘jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi*

B. sof foyda

C. Yerning normativ qiymati

D. Tovar oboroti

5. Yagona yer solig‘ining soliq solinadigan bazasini belgilang.

A. Yer uchastkalarining maydoni

B. Ijaraga olingan yer uchastkalarini me‘yoriy qiymati

C. Foydalanayotgan yer uchastkasining qiymati

D. Yer uchastkasining belgilangan normativ qiymati*

6. Yagona yer solig‘i bo‘yicha hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi:

- A. joriy soliq davrining 1 mayigacha*
- B. joriy soliq davrining 1 dekabrigacha
- C. joriy soliq davrining 1 martgacha
- D. joriy soliq davrining 1 fevralgacha

7. Yagona yer solig‘ini to‘lash muddatlarini ko‘rsating.

A. Hisobot yilining 1 iyuligacha 50 % va 1 dekabrigacha qolgani

B. Hisobot yilining 1 senyabrgacha 30% va 1 dekabrgacha qolgani*

C. Hisobot yilining har choragida, chorakdan keyingi oying 25 kuniga qadar

D. Hisobot yilining 1 iyuligacha 30%, 1 senyabrgacha 20% va 1 dekabrgacha qolgani

8. Yagona yer solig‘ini to‘lash tartibini qo‘llash uchun soliq to‘lovchi har yili soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o‘tgan soliq davrida qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo‘jaligi mahsulotining o‘zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko‘rsatilgan ma’lumotnomani qachon taqdim etadi?

- A. joriy soliq davrining 1 mayiga qadar
- B. joriy soliq davrining 1 dekabrga qadar
- C. joriy soliq davrining 1 martga qadar
- D. joriy soliq davrining 1 fevralga qadar*

9. Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o‘zgaragan, shuningdek, yagona yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq to‘lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yagona yer solig‘ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobi qachon taqdim etiladi?

- A. hisobot yilining 1 mayiga qadar

- B. hisobot yilining 1 dekabrigacha*
 - C. hisobot yilining 1 martga qadar
 - D. hisobot yilining 1 fevralga qadar
10. 2017-yil 1 yanvardan yagona yer solig'i stavkasi qanday belgilangan?
- A) 0,95 foiz*
 - B) 5 foiz
 - C) 4 foiz
 - D) 6 foiz

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Yagona yer solig'i obyektiga nimalar kiradi?
2. Yagona yer solig'i qachondan joriy etilgan?
3. Yagona yer solig'i to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
4. Yagona yer solig'i stavkasi qanday?
5. Yagona yer solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar berilgan?
6. Yagona yer solig'i bazasi qanday aniqlanadi?
7. Yagona yer solig'i to'lovchilari va stavkalari qanday belgilangan?
8. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlar?
9. Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llashning qanday xususiyatlari mavjud?
10. Yagona yer solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi?

15-BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATI BO‘YICHA OLINADIGAN QAT’IY BELGILANGAN SOLIQ

Tayanch so‘z va iboralar: *soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi, qat’iy belgilangan soliq, tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik), tadbirkorlik faoliyati subyektlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy tadbirkorlik, qat’iy belgilangan soliq obyektiva bazasi, soliq hisoboti.*

15.1. Qat’iy belgilangan soliqni zaruriyati, iqtisodiy mohiyati va qo‘llanishi tartibi

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Qat’iy belgilangan soliqni yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanib, respublika soliq tushumlarida bevosita soliq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga ko‘ra 2017-yilda davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan soliqning salmog‘i 1,9 foizni, bevosita soliqlar tarkibida esa 7,7 foizni tashkil etadi.

Qat'iy belgilangan soliqning jami soliq tushumlari va bevosita soliqlari tarkibidagi ulushi (%)⁸⁷

t/r	Soliqlar nomi	Yillar (%)da								
		2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
1.	Soliq tushumlari jami shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100
1.1	Qat'iy belgilangan soliq	1,0	1,1	1,2	1,1	1,4	1,7	1,7	1,8	1,9
2.	Bevosita soliqlar jami shu jumladan:	100	100	100	100	100	100	100	100	100
2.1	Qat'iy belgilangan soliq	3,9	4,1	4,4	4,2	5,2	6,5	7,2	8,0	7,7

15.1-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, davlat byudjeti daromadlarida soliqlar tarkibida qat'iy belgilangan soliq salmog'i 2009-yilda 1,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 1,9 foizni tashkil etgan. Bevosita soliqlar tarkibida 2009-yilda 3,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 7,7 foizni tashkil etmoqda. Ushbu holatni soliq to'lovchilarning soni ortishi va tadbirkorlikni rivojlanishi bilan izohlash mumkin.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldagi 216-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi nizomga ko'ra belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tegishli davlat organi tomonidan «bir darcha» prinsipi bo'yicha va qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga

87 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

oshiruvchi jismoniy shaxslardan qat'iy belgilangan soliqni undirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 31 mayda 2463-son bilan ro'yxatga olingan "Davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslardan qat'iy belgilangan soliqni undirish tartibi to'g'risida"gi nizomda belgilangan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati nazorat qiluvchi organlar tomonidan ularning qonunchilikda belgilangan vakolatlari doirasida **bir ish kuni davomida** rejadan tashqari qisqa muddatli tekshirishlar shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Qisqa muddatli tekshirishlar jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi murojaatlari asosida maxsus vakolatli organning qaroriga ko'ra rejadan tashqari tekshirish tarzida nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 6 mayda 2879-son bilan ro'yxatga olingan "Nazorat qiluvchi organlar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatidagi tekshirishlarni muvofiqlashtirish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 6 mayda 2878-son bilan ro'yxatga olingan "Nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar - yuridik shaxslar faoliyatidagi tekshirishlarni muvofiqlashtirish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi" nizomlarga asosan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 20 bo'limi soddalashtirilgan tartibga bag'ishlangan bo'lib, 58 bobi hamda 370-375 moddalari yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqni hisoblash mexanizmi belgilangan. Yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat'iy belgilangan soliq uchun obyekt fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy

belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda) hisoblanadi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

- faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar

- Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirishda oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosigina qat'iy belgilangan soliqni to'lovchi bo'ladi.

15.2. Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq kodeksining 370-moddasiga ko'ra qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar bo'lib, faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek, faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar faoliyatning qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat

bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki qat'iy belgilangan soliqlarni to'lashlari shart.

Asosiy faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar Soliq kodeksning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek, ijaradan olingan daromadlar bundan mustasno.

Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga Soliq kodeksda nazarda tutilgan tartibda umumbelgilangan soliqlar yoki yagona soliq to'lovi joriy etiladi.

Faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar belgilangan tartibda qat'iy belgilangan soliqni to'laydi.

15.3. Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi

Qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan **obyektdir**.

Soliq solinadigan **baza** fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qat'iy belgilangan soliq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Q_{ss} = S_{st} * EKOIH$$

Sst – soliq stavkasi;

EKOIH – eng kam oylik ish haqi

Qat'iy belgilangan soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qaroriga asosan belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarorining 11- ilovasiga muvofiq tasdiqlandi.

15.2-jadval

Yuridik va jismoniy shaxslardan ayrim tadbirkorlik faoliyati turlari bo'yicha 2016-yil uchun olinadigan qat'iy belgilangan soliq STAVKALARI⁸⁸

N	Faoliyat turi	To'lovchilar	Mazkur Faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (birlik uchun eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)		
				Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvdagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash	Yuridik shaxslar	Egallagan maydon (1 kv.metr)	0,1	0,06	0,04
2	Bozorlar balansidagi avtoturargoxlarda avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash			0,05	0,03	0,02
3	Bolalar o'yin avtomatlari	Yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'rinar soni (birlikda)	3,0	2,0	1,0

Izohlar:

1. Qat'iy belgilangan soliq stavkasi yil boshiga - 2017-yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi (149 775 so'm) miqdoridan kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi

⁸⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli qarori 11- ilova.

miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaydi.

2. Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan taqdirda bunday holatlarga soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash sifatida qaraladi.

2017-yil 1 yanvardan boshlab, bozorlar balansidagi avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash xizmatlarini ko'rsatish faoliyati uchun qat'iy belgilangan soliq stavkasi joriy etildi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari 2016-yil darajasida saqlanib qolindi. Bunda, 2017-yil 1 yanvardan boshlab, qonunchilikda belgilangan ro'yxat asosida hunarmandchilik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun EKIHning 0,5 baravari miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi joriy etildi

Soliq davri - bir oy.

Qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

-yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay;

-faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan - hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq solish obyekti o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash:

-yuridik shaxslar tomonidan - har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

-yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay har oyda to'lanadi.

15.4. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aksiz solig'i - aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, Soliq kodeksning 48, 50-boblarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risidagi arizani olgan tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni tugaguniga qadar soliq bo'yicha

hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to‘xtatilganligi to‘g‘risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat’iy belgilangan soliqni hisoblashni to‘xtatib turish uchun asos bo‘ladi.

Soliq to‘lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’iy nazar, qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to‘lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi

Soliq to‘lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’iy nazar, qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to‘lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarorining 11 ilovasiga muvofiq 2017-yilga quyidagicha tasdiqlangan.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy
belgilangan soliq
STAVKALARI⁸⁹**

№	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)		
		Toshkent shahri	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Chakana savdo:			
	oziq-ovqat tovarlari bilan	9,0	6,0	3,0
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	5,0	4,0	2,0
	nooziq-ovqat tovarlari bilan	10,0	6,5	3,0
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	5,0	3,0	0,5
	oziq-ovqat va nooziq- ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalardagi aralash savdo)	10,0	6,5	3,0
2	Maishiy xizmatlar	3,5	1,5	0,5

89 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda
PQ-2699-sonli qarori.

3	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlarini tayyorlash va sotish, shuningdek, uy sharoitlarida yoki joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	2,0	1,5	1,0
4	Qonun hujjatlarida belgilangan ro'yxat bo'yicha hunarmandchilik faoliyati	0,5		
5	Boshqa faoliyat turlari	2,0	1,5	1,0
6	Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar:			
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	2,0		
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3,0		
	8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	4,0		

*) Uy xo'jaligi, shu jumladan, dehqon xo'jaligida parvarishlangan tirik hayvonlarni (chorva mollari, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliqlar va boshqalar) hamda ularni so'uyib, xom yoki qayta ishlangan ko'rinishdagi

mahsulotlarni, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan ko‘rinishda (manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlaridan tashqari) sotish bundan mustasno.

2017-yil 1 yanvardan boshlab, qonunchilikda belgilangan ro‘yxat asosida hunarmandchilik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun EKIHning 0,5 baravari miqdorida qat’iy belgilangan soliq stavkasi joriy etildi.

Soliq solishdan ozod etish soliq to‘lovchi tomonidan davlat hokimiyatining joylardagi tegishli organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkati boshqaruvi tomonidan berilgan, sotilgan mahsulot soliq to‘lovchi tomonidan unga yoxud uning oila a‘zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etish sharti bilan amalga oshiriladi.

1. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs:

a) bir nechta faoliyat turi bilan shug‘ullansa, har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida soliq to‘laydi;

b) tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga ijaraga beruvchi to‘g‘risida ma’lumotnoma (axborot) taqdim etishi kerak;

v) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan joyda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqni ro‘yxatdan o‘tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan joy bo‘yicha to‘laydi.

2. Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan faoliyat turlari amalga oshirilganligi holatlari aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati

organlari belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda yillik hajmda tegishli faoliyat turi bo'yicha bir yo'la qat'iy belgilangan soliqni undiradilar, bundan jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat ko'rsatayotganligi dalili aniqlangan sanadan boshlab o'ttiz kun mobaynida uning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tganligi aniqlangan holatlar mustasno. Bunday jismoniy shaxsga hisoblab yozilgan yillik qat'iy belgilangan soliq summasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda ushbu davr uchun qat'iy belgilangan soliq bo'yicha kelgusidagi soliq majburiyatlari hisobiga o'n ikki oy mobaynida to'lash huquqi taqdim etiladi.

3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga 8-ilovada ko'rsatilgan soliq solish shkalasining eng kam stavkasi bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning **25-kunidan kechiktirmay har oyda**, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik subyekti qat'iy belgilangan soliqni

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘laydi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o‘n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan e‘tiboran qat’iy belgilangan soliqni to‘lashdan olti oy muddatga ozod etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tilgan paytdan boshlab o‘n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan **yoki faoliyati uch va undan ko‘p oyga to‘xtatilgan taqdirda**, qat’iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to‘lanadi⁹⁰.

Xodimlarni yollagan holda faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

Xodimlarni yollagan holda faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qat’iy belgilangan soliqni 374¹-moddada nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, 58- bobda belgilangan tartibga muvofiq to‘laydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor zimmasiga uning har bir xodimi uchun yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha nazarda tutilgan stavkaning **30 foizi miqdorida** qat’iy belgilangan soliq to‘lash majburiyati yuklatiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatning bir nechta turini amalga oshirgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat’iy belgilangan soliq faoliyatning tegishli turlari uchun o‘rnatilgan qat’iy belgilangan soliqning eng yuqori

90 Manba: O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 27-dekabrda qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-417-sonli Qonuni

stavkasining 30 foizi miqdorida to'lanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor soliq solish mazkur faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan faoliyat turi bilan shug'ullangan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq bitta fizik ko'rsatkich uchun oyiga o'rnatilgan qat'iy belgilangan soliq stavkasining **30 foizi miqdorida to'lanadi.**

Yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan to'lash uchun belgilangan muddatlarda, mehnat shartnomasi tuzilgan oydan keyingi oydan boshlab to'lanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tish joyi bo'yicha amalga oshirmayotgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliqni o'zi ro'yxatdan o'tkazilgan joy va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joy bo'yicha belgilangan stavkalar o'rtasidagi yuqori stavkaning **30 foizi miqdorida** o'zi ro'yxatdan o'tkazilgan joyga to'laydi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun har bir yollangan xodimga qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turishga asos bo'ladi.

Agar o'z faoliyatini to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor davlat soliq xizmati organiga yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkalarini belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblash to'xtatilmaydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning kasb-hunar kolleji bitiruvchisi bo'lgan xodimi uchun

qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan ushbu xodim kollejini tamomlaganidan e'tiboran **o'n ikki oy mobaynida ozod etiladi.**

Agar yakka tartibdagi tadbirkor qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ozod etilsa, mazkur imtiyoz yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq to'lashga ham tatbiq etiladi.

Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-iyuldagi 219-sonli qaroriga asosan "Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida" NIZOM"ga asosan amalga oshiriladi.

Mazkur nizomning amal qilishi yuridik shaxs tashkil etmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etilmaydi.

Xodimlarni yollamasdan faoliyatni amalga oshiradigan xususiy tadbirkorlar uchun qonunchilikda xususiy tadbirkorlar uchun nazarda tutilgan davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishning belgilangan tartibi amal qiladi.

Xususiy tadbirkor xodimlarni yollashni bankda qonunchilikda belgilangan tartibda hisob raqami ochilgandan keyin amalga oshirishi mumkin.

Xususiy tadbirkor xodimlarni yollashni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan **80 ta** faoliyat turlari ro'yxatida nazarda tutilgan faoliyatning amalga oshiriladigan turiga bog'liq holda bir nafardan uch nafargacha miqdorda amalga oshirishga haqlidir. Bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan xususiy tadbirkor, faoliyatning turlari sonidan qat'iy nazar, uch nafardan ko'p bo'lmagan xodimlarni yollash huquqiga ega.

*) Tovarlarining turlari tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tomonidan beriladigan chakana savdoni amalga oshirish huquqi uchun berilgan ruxsatnomada, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari tomonidan berilgan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmasdan tashkil etilgan yakka tadbirkorning ro'yxatdan o'tkazish (ruxsat berish) tartibotlari varaqasida ko'rsatiladi.

**) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli qarorining 35 hamda 37-illovalariga asosan 2017-yil 1 yanvardan boshlab Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlariga qo'shimchalar kiritildi.

Izoh. Agar yakka tadbirkor faoliyatning asosiy turiga nisbatan yordamchi hisoblangan faoliyatni amalga oshirsa, qat'iy belgilangan soliq faoliyatning bir turi uchun to'lanadi.

Ushbu Ro'yxatga kiritilgan faoliyat turlari yuridik shaxs shaklidagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu Ro'yxat doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradigan xususiy tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin.

*Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatining 42, 50, 60, 61, 63, 67, 75-bandlarida ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshiradigan xususiy tadbirkor faoliyatining asosiy turi bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish uchun bir nafar xodimni yollashi mumkin.

Xodimlarni yollagan holda xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlarining ro‘yxati⁹¹

T/r	Faoliyat turining nomi	Yollanadigan xodimlarning cheklangan soni (nafar)
1.	Chakana savdo (Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatining 1 – 5-bandlari)	1
2.	Qonunchilikda belgilangan ro‘yxat bo‘yicha hunarmandchilik faoliyati	3
3.	Maishiy xizmatlar, qonunchilikda belgilangan ro‘yxat bo‘yicha hunarmandchilik faoliyatidan tashqari (Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatining 6 – 35 ¹ -bandlari)	3
4.	Faoliyatning boshqa turlari* (Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatining 36 – 41, 43-48, 51 – 59, 62, 64 – 66, 68 – 74, 76-80-bandlari)	2

Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-iyuldagi 219-son qarori bilan tasdiqlangan “Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga ilova qilingan ro‘yxatning 4-bandiga kiritilgan o‘zgartirishga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan xususiy 91 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-iyuldagi 219-sonli qaroriga asosan “Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”NIZOM”

tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatining 43-48 va 76-80-bandlarida ko'rsatilgan faoliyatning turlarini amalga oshiruvchi xususiy tadbirkorlarga 2 nafargacha xodim yollash mumkinligi belgilandi⁹².

Xususiy tadbirkor bilan mehnat munosabatlari o'rnatgan jismoniy shaxslarga xususiy tadbirkorlar sifatida qaralmaydi va ular xususiy tadbirkor nomidan huquqiy hujjatlarni imzolash huquqiga ega emas.

Soliq kodeksining **63-moddasiga** muvofiq, soliq qarzi summasini o'tkazish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomalarini taqdim etishning yagona muddatini belgilaydi, bunda yuridik shaxslar kabi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ham to'lov muddati tugaganidan keyin **uch ish kuni qilib belgilandi**⁹³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 29-martdagi **“Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi PF-3588-sonli farmoniga asosan, xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy-bezak san'ati buyumlari asosiy turlarining 25 turdagi yangilangan ro'yxati tasdiqlangan. Ushbu farmon bilan tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq, oilaviy korxonalar xalq badiiy hunarmandchiligi va qo'lda ishlangan amaliy san'at buyumlarini sotishdan olinadigan daromadga hisoblanadigan yagona soliq to'lovidan ozod etish bo'yicha imtiyozlar muddati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 26-dekabrda**gi PF-4589-sonli farmoni bilan 2017-yilning 1 yanvarigacha** uzaytirilgan edi. **2017-yil 1 yanvardan boshlab**, qonunchilikda belgilangan ro'yxat asosida hunarmandchilik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun **EKIHning 0,5 baravari miqdorida qat'iy** belgilangan soliq stavkasi joriy etildi.

92 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda**gi PQ-2699-sonli qarori.**

93 Manba: O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 27-dekabrda**gi O'RQ-417-sonli Qonuni**

AMALIY MASALALAR

1-masala. Yakka tartibdagi tadbirkor U.Samadov Toshkent shahar Chilonzor savdo majmuasida erkaklar poyafzalini chakana savdosi bilan shug'ullanadi. U 2017-yilning 10 oktabr kuni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan. U.Samadovga 2017-yilning 1-choragi davomidagi faoliyati uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblang.

Yechim: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkorga 2017-yilning 1 yanvaridan boshlab eng kam ish haqining 10 baravari miqdorida soliq to'lanadi.

U 2017-yilning 1-choragi davomida quyidagi miqdorda soliq to'lagan.

1. 2017-yilning yanvar oyi uchun $149\,775 \times 10 = 1\,497\,750$ so'm.

2. 2017-yilning fevral oyi uchun $149\,775 \times 10 = 1\,497\,750$ so'm.

3. 2017-yilning mart oyi uchun $149\,775 \times 10 = 1\,497\,750$ so'm.

Jami: 4 493 250 so'm.

Soliq kodeksining 311-moddasiga muvofiq soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar, yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda to'lashlari belgilab qo'yilgan.

U 2017-yilning 1-choragi davomida quyidagi miqdorda sug'urta badallarini to'laydi.

1. 2017-yilning yanvar oyi uchun $149\,775 \times 1 = 149\,775$ so'm.

2. 2017-yilning fevral oyi uchun $149\,775 \times 1 = 149\,775$ so‘m.

3. 2017-yilning mart oyi uchun $149\,775 \times 1 = 149\,775$ so‘m.

Jami: 449 325 so‘m.

2-masala. Yakka tartibdagi tadbirkor Ochilov Nizomiddin Akmalovich Toshkent shahar G‘.G‘ulom bog‘ida bolalar o‘yin avtomatlari faoliyati bilan shug‘ullanadi. U 2017-yilning 20 yanvar kuni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida birinchi marta ro‘yxatga olingan. Uning faoliyatida foydalanilayotgan jihozlangan o‘rinlar soni 6 tani tashkil etadi. Yakka tartibdagi tadbirkor N.Ochilov tomonidan 2017-yil 1-choragidagi to‘lanadigan soliqni hisoblang.

Yechim: Soliq kodeksining 375-moddasiga asosan yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik subyekti qat’iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida’gi PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkorga 2017-yilning 1 yanvaridan boshlab fizik ko‘rsatkich birligiga har oyda qat’iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda), eng kam ish haqining 3,0 baravari miqdorida soliq to‘lash belgilangan.

Yakka tartibdagi tadbirkorga 2017-yilning 1-choragi uchun quyidagi miqdorda soliq hisoblanadi:

$$(((149\,775 \times 3) \times 6) \times 2) = 5\,391\,900 \text{ so‘m.}$$

Demak yakka tartibdagi tadbirkor N.Ochilov 2017-yilning 1-choragi uchun 5 391 900 so‘m miqdorda qat’iy belgilangan soliq to‘laydi.

U 2017-yilning 1-choragi davomida quyidagi miqdorda

sugʻurta badallarini toʻlaydi.

1. 2017-yilning fevral oyi uchun $149\,775 \times 1 = 149\,775$ soʻm.

2. 2017-yilning mart oyi uchun $149\,775 \times 1 = 149\,775$ soʻm.

Jami: 299 550 soʻm.

Mavzuga oid test savollari

1.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoniga asosan tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq va bojxona qonunchiligi buzilgan holda ularning mol-mulklarini olib qoʻyish boʻyicha qanday tartib belgilandi?

A. *faqat sud qarori bilan olib qoʻyilishi belgilab qoʻyildi.

B. faqat soliq organlari tomonidan olib qoʻyilishi belgilab qoʻyildi.

C. musodara qilgan organlar tomonidan bir kunda olib qoʻyish belgilandi

D. 2017-yilgacha faqat sud qarori bilan olib qoʻyilishi belgilab qoʻyildi.

2.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoniga asosan tekshirishlarga oid qanday tartib belgilandi?

A. *kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xoʻjalik faoliyatini soliq tekshiruvidan oʻtkazishga moratoriy qoʻllash mezonlarini uchtadan ikkitaga qisqartirish

B. 2020-yilgacha barcha soliq tekshiruvlari oʻtkazilmasligi

C. qisqa muddatli soliq tekshiruvlari bekor qilinadi

D. 2017-yilgacha moliya xoʻjalik faoliyati bilan bogʻliq soliq tekshiruvlari oʻtkazilmaydi

3.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoniga asosan tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlariga doir qanday tartib

belgilandi?

A. *qonunchilikda ko‘zda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalar ularning har qanday yozma murojaatlarisiz qo‘llanilishi

B. imtiyozlar va preferensiyalardan cheklanmagan muddatda foydalanish

C. imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanish uchun elektron yozma murojaat orqali qo‘llanilishi

D. qonunchilikda ko‘zda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalardan ularning har qanday murojaatlari orqali qo‘llanilishi

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoniga asosan moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan rejali tekshiruvlar o‘tkazish muddati qancha muddatga belgilandi?

A. *10 kalendar kunidan oshmasligi

B. 30 kalendar kunidan oshmasligi

C. 30 kunidan oshmasligi

D. 10 kunidan oshmasligi

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 26-dekabrda PF-4589-sonli farmoniga muvofiq xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarga berilgan imtiyoz muddati qachongacha uzaytirilgan?

A. *2017-yil 1 yanvar

B. 2017-yil 1 aprel

C. 2018-yil 1 aprel

D. 2016-yil 1 yanvar

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoniga asosan 2015-yilning 1 iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga qanday tartib belgilandi?

A. *bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi

berildi

B. soliq to‘lashdan to‘liq ozod etildi

C. uch nafargacha ishchini yollash huquqi berildi

D. bir nafardan ikki nafargacha ishchini yollash huquqi berildi

7. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuniga muvofiq asosan yakka tartibdagi tadbirkorlarga yollangan xar bir ishchiga qancha miqdorda qat’iy belgilangan soliq to‘lashi belgilangan?

A. *soliq stavkasining 30 foizi miqdorida

B. soliq stavkasining 50 foizi miqdorida

C. soliq stavkasining 100 foiz miqdorida

D. soliqdan ozod etilgan

8. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuniga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkorlarga yollangan xar bir ishchi kasb xunar kolleji bitiruvchisi bo‘lsa qancha miqdorda qat’iy belgilangan soliq to‘lashi belgilangan?

A. *soliq to‘lashdan ozod etilgan

B. soliq stavkasining 50 foizi miqdorida

C. soliq stavkasining 100 foiz miqdorida

D. soliq stavkasining 30 foizi miqdorida

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoniga asosan 2015-yilning 1 iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga yollangan xar bir ishchiga qancha miqdorda pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badali to‘lashi belgilangan?

A. *eng kam oylik ish haqining 50 foizi

B. eng kam oylik ish haqining 30 foizi

C. eng kam oylik ish haqining 100 foizi

D. eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdrida

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoniga asosan 2015-yilning 1

iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga yollangan xar bir ishchi kasb xunar kolleji bitiruvchisi bo'lsa qancha miqdorda qat'iy belgilangan soliq to'lashi belgilangan?

- A. *soliq to'lashdan ozod etilgan
- B. soliq stavkasining 50 foizi miqdorida
- C. soliq stavkasining 100 foiz miqdorida
- D. soliq stavkasining 30 foizi miqdorida

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Soddashtirilgan soliqqa tortish tizimining iqtisodiy mohiyati va axamiyati nimalardan iborat?
2. Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilari kimlar hisoblanadi?
3. Qat'iy belgilangan soliqning obyeksi?
4. Qat'iy belgilangan soliqning bazasi qanday belgilanadi?
4. Oilaviy korxonalar qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari mumkin emas?
5. Qat'iy belgilangan soliq Soliq kodeksining qaysi bobi va moddalarida o'z aksini topgan?
6. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qanday belgilangan?
7. Qat'iy belgilangan soliqning hisob kitob muddatlari qanday belgilangan?
8. Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarishda qanday me'yorlarga e'tibor qaratish kerak?
9. Qat'iy belgilangan soliq tushumlari qaysi byudjetga yo'naltiriladi?
10. 2017-yildan qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarishda qanday o'zgarish va qo'shimchalar kiritildi?

16-BOB. SOLIQ TO‘LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA SOLIQ SOLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tayanch so‘z va iboralar: *to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar, oddiy shirkat shartnomasi, foyda solig‘i, resident va nerezident, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, erkin industrial-iqtisodiy zona, Dehqon xo‘jaliklari, Bozorlarga soliq solish, advokatlar hay‘atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari, soliq hisoboti.*


16.1. To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ma‘lumki mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha qonun yo‘li bilan keng ko‘lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Iqtisodiyotga 16,6 milliard AQSh dollari miqdorida yoki 2015-yilga nisbatan 9,6 foizga ko‘p investitsiyalar yo‘naltirildi. O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 11,3 foizga o‘sdi va 3,7 milliard dollardan oshib ketdi. Umumiy qiymati 5,2 milliard dollar bo‘lgan 164 ta yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish yakunlandi.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb

etilishini ragʻbatlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik gʻovlar va toʻsiqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yoʻl qoʻymaslik borasida qoʻshimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.



15.2-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotiga davlat kafilligi ostidakiritilgan va jalb qilingan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi (%)⁹⁴

Yuqoridagi 15.2-rasmdan koʻrinib turibdiki, 2004-yilda davlat kafilligi ostida jalb qilingan investitsiyalar 63,3%ni, toʻgʻridan toʻgʻri jalb qilingan investitsiyalar va kreditlar bor yoʻgʻi 36,7%ni tashkil etgan. Bu oʻz navbatida shu yillari mamlakatimiz investitsion faoliyatini davlat oʻz nazoratida ushlagani va bu yoʻnalishda oʻzi bosh islohatchi boʻlganidan darak beradi. Ammo bugungi kunga kelib, davlat kafilligi ostida jalb qilinadigan investitsiyalar bor yoʻgʻi 28,2%ni tashkil etadi, oʻz navbatida toʻgʻridan toʻgʻri jalb etilgan investitsiyalar

94 O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturlari ma’lumotlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig ma’ruzalariasosidatuzilgan

71,8%ni tashkil etishini kuzatishimiz mumkin. 2015-yilda ushbu ko‘rsatkich ayniqsa yuqori bo‘lib, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 73%ga yetgan.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar - deyilganda chet el davlatining fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va O‘zbekiston Respublikasining doimiy ravishda chet elda yashovchi fuqarolari bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushuniladi.

Yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq kiritilgan investitsiya hajmidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini, yagona soliq to‘lovini, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lashdan muayyan muddatga ozod qilinadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi “To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3594-sonli farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonga muvofiq, **2005-yilning 1 iyulidan** boshlab to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo‘yicha foyda solig‘i, mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lovi to‘lashdan, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan

ozod qilindi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo‘lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

-300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga;

-3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha - 5 yil muddatga;

-10 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lganda - 7 yil muddatga.

Imtiyozlarning qo‘llanilish tartibi

Yuqorida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

-mazkur korxonalarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatini istisno qilgan holda, respublikaning **barcha shaharlari va qishloq aholi punktlarida** joylashtirish;

-xorijiy investorlar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O‘zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

-yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) xorijiy ishtirokchilarning **ulushi kamida 33 foiz**, aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa **kamida 15 foiz bo‘lganda**;

- yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar kiritilganda;

-xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo‘yish;

-mazkur imtiyozlarni qo‘llanilish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadning kamida **50 foizini** korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo‘naltirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrdaqi “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PQ-2454**-sonli qaroriga muvofiq quyidagilar belgilandi:

-o‘z ustav kapitallariga belgilangan muddatlarda xorijiy investorlarning **15 foizdan** kam bo‘lmagan ulushi jalb qilinishini ta‘minlamagan aksiyadorlik jamiyatlari, soliq imtiyozlari va preferensiyalar berishdan kelib chiqadigan barcha oqibatlarni hisobga olgan holda, ular aksiyadorlik jamiyatlari reestridan chiqariladi va boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarga o‘zgartirilishi;

-2016-yilning 1 iyulidan boshlab yangi tashkil etiladigan aksiyadorlik jamiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutiladigan holatlardan tashqari, faqat xorijiy investorning ustav kapitalidagi ishtiroki ulushi 15 foizdan kam bo‘lmagan taqdirdagina tashkil qilinishi mumkinligi;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli farmoni bilan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga xorijiy investor tomonidan kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab yuridik shaxslarning foyda solig‘i, mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, yagona soliq to‘lovi, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lash bo‘yicha berilgan imtiyozlar tabaqalashtirilgan tarzda xorijiy investorning ulushi ustav kapitalining **15 foizdan 33 foizigacha** miqdorni tashkil etadigan aksiyadorlik jamiyatlariga tatbiq etilishi.

-2020-yilning 1 yanvarigacha xorijiy investorlarning aksiyadorlik jamiyatlarida ularga tegishli bo‘lgan aksiyalaridan dividend tarzida olayotgan daromadidan soliq to‘lashdan;

-xorijiy investitsiyasi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda da‘vo arizasi bilan sudga murojaat etganda davlat bojini to‘lashdan ozod qilinib, keyinchalik davlat boji sudning tegishli qarori bilan aybdor deb topilgan tomondan undirib olinishi belgilandi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha CK-376-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlarni olgan to‘g‘ridan

to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat tugaganidan keyin bir yil o'tmasdan faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o'z mamlakatiga o'tkazish va kapitalini chet elga olib chiqib ketish faqat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning summalari byudjetga undirilganidan keyin amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2012-yildagi PF-4434-sonli "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko'ra quyidagilar belgilandi:

-xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'ixatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar.

- qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan to'g'ri

xususiyl xoriijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son Farmoni bilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012-yilning II choragidan boshlab, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida faoliyat yuritayotgan hamda Toshkent shahri va Toshkent viloyati istisno etilgan holda, respublikaning barcha mintaqalarida joylashtiriladigan xoriijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalariga tatbiq etilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2012-yildagi Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni Kengaytirish borasida qo'shimcha Chora-tadbirlar to'g'risida PQ-1731-sonli qarori qabul qilindi. Yshbu qarorga muvofiq quyidagilar belgilandi:

-Respublikada eksportga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirish maqsadida eksport qiluvchi korxonalar uchun ilovaga muvofiq soliq imtiyozlari va afzalliklari tizimi yaratilgan.

Mahalliy tovar (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchi korxonalariga:

-xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlar, xoriijiy davlatlar hukumatlari, boshqa norezidentlar mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha xalqaro tenderlarda xoriijiy qatnashchilar bilan teng sharoitlarda, jumladan ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)larni yetkazib berishga chet el valyutasida shartnomalar tuzgan holda ishtirok etish;

-O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanish nazarda tutilgan o'zida ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)larni yetkazib berishga to'g'ridan to'g'ri bitimlar shartida norezidentlar bilan xoriijiy valyutada shartnomalar tuzish huquqi berilishi va ko'rsatilgan shartnomalar faqat xizmat ko'rsatayotgan vakolatli bankda hisobga qo'yilgan va eksport qiluvchi korxonalardek

solliq imtiyozlari berilgan holda eksport shartnomalariga tenglashtiriladi.

-2012-yil 1 apreldan boshlab yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash va texnologik yangilashga valyuta kreditlari bo'yicha asosiy qarzni qaytarishga joriy to'lovlar bo'yicha yo'naltiriladigan valyuta tushumi qismini vakolatli banklarga majburiy sotishdan asosiy qarz batamom to'lab bo'linadigan muddatga qadar ozod qilindi.

-Sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatatsiyadan o'tkazish, shuningdek, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish komplekslarini xarid qilishga yo'naltiriladigan mablag'larga yangi texnologik uskunalarni sotib olishda nazarda tutilgan yagona solliq to'lovi bo'yicha solliq solinadigan bazani kamaytirishning amaldagi tartibi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun tatbiq etildi.

-Tijorat banklariga eksport operatsiyalari bo'yicha faktoring xizmatlarini amalga oshirishning cheklangan muddatini 60 kundan 90 kunga uzaytirgan holda eksport operatsiyalari bo'yicha faktoring xizmatlarini amalga oshirish hajmini kengaytirish tavsiya etish belgilandi.

Qonunchilikka muvofiq eksport qiluvchi korxonalariga beriladigan solliq imtiyozlari va afzalliklari ro'yxati:

1. Aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga aksiz solig'i solinmaydi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bundan mustasno (O'zbekiston Respublikasining Solliq kodeksi, 230-modda).

2. Tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol

darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi (Soliq kodeksi, 212-modda).

3. Eksport qiluvchi korxonalar (xomashyo tovarlarini sotish bundan mustasno) uchun foyda solig'i va mulk solig'i stavkasi umumiy sotish hajmida o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valyutaga sotilgan tovar (ish, xizmat)lar eksportidagi ulushiga bog'liq holda kamaytiriladi:

-eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha miqdorda bo'lganida - 30 foizga;

-eksport ulushi 30 va undan ko'proq foiz bo'lganida - 2 marotaba.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 5-iyundagi «Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-2613-sonli farmoni).

4. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi quyidagicha kamaytiriladi:

-umumiy sotish hajmida eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganida 30 foizga;

-eksport ulushi 30 va undan ko'proq bo'lganida - 2 marotaba.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 5-iyundagi «Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-2613-sonli farmoni).

5. 2016-yil 1 yanvarga qadar respublikadagi o'z mahsuloti hajmining, jumladan yarim tayyor mahsulotlarining (kalava, gazlama, trikotaj gazlama va paxta yigirish chiqindilari) 80 foizi va undan ortig'ini erkin almashtiriladigan valyutaga sotadigan to'qimachilik sanoati korxonalari mulk solig'i to'lashdan ozod qilingan.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 28-martdagi «To'qimachilik sanoati korxonalarini jadal rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi

PQ-1512-sonli qarori).

6. Tovar (ish, xizmat)larning barcha turlariga eksport bojxona bojlari va spetsifik tovarlardan tashqari boshqa tovar (ish, xizmat)lar eksportini litsenziyalash bekor qilingan.

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi «Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportini rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-1871-sonli farmoni).

7. Tovarlarini eksport qilishda to‘lanadigan bojxona rasmiylashtiruvini yig‘imlarining amaldagi stavkasiga qaraganda o‘rtacha 2 marotabaga kamaytirilgan yangi stavkalari tasdiqlangan.

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 25-avgustdagi «Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1604-sonli qarori).

8. Mikrofirmalar va kichik korxonalar o‘zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilishdan tushadigan valyuta tushumining 50 foizini majburiy sotishdan ozod etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida»gi **PF-4354-sonli** farmonining 8-bandiga kiritilgan o‘zgartirish, mikrofirmalar va kichik korxonalar o‘zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilishdan tushadigan valyuta tushumining 50 foizini majburiy sotishdan ozod qilinishi bo‘yicha imtiyozni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha tovarlarni eksport qiladigan yuridik shaxs maqomiga ega kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari mikrofirma va kichik korxonalariga tatbiq etilishini nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 28-martdagi «To‘qimachilik sanoati korxonalarini jadal

rivojlantirishni ragʻbatlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi **PQ1512**sonli qarorining 1-bandi uchinchi xatboshidagi «ushbu yarim tayyor mahsulotlardan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning kamida 80 foizi eksportga yoʻnaltirilishi nazarda tutilsin» soʻzlari chiqarib tashlandi. Yaʼni, «Oʻzbekengilsanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi korxonalariga kontrakt tuzish paytida vujudga kelgan jahon narxlaridan past boʻlmagan narxlar boʻyicha erkin muomaladagi valyutaga (qoʻshilgan qiymat soligʻini nol stavka boʻyicha hisoblagan holda) ichki bozorda yarim tayyor toʻqimachilik mahsulotlarini (kalava, gazmol, trikotaj polotno va paxtani yigirish chiqindilarini) xarid qilishiga istisno tariqasida ruxsat berish tartibida ushbu yarim tayyor mahsulotlardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kamida **80 foizini eksportga** yoʻnaltirish sharti bekor qilindi.

16.2. Oddiy shirkat shartnomasi boʻyicha birgalikdagi faoliyatga soliq solishning oʻziga xos xususiyatlari

Oddiy shirkat shartnomasi boʻyicha sheriklarning (ishtirokchilarning) oddiy shirkat shartnomasi boʻyicha birgalikda foydalanadigan mol-mulki birgalikdagi faoliyatga qoʻshilgan hissa tarzida har bir sherikning (ishtirokchining) balansida hisobga olinishi lozim.

Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish bilan bogʻliq holda vujudga keladigan soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni hisoblab chiqarish hamda toʻlash boʻyicha majburiyatlar birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi shaxs (ishonchli shaxs) tomonidan ijro etiladi. Bunda, agar oddiy shirkat shartnomasi sheriklarining (ishtirokchilarining) biri yuridik shaxs boʻlsa, faqat yuridik shaxs ishonchli shaxs boʻlishi mumkin.

Yuridik shaxslar ishtirokidagi birgalikdagi faoliyat natijalariga

soliq solish, Soliq kodeksning 380 va 381-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Agar oddiy shirkat shartnomasining barcha sheriklari (ishtirokchilari) yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lsa, birgalikdagi faoliyatga soliq solish Soliq kodeksning 382-moddasi buyicha keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ishonchli shaxs vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs soliq solish obyektlari va birgalikdagi faoliyat bo'yicha soliq solish bilan bog'liq obyektlar hisobini alohida-alohida yuritadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilayotgan ishonchli shaxs oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishni boshlagan kundan e'tiboran o'n kun ichida ishonchli shaxsning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organida birgalikdagi faoliyat doirasida soliq majburiyatlarini bajaruvchi soliq to'lovchi sifatida hisobga turishi shart.

Ishonchli shaxsda birgalikdagi faoliyatga soliq solish tartibi

Ishonchli shaxs birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda birgalikda chiqariladigan mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hisobini alohida-alohida yuritadi.

Ishonchli shaxs birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish oborotlari bo'yicha Soliq kodeksda belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i (aksiz to'lanadigan tovar realizatsiya qilingan taqdirda) va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar to'laydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi bo'lmagan ishonchli shaxs birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida davlat soliq xizmati organida hisobga turishi shart.

Ishonchli shaxs hisobvara-q-fakturani rasmiylashtirgan holda birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni Soliq kodeksning

222-moddasida nazarda tutilgan tartibda realizatsiya qiladi.

Birgalikdagi faoliyat natijasida olingan daromad birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan tushadigan, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangan holdagi sof tushum bilan realizatsiya qilingan birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga to'g'ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq tarzida aniqlanadi.

Birgalikdagi faoliyat natijasida olingan daromad birgalikdagi faoliyat sheriklari (ishtirokchilari) o'rtasida har bir sherikning (ishtirokchining) hissasi ulushi asosida yoki oddiy shirkat shartnomasi shartlariga muvofiq taqsimlanadi hamda har bir sherikning (ishtirokchining) boshqa daromadlari tarkibiga kiritiladi.

Oddiy shirkat shartnomasining amal qilishi tugatilgan va mol-mulk ushbu shartnoma sheriklariga (ishtirokchilariga) qaytarilgan taqdirda, har bir sherikning (ishtirokchining) o'zi kiritgan hissasi miqdori doirasida olingan mablag'lari oddiy shirkat shartnomasi sherigining (ishtirokchisining) daromadlari tarkibiga kiritilmaydi.

Agar birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiya qilinmasdan oddiy shirkat shartnomasi sheriklari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlab olinsa, ishonchli shaxs tomonidan birgalikdagi faoliyat sheriklaridan (ishtirokchilaridan) Kodeksning 381-moddasiga muvofiq olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga Kodeksning 220-moddasida belgilangan tartibda tuzatish kiritilishi va bu summa ilgari uni ishonchli shaxsga topshirgan sherikka (ishtirokchiga) qaytarib berilishi lozim. Bunda ushbu qismga muvofiq tuzatish kiritilishi lozim bo'lgan soliq summasi topshiriladigan birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymatiga kiritilmaydi va birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotning tegishli hissasini oladigan sheriklar (ishtirokchilar) tomonidan hisobga olinadi. Tuzatish

kiritilgan soliq summasi mazkur mol-mulkni topshirish rasmiylashtiriladigan hujjatlarda ko'rsatiladi.

Ishonchli shaxs birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni sheriklariga (ishtirokchilariga) topshirayotganda aniqlanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatgan holda hisobvara-q-fakturani rasmiylashtiradi. Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni topshirish uchun rasmiylashtirilgan hisobvara-q-faktura byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobida sherikning (ishtirokchining) ushbu soliq summasini hisobga olishi uchun asos bo'ladi. Hisobvara-q-fakturadagi «tovar jo'natish hujjatlarining yoki shartnomalarning raqami va sanasi» satriga «birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotning taqsimoti» degan belgi qo'yiladi;

Oddiy shirkat shartnomasi sherigida (ishtirokchisida) birgalikdagi faoliyatga soliq solish tartibi

Mol-mulkni birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirish sheriklar (ishtirokchilar) o'rtasida kelishilgan qiymat bo'yicha yoki buxgalteriya hisobi hujjatlarida hisobga olinadigan balans qiymati bo'yicha amalga oshiriladi hamda unga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish sifatida qaralmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bilan olingan va birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirilayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilayotgan ishonchli shaxsda hisobga olish uchun qabul qilinadi. Bunda oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) birgalikdagi faoliyatga topshirilayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish uchun qabul qilmaydi. Agar kiritilayotgan mol-mulk bo'yicha ilgari qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish amalga oshirilgan bo'lsa, mol-mulk birgalikdagi faoliyatga topshirilgan davrda ilgari mazkur mol-mulk olinganda hisobga olish uchun qabul qilingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi kamayadi.

Oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi) o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirgan taqdirda, qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanmaydi. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish vaqtida ilgari hisobga olingan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga soliq Kodeksning 220-moddasida nazarda tutilgan tartibda tuzatish kiritilishi lozim. Bunda ushbu qismga muvofiq tuzatish kiritilishi lozim bo‘lgan soliq summasi topshirilayotgan mol-mulkning qiymatiga kiritilmaydi va birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishonchli shaxs tomonidan hisobga olinadi. Tuzatish kiritilgan soliq summasi mol-mulkni topshirish rasmiylashtiriladigan hujjatlarda ko‘rsatiladi.

Oddiy shirkat shartnomasining birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida mol-mulk topshirayotgan sherigi (ishtirokchisi) qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’iy nazar, ishonchli shaxs tomonidan hisobga olinishi uchun topshirilayotgan mol-mulk bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ko‘rsatgan holda hisobvaraqa-fakturani rasmiylashtiradi. Birgalikdagi faoliyatga topshirilgan mol-mulk bo‘yicha rasmiylashtirilgan hisobvaraqa-faktura birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot bo‘yicha byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisob-kitob qilishda soliqning ushbu summasini ishonchli shaxs tomonidan hisobga olish uchun qabul qilishga asos bo‘ladi. Hisobvaraqa-fakturada «jo‘natiladigan tovarlar hujjatlari yoki shartnomalar raqami va sanasi» degan katakchada «birgalikdagi faoliyatga hissa» degan belgi qo‘yiladi.

Birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromadlarga soliq solish oddiy shirkat shartnomasi sherigiga (ishtirokchisiga) soliq solishning amaldagi tartibiga muvofiq oddiy shirkat shartnomasining har bir sherigida (ishtirokchisida) boshqa daromadlar tarkibida amalga oshiriladi. Bunda, agar

qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar (yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar), shuningdek, yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lgan oddiy shirkat shartnomasi sheriklarining (ishtirokchilarning) birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlariga dividendlarga soliq solishda belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromadlariga, shu jumladan, Soliq kodeksning 382-moddasiga muvofiq birgalikdagi faoliyatni amalga oshirayotgan tadbirkorlarning birgalikdagi faoliyatdan olgan daromadlariga, agar yakka tartibdagi tadbirkorlar birgalikdagi faoliyat doirasida Soliq Kodeksning 375-moddasida nazarda tutilgan tartibda soliq to'langan faoliyat turini amalga oshirayotgan bo'lsa, soliq solinmaydi.

Faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar amalga oshiradigan birgalikdagi faoliyatga soliq solish

Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyat faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan taqdirda, birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishonchli shaxs mazkur mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushumdan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi, shuningdek, agar birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot aksiz to'lanadigan mahsulot bo'lsa, aksiz solig'i to'laydi.

Yagona soliq to'lovi birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiya qilinmasdan, birgalikdagi faoliyat sheriklari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlab olingan taqdirda ham to'lanadi. Bunda yagona soliq to'lovi summasi birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish doirasida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun yagona soliq to'lovi hisob-kitobining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq

qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Tovarlarning turlari tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyalari tomonidan beriladigan chakana savdoni amalga oshirish huquqi uchun berilgan ruxsatnomada, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari tomonidan berilgan tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo‘lmasdan tashkil etilgan yakka tadbirkorning ro‘yxatdan o‘tkazish (ruxsat berish) tartibotlari varaqasida ko‘rsatiladi.

16.3. Dehqon xo‘jaliklariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Dehqon xo‘jaligi - oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.⁹⁵

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaligi a‘zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo‘jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan, farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradi.

95 O‘zbekiston Respublikasi 1998-yil 30 aprelda qabul qilingan «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni 1-modda

Dehqon xo‘jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda fuqaroga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan va dehqon xo‘jaligi davlat ro‘yxatiga olinganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi.

Dehqon xo‘jaligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda va dov-daraxtlar bilan qoplanmagan o‘rmon fondi yerlarida, shuningdek, zaxira yerlarda tashkil etiladi.

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkasini olishga muhtoj bo‘lgan fuqarolar yashash joyidagi tuman (shahar) hokimiga oilasining tarkibini va yer uchastkasining mo‘ljallangan joyini ko‘rsatgan holda ariza beradi.

Tuman (shahar) hokimi yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiquvchi komissiyaning xulosasi asosida dehqon xo‘jaligini yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkalari berish to‘g‘risida qaror qabul qiladi yoki arizachiga yer uchastkasi berish bo‘yicha asoslantirilgan rad javobini yuboradi.

Tuman (shahar) hokimining yer uchastkasi berishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga yoki bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga shikoyat qilinishi mumkin.

Oilali va qishloq joylarda kamida uch yil mobaynida yashab turgan fuqarolarga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi sug‘oriladigan yerlarda 0,35 gekgargacha va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gekgargacha o‘lchamda, cho‘l va sahro mintaqasida esa sug‘orilmaydigan yaylovlardan 1 gektargacha o‘lchamda beriladi. Qishloq joylarda kamida uch yil yashab turganlik to‘g‘risidagi talab yangi sug‘oriladigan yer massivlari uchun qo‘llanilmaydi. Bunda dehqon xo‘jaligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkasining o‘lchami yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ilgari berilgan yoki beriladigan yer uchastkasini hisobga olgan

holda aniqlanadi.

Dehqon xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkalari imoratlar va inshootlar qurish huquqsiz beriladi. Mazkur qoida yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ilgari berilgan yoki beriladigan yer uchastkalariga tatbiq etilmaydi.

Fuqarolarga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun 0,06 gektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kimoshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligiga ajratilgan yerning chegaralari naturada (joyning o‘zida) yer tuzish xizmati organlari tomonidan mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan rasmiylashtiriladi.

Tomorqa yer uchastkasidan oqilona va samarali foydalanayotgan dehqon xo‘jaligiga tuman (shahar) hokimining qarori bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va realizatsiya qilish, ozuqa yetishtirishni tashkil etish, shuningdek, yaylov yaratish uchun qisqa muddatli ijaraga qo‘shimcha ravishda yer uchastkalari berilishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligi:

-o‘ziga qarashli uy-joylar, xo‘jalik imoratlari, qishloq xo‘jalik ekinzorlari va ko‘chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollar, parrandalar, qishloq xo‘jalik texnikasi, asbob-uskuna va ashyo-anjomlari, transport vositalari, pul mablag‘lari, intellektual mulk obyektlariga, shuningdek, boshqa mol-mulklarga;

-ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotga;

-olingan foydaga;

-qonunda taqiqlanmagan asoslarda ega bo‘lingan boshqa mol-mulka mulkdordir.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari Soliq kodeksda jismoniy shaxslar – soliq to‘lovchilar uchun nazarda tutilgan tartibda soliqlar hamda

boshqa majburiy to'lovlar to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda dehqon xo'jaliklari quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi:

- 1) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- 2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 3) jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
- 4) bojxona to'lovlari;
- 5) davlat boji;
- 6) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari nazarda tutilgan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda nazarda tutilgan tartibda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullangan taqdirda, ular yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tishlari hamda Kodeksning 58-bobida nazarda tutilgan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29-dekabrda "2016-2020-yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-sonli qaroriga asosan, **2021 yilning 1 yanvariga qadarnasldor chorvachilik subyektlari** asosiy faoliyat turi bo'yicha barcha soliqlar va maqsadli davlat jamg'armalariga majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod etildi.

16.4. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Bozorlar qonun hujjatlaridabelgilangan tartibda yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi.

Bozorlarning daromadlariga quyidagilar kiradi:

- patta to'lovi tushumlari;
- boshqa tushumlar.

Patta to'lovini bozorlarda tovarlar, buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishni amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar to'laydi.

Patta to'lovi har bir sotish joyidan savdo qilingan har bir kun uchun yoki har bir tovar, buyum, chorva mol uchun undiriladigan qat'iy belgilangan to'lovdur.

Jismoniy shaxs bilan tuzilgan ijara shartnomasiga binoan savdo joyi uchun ijara haqi to'lanadigan hollarda, patta to'lovi summasi ijara haqi tarkibiga kiritiladi.

Patta to'lovi har bir to'lovchidan naqd pul olib, unga bir vaqtning o'zida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining chekini yoki kvitansiya berish orqali undiriladi.

Patta to'lovi miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Bozorlarning boshqa tushumlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ijara to'lovidan olingan daromadlar. Ijara to'lovi bozor ma'muriyatining tasarrufida bo'lgan binolar, inshootlar hamda boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi;

2) sotuvchilarga va sotib oluvchilarga xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar;

3) bozor ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan qishloq xo'jaligi tovarlarini tayyorlash, xarid qilish va realizatsiya qilishdan olingan daromadlar (dehqon bozorlari uchun). Bunda realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish

qiymati o'rtasidagi farq daromaddir;

4) qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa tushumlar.

Ijara to'lovining va bozor ma'muriyati ko'rsatadigan xizmatlar qiymatining miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijaraga berishdan olingan daromadlar 60%dan ko'pni tashkil etadi) 30 foizlik stavkada yagona soliq to'lovini to'laydilar.

Sotuvchilar va sotib oluvchilarga xizmatlar ko'rsatilganligi, yer maydonlari, binolar, inshootlar hamda boshqa mol-mulk yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga berilganligi hamda bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan boshqa xizmatlar uchun haq shartnoma asosida undiriladi. Bunda yer uchastkalari uchun ijara haqining summasi yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkasidan kam bo'lmashligi va ushbu joy uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorining uch baravaridan ko'p bo'lmashligi kerak.

Bozorlarga soliq solish tartibi

Bozorlarning patta to'lovi va boshqa tushumlardan olingan daromadlaridan Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar undirilmaydi.

Bozorlar zimmasida to'lov manbayida soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha majburiyatlar hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagilarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- bojxona to'lovlari;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- davlat boji;

- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar;
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Bozorlar daromadlarining umumiy summasidan, bozorlar daromadidan to'lanadigan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangandan keyin qolgan mablag'larning 50 foizi bozorlar joylashgan joydagi tegishli mahalliy byudjetlarga belgilangan tartibda yo'naltiriladi. Qolgan 50 foizi bozorlar ma'muriyati tasarrufida qoladi va ulardan joriy xarajatlarni qoplash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxatini kengaytirish, sifatini yaxshilash uchun foydalaniladi.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlari bozorlar tomonidan amalga oshirilganda, bunday faoliyatdan olingan daromadlarga qat'iy belgilangan soliq solinadi.

Olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bozorlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlagan shaklda taqdim etadi.

Mablag'larni byudjetga o'tkazish olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan bir oyda bir marta amalga oshiriladi.

Yuqoridagi qoidalar ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 51 foizdan kam bo'lmagan yuridik shaxslar - savdo komplekslariga tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi "Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1326-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar belgilandi:

- dehqon (oziq-ovqat) bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlari (savdo komplekslari) pasportlarini tuzishni nihoyasiga yetkazib, ushbu pasportlarga ularning ixtisoslashuvi va ish tartibi, turg'un savdo nuqtalari va savdo o'rinlari miqdori va joylashuvi, ularning hududida mavjud bo'lgan infrastruktura obyektlari va ko'rsatilayotgan xizmat turlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish;

-100 ta va undan ko'proq turg'un savdo nuqtalari va savdo o'rinlari mavjud bo'lgan barcha bozorlar, savdo komplekslari va ularning filiallarida davlat soliq xizmati organlarining xodimlari tomonidan yig'imning to'liqligini har kuni tekshirgan holda faqat bank tizimi orqali bir martalik yig'im va ijara to'lovlari undirilishining avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olinishini majburiy tartibda joriy qilish;

-bozorlar hududida va ularga tutash hududlarda joylashgan barcha avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarining belgilangan tartibda bozorlar va savdo komplekslariga topshirilishini ta'minlasinlar, ularning nazorat-kassa mashinalari va to'lov terminallari bilan jihozlanishini, shuningdek, 300 ta va undan ko'proq turg'un savdo nuqtalari va savdo o'rinlariga ega bo'lgan bozorlar va savdo komplekslarida mashinalarning kirish va chiqish vaqtini qayd etib turadigan elektron hisoblagichlar majburiy o'rnatilishi belgilandi;

Savdo komplekslari, dehqon, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlarida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini majburiy ravishda qo'llangan holda aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi qo'shimcha obyektlar ro'yxati:

1. Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini realizatsiya qilish bo'yicha umumfoydalanadigan ixtisoslashtirilgan turg'un pavilonlar.

2. Avtotransport vositalarini vaqtincha caqlash, shu jumladan, bozorga tutash hududlarda vaqtincha caqlash joylari.

3. Aholidan to'lovlarni, shu jumladan, uy-joy-kommunal

xizmatlar, telefon va uyali aloqa xizmatlari uchun to'lovlarni qabul qilish punktlari.

4. Bozorlarning ma'muriyati tomonidan bir martalik yig'im va ijara to'lovlarini qabul qilish punktlari.

Tovarning olib kirilishi va bojxona to'lovlari to'lanishi faktini tasdiqlaydigan bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan keyin 12 oy o'tgach savdoga qo'yilgan va chakana savdoda realizatsiya qilinishiga yo'l qo'yilmaydigan tayyor import iste'mol tovarlari ro'yxati:

1. Tikuvchilik buyumlari
2. Ustki trikotaj
3. Ichki trikotaj
4. Sport trikotaji
5. Paypoqlar
6. Ko'rpa-to'shak g'iloflari (alohida-alohida va komplekt holda)
7. Tyul-gardin polotnosi vabuyumlari
8. Paxmoq sochiqlar, choyshablar, xalatlar
9. Charm poyabzal
10. Televizorlar
11. Muzlatgichlar
12. Konditsionerlar
13. Elektr dazmollar

Yuqoridagi tovarlarning olib kirilishi va bojxona to'lovlari to'lanishi faktini tasdiqlaydigan bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan keyin 12 oy o'tgach tayyor import iste'mol tovarlarining realizatsiya qilinishi savdo qoidalarini buzish (tovarlarni hujjatlarsiz realizatsiya qilish) deb hisoblanadi va qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Respublika bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish va boshqarishni yanada takomillashtirish, aholiga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish va savdo qilish sharoitlarini yaxshilash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi “Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **253-sonli qarori** qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra quyidagi me‘yoriy hujjatlar tasdiqlandi:

-«O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish Qoidalari»;

-«O‘zbekiston Respublikasi savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish Qoidalari» **2-ilovaga muvofiq.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq 2017-yil 1 yanvardan boshlab, bozorlar balansidagi avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun qat’iy belgilangan soliq stavkasi joriy etildi.

16.5. Konsert-tamosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 11-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-381-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining 14 ta Qonuni, 7 ta Kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 1 ta bobi va 5 ta moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Litsenziyalashni va ruxsat etish xarakteriga ega hujjatlarni berish mexanizmlarini yanada soddalashtirish va arzonlashtirish, shuningdek, tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 15-aprelda «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2164-sonli qarori qabul qilingan va

unda qator tadbirlar belgilangan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida gastrol-konsert faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya hamda to‘y, yubiley va boshqa tantanalarda konsert xizmati ko‘rsatish uchun litsenziya konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga birlashtirildi. Shu munosabat bilan Soliq kodeksining **63 bobi** va **180, 388, 389, 390-moddalariga** o‘zgartirishlar kiritilib, «gastrol-konsert» so‘zlari tegishli «konsert-tomosha» so‘zlari bilan almashtirildi.»

Yuridik va jismoniy shaxslar konsert-tomosha faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun litsenziya oladigan yuridik va jismoniy shaxslar belgilangan stavka bo‘yicha davlat boji to‘laydi.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga soliq solish tartibi

Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi uchun davlat boji to‘lovchi yuridik shaxslar mazkur faoliyat turi bo‘yicha Soliq kodeksning 23-moddasida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan ozod etiladi.

Konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar zimmasida quyidagilarni to‘lash majburiyati saqlanib qoladi:

- bojxona to‘lovlari;
- yagona ijtimoiy to‘lov;
- davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar;
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im;
- to‘lov manbayida ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar.

Yuridik shaxslar konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlmagan faoliyat turlari bilan shugʻullanganlarida soliq toʻlovchi faoliyatning mazkur turlari boʻyicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni toʻlashi shart. Boshqa faoliyat turlari boʻyicha Soliq kodeksi 350-moddasiga muvofiq soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlanib qoladigan mikrofirmalar va kichik korxonalar korxonalarining tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar boʻyicha yagona soliq toʻlovini yoki umumbelgilangan soliqlarni toʻlashi mumkin.

Yuridik shaxslar konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlmagan faoliyat turlari bilan shugʻullangan taqdirda, davlat boji va boshqa toʻlovlarni belgilangan tartibda toʻlanadi.

Umumbelgilangan tartibda soliq toʻlash rejimini tanlagan, konsert-tomosha faoliyati bilan shugʻullanishga litsenziyasi boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yoʻli bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq 2017-yil 1 yanvardan 35 foizlik stavkada yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻini toʻlaydilar.

Soddalashtirilgan tartibda soliq toʻlash rejimini tanlagan, konsert-tomosha faoliyati bilan shugʻullanish uchun litsenziyaga ega boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yoʻli bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq 2017-yil 1 yanvardan 30 foizlik stavkada yagona soliq toʻlovini toʻlaydilar.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi

Konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxslar zimmasida quyidagilarni to'lash majburiyati saqlanib qoladi:

-bojxona to'lovlari;

-avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar soliq solinadigan mol-mulk va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar nazarda tutilgan majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun nazarda tutilgan tartibda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'laydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 9-dekabrda "Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **354-sonli** qaroriga asosan, quyidagilar tasdiqlangan:

– Konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida Nizom 1-ilovaga muvofiq,

– Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun davlat boji stavkalari 2-ilovaga muvofiq,

– Konsert-tomosha tadbiriga bir martalik ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida Nizom 3 ilovaga muvofiq,

Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va

sport ishlari vazirligi:

✓ konsert-tomosha va madaniy-ommaviy tadbirlarni chuqur va noformal g‘oyaviy mazmun bilan to‘ldirish, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatish chora-tadbirlarini ko‘rish;

✓ konsert-tomosha hamda madaniy-ommaviy tadbirlarning o‘tkazilishini muvofiqlashtirsin, ular yuzasidan samarali monitoringni amalga oshirishi;

✓ tadbirlarning dastur va ssenariylarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tartibot reglamentlariga, tadbir tashkilotchilarining qonunchilikka muvofiq talablarga so‘zsiz rioya etishini ta‘minlash vazifalari yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, “O‘zbeknavo” estrada birlashmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanishning belgilangan tartibiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishi yuzasidan qat’iy va muntazam nazoratni amalga oshirsinlar, aybdor shaxslarning qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortilishini ta‘minlash belgilandi.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya olgan jismoniy shaxslar o‘zlariga berilgan reyting guruhiga bog‘liq ravishda tabaqalashtirilgan miqdorda davlat boji to‘laydilar.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya olgan yuridik shaxslar har bir ijrochiga berilgan reyting guruhiga bog‘liq ravishda tabaqalashtirilgan miqdorlarda davlat boji to‘laydilar.

Davlat boji miqdori har bir litsenziya talabgori uchun unga berilgan reyting guruhiga bog‘liq ravishda belgilanadi.

Davlat boji litsenziya talabgorlari tomonidan litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga to‘lanadi va quyidagi tartibda taqsimlanadi:

-30 foizi - respublika byudjetiga;
 -70 foizi - Estrada san'atini rivojlantirish jamg'armasining hisob raqamiga.

16.1-jadval

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun davlat boji STAVKALARI

T/r	Konsert-tomosha faoliyati, shu jumladan:	Jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat boji stavkalari*(bir jismoniy shaxs hisobiga yillik boj miqdori, eng kam oylik ish haqi baravari miqdorida)					
		reyting guruhlar bo'yicha					
		I	II	III	IV**	V	VI
I	yakkaxon ijrochi konserti (bir yakkaxon ijrochining konsert dasturi); bitta janrning ikki yoki undan ko'p ijrochisi ishtirokidagi konsert dasturi; turli janrlarning bir nechta ijrochilari ishtirokidagi konsert dasturi (solist, sozanda, raqqosa, boshlovchi, qiziqchi va boshqalar); ommaviy axborot vositalarida qo'shiqlar va videokliplarni taqdim etish.	195	98	65	40		
	restoranlar, barlar, qahvaxonalar va xususiy uylarda yubiley tantanalariga xizmat ko'rsatish; restoranlar, barlar, qahvaxonalar va xususiy uylarda to'ylar (nikohni qayd etish, osh berish, kechqurungi nikoh to'yi, «kelin salom»), «sunnat to'yi» tadbirlariga xizmat ko'rsatish; hordiq chiqarish muassasalari, klublar, diskotekalar, restoranlar, barlar va qahvaxonalarda xizmat ko'rsatish (solist, sozanda, raqqosa, boshlovchi, qiziqchi, didjey-ovoz operatori, ma'mur va boshqalar).					26	13

Izohlar:

**) Davlat boji (shu jumladan, choraklar bo'yicha bo'lib bo'lib to'langanda - davlat bojining tegishli qismi) miqdorlari*

to'lov kunidagi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

****) IV reyting guruhiga kiritilgan va ta'lim muassasalarida o'qiyotgan hamda birinchi marta litsenziya olayotgan ijrochilar ushbu ta'lim muassasasida ta'lim olish davrida (tegishli tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lganda), biroq litsenziya berilgan sanadan boshlab ko'pi bilan bir yil mobaynida davlat boji to'lamaydi.*

Davlat boji stavkalari o'zgarganda to'lanishi lozim bo'lgan davlat boji litsenziyaning stavkalar o'zgargandan keyingi amal qilish davri uchun qayta hisoblab chiqiladi.

Davlat boji litsenziya berilgan muddat mobaynida ham biryo'la va ham choraklar bo'yicha to'lanishi mumkin.

Litsenziat ilgari davlat boji to'langan davr tamom bo'lgan paytdan boshlab uch oy mobaynida navbatdagi davr uchun davlat boji to'lamagan taqdirda litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini to'xtatish choralarini ko'radi, ayni paytda litsenziya amal qilishining barcha davri uchun to'lanmagan davlat bojini belgilangan tartibda undirib oladi.

Litsenziya berilgan sanadan bir yil o'tmasdan litsenziyaning amal qilishi to'xtatilganda yoki litsenziya bekor qilinganda davlat boji bir yillik miqdorda undiriladi.

Davlat bojini choraklar bo'yicha to'lashda litsenziyaning amal qilishi to'xtatilganda yoki litsenziya bekor qilinganda to'langan davlat boji qaytarilmaydi.

Davlat boji biryo'la to'langanda ortiqcha to'langan davlat boji summasini qaytarish litsenziatning yozma arizasi asosida to'lovni qaytarish to'g'risidagi ariza berilgan sanadan boshlab o'ttiz ish kuni mobaynida amalga oshiriladi. Litsenziya berilgan sanadan bir yil o'tmasdan litsenziyaning amal qilishi to'xtatilganda yoki litsenziya bekor qilinganda davlat bojining ortiqcha to'langan summasini qaytarish uning bir yillik miqdoridan oshgan qismi bo'yicha amalga oshiriladi.

16.6. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolariga soliq solish

Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida faoliyatning advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatish bilan bog'liq qismi bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan ozod etiladilar, quyidagilar bundan mustasno:

bojxona to'lovlari;

yagona ijtimoiy to'lov;

avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im;

to'lov manbayida ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.

Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari (advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar Soliq Kodeksda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda to'lanadi.

Advokatlarning daromadlariga soliq solish tartibi

Advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatganlik uchun olingan gonorarlar summalariga belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Advokatning daromatlari - **jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i** obyektidir.

Advokatning daromadi advokat tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatganlik uchun olingan summa bilan advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolarini saqlab

turish uchun o'tkazilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq solinadigan baza advokat daromadidan advokat gonorarida hisobga olinadigan yagona ijtimoiy to'lov chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

Advokatlarning daromadlariga soliq solish Soliq kodeksining 184–188-moddalarigamuvofiq soliq agentlari – advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari tomonidan amalga oshiriladi.

Mavzuga oid test savolari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli farmoniga asosan 2005-yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalariga qanday soliq turlarini to'lashdan ozod qilinishi belgilangan?

A. foyda solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etilgan*

B. foyda solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan ozod etilgan

C. aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etilgan

D. foyda solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini to'lashdan ozod etilgan

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli farmoniga asosan xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari

korxonalarini joylashtirish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar qaysi xududlarga nisbatan qo'llaniladi?

A. Toshkent shahri va Toshkent viloyatini istisno qilgan holda, respublikaning barcha shaharlari va qishloq aholi punktlariga*

B. respublikaning barcha shaharlari va qishloq aholi punktlariga

C. Toshkent viloyatini istisno qilgan holda, respublikaning barcha shaharlari va qishloq aholi punktlariga

D. faqat qishloq aholi punktlariga

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son Farmoni bilan To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxati qancha belgilangan?

A. 20 ta *

B. 18 ta

C. 25 ta

D. 30 ta

4. O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?

A. 1998-yil 29 aprel

B. 1997-yil 30 aprel

C. 1997-yil 29 avgust

D. 1998-yil 30 aprel *

5. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari qanday soliqlarni to'lamaydilar?

A. foyda solig'i, QQS va aksiz solig'i*

B. yer solig'i va mol-mulk solig'i

C. mol-mulk solig'i va davlat boji

D. suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va bojxona

to'lovlari

6. Bozorlarning daromadlariga qanday daromadlar kiradi?

- A. patta to'lovi tushumlari va boshqa tushumlar*
- B. avtostoyanka tushumi va patta to'lovi tushumlari
- C. patta to'lovi tushumlari
- D. ijara xaqi tushumlari

7. Bozorlarning daromadlari qanday tartibda taqsimlanadi?

- A. 100 foiz o'z ixtiyorida qoladi
- B. 50 foizi mahalliy byudjetga va qolgan 50 foizi o'z ixtiyoriga qoladi *
- C. 100 foiz mahalliy byudjetga o'tkaziladi
- D. 60 foizi mahalliy byudjetga va qolgan 40 foizi o'z ixtiyoriga qoladi *

8. Olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bozorlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga qachon taqdim etadi?

- A. har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay*
- B. har oyning 15-kunidan kechiktirmay
- S. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay
- D. har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

9. Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi yuridik shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha qanday imtiyozga ega?

- A. Soliq kodeksning 23-moddasida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod etiladi*
- B. Konsert faoliyatidan olingan daromadi o'z ixtiyorida qoladi
- C. Uch yilgacha chet elga gastrol faoliyatini amalga oshirish

huquqiga ega bo‘ladi

D. Daromadini 50 foizga kamaytirish huquqiga ega bo‘ladi

10. Advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko‘rsatganlik uchun olingan gonorarlar summalariga qanday tartibda soliq solinadi?

A. belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i*

B. belgilangan tartibda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i

C. soliq solishning soddalashtirilgan tartibida soliq solinadi

D. umumbelgilangan tartibda soliq solinadi

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to‘lovchilarni soliqqa tortish tartibi?

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-sonli farmoniga asosan berilgan imtiyozlar?

3. Oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari.

4. Ishonchli shaxsda birgalikdagi faoliyatga soliq solish tartibi?

5. Faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar amalga oshiradigan birgalikdagi faoliyatga soliq solish tartibi?.

6. Dehqon xo‘jaliklariga soliq solish tartibi?

7. Bozorlarga soliq solish tartibi?

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi PQ-1326-sonli qarori mazmun mohiyati?

9. Gastrol-konsert faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi?

10. Advokatlar hay‘atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solish tartibi?

17-BOB. YURIDIK SHAXSLAR TO‘LAYDIGAN BOSHQA MAHALLIY SOLIQ VA YIG‘IMLAR. DAVLAT BOJI

Tayanch so‘z va iboralar: *transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, mahalliy yig‘imlar, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im, Davlat boji, davlat bojii to‘lovchilari va undirish obyektlari, bojxona to‘lovlari, bojxona yig‘imlari.*

17.1. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan **soliqni to‘lovchilar** oxirgi iste‘molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishni, shu jumladan, avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslardir.

-avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari deganda avtomobillarga kompressor vositasida gaz to‘ldirish, avtomobillarga yoqilg‘i quyish va avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi;

-oxirgi iste‘molchilar deganda o‘z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste‘molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish **soliq solish obyektidir.**

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning natura holidagi

realizatsiya qilingan va o‘z ehtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi **soliq solinadigan bazadir. Yil choragi soliq davridir.**

Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga olinadigan soliq stavkalari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27 dekabrighi PQ-2699 sonli qaroriga muvofiq quyidagi belgilandi:

17.1-jadval

Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga olinadigan soliq stavkalari⁹⁶

Yoqilg‘i turi	2016-yil	2017-yil
benzin yoqilg‘isi	1 litr uchun 335 so‘m 1 tonnaga 445 000 so‘m;	1 litr uchun 465 so‘m 1 tonnaga 617 700 so‘m;
dizel yoqilg‘isi	1 litr uchun 335 so‘m 1 tonnaga 407 025 so‘m;	1 litr uchun 465 so‘m 1 tonnaga 560 000 so‘m;
suyultirilgan gaz	1 litr uchun 230 so‘m;	1 litr uchun 230 so‘m; 1 tonnaga 436 300 so‘m;
siqilgan gaz	1 kub metr uchun 275 so‘m.	1 kub metr uchun 275 so‘m.

Bunda, avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali benzin va dizel yoqilg‘isi realizatsiya qilishda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq 1 litr hisobida, boshqa hollarda esa 1 tonna hisobida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi chakana narxga qo‘shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs - xaridorga beriladigan chekda alohida satr bilan ko‘rsatiladi.

Soliq summasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yonilg‘isi va gaz uchun mablag‘ to‘lanishi bilan bir vaqtda undiriladi.

⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27 dekabrighi PQ-2699 sonli qarori 22-ilovasi

Soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N = V \times St,$$

bu yerda:

N - hisoblab yozilgan soliq;

V - jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yoqilg'isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;

St – soliq stavkasi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish obyekti yoki bazasi bo'lmaydi.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliq to'lash tartibi

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi transport vositalari uchun realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning narxida hisobga olinadi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan o'z ehtiyojlari uchun foydalanilganda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisoblangan summasi soliq to'lovchining xarajatlariga kiritiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisob-kitobi joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holda **har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Hisob-kitob benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs joylashgan yerdagi

davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi, bundan avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilish hollari mustasno. Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilinganda hisob-kitob avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to‘lash transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilingan oyning o‘n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, hisob-kitob taqdim etiladigan yerda **har o‘n kunda** amalga oshiriladi.

**Uyali aloqa xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar
(uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent
raqamidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan to‘lovni
taqsimlash ME’YORLARI**

<i>To‘lovdan tushgan mablag‘larni oluv- chining nomi</i>	<i>To‘lov summasidan foizlarda</i>		
	2015	2016	2017
Davlat byudjeti	70	80	85
Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi (investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda axborotlashtirish va telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish uchun maqsadli yo‘naltirgan holda)	30	20	15

Mobil aloqa xizmati ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan to‘lov 2016-yil amalda bo‘lgan har oyga 1500 **so‘m o‘rniga 2000 so‘m** miqdorda belgilangan bo‘lib,

mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarorining 27-ilovasiga muvofiq taqsimlanadi.

17.2. Yuridik shaxslar to'laydigan mahalliy yig'imlar. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im

Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga kiradi va u mahalliy byudjet daromadlaridan biri hisoblanadi.

Yig'im joriy qilingan tovarlar savdosini va xizmatlar ko'rsatishni belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun **yig'im to'lovchilardir.**

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun **yig'im obyektidir.**

Yig'imni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im yig'im stavkalarining qonun hujjatlarida belgilangan oylik miqdori doirasida hisoblab chiqariladi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'imning aniq stavkasi mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan belgilanadi va qonun hujjatlarida belgilangan eng yuqori stavkalardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

**Mahalliy soliqlar va yig'implarning eng yuqori
STAVKALARI⁹⁷**

№	Soliqlar va yig'implarning turlari	Eng yuqori stavkalar
1	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	sof foydaning 8%i
2	Quyidagilarning iste'moli uchun undiriladigan soliq*:	
	transport vositalari uchun benzin	1 litr uchun 465 so'm 1 tonnaga 617 700 so'm;**
	transport vositalari uchun dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 465 so'm 1 tonnaga 560 000 so'm;**
	transport vositalari uchun suyultirilgan gaz	1 litr uchun 230 so'm; 1 tonnaga 436 300 so'm;**
	transport vositalari uchun siqilgan gaz	1 kub metr uchun 275 so'm.
3	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im***:	
3	alkogolli mahsulotlar, shu jumladan, umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogolli mahsulotlarning realizatsiya qilinishi	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari*****
	qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari*****
4	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im****	har bir oy uchun eng kam ish haqining 8 baravari*****

97 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699 sonli qarori

** Ko'rsatib o'tilgan stavkalar miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliq stavkalarining qayta ishlashga berilgan benzin va dizel yoqilg'isi bo'yicha miqdorlari transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliqni hisobga olgan holda benzin va dizel yoqilg'isiga chakana narxlar doirasida shakllantiriladi. Vositachilik shartnomalari bo'yicha import qilinadigan qayta ishlashga berilgan xomashyo asosida ishlab chiqariladigan benzin va dizel yoqilg'isi hajmi bo'yicha to'lovchilar, transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi*

*** Avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin va dizel yoqilg'isi sotishda transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun undiriladigan soliq 1 litr hisobidan kelib chiqib hisoblanadi, boshqa hollarda 1 tonna hisobidan kelib chiqib hisoblanadi.*

**** Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish, shu jumladan, umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogolli mahsulotlar sotish huquqi uchun yig'im yagona hisobvaraqqa kelib tushadi, keyinchalik mablag'lar byudjet va tadbirkorlik subyektlariga «yagona oyna» prinsipiga binoan davlat xizmatlari ko'rsatuvchi yagona markaz o'rtasida, Toshkent shahrida esa byudjet hamda Savdo, xizmat ko'rsatish sohasi va xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish departamenti o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda taqsimlanadi. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im to'liq byudjet hisobiga o'tkaziladi.*

***** Toshkent shahrida yig'im miqdori eng kam ish haqining 5 baravari, viloyat markazlarida - eng kam ish haqining 3*

baravari, boshqa aholi punktlarida - eng kam ish haqining 2 baravari miqdoridan kam bo'lmashligi kerak.

****** Yig'im stavkasi yil boshiga - 2017-yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi (149 775 so'm) miqdoridan kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaydi.*

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan to'lanadi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im bo'yicha hisob-kitob faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga:

-yil davomida tegishli ruxsat guvohnomasini (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarorini) olgan soliq to'lovchilar tomonidan – ruxsat guvohnomasi (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarori) berilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmasdan;

-faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan – har yili hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Eng kam ish haqi miqdori o'zgarganda yig'im miqdori yil boshiga belgilangan eng kam ish haqidan kelib chiqib aniqlanadi va eng kam ish haqi miqdori yil davomida o'zgarganda qayta ko'rib chiqilmaydi.

Mahalliy yig'imni o'z vaqtida to'lanishi, qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik yig'imni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Davlat soliq xizmati organlari esa o'zlariga berilgan vakolot doirasida qonun hujjatlariga muvofiq yig'imni to'lovchilarning byudjet oldidagi majburiyatlarini bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Mintaqalarning o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash darajasini

oshirish, davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish, mahalliy byudjetlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida, 2017-yil 1-yanvardan PQ-2699-sonli qaroriga asosan quyidagi umumdavlat soliqlari va boshqa daromadlar mahalliy byudjetlar daromadlariga o'tkaziladi:

- ✓ suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- ✓ yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;

- ✓ yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq;

- ✓ O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'iga aksiz solig'i;

- ✓ chakana savdo tarmoqlarida sotiladigan oltindan yasalgan zargarlik buyumlariga aksiz solig'i;

- ✓ davlat bojlari, yig'imlar va jarimalar to'liq hajmda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti hamda viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari daromadlariga o'tkaziladi.

- ✓ mobil aloqa xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga yo'naltiriladigan qismi, abonentning ro'yxatga olingan joyiga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va viloyatlarning mahalliy byudjetlariga o'tkaziladi.

17.3. Davlat boji to'lovchilari, undirish obyektlari, stavkalari, to'lash va hisobga o'tkazish tartibi

Davlat boji - yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lovdur.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig'imi tariqasida undiriladi.

Davlat bojining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat boji to'lovchilar. Yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilishi va (yoki) hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to'lovchilardir.

Undirish obyektlari. Davlat boji quyidagilardan undiriladi:

1) sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, organlarning va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi shikoyatlar va arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek, sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun;

2) da'vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablarni bildirgan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish to'g'risidagi arizalardan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik

sudining qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, shuningdek, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ajrimlari ustidan berilgan apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan;

3) notariuslar va O'zbekiston Respublikasining konsullari tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun;

4) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek, fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to'g'risida takroriy guvohnoma berganlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o'zgartishlar, qo'shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma berganlik uchun;

5) chet eldan O'zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risida hujjatlarni berganlik uchun; yashash guvohnomasini berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun; respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga viza berganlik uchun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida beriladigan arizalardan;

6) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar berganlik uchun;

7) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet davlatlar

fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro‘yxatdan chiqarganlik uchun;

8) yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun;

9) faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun;

10) ov qilish huquqiga ega ekanligi to‘g‘risida ruxsatnoma berganlik uchun.

Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to‘lashdan ozod qilish

Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) da‘vogarlar – ish haqini undirib olish to‘g‘risidagi da‘volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan;

2) da‘vogarlar – mualliflik huquqlari va turdosh huquqlardan, shuningdek, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomiga, seleksiya yutug‘iga bo‘lgan huquqdan kelib chiqadigan da‘volar yuzasidan;

3) da‘vogarlar – alimentlar undirish to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan;

4) da‘vogarlar – mehnatda mayib bo‘lganligi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek, boquvchisi vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan;

5) da‘vogarlar – noqonuniy hukm etish, jinoiy javobgarlikka tortish, ma‘muriy jazo berish tufayli jismoniy shaxsga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash bilan bog‘liq nizolar yuzasidan;

6) da‘vogarlar – jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan;

7) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining undirib olinishi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi nizolashilayotgan jinoyat ishlari bo‘yicha apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

8) nikohni bekor qilish to‘g‘risidagi mol-mulkni bo‘lish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlar bo‘yicha apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

9) yuridik va jismoniy shaxslar – jinoyat ishlari va alimentlarni undirishga doir fuqarolik ishlari bilan bog‘liq hujjatlarni ularga berganlik uchun;

10) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilinishini so‘rab sudga ariza bilan murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxslar;

11) yuridik va jismoniy shaxslar:

sudning ishni tugatish yoki uni ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrimini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

sudning hal qiluv qarori ijrosini kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

da‘voni ta‘minlash yoki da‘voni ta‘minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

sudning yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarorini, ajrimini yoki qarorini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

sud tomonidan belgilangan jarimani bekor qilish yoki kamaytirish to‘g‘risidagi, sudning hal qiluv qarori ijrosini o‘zgartirish to‘g‘risidagi, o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi ariza bo‘yicha;

12) yuridik va jismoniy shaxslar – sud ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlar yuzasidan, sudning jarimani bekor qilish yoki kamaytirishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyatlar hamda sud ajrimi ustidan boshqa

xususiy shikoyatlar yuzasidan;

13) tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

14) iste‘molchilar – o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog‘liq da‘volar yuzasidan; tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavfsiz bo‘lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari; iste‘molchilarning jamoat birlashmalari – iste‘molchilarning (iste‘molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko‘zlab qo‘zg‘atilgan da‘volar yuzasidan;

15) da‘vogarlar – o‘rmon daraxtlarini o‘zboshimchalik bilan kesish hamda o‘rmondan foydalanish, o‘rmonni qo‘riqlash va muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o‘rmon fondiga yetkazilgan zararni undirish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan;

16) davlat organlari – o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish to‘g‘risidagi da‘volar yuzasidan, shuningdek, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan, tarixiy, badiiy qimmatga yoki jamiyat uchun boshqa qimmatga ega bo‘lgan mol-mulkni jismoniy shaxslar bu mol-mulkka xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lgan hollarda jismoniy shaxslardan davlat mulkiga olib qo‘yish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan;

17) O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari – palata a‘zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da‘volar bo‘yicha, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a‘zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan shikoyatlar yuzasidan;

18) nodavlat notijorat tashkilotlari – o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat organlarining g‘ayriqonuniy qa-

rorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

19) nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek, ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari – barcha da'volar yuzasidan;

20) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari – majburiy badallarni kiritish va kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

21) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari, shuningdek, fuqarolar – tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-kommunal xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

22) tumanlar, shaharlar (shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari – kommunal xizmatlar ko'rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xizmatlar haqini to'lash va majburiy badallarni kiritish bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da'volar yuzasidan;

23) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy tuzilmalari – pensionerlardan (nafaqa oluvchilardan) ortiqcha (noqonuniy) to'langan pensiyalarning va nafaqalarning summalarini undirish bilan bog'liq da'volar yuzasidan;

24) O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi hamda uning joylardagi organlari – ko'chish joyiga bormagan yoki ko'chib borgan joylarini o'zboshimchalik bilan tark etgan ko'chirib keltiriluvchilarga nisbatan ko'chish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarining o'rnini qoplash to'g'risida taqdim etilgan da'volar yuzasidan;

25) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish dav-

lat qo‘mitasi va uning joylardagi organlari – atrof-muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o‘zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularning muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy obyektlarga va komplekslarga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da’volar yuzasidan;

26) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda uning joylardagi organlari – suv to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash uchun mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risidagi da’volar yuzasidan;

27) sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari – majburiy sug‘urta operatsiyalari bilan bog‘liq ishlar yuzasidan;

28) qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi - investorlarning, qimmatli qog‘ozlar egalari hamda davlatning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadidagi da’volar yuzasidan;

29) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari, shuningdek, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish organlari – barcha ishlar va hujjatlar yuzasidan, shuningdek, alohida yuritiladigan ishlar bo‘yicha sudga arizalar berganlik uchun;

30) ichki ishlar organlari – alimentlar va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni qidirish uchun qilingan xarajatlarni undirish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan;

31) prokuratura organlari – davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

32) adliya organlari – davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

33) undiruvchi yoki sud ijrochisi – qarzdorni yoki uning

mol-mulkini qidirish bo'yicha xarajatlarning o'rnini qarzdor tomonidan qoplash to'g'risidagi ishlar yuzasidan.

34) O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi - intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquq egalaring huquqlarini himoya qilishni ko'zlab qilinadigan da'volar yuzasidan.

35) O'zbekiston Fermerlar kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar fermerlar kengashlari – fermer xo'jaliklarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar yuzasidan, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan fermer xo'jaliklarining manfaatlarini ko'zlab qilingan shikoyatlar yuzasidan.

36) O'zbekiston Respublikasining XususiyLashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari – qo'mita vakolatlariga muvofiq sudlarga beriladigan da'volar va arizalar yuzasidan.

37) mulkdorlar – xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida davlat organlari va boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish haqidagi ishlar yuzasidan umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan ozod qilinishi belgilandi.

38) yakka tartibdagi quruvchi bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish chog'ida buyurtmachining vazifasi qonun hujjatlariga muvofiq qaysi yuridik shaxsning zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs - qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish masalalari yuzasidan yakka tartibdagi quruvchilar bilan nizolarni hal etish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

39) qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun imtiyozli kreditlar berish qonun

hujjatlariga muvofiq qaysi tijorat banklarining zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, o'sha tijorat banklari - qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan imtiyozli ipoteka kreditlari yuzasidan qarz oluvchilarning kreditorlik qarzlarini undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha.

40) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari – ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

41) tadbirkorlik subyektlari – hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risida ariza berganda.

Xo'jalik sudlarida davlat bojini to'lashdan ozod qilish

Xo'jalik sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar – tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi bilan bog'liq da'volar bo'yicha;

2) tadbirkorlik subyektlari – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

3) arizachi va javobgar – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) o'z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmagan korxonalarni tugatishga doir ishlar bo'yicha;

4) da'vogarlar – o'rmon daraxtlarini o'zboshimchalik bilan kesish hamda o'rmondan foydalanish, o'rmonni qo'riqlash va muhofaza qilish tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o'rmon fondiga yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi, o'rmon xo'jaligi daromadi summalarini (shu jumladan, o'rmon daraxtlarini o'sib turgan joyida sotish qoidalarini buzganlik

uchun zarar va neustoykani, shuningdek, o‘zboshimchalik bilan o‘rmon daraxtlarini kesganlik, pichan o‘rganlik va mollarni o‘tlatganlik uchun jarimalarni) undirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha;

5) O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi – palata a‘zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da‘volar yuzasidan, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a‘zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan shikoyatlar bo‘yicha;

6) nodavlat notijorat tashkilotlari – o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

7) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari – majburiy badallarni to‘lash va kommunal xizmatlar to‘lovi bo‘yicha qarzlarni undirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha;

8) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari – tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-kommunal xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha;

9) tumanlar, shaharlar (shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari – kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xizmatlar haqini to‘lash va majburiy badallarni to‘lash bo‘yicha qarzni undirish to‘g‘risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da‘volar yuzasidan;

10) nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek, ularning muassasalari, o‘quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari – barcha da‘volar bo‘yicha;

11) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy tuzilmalari – «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiyalarni to‘lashga ketgan mablag‘larni tashkilotlardan undirib olish bo‘yicha da‘volar, shu jumladan, regress da‘volar yuzasidan

12) da‘vogarlar va javobgarlar – sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari – majburiy sug‘urta operatsiyalari bilan bog‘liq barcha ishlar bo‘yicha;

13) «O‘zagrosug‘urta» davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi, uning direksiyasi va joylardagi bo‘linmalari – qishloq xo‘jaligi korxonalarini tomonidan bank kreditlarini to‘lamaslik xavfini hamda qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish, shuningdek, fyuchers kontraktlar bo‘yicha ishlarni amalga oshirish uchun oldindan beriladigan mablag‘larning qaytarilishini sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha to‘langan sug‘urta to‘voni uchun qishloq xo‘jaligi korxonalaridan qarzni undirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha;

14) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, uning joylardagi organlari – suv to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash uchun mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha;

15) tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limlari – qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini ko‘zlab berilgan da‘volar bo‘yicha;

16) O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uning joylardagi organlari – atrof-muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o‘zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning tartib va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy obyektlarga va komplekslarga yetkazilgan zararning o‘rnini

qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

17) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda uning joylardagi organlari – standartlarni, texnik shartlarni joriy etish va ularga rioya etilishi hamda mahsulotlar sifati ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar yoki shunday vakolatga ega bo'lgan boshqa organlar jo'natishni man etgan mahsulotlarni yetkazib bergan yuridik shaxslardan byudjet daromadiga jarimalar undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

18) O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari – qo'mita vakolatlariga muvofiq sudlarga beriladigan da'volar va arizalar yuzasidan;

19) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi - investorlarning, qimmatli qog'ozlar egalarining hamda davlatning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadidagi da'volar bo'yicha;

20) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari, shuningdek, monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash organlari – barcha ishlar va hujjatlar bo'yicha, shuningdek, alohida yuritiladigan ishlar bo'yicha sudga arizalar berganlik uchun;

21) prokuratura organlari – davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

22) adliya organlari – davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

23) undiruvchi yoki sud ijrochisi – qonunda nazarda tutilgan taqdirda, qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish bo'yicha xarajatlarning o'rnini qarzdor tomonidan qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan.

24) yuridik va jismoniy shaxslar – sud ijrochisining

harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlari bo'yicha;

25) xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan hukumatlararo kelishuvlar asosida berilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzdor sifatida qatnashuvchi davlat organlari va tashkilotlari – subzayom oluvchilardan paydo bo'lgan qarzdorliklarni undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

26) davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish shartnomalari bo'yicha sotib oluvchi hisoblangan davlat organlari va tashkilotlari – yetkazib beruvchilar (pudratchilar) tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmaganligi bilan bog'liq da'volar yuzasidan.

27) davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish shartnomalari bo'yicha sotib oluvchi hisoblangan davlat organlari va tashkilotlari – yetkazib beruvchilar (pudratchilar) tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmaganligi bilan bog'liq da'volar yuzasidan.

28) O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi – intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquq egalarining huquqlarini himoya qilishni ko'zlab qilinadigan da'volar yuzasidan.

29) O'zbekiston Fermerlar kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar fermerlar kengashlari – fermer xo'jaliklarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar yuzasidan, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan fermer xo'jaliklarining manfaatlarini ko'zlab qilingan shikoyatlar yuzasidan.

30) mulkdorlar – xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida davlat organlari va boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat

qilish haqidagi ishlar yuzasidan;

31) arizachi va javobgar – huquqiy ta’sir choralari qo’llash to’g’risidagi ishlar bo’yicha Xo’jalik sudlarida davlat bojini to’lashdan ozod qilindi.

32) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari – ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to’g’risidagi da’volar yuzasidan;

33) tadbirkorlik subyektlari – hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to’g’risida ariza berganda.

Notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to’lashdan ozod qilish

Notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to’lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) shaxslar – davlat pensiyalari va nafaqalarini olish uchun zarur bo’lgan, shuningdek, vasiylik qilish va farzandlikka olish to’g’risidagi ishlar yuzasidan hujjatlarning ko’chirma nusxalari to’g’riligini ularga tasdiqlab berganlik uchun;

2) shaxslar – mol-mulkini davlat foydasiga, shuningdek, yuridik shaxslar foydasiga hadya qilish to’g’risidagi vasiyatnomalari va shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

3) davlat soliq xizmati organlari va moliya organlari – ularga davlatning merosga bo’lgan huquqi to’g’risidagi guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) berganlik, shuningdek, ushbu guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) olish uchun zarur bo’lgan barcha hujjatlar uchun;

4) nogironlarning jamoat birlashmalari, ularning muassasalari, o’quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari – barcha notarial harakatlar bo’yicha;

5) shaxslar – ularga quyidagilar uchun merosga bo’lgan huquqi to’g’risida guvohnoma berganlik uchun:

- Vatanni himoya qilish chog’ida, boshqa davlat yoki jamoat

vazifalarini bajarayotganligi munosabati bilan yoxud inson hayotini qutqarish, davlat mulkini va huquq-tartibotni muhofaza qilish bo'yicha fuqarolik burchini ado etish munosabati bilan halok bo'lgan shaxslarning mol-mulki uchun;

- uy-joy (kvartira) uchun yoki uy-joy-qurilish kooperatividagi pay uchun, agar ular meros qoldiruvchining vafot etish kunigacha birga yashagan, turar joyda qayd etilgan bo'lsa va meros qoldiruvchining vafotidan keyin ham shu uy-joyda (kvartirada) yashayotgan bo'lsa;

- banklardagi omonatlar, shaxsiy va mulkiy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta summalari, davlat zayom obligatsiyalari uchun, ish haqi summalari uchun;

- fan, adabiyot va san'at asarlari, ixtiro, seleksiya yutug'i, foydali model, sanoat namunasi, integral mikroshemalar topologiyasi muallifining mulkiy huquqlari, shuningdek, ijrochining ijroga doir mulkiy huquqlari uchun;

- fan, adabiyot va san'at asarlari, ixtiro, seleksiya yutug'i, foydali model, sanoat namunasi, integral mikroshemalar topologiyasini yaratish va ulardan foydalanish, shuningdek, ijrolarni yaratish hamda ulardan foydalanish haqi summalari uchun.

6) shaxslar – pensiyalar va nafaqalar olish uchun ishonchnomani tasdiqlatganlik uchun;

7) onalar – ko'p bolalik uchun ularga ordenlar va medallar berilganligi haqidagi ishlar bo'yicha hujjatlar ko'chirma nusxalarining to'g'riligini tasdiqlab berganlik uchun;

8) maktab-internatlar – farzandlarining maktab-internatdagi ta'minoti uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

9) moliya organlari – farzandlarining O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ixtisoslashtirilgan maktablaridagi ta'minoti uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

10) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli vafot etish va halok bo‘lish hodisasiga korxonalar va tashkilotlar hisobidan sug‘urta qilingan jismoniy shaxslarning merosxo‘rlari – sug‘urta puliga vorislik huquqini tasdiqlovchi guvohnoma berganlik uchun;

11) surunkali ruhiy kasallikka chalingan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vasiylik belgilangan shaxslar – mol-mulkka vorislik qilishlari to‘g‘risida guvohnoma olganliklari uchun;

12) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi hamda uning joylardagi organlari – xodimlarni tashkiliy yo‘sinda ishga qabul qilish tartibida tuziladigan mehnat shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

13) 1941–1945 yillardagi urush nogironlari, 1941–1945 yillardagi urush frontlarida yaralangan shaxslar va 1941–1945 yillardagi urush frontlarida halok bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan shaxslarning oila a‘zolari, 1941–1945 yillardagi urush qatnashchilari hamda Vatanni himoya qilishda va Sovet Armiyasida o‘z xizmat burchini o‘tayotganda yaralangan shaxslar, Afg‘oniston Respublikasida baynalmilal burchini o‘tagan shaxslar, shuningdek, 1986–1987 yillarda CHernobil AESining zaharlangan mintaqasi doirasida avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar, 1986 yilda CHernobil AESidagi avariya munosabati bilan zaharlangan mintaqadan ko‘chirilgan (shu jumladan, o‘z ixtiyori bilan chiqib ketgan) shaxslar, agar ular vafot etgan bo‘lsa, ularning oila a‘zolari – imtiyozlar berilishi uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ko‘chirma nusxalarining to‘g‘riligini tasdiqlatganligi uchun;

14) O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi – mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo‘yicha to‘lanishi kerak bo‘lgan mukofotning undirilishi to‘g‘risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

15) shaxslar – ularga yo‘lovchilarning majburiy sug‘urtasi yuzasidan sug‘urta summalariga hamda fuqarolarga qarashli

mol-mulkning majburiy sugʻurtasi yuzasidan sugʻurta toʻvoni summalari boʻyicha merosga boʻlgan huquqi toʻgʻrisida guvohnoma berganlik uchun;

16) fermer xoʻjaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxoʻrlar – ularga fermer xoʻjaligining mol-mulki boʻyicha merosga boʻlgan huquqi toʻgʻrisida guvohnoma berganlik uchun;

17) yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xoʻjaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxoʻrlar – ularga dehqon xoʻjaligi mol-mulki boʻyicha merosga boʻlgan huquqi toʻgʻrisida guvohnoma berganlik uchun;

18) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari – majburiy badallarni toʻlash va kommunal xizmatlar toʻlovi boʻyicha qarzlarni undirish toʻgʻrisidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishda davlat bojini toʻlashdan ozod qilish

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishda davlat boji toʻlashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) xalq taʼlimi organlari, balogʻatga yetmaganlar ishlari boʻyicha komissiyalar – yetim bolalarni va ota-onalar qar-amogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni bolalar muassasalariga va oʻquv yurtlariga yuborish uchun tugʻilganlik toʻgʻrisida takroriy guvohnomalar berganlik uchun;

2) jismoniy shaxslar – tugʻilish, oʻlim qayd etilganligi uchun, ularga farzandlikka olingan, otalik belgilangan, jinsi oʻzgartirilgan hollarida, shuningdek, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish chogʻida yoʻl qoʻyilgan xatolar munosabati bilan tugʻilganlik toʻgʻrisidagi hujjatlar yozuvlari oʻzgartirilgan, toʻldirilgan va tuzatilgan taqdirda guvohnomalar berganlik uchun;

3) jismoniy shaxslar – ularga belgilangan tartibda bedarak yoʻqolgan deb yoki ruhiy holatining buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan

shaxslar yoxud qilgan jinoyatlari uchun uch yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni bekor qilish to‘g‘risida sudning hal qiluv qarori asosida guvohnomalar berganlik uchun;

4) jismoniy shaxslar – ularga reabilitatsiya qilingan qarindoshlarining vafot etganligi to‘g‘risidagi takroriy guvohnomalar berganlik yoki ilgari berilgan guvohnomalarni almashtirganlik uchun;

5) tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan jismoniy shaxslar – ularga takroriy guvohnomalar berganlik uchun.

Chet elga chiqish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishda va O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berishda davlat bojini to‘lashdan ozod qilish

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat bojini to‘lashdan quyidagi hollarda ozod qilinadi:

1) diplomatik pasport berganlik uchun;

2) quyidagi hollarda xorijga chiqish uchun ruxsatnoma berganlik uchun:

yaqin qarindoshlari vafot etgan yoki ular dafn etilgan joylarni ziyorat qilgan taqdirda;

fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarga (bitimlarga) binoan ular chet el sudlariga fuqarolik va jinoyat ishlari yuzasidan taraflar, guvohlar va ekspertlar sifatida chaqirilganda;

3) o‘n olti yoshga to‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi guvohnomasini berganlik uchun;

4) to‘liq davlat ta‘minotida bo‘lganlar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berganlik uchun.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari yuqoridagi **1–3-bandlarida** ko‘rsatilgan hujjatlarga biron bir o‘zgartirish kiritilgan taqdirda ham davlat boji to‘lashdan ozod qilinadi.

Konsullik yig‘imini to‘lashdan ozod qilish

Konsullik yig‘imlari quyidagi hollarda undirilmaydi:

1) O‘zbekiston Respublikasining konsullik yig‘imlarini undirishdan voz kechish to‘g‘risidagi xalqaro shartnomasi mavjud bo‘lsa;

2) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini repatriatsiya qilish ishlari bo‘yicha;

3) chet el diplomatik pasportlariga o‘zarolik asosida viza qo‘yganlik uchun;

4) mehnat staji, fuqarolarning ijtimoiy ta‘minoti to‘g‘risidagi, alimentlar undirish to‘g‘risidagi ishlarga doir hujjatlarni so‘rab olganlik va legallashtirganlik uchun;

5) chet davlatlarning belgilangan tartibda akkreditatsiyadan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan doimiy vakolatxonalari, xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning va chet davlatlar hukumat tashkilotlarining vakolatxonalari, xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari hamda filiallari xodimlaridan (ularning oila a‘zolaridan);

6) belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o‘tkazilgan matbuot vakillaridan (ularning oila a‘zolaridan);

7) insonparvarlik yordamini kuzatib keluvchi chet davlatlarning fuqarolaridan;

8) o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalardan;

9) O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, byudjet tashkilotlari taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasiga keluvchi chet davlatlar fuqarolaridan, agar kontrakt shartlariga ko‘ra viza olish bilan bog‘liq xarajatlar qabul qiluvchi tarafga yuklatilgan bo‘lsa;

Boshqa harakatlarni amalga oshirganda davlat bojini to‘lashdan ozod qilish

✓ Fuqarolarni turar joyga qayd etganlik va ro‘yxatdan chiqarganlik yoxud turgan joyi bo‘yicha hisobga olganlik uchun davlat boji to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

✓ qariyalar va nogironlarning internat-uylarida yashovchi qariyalar va nogironlar;

✓ maktab-internatlar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning to'liq davlat ta'minotida bo'lgan va yotoqxonalarida yashovchi o'quvchilari.

✓ Dehqon xo'jaliklarini, davlat korxonalari negizida tuzilayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida bo'linmalarini (vakolatxonalari va filiallarini), shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji undirilmaydi.

Fuqarolarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik yoxud turgan joyi bo'yicha hisobga olganlik uchun davlat boji to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- qariyalar va nogironlarning internat-uylarida yashovchi qariyalar va nogironlar;

- maktab-internatlar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning to'liq davlat ta'minotida bo'lgan va yotoqxonalarda yashovchi o'quvchilari.

Dehqon xo'jaliklarini, davlat korxonalari negizida tuzilayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini, shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji undirilmaydi.

Davlat bojini to'lash va hisobga o'tkazish tartibi

Davlat boji, agar ushbu bo'limda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat boji undiriladigan harakatlar amalga oshirilguniga qadar naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda to'lanadi.

To'lovchining davlat bojini naqd pulsiz shaklda to'laganligi fakti bankning to'lov ijro etilganligi to'g'risidagi belgisi bo'lgan to'lov topshiriqnomasi bilan tasdiqlanadi.

To'lovchining davlat bojini naqd pul shaklida to'laganligi

fakti bank tomonidan to'lovchiga beriladigan belgilangan shakldagi kvitantsiya yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi belgilangan shaklda to'lovni amalga oshirgan mansabdor shaxs yoxud davlat organi va tashkilotning kassasi tomonidan to'lovchiga beriladigan kvitantsiya bilan tasdiqlanadi.

Davlat bojini to'lashning o'ziga xos xususiyatlari amalga oshirilayotgan yuridik ahamiyatga molik harakatlarning turiga, to'lovchilarning toifalariga yoki boshqa holatlarga ko'ra belgilanadi.

Davlat boji to'lov hujjatlari asosida byudjet tasarrufiga o'tkaziladi, davlat bojining xizmatlari uchun davlat boji undirilayotgan davlat organi tasarrufida qoldirilayotgan qismi bundan mustasno.

Davlat bojining bir qismi davlat organi tasarrufida qoldirilgan taqdirda, davlat boji keyinchalik mablag'lar byudjet va davlat organi o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha taqsimlangan holda yagona hisob varag'iga to'lanadi.

Davlat bojining davlat organi tasarrufida qoldiriladigan miqdori qonun hujjatlarida belgilanadi.

Mulkiy nizo bo'yicha sudga da'vo arizasi berilganda, shuningdek, mol-mulkning oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash shartnomasini notarial tartibda tasdiqlashda, merosga bo'lgan huquqni rasmiylashtirishda, agar da'vo qiymati, shartnoma summasi yoki meros miqdori chet el valyutasida belgilansa, davlat boji qonun hujjatlarida belgilangan hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda chet el valyutasida undirilishi mumkin.

Sudlarda davlat bojini undirishning o'ziga xos xususiyatlari

Sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizalardan, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sudlarga

beriladigan shikoyatlardan, sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, shuningdek, sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun davlat boji quyidagi tartibda undiriladi:

- shartnomalarni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risidagi, shartnomalarni bekor qilish to'g'risidagi yoki ularning shartlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi da'vo arizalariga shartnoma to'raligicha yoki uning biron bir qismi nizolashilayotganligidan qat'iy nazar, shartnoma oldi nizolari bo'yicha arizalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi;

- qarshi da'vo arizalaridan, shuningdek, uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to'g'risidagi arizalardan davlat boji umumiy asoslarda undiriladi;

- Sud dastlabki da'vogarni uning roziligi bilan boshqa shaxs bilan almashtirganda, bu shaxs davlat bojini umumiy asoslarda to'lashi kerak.

Ishdan dastlabki da'vogar chiqib ketgan va u huquqiy voris bilan almashtirilgan hollarda, davlat boji, agar u dastlabki da'vogar tomonidan to'lanmagan bo'lsa, huquqiy vorisdan undiriladi.

Sudya bir yoki bir nechta birlashgan da'vo talablarini alohida ish yuritish uchun ajratgan taqdirda, da'vo taqdim etilganda to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi va qaytarilmaydi. Alohida ish yurituvga ajratganlik yuzasidan davlat boji ikkinchi bor to'lanmaydi.

Ilgari ko'rmasdan qoldirilgan takroran berilgan arizalar bo'yicha davlat boji qaytadan umumiy asoslarda to'lanadi. Agar ariza ko'rmasdan qoldirilganligi munosabati bilan davlat boji qaytarilishi kerak bo'lgan, lekin qaytarilmagan bo'lsa, agar davlat boji byudjetga o'tkazilgan kundan e'tiboran fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da'vo muddati tugamagan bo'lsa, davlat boji to'langanligi to'g'risidagi dastlabki hujjat takroran berilgan arizaga ilova qilinishi mumkin.

Davlat boji hisoblab chiqariladigan da'vo bahosi da'vogar tomonidan, belgilangan hollarda esa, fuqarolik protsessual va xo'jalik-protsessual qonun hujjatlariga muvofiq sud tomonidan aniqlanadi.

Agar ishni muhokamaga tayyorlash paytida da'vogar alimentlarni undirish to'g'risidagi ishni tugatish haqida ariza bergan bo'lsa, bunday hollarda javobgardan davlat boji undirilmaydi.

Da'vogar tomonidan da'vo talablari kamaytirilgan taqdirda, to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi.

Da'vo summasi ko'paytirilgan taqdirda, davlat bojining yetishmayotgan summasi da'voning ko'paytirilgan summasiga muvofiq undiriladi.

Da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan taqdirda da'vo qanoatlantirilsa, davlat boji javobgardan (agar u davlat bojini to'lashdan ozod etilmagan bo'lsa) davlat daromadiga belgilangan da'vo summasiga muvofiq undiriladi.

Da'vo birgalikda bir nechta da'vogar tomonidan bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda, davlat boji da'voning umumiy summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va da'vogarlar tomonidan ular qo'ygan talablar ulushiga mutanosib tarzda to'lanadi.

Da'voning umumiy summasidan kelib chiqqan holda davlat boji quyidagi hollarda ham undiriladi:

- da'vo da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda;

- da'vo arizalarini qabul qiladigan sudya bir tUSDagi bir necha talabni bir ish yurituviga birlashtirganda.

Davlat bojini to'lashdan ozod etilgan bir yoki bir nechta da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilgan da'vo to'liq yoki qisman qanoatlantirilganda davlat bojini undirish sudning hal qiluv qaroriga binoan har bir javobgardan belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda

alohida-alohida amalga oshiriladi. Agar bunday da'vo bir nechta da'vogarlar tomonidan bir javobgarga nisbatan taqdim etilgan bo'lsa, davlat boji javobgardan umumiy belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda byudjetga undiriladi.

Sud boshqa shaxsni ikkinchi javobgar sifatida jalb qilgan va da'vo summasining bir qismini bir javobgardan, qolgan qismini esa ikkinchisidan undirishga hukm qilgan taqdirda va, agar bunda da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod qilingan bo'lsa, davlat boji da'voning qanoatlantirilgan umumiy summasidan hisoblab chiqariladi hamda har bir javobgardan unga belgilangan da'vo summasi miqdoriga mutanosib ravishda byudjetga undiriladi.

Davlat bojini to'lashdan ozod qilingan da'vogar o'z talablarini da'vo berilganidan keyin ular javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'liq yoki qisman qanoatlantirilganligi tufayli qo'llab-quvvatlamagan hollarda davlat bojining summasi javobgardan sud ajrimi bo'yicha byudjetga undirilishi lozim.

Da'vogar arizada da'vo summasini ko'rsatmagan hollarda sudya da'vo arizasini qabul qilish asnosida, da'voning taxminiy bahosidan kelib chiqqan holda to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojining miqdorini dastlabki tarzda belgilaydi. Agar sud hal qiluv qarorini chiqarganda da'voning umumiy summasi oshsa, davlat boji da'voning oshgan summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda vujudga kelgan farq da'vogardan yoki da'vo to'liq qanoatlantirilgan taqdirda – javobgardan byudjet daromadiga undirilishi lozim. Sud qonun hujjatlarida belgilangan hollarda ish holatlariga bog'liq ravishda da'vogar arizada ko'rsatgan talablar doirasidan chiqib ketganda, davlat boji shunday tartibda hisoblab chiqariladi. Bunday hollarda da'vo qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji javobgardan da'voning qanoatlantirilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi, davlat bojining qolgan qismi esa da'vogardan undirilishi lozim.

Sud mol-mulkni meros qilib olish huquqi to'g'risida hal

qiluv qarori qabul qilgan taqdirda, davlat boji mol-mulkning umumiy qiymatidan kelib chiqqan holda sud tomonidan hisoblab chiqariladi va har bir merosxoʻrdan uning ulushiga mutanosib ravishda undiriladi.

Mol-mulkka boʻlgan mulk huquqi toʻgʻrisidagi, mol-mulkni talab qilib olish toʻgʻrisidagi, mol-mulkdagi ulushga boʻlgan huquqni eʼtirof etish toʻgʻrisidagi, umumiy mol-mulkdan ulush ajratish toʻgʻrisidagi va merosxoʻrlarning oʻzlariga tegishli mol-mulk ulushini talab qilib olish toʻgʻrisidagi daʼvo arizalari uchun davlat boji ushbu mol-mulk yoki uning ulushi qiymatidan kelib chiqqan holda toʻlanishi lozim.

Bir vaqtning oʻzida mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega boʻlgan daʼvo arizalari uchun mulkiy xususiyatdagi daʼvo arizalari uchun belgilangan stavkalar boʻyicha va nomulkiy xususiyatdagi daʼvo arizalari uchun belgilangan stavkalarga koʻra har bir talab boʻyicha alohida-alohida davlat boji toʻlanadi.

Qiymat jihatidan baholanmaydigan talablar (oʻzboshimchalik bilan egallangan joylarni boʻshatish toʻgʻrisidagi, natura shaklida maydon berish toʻgʻrisidagi, topshirish balansini qabul qilishga majburlash bilan bogʻliq nizolar va boshqalar) nomulkiy xususiyatdagi daʼvo arizalari jumlasiga kiradi.

Nikohni bekor qilish bilan bir vaqtda mol-mulkni boʻlish toʻgʻrisidagi daʼvo arizalaridan nikohni bekor qilganlik uchun va mol-mulkni boʻlganlik uchun davlat boji undiriladi.

Arizani (iltimosnomani) qabul qilishni rad etishga yoki ish yuritishni tugatishga asos boʻlgan sharoitlar bartaraf etilganidan soʻng takroran beriladigan arizalarga, davlat boji takroran toʻlanishining oldini olish uchun, davlat boji toʻlanganligi toʻgʻrisidagi dastlabki hujjat ilova qilinishi mumkin.

Arizachi davlat bojini toʻlashdan ozod qilingan hollarda daʼvo qanoatlantirilgan taqdirda davlat boji, agar javobgar davlat bojini toʻlashdan ozod qilinmagan boʻlsa, qanoatlantirilgan daʼvo talablari miqdoriga mutanosib ravishda javobgardan undiriladi.

Muayyan sudda ko‘rilishi kerak bo‘lgan bir necha ishlar uchun bir to‘lov topshiriqnomasi bo‘yicha davlat boji o‘tkazilgan hollarda topshiriqnomasi ishlarning biriga ilova qilinadi. Mazkur ish bo‘yicha to‘langan davlat bojining summasi to‘g‘risida qolgan ishlarga belgi qo‘yiladi va to‘lov topshiriqnomasi qo‘shib qo‘yilgan ish ko‘rsatiladi.

Sud buyrug‘i bekor qilingan taqdirda, undiruvchi tomonidan to‘langan davlat boji qaytarilmaydi. Da’vo undiruvchi tomonidan qarzdorga nisbatan da’vo ishini yuritish tartibida qo‘zg‘atilgan taqdirda u to‘lanishi lozim bo‘lgan davlat boji hisobiga olinadi.

Pul mablag‘lari mavjud bo‘lmagan, bu xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan taqdirda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga umumiy yurisdiksiya sudining, xo‘jalik sudining ajrimiga ko‘ra davlat bojini kechiktirib to‘lashga ruxsat berilishi mumkin. Bank tasdig‘ida umumiy yurisdiksiya sudiga, xo‘jalik sudiga murojaat qilingan sanadan ko‘pi bilan uch kun oldingi sana qayd etilgan bo‘lishi lozim.

Notarial harakatlar bajarilganligi uchun davlat boji undirishning o‘ziga xos xususiyatlari

Notarial harakatlar davlat notarial idoralari tomonidan bajarilganligi uchun davlat boji notarial harakatlar amalga oshirilganda undiriladi, notarial idoralardagi ishlarda mavjud bo‘lgan hujjatlarning dublikatini, hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun esa ular berilayotganda undiriladi.

Davlat boji to‘lashdan bir taraf ozod etiladigan bitimlar bo‘yicha davlat bojini boshqa taraf to‘liq to‘laydi.

Davlat notarial idorasi depozitiga qabul qilish uchun pul summalari pochta orqali yoki bankdan kelib tushgan hollarda davlat bojining tegishli summalari kelib tushgan puldan ushlab qolinadi, ularning qoldig‘i esa depozitga qabul qilinadi. Ushlab qolingan davlat boji summalari davlat notarial idorasi depozit

summalarini bankka navbatdagi topshirish chogʻida byudjetga oʻtkazilib, bank kvitantsiyasi notarial idora ishlarida saqlanadi.

Davlat notarial idorasi binosidan tashqarida amalga oshiriladigan notarial harakatlar uchun davlat boji ikki baravar miqdorda undiriladi, ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning ishonchnomalarini notarial tartibda tasdiqlash bundan mustasno.

Merosga boʻlgan huquq toʻgʻrisida guvohnoma berganlik uchun davlat boji meros ochilgan kunda (meros qoldiruvchi vafot etgan kunda) vorislik tartibida oʻtayotgan butun mol-mulkning qiymatidan undiriladi.

Bir nechta merosxoʻr (shu jumladan, qonun boʻyicha, vasiyatnoma boʻyicha va merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega merosxoʻrlar) boʻlgan hollarda davlat boji har bir merosxoʻrga tegishli meros ulushidan hisoblab chiqariladi.

Voyaga yetmagan merosxoʻrlar boʻlgan (shu jumladan, meros qoldiruvchilarning bolalari boʻlmagan) taqdirda ham davlat boji butun meros mol-mulk qiymatidan hisoblab chiqariladi, lekin faqat voyaga yetgan merosxoʻrlardan ularning merosdagi ulushiga tegishli summadan undiriladi.

Agar merosga boʻlgan huquq toʻgʻrisidagi guvohnoma merosxoʻrlarning arizasi boʻyicha meros mol-mulkning bir qismiga berilayotgan boʻlsa, davlat boji berilayotgan guvohnomada koʻrsatilgan mol-mulk qismining qiymati uchun belgilangan stavka boʻyicha hisoblab chiqariladi. Keyinchalik mol-mulkning qolgan qismiga guvohnoma berilganida davlat boji mol-mulkning umumiy qiymatidan hisoblab chiqariladi, toʻlashga esa hisoblab chiqarilgan summa bilan birinchi guvohnoma berilganligi uchun toʻlangan summa oʻrtasidagi farq taqdim etiladi.

Qonun boʻyicha bir vaqtning oʻzida boshqa merosxoʻrlar mavjud boʻlgan taqdirda, meros mol-mulkning bir qismi merosxoʻrlarga vasiyatnoma boʻyicha oʻtgan hollarda davlat boji

vasiyatnoma bo'yicha mol-mulk qiymatidan alohida hisoblab chiqariladi, qolgan mol-mulk qiymatidan esa umumiy tartibda hisoblab chiqariladi.

Qonun bo'yicha va vasiyatnoma bo'yicha meros qilib olinayotgan mol-mulkdan merosning majburiy ulushi ajratilgan hollarda davlat boji qonunga binoan vorislik huquqi bo'yicha o'tayotgan butun mol-mulk qiymatidan, shu jumladan, majburiy ulush bilan birga hisoblab chiqariladi.

Sudlarning ilgari berilgan guvohnomalar haqiqiy emasligi to'g'risidagi hal qiluv qarorlari asosida beriladigan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi takroriy guvohnomalar uchun davlat boji umumiy asoslarda undiriladi. Bunda birlamchi guvohnoma uchun to'langan davlat boji summasi qaytarilishi yoki soliq to'lovchining arizasiga ko'ra yangi guvohnoma berganlik uchun beriladigan summa hisobiga, agar summalar byudjetga o'tkazilgan kundan e'tiboran fuqarolik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan da'vo muddati tugamagan bo'lsa, o'tkazilishi lozim. Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan har qanday shartnoma takroran tasdiqlangan taqdirda, masala xuddi shunday tartibda hal qilinadi.

Davlat notarial idorasi reestrda takroriy guvohnomalar va shartnomalarni qayd qilishda tegishli katakchada davlat boji qachon va qancha summada undirilganligi hamda undirish to'g'risidagi yozuv qaerda borligi ko'rsatiladi. Bunda notarial idora ishlarida qoladigan asosiy hujjatlarga sudning tegishli guvohnomalar va shartnomalarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarorlari ilova qilinishi kerak.

Kredit tashkilotlari tomonidan beriladigan sertifikatlar va akkreditivlarga doir merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berganlik uchun davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

Er-xotinning birgalikda yashaganda olingan va er-xotindan birining vafotidan keyin qolgan mol-mulkka doir merosga

boʻlgan huquq toʻgʻrisida guvohnoma berganlik uchun davlat boji meros boʻyicha haqiqatda oʻtayotgan mol-mulk qismining qiymatidan undiriladi.

Davlat boji mutanosib ravishda undiriladigan notarial harakatlar bajarilganda uni hisoblab chiqarish taraflar koʻrsatgan summadan ushbu moddada belgilangan qoidalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli uylar, kvartiralar, dala hovlilari, garajlar, boshqa imoratlar, binolar va inshootlarni boshqa shaxsga oʻtkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji summasi ularning turar joyi yoki umumiy maydonidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Toʻlovlar vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji shartnoma boʻyicha u amal qilgan butun vaqt uchun toʻlovlarning umumiy miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi. Agar shartnoma uning amal qilish muddati koʻrsatilmagan holda tuzilgan boʻlsa, davlat boji shartnoma boʻyicha uch yil uchun toʻlovlar summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Eng kam va eng koʻp summa koʻrsatilgan shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji eng koʻp summadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Talablardan oʻzganing foydasiga voz kechish va qarzni oʻtkazish toʻgʻrisidagi, ilgari tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish toʻgʻrisidagi yoki shartnomaning dastlabki summasini koʻpaytirish toʻgʻrisidagi shartnomalarni tasdiqlashda davlat boji amalga oshirilmagan huquqlarni hamda ijro etilmagan majburiyatlarni baholashdan yoxud ilgari tuzilgan shartnoma summasi koʻpayayotgan summadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va undiriladi.

Ayirboshlash shartnomalari boʻyicha davlat boji qiymati yuqori boʻlgan mol-mulkdan hisoblab chiqariladi.

SHartlariga ko‘ra to‘lovlar summasida ijaraga oluvchi tomonidan quriladigan imoratlar va boshqa inshootlar, xonalarni jihozlash qiymati, shuningdek, ijaraga oluvchi tomonidan amalga oshiriladigan kapital ta‘mirlash va boshqa shu kabilarning qiymati hisobga olinadigan mulk ijarasi shartnomasini tasdiqlashda hisoblab chiqariladigan va undiriladigan davlat bojining summasi amalga oshiriladigan xarajatlarning qiymati hisobga olingan holda belgilanadi.

Ijro yozuvlari bo‘yicha yozuvni amalga oshirganlik uchun tegishli davlat boji summasi undiruvchi uni to‘lashdan ozod qilingan taqdirda yozuv bo‘yicha qarz undirilayotganda qarzdordan undiriladi.

Konsullik yig‘imini to‘lash tartibi

Konsullik yig‘imi konsullik harakatlari amalga oshirilguniga qadar to‘lanadi. Konsullik yig‘imlari byudjet daromadiga o‘tkaziladi. Konsullik yig‘imlarining to‘langan summalari qaytarilmaydi.

Konsullik yig‘imlari summalarini byudjetga, shuningdek, chet elda to‘langan konsullik yig‘imlarini O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi va uning konsullik muassasasining maxsus bank hisobvaraqlariga hisoblab chiqarish, undirish va hisobga o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat bojini boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan undirishning o‘ziga xos xususiyatlari

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun davlat boji dalolatnomalarni ro‘yxatda qayd etish chog‘ida, takroriy guvohnomalar berganlik uchun esa, ular berilayotganida to‘lanadi.

CHet elga chiqish, O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirganlik uchun, bu hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritganlik uchun, shuningdek, yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs guvohnomasini berganlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik yoxud chet ellik fuqarolarning pasportlariga yoki ularning o‘rnini bosadigan hujjatlariga chiqib ketish yoki kirib kelish huquqini beradigan vizalar qo‘yganlik uchun davlat boji tegishli hujjatlar olinguniga qadar, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to‘g‘risidagi arizalardan esa, bunday arizalar berilguniga qadar to‘lanadi.

CHet eldan kirish va chet elga chiqish huquqini beruvchi hujjatlarni, yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs guvohnomasini berganlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to‘g‘risidagi arizalardan, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan chet elga xizmat safariga yuboriladigan fuqarolarning xorijga chiqish huquqini beruvchi hujjatlardan davlat boji belgilangan tartibda ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan to‘lanadi.

CHet elga xizmat safariga yuborilgan xodimlar bilan birgalikda ularning xotini va bolalari xizmat safarining butun muddatiga safarga borganida davlat boji xizmat safariga yuborilganlarning o‘zlaridan undirilgani kabi tartibda va miqdorlarda undiriladi. Oila a‘zolari chet elga xizmat safariga yuborilgan shaxsning oldiga mehmon bo‘lib oddiy safarga borganlarida davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

CHet ellik fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasidan chiqishga vizalar berganlik uchun davlat boji har bir shaxsga alohida viza yoki bir nechta shaxsga umumiy viza berilayotganligidan qat’iy nazar, o‘n olti yoshga to‘lgan har bir shaxsdan undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd

~~etganlik va turgan joyi bo'yicha hisobga olganlik, ov qilish huquqi uchun ruxsatnoma berganlik uchun davlat boji hujjat berilayotganda to'lanadi.~~

Davlat boji to'lovlarini va tushumlarini hisobga olish

Davlat boji naqd pulsiz o'tkazilganligiga doir to'lov topshiriqnomalari, davlat bojini to'lash uchun pul qabul qilib olinganligi to'g'risidagi kvitantsiya davlat bojini undiradigan davlat organlarida qoladigan tegishli materiallarga qo'shib qo'yiladi.

Notarial harakatlarni ro'yxatdan o'tkazish reestrda kiritilgan davlat boji summasi, davlat boji to'langanligi haqidagi hujjatning sanasi va raqami ko'rsatiladi.

To'lovchilar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan hollarda, tegishli hujjatlarga (reestrlarga, daftarlarga va boshqa shu kabilarga) tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari ilova qilingan holda belgi qo'yiladi.

Davlat boji tushumlarini hisobga olish davlat bojini undiradigan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat boji tushumlari bo'yicha hisobot davlat bojini undiruvchi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'zlari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

Davlat bojini qaytarish tartibi

Davlat boji quyidagi hollarda to'liq yoki qisman qaytarilishi kerak:

- 1) davlat boji qonun hujjatlarida talab qilinganidan ortiqcha

miqdorda to‘langanida;

2) sud arizani (shikoyatni) qabul qilishni rad etganida, shuningdek, davlat notarial idoralari notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etganda;

3) arizasi (shikoyat) harakatsiz qoldirilganligi munosabati bilan da’vogarga qaytarib berilganda;

4) agar ish sudga taalluqli bo‘lmasa, ishni yuritish tugatilganda;

5) ariza ko‘rmasdan qoldirilganda, agar u muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;

6) ishda qatnashgan shaxs vafot etganida, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ymasa;

7) da’vogar nizoni sudga qadar hal etish (pretenziya bildirish) tartibiga rioya etmaganida, agar bu hol qonunda ushbu toifadagi nizolar uchun yoki taraflarning shartnomasida nazarda tutilgan hamda bunday hal etish imkoniyati boy berilgan bo‘lsa;

8) voyaga yetmagan bolalari bo‘lmagan er-xotinning nikohi o‘zaro rozilik asosida bekor qilinganligini qayd etish uchun davlat boji to‘langanda, agar er-xotinning yarashishi yoki ulardan birining sudga kelmaganligi tufayli nikohni bekor qilish amalga oshirilmagan bo‘lsa;

9) agar ishda qatnashayotgan yuridik shaxs tugatilgan bo‘lsa;

10) sud buyrug‘i chiqarish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish rad etilganda;

11) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjat berish rad etilganda.

Davlat boji O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa hollarda ham to‘liq yoki qisman qaytarilishi mumkin.

Davlat boji summalarini qaytarish to‘lovchining yozma arizasiga binoan yoki sudning hal qiluv qarorlari asosida amalga oshiriladi. Davlat boji summasini qaytarish uchun arizachi davlat bojini undirgan tegishli davlat organiga yoki tashkilotga

murojaat qilishi kerak. Davlat bojini undirgan davlat organi yoki tashkilotning rahbari uni qaytarish qonuniyligini tasdiqlagan taqdirda, davlat organi yoki tashkilot va davlat bojining boshqa oluvchilari ilgari o‘z hisobvaraqlariga o‘tkazilgan davlat boji summalarining tegishli qismlarini qonun hujjatlariga muvofiq qaytaradilar. O‘z navbatida, davlat organi yoki tashkilot qaytarilishi lozim bo‘lgan, ilgari davlat byudjeti daromadiga o‘tkazilgan davlat boji summasining bir qismini qaytarish to‘g‘risida davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda xabar yuboradi.

Davlat boji summasini qaytarish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat boji stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan belgilangan.

Tadbirkorlik subyektlarini Yagona darcha markazida davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi va davlat boji undiriladi.

Tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslarni yuridik shaxs bo‘lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni va yuridik shaxs bo‘lmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun - **eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida.**

Tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo‘lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat soliq xizmati organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun - **eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida.**

Kredit byurolari - **eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida.**

-xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun – eng kam oylik ish haqining besh baravari, shuningdek, **500 AQSH dollari;**

-sug‘urta va auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari, birjalar, ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tarkibiga kiradigan hududiy (viloyatlar, viloyatlararo va tuman-

lararo) bazalar va bozorlar uchun – eng kam oylik ish haqining to‘rt baravari miqdorida davlat boji to‘lanadi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik uchun:

-dehqon xo‘jaliklari, shuningdek, davlat korxonolari negizida tashkil qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlaridan davlat boji olinmaydi;

-borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlaridan davlat boji belgilangan miqdorning **20 foizi** miqdorida undiriladi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga asosan, davlat bojlari, yig‘imlar va jarimalar bo‘yicha tushumlar to‘liq hajmda mahalliy byudjetlar daromadlariga o‘tkaziladi.

17.5-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, Toshkent shahar va viloyatlar mahalliy byudjetlariga o‘tkaziladigan davlat bojlari, yig‘imlar va jarimalar⁹⁸

№	Nomi
1	Davlat bojlari (ayrim faoliyat turlarini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun davlat bojlari va patent bojlaridan tashqari)
2	Davlat soliq xizmati organlari soladigan jarimalar
3	Umumiy yurisdiksiya sudlari soladigan jarimalar
4	Xo‘jalik sudlari soladigan jarimalar
5	Ichki ishlar vazirligining Post-patrol va jamoat xavfsizligi xizmati soladigan jarimalar*
6	Boshqa jarimalar, 2–5** bandlarda nazarda tutilmagan
7	Ichki ishlar vazirligining Yo‘l harakati xavfsizligi davlat xizmati va uning hududiy bo‘linmalari undiradigan yig‘imlar

Izoh:

**Toshkent shaxri bo‘yicha tushgan tushumlarning 25 %*

98 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori 29-ilovasi

Toshkent shaxrining mahalliy byudjetiga yo‘naltiriladi.

***Toshkent shahri bo‘yicha tushumlardan tashqari*

Mahalliy byudjet bilan vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari o‘rtasida davlat bojlari, yig‘imlar va jarimalardan tushumlarning taqsimlanishi belgilangan tartibda saqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-dekabrda «Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi **PQ-2085-sonli** qaroriga muvofiq, Soliq kodeksining 335-moddasiga O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida bo‘linmalarini (vakolatxonalari va filiallarini) davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun davlat boji undirilmasligini nazarda tutadigan o‘zgartirish kiritildi.

17.4.Bojxona to‘lovlari

Bojxona organlari bojxona ishini amalga oshirishda bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan bojxona to‘lovlarini undiradi.

Bojxona to‘lovlarini to‘lovchilar, bu to‘lovlarni hisoblab chiqarish, to‘lash, qaytarish va undirish tartibi, shuningdek, bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishda aksiz solig‘i hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi, shuningdek, mazkur soliqlar bo‘yicha imtiyozlar Soliq kodeksda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 103-moddasiga ko‘ra tovarlar va transport vositalarini O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tishda hamda bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida

belgilangan boshqa hollarda bojxona to'lovlarining quyidagi turlari to'lanadi:

-boj;

-qo'shilgan qiymat solig'i;

-aksiz solig'i;

-bojxona yig'implari:

✓ bojxona hududida qayta ishlash rejimidan va bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimidan foydalanish bilan bog'liq ruxsatnomalarni berganlik uchun yig'implar;

✓ bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning malaka attestatini berganlik, bunday attestatni qayta rasmiylashtirganlik va uning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun yig'implar;

✓ bojxona rasmiylashtiruv uchun bojxona yig'imi;

✓ tovarlarni saqlaganlik uchun bojxona yig'imi;

✓ tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun bojxona yig'imi;

✓ dastlabki qarorni qabul qilganlik uchun haq.

Qonun hujjatlarida boshqa bojxona to'lovlari ham belgilanishi mumkin.

Bojxona yig'implarining ro'yxati va ularning stavkalari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Xususiyl mulkchilikni rivojlantirish yo'lida ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda tadbirkorlik faoliyati ko'lamini kengaytirish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni ko'paytirishda kichik biznes subyektlarining faol ishtirok etishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi "Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-1604**-sonli qaroriga muvofiq quyidagilar belgilandi:

2011-yilning 1 oktabridan boshlab tovarlar, ishlar va xizmatlarni eksport qiluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar

uchun davlat bojxona xizmati organlarida eksport kontraktlarini hisobga qo'yish tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida bevosita bojxona postlarida amalga oshirilishi belgilandi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-sonli farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq xomashyo tovarlari eksportidan tashqari).

2011-yil 1 oktabrdan boshlab tajriba tariqasida, eksportga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tartibotlarni bojxona rasmiylashtiruvi, deklaratsiya qilish, sertifikatlashtirish, sanitariya-epidemiologiya nazorati va tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida qatnashadigan boshqa tashkilotlar faoliyatini bir vaqtning o'zida amalga oshirilishini ta'minlaydigan "bir darcha" tamoyili asosida bajarish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

Mazkur Qarorga muvofiq, tovarlarni eksport qilishda to'lanadigan bojxona rasmiylashtiruvi yig'inlarining amaldagiga qaraganda o'rtacha 2 marotabaga kamaytirishni nazarda tutuvchi yangi stavkalari quyidagicha belgilandi:

Bojxona rasmiylashtiruvi uchun:

➤ "eksport" bojxona rejimidagi tovarlar va transport vositalari uchun bojxona qiymatidan 0,1 foiz, biroq eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda;

➤ "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimidagi tovarlar uchun tovarlarni qayta ishlash xizmatlari qiymatidan 0,1 foiz, biroq eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda;

➤ "Eksport" bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarning bojxona rasmiylashtiruvini xodim tomonidan buni rasmiylashtirish joyidan boshqa joyda amalga oshirish (bir xodimning bir soat ishlashi uchun) uchun eng kam ish haqi miqsorining 10 foizi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda PQ-1887-sonli qaroriga muvofiq, **2013-yilning**

1 aprelidan boshlab O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga boj to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar qo‘llangan holda olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatini tasdiqlash uchun tadbirkorlik subyektlari - importyorlar tomonidan eksport yuk bojxona deklaratsiyasini majburiy taqdim etish tartibi joriy etilgan.

Jismoniy shaxslarga o‘z ehtiyojlari uchun, bojxona to‘lovlarini to‘lamasdan:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan 1996-yil 7 sentabrda (ro‘yxat raqami 279, 1996-yil 10 sentabr) tasdiqlangan jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga boj to‘lamasdan tovarlar olib kirishning cheklangan me‘yorlariga muvofiq chegaradosh bo‘lmagan davlatlar hududidan umumiy qiymati ekvivalent ifodada **1000 AQSh dollaridan ko‘p** bo‘lmagan tovarlarni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 1-iyundagi «Jismoniy shaxslar tomonidan iste‘mol tovarlarini olib kirishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-1118-son qaroriga muvofiq chegaradosh davlatlardan umumiy qiymati **10 AQSh dollaridan ko‘p** bo‘lmagan iste‘mol tovarlarini olib kirishga ruxsat beriladi.

Belgilangan me‘yordan ortik ravishda o‘z ehtiyojlari uchun tovarlarni olib kirishda, jismoniy shaxslar quyidagi miqdorlarda bojxona to‘lovlarini to‘laydilar:

bojxona to‘lovlari - bojsiz olib kirish me‘yorlaridan ortiq qiymatdan belgilangan stavkalar bo‘yicha;

aksiz solig‘i - aksiz solig‘ini to‘lamasdan tovarlarni bojsiz olib kirish me‘yorlaridan ortiq qiymatdan belgilangan stavkalar bo‘yicha;

qo‘shilgan qiymat solig‘i - aksiz solig‘i solinadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i summasi, bojsiz olib kirish me‘yorlaridan ortiq qiymatga bojxona bojlari summasi qo‘shilgan qiymatdan 20 foiz miqdorida.

Tovar jismoniy shaxs nomiga kelganda (xalqaro pochta jo‘natmalaridan tashqari) bojxona to‘lovlari, boj va aksiz solig‘i to‘lamasdan tovarlar olib kirishning me‘yorlarini qo‘llamasdan, olib kirilayotgan tovarning butun summasidan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasiga doimiy ravishda yashash uchun ko‘chib kelayotgan chet el davlatlarining jismoniy shaxslari, O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishdan oldin ular tomonidan sotib olingan shaxsiy mol-mulkni umumiy qiymati cheklanmagan holda va bojxona boji solinmagan holda chegaralanmagan miqdorda olib kirishlari mumkin, avtotransport vositalari bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasiga doimiy ravishda yashash uchun ko‘chib kelayotganlar tomonidan olib kirilayotgan avtotransport vositalaridan uchun boj to‘lamasdan tovar olib kirishning me‘yoridan ortiq qiymatga belgilangan stavkalar bo‘yicha bojxona to‘lovlari undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasiga doimiy ravishda yashash uchun ko‘chib kelayotgan shaxslarning shaxsiy mol-mulki tarkibidagi tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlar, boj va aksiz solig‘i to‘lamasdan tovarlar olib kirishning me‘yorlarini qo‘llamasdan, bojxona to‘lovlarini to‘lagan

Bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlarga qonun hujjatlariga muvofiq boj, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i solinadi.

Tovarlar qaytarib olib chiqilgan taqdirda ilgari to‘langan boj, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i summolari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilishi lozim.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun tovarning bojxona qiymati asos bo‘lib, unga to‘lanishi lozim bo‘lgan boj, aksizga tortiladigan tovar bo‘yicha esa, aksiz solig‘ining summasi ham qo‘shiladi.

Bojxona hududiga tovarlar import qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari bo‘lib tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno hisoblanadi.

Soliq solish obyekti - soliq solinadigan importdir.

Soliq solinadigan import - O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir, Soliq kodeksining 211-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan tovarlar bundan mustasno.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan baza - Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to‘lanishi lozim bo‘lgan aksiz solig‘ining, bojxona bojlarining summolari kiradi.

Soliqdan ozod qilinadigan import - Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi.

-10 AQSh dollaridan ko‘p bo‘lmagan iste‘mol tovarlarini olib kirish chegaradosh davlatlardan (Kozoxston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston va Turkmaniston)

-1000 AQSh dollaridan ko‘p bo‘lmagan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga pochta orqali olib kirish

Tovarlarni import qilish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat

solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilishda aksiz solig'inii qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar aksiz solig'i to'lovchilaridir.

Aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish soliq solish obyektidir.

Aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga aksiz solig'i solinmaydi.

Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 13 martda 412-son bilan ro'yxatga olingan, moliya vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududiga jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni aksiz solig'i solinmasdan olib kirishning cheklangan normalari" quyidagicha belgilangan.

17.6-jadval

Aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari

№	Tovarning nomlanishi	Tovar kodi TN VED	Tovarni olib kirish normasi
1	2	3	4
09	Kofeinli yoki kofeinsiz kofelar	0901	2 kg

16	Ikra	160430100	0,5 kg
	Ikra o'rnini bosuvchi mahsulotlar	160430900	1 kg
17	Konditer mahsulotlar	1704	5 kg
18	2 kg dan ortiq bo'lgan shokoladlar	180620	5 kg
19	Bug'doydan tayyorlangan mahsulotlar, un va non mahsulotlari	19	10 kg
20	Qayta ishlangan meva va poliz mahsulotlari	200110- 200190200, 2002,2006- 2009	5 kg
21	Aralash oziq mahsulotlari	21	2 kg
22	Pivo	2203	2 l
	Aokagolsiz ichimliklar va sharbatlar (sitruslidan tashqari)	2202, 220950- 220980	2 l
	Barcha alkagol mahsulotlari (pivadan tashqari))	2204-2206, 2208	2 l
	Etil spirti*	2207	-
24	Barcha tamaki mahsulotlari	240210000 240220000 240290000	sigaretlar, sigaralar, papiroslar 10 pachkagacha
27	Benzin	271000250	Zavod tomonidan avtomobilning bezabakida 40 l gacha me'yorda
33	Parfyumeriya mahsulotlari	33	Xar biri nomi 2 donagacha

34	Avtokosmetika	34	Xar biri nomi 2 donagacha
	Kir yuvish vositalari	3402	5 kg
42	Tabiiy va sun'iy charm mahsulotlari (maktab sumkalaridan tashqari)	420212 420310000	Xar biri nomi 1 donagacha, lekin 3 tagacha oshmagan miqdorda
	Tabiiy charmdan kiyim mahsulotlari	4203	Xar biri nomi 1 donagacha, lekin 3 tagacha oshmagan miqdorda
43	Tabiiy jundan tayyorlangan bosh kiyimlari	43	Xar biri nomi 1 donagacha, lekin soni 3 tagacha oshmagan miqdorda
57	Gilamlar	5701-5705	15 kv.m
61	Trikotaj mahsulotlari	61	po 1 yed. kajdogo naimenovaniya
70	Xrustaldan tayyorlangan mahsulotlari	701321	1 komplekt, lekinsoni 12 gacha oshmagan miqdorda
71	Qimmatbaho toshlar va metaldan tayyoplangan yuvelir mahsulotlari	71	umumiy og'irligi 30 gramdan omagan 5 tagacha mahsulot
82	Oshhona anjomlari	8211, 8215	1 komplekt, lekinsoni 12 gacha oshmagan miqdorda

85	Video- i audioapparatura	8528, 8521, 8520	Xar biri nomi 1 donagacha, lekin soni 3 tagacha oshmagan miqdorda
87	Yengil avtomobillar *	8703	-
91	Barcha turdagi soatlar	91	2 dona.
94	Mebel (meditsinadan tashqari)*	94 (krome 9402)	-
	Yorug‘lik moslamalari va lyustralar	940510	2 dona

Bojxona to‘lovlari to‘lovchilar

Bojxona to‘lovlari deklarant tomonidan to‘lanadi. Har qanday manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, to‘lovchining o‘rniga bojxona to‘lovlari to‘lashga haqli.

Bojxona to‘lovlari to‘lash muddatlari

Bojxona to‘lovlari bojxona deklaratsiyasi qabul qilingunga qadar yoki qabul qilinishi bilan bir vaqtda to‘lanadi. Tovarlar notijorat maqsadlari uchun olib o‘tilayotganda bojxona to‘lovlari bojxona deklaratsiyasini qabul qilish bilan bir vaqtda to‘lanadi.

Bojxona to‘lovlari to‘lash muddatining o‘tishi bojxona deklaratsiyasini topshirish muddati tugaganidan keyingi kundan boshlanadi.

Bojxona to‘lovlari to‘lash tartibi

Bojxona to‘lovlari bojxona organiga, xalqaro pochta jo‘natmalarida yuborilayotgan tovarlarga nisbatan esa, - aloqa korxonalariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda to‘lanadi.

Bojxona to‘lovlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar

nazarda tutilgan bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to‘lanadi.

Import bojxona bojlari

Import uchun bojxona bojlari deklarant tomonidan to‘lanadi. Har bir manfaatdor shaxs to‘lovchining o‘rniga, agar qonunchilikda o‘zga holat ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, bojni to‘lash huquqiga ega.

Jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilgan quyidagi tovarlar bo‘yicha bojxona bojlari to‘lanmaydi:

- o‘z ehtiyojlari uchun 1000 AQSh dollarigacha miqdorda chegaradosh davlatlardan olib kirilgan tovarlardan tashqari,

-tijorat faoliyati uchun olib kirilgan tovarlar, ular uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bojxona to‘lovlarini to‘lashning alohida tartibi belgilangan.

Bojxonada baholash usullari yordamida aniqlanadigan tovarlarning **bojxona qiymati bojlarga tortish obyekt**i bo‘lib hisoblanadi.

Bojlar stavkalari

Bojlarning stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga kiritildi va barcha to‘lovchilar uchun yagona bo‘lib hisoblanadi*.

Belgilangan stavkalar hajmidagi bojlarni tovarning jo‘natuvchi mamlakatdan va eksportchidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy munosabatlarda mumkin qadar qulaylikni yaratib beruvchi** rejimni qo‘llaydigan mamlakatlar dan kelib chiqqan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi erkin savdo zonasini barpo etish to‘g‘risidagi kelishuvga ega bo‘lgan mamlakatlarda** ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan bojlar:

- qo‘llanilmaydi, agar tovar mazkur Kelishuv ishtirokchisi bo‘lgan davlatlardan birining rezidenti tomonidan eksport

qilinsa va mazkur Kelishuv ishtirokchisi bo‘lgan davlat rezidenti tomonidan Kelishuv ishtirokchisi bo‘lgan boshqa davlatning bojxona hududidan olib kirilsa (olib qo‘yishlar to‘g‘risidagi bayonnomalarga kiritilgan tovarlardan tashqari). Bunda rezident deyilganda ushbu davlat hududida tashkil etilgan tashkilot yoki ushbu davlat hududida doimo yashovchi jismoniy shaxs tushuniladi;

- belgilangan stavkalar miqdorida qo‘llaniladi - boshqa holdlarda.

Qolgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan, shuningdek, bojxona rasmiylashtirishi chogida kelib chiqish mamlakati aniq belgilanmagan tovarlarga nisbatan bojlar stavkalari ikki baravar oshirilgan holda qo‘llaniladi.

Tovarning kelib chiqish mamlakatini aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari Qonunga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa me‘yoriy hujjatlariga muvofiq tovarning kelib chiqish sertifikatini taqdim etilishini talab qilish huquqiga ega.

Katta bo‘lmagan turkumlardagi (faktura qiymati 5000 AQSh dollarigacha bo‘lgan) tovarlarning kelib chiqishini tasdiqlashda eksportchi tovarning kelib chiqish mamlakatini hisobvaraqq-fakturada yoki tovarlarga ilova qilingan boshqa hujjatlarda ko‘rsatishi mumkin.

Bojxona rasmiylashtirishi chogida kelib chiqish mamlakati aniq belgilanmagan tovarlarga nisbatan mumkin qadar qulaylik yaratib beruvchi rejim yoki ularning kelib chiqish sertifikatining bojxona rasmiylashtirishi amalga oshirilgan sanadan boshlab bir yildan kechiktirilmagan holda olinishi sharti bilan erkin savdo rejimi o‘rnatilishi mumkin.

Bojlarni to‘lash bo‘yicha imtiyozlar

Qonunning 33-moddasiga muvofiq bojlarni undirishdan quyidagilar ozod qilinadi:

- xalqaro yoʻnalishda yuklar, bagaj va yoʻlovchilar tashiydigan transport vositalari, shuningdek, ularning yoʻlda, oraliq toʻxtash joylarida bir maromda ishlashi uchun zarur boʻlgan yoki transport vositalarida yuz bergan avariyalarga (nosozliklarga) barham berish uchun chet ellarda sotib olingan moddiy-texnika taʼminot buyumlari va asbob-anjomlari, yonilgi, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa mol-mulk;

- qonunchilikka muvofiq Oʻzbekiston Respublikasining valyutasi, chet el valyutasi (numizmatika uchun ishlatiladigan valyuta bundan mustasno), shuningdek, qimmatli qogozlar;

- dengizda ov bilan band boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi kemalarini hamda Oʻzbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan ijaraga olingan (fraxt qilingan) kemalarni taʼminlash maqsadida bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan moddiy-texnika taʼminoti buyumlari va anjomlar, yonilgi, oziq-ovqat va boshqa mol-mulk, shuningdek, ularning Oʻzbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan ov mahsulotlari;

- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda davlat mulkiga aylantirilishi lozim boʻlgan tovarlar;

- chet davlatlar vakillarining, Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalariga muvofiq boj toʻlamasdan bularni olib kirish huquqiga ega boʻlgan jismoniy shaxslarning rasmiy yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanishiga moʻljallab bojxona hududiga olib kiriladigan yoki bu hududdan olib chiqiladigan buyumlar;

- insonparvarlik yordami sifatida, davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan begaraz yordam tariqasida yoki xayriya maqsadlarida, shu jumladan, texnik yordam koʻrsatish tarzida avariya va halokatlar, tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan va undan olib chiqiladigan tovarlar;

- bepul oʻquv, davolash va maktabgacha tarbiya bolalar

muassasalari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalari;

- uchinchi davlatlar uchun mo'ljallangan va bojxona nazorati ostida O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tranzit tartibida olib o'tiladigan tovarlar;

- bojxona qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan va ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyatini olib borish uchun mo'ljallanmagan tovarlar.

Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kelinishini tartibga solish va ular yuklarini bojxonada rasmiylashtirish tartibini soddalashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-maydagi "Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududigatovarlar olib kelinishini tartibga solish to'g'risida"gi **154-sonli** qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan quyidagilar belgilandi:

Davlat soliq qo'mitasi Nazorat-taftish bosh boshqarmasining mansabdor shaxslariga O'zbekiston Respublikasi nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi bilan kelishgan holda:

-import qiluvchi jismoniy shaxslarda tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarning O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinishini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligini rejadan tashqari tekshirish huquqi berilgan. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda tovar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat daromadiga o'tkazilishi belgilandi;

-alkogolli mahsulotlar va tamaki mahsulotlari sotuvchi ulgurji va chakana savdo subyektlarida, shuningdek, umumiy ovqatlanish subyektlarida alkogolli mahsulotlar va tamaki mahsulotlari belgilangan tartibga muvofiq sotilishini rejadan tashqari tekshirish huquqi berilgan.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliqni byudjetga bevosita to‘lovchilar kimlar?
2. Soliq solish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
3. Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliq stavkalari qaysi davlat organlari tomonidan belgilanadi?
4. Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
5. Soliq summasi jismoniy shaxslardan qaysi vaqtlarda undiriladi?
6. Soliq to‘lovchilar soliq idoralariga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga solig‘i bo‘yicha qaysi muddatda hisobot topshiradi?
7. Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliq tushumi qaysi byudjetga tushadi?
8. Mahalliy yig‘im deganda nimani tushunasiz?
9. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imni to‘lovchilari kimlar?
10. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro‘yxati qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
11. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi qancha muddatga beriladi?
12. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im qancha miqdorda undiriladi?
13. Mahalliy yig‘imni o‘z vaqtida to‘lanishi usutidan javobgarlik kimlarning zimmasiga yuklangan?
14. Davlat boji to‘lovchilari va stavkalari
15. Bojxona to‘lovlari va turlari.

18-BOB. YURIDIK SHAXSLAR TOMONIDAN MAQSADLI JAMG‘ARMALARGA TO‘LANADIGAN MAJBURIY TO‘LOVLAR

Tayanch so‘z va iboralar: *maqsadli jamg‘armalar, yagona ijtimoiy to‘lov, fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar, respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lov, respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar ajratmalar, ta‘lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratma obyekti, soliq solinadigan baza, hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish, to‘lash tartiblari.*

18.1. Yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarini joriy etilishi va iqtisodiy mohiyati

Istiqlolimizning dastlabki yillarida Respublikamizda mulkchilikning turli shakllariga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlarining turli bo‘g‘inlari doirasida faoliyat yurituvchi fuqarolarni, aholini ijtimoiy himoyalash, bu borada maqsadli jamg‘armalarning daromadlarini ko‘paytirish va sarflarni amalga oshirish uchun moliyalash ishlarini o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash hamda bu ishlarni hisobini to‘g‘ri tashkil etish va yuritish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Davlat moliyasi tarkibida alohida o‘rinni egallaydigan byudjetdan tashqari fondlar tegishli hukumat organlarining byudjetiga bog‘liq bo‘lmaydi va mustaqil yuridik shaxs maqomiga egadirlar. Byudjetdan tashqari fondlar hukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi.

Byudjetdan tashqari fondlar – umumdavlat moliyasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ularning faoliyati qat’iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yo‘llari ko‘rsatilgan, pul fondlari bilan foydalanish yo‘llarining tartibi aniqlab berilgan, davlat hukumatining yuqori organlarining tegishli axtlari asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradilar.

Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasini shakllantirishning huquqiy asoslari:

Dastlab, Ijtimoiy ta‘minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy sug‘urta mablag‘larining to‘g‘ri va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, 1993-yil 4 avgustda Vazirlar Mahkamasining 391-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etish to‘g‘risida»gi Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta‘minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida»gi 459-sonli qarori tasdiqlandi. Mazkur qarorning tasdiqlanishi bilan Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 4-avgustdagi 391-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotdi.

Ushbu qarorning ishlab chiqilishiga mustaqil O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining keksayganda, mehnat qobiliyatini qisman yoki to‘liq yo‘qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta‘minlashdan, ko‘p bolali va kam ta‘minlangan oilalarni nafaqalar bilan ta‘minlashdan, bolalikdan nogironlarga, davlat pensiya ta‘minoti huquqiga ega bo‘lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalarni, dafn marosimi nafaqalarini, korxonalar tugatilganda, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayib bo‘lgan, kasb kasalliklariga uchragan yoki sog‘lig‘iga

biror boshqa shikast yetkazilgan xodimga zararni qoplash uchun to‘lanadigan to‘lovlarni, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaning ota-onasiga qo‘shimcha ta‘til uchun to‘lov kabilarni nafaqalar bilan ta‘minlash masalalarini hal etish zaruriyati sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27-dekabrda 459-sonli qarorini bajarilishi yuzasidan «O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi huzuridagi pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida» nizom ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrda 444-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bilan 2001-yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta‘minot Vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktabrda “Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 490-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan 2005-yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi. Ushbu qarorning amalga kiritilishi bilan Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrda 459-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotdi.

Pensiya jamg‘armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida qabul qilingan mazkur qaror bilan byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining asosiy vazifalari belgilab berildi. Shunga ko‘ra byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini shakllantirishning asosiy manbalari quyidagilardir:

- mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, yuridik shaxslar ish haqi fondidan ajratma sifatida yagona ijtimoiy to‘lovning belgilangan miqdori;

- alohida yuridik shaxslardan ijtimoiy sug‘urtaga badallar;

- yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning ijtimoiy sug'urtaga badallari;

- fuqarolarning ish haqidan sug'urta badallari;


- yuridik shaxslarning tovar aylanmasi va sotilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) hajmidan ajratmalari (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chiqarib tashlangan holda);

- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy ravishda to'lanadigan sug'urta badallari;

- majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun belgilangan tartibda hisoblangan jarimalar va penya;

-qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Hozirgi kunda, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartiblari 2008-yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi"ning XV-bo'limi asosida amalga oshirilmoqda.



18.1-rasm. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'amalar turlari⁹⁹

99 Soliq kodeksining 23-moddasiga asosan tuzildi

Ma'lumki amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslardan quyidagi maqsadli jamg'armalarga to'lovlar undirilishi belgilangan:

1) Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:

-yagona ijtimoiy to'lov;

-fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

-byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:

-Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

-Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;

3) Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga ajratma

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2004-yilgi Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 567-sonli qarori 8-bandiga ga muvofiq, 2004-yil 1 yanvardan boshlab mehnatga haq to'lash fondidan ijtimoiy sug'urtaga majburiy badallar to'lash o'rniga, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, yuridik shaxslar mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov joriy etilgan. Bunda yagona ijtimoiy to'lov davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtirilishi belgilab qo'yildi.

Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi va uning taqsimlanishi 2017-yil 1 yanvardan quyidagicha belgilangan

Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi va uning taqsimlanishi¹⁰⁰

N	Jamg'armalar nomi	2004-yil Ajratmalar miqdori (%)	2015-2017yil Ajratmalar miqdori (%)
1.	Yuridik shaxslar mehnatiga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovlar stavkalari. Shu jumladan:	33%	25%
	-Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga	31,6%	24,8%
	-Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga	0,9%	0,1%
	-Kasaba uyushmalari federatsiyasi Ken gashiga	0,5%	0,1%

Mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov stavkalari va uning summalarini byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat fondi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga taqsimlash miqdorlari hamda ijtimoiy sug'urtalashga oid boshqa majburiy ajratmalar va badallar stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan yetkaziladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari quyidagilarni to'lash uchun sarflanadi:

a) ishlamaydigan fuqarolarga:

-ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlangan pensiyalar;

-davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan bolalikdan nogironlar, qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;

-Qonun hujjatlariga muvofiq byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan moliyalashtiriladigan boshqa kompensatsiya to'lovlari;

100 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

b) ishlaydigan fuqarolarga:

-ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlangan pensiyalar;

-vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar;

-homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar;

-dafn etishga nafaqalar;

-16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onasidan biri (vasiy)ga o'yning qo'shimcha dam olish kunlariga to'lovlar;

-qonun hujjatlariga muvofiq byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan moliyalashtiriladigan boshqa kompensatsiya to'lovlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan yagona ijtimoiy to'lov, davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy ajratmalar va badallar hisob-kitoblarining to'g'riligi, to'liq va o'z vaqtida to'langanligi ustidan nazorat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amaldagi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Soliq organlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov hamda davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy ajratmalar va badallarining hisoblab yozilishi tartibi va to'lash muddatlarining buzilganligi uchun moliyaviy va ma'muriy javobgarlik choralarini qo'llaydilar.

Pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiya to'lovlarining tayinlanishi va to'lanishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va uning joylardagi organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari, shuningdek, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha xarajatlari o'z vaqtida moliyalanishi ustidan monitoring byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Ijro direksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

2. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilari, obykti, soliq solinadigan baza va imtiyozlar

Soliq kodeksining 305-moddasiga binoan yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar bo'lib, yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari **to'lovchilardir**.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek, ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarini hisoblash uchun **obyekt** bo'lib, ish haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi.

Bunda O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish obykti ularning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilguniga qadar oxirgi ish joyi bo'yicha olingan, O'zbekiston Respublikasida byudjet muassasalari xodimlari uchun ish haqi oshirilishi hisobga olingan holda qayta hisoblanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromatlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs - O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga to‘lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham yagona ijtimoiy to‘lovning soliq solish obyektidir.

Yagona ijtimoiy to‘lovni va sug‘urta badallarini hisoblab chiqarish uchun **soliq solinadigan baza** - Soliq kodeksning 172-moddasiga muvofiq to‘lanadigan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar summasi sifatida belgilanadi (SK-308 moddasida ko‘rsatilgan imtiyozli to‘lovlar bundan mustasno).

Soliq kodeksi 306-moddasda ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza chet ellik xodimlarga to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida aniqlanadi, biroq bu summa O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish shartnomasiga doir xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo‘lmasligi lozim.

Yagona ijtimoiy to‘lovni va sug‘urta badallarini hisoblab chiqarish uchun **baza** imtiyoz sifatida belgilangan to‘lovlar chegirib tashlangan ish haqi tarzida to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari quyidagi to‘lovlarga nisbatan hisoblanmaydi:

1) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog‘liq zararining o‘rnini qoplash uchun belgilangan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

2) quyidagi grant mablag‘lari hisobiga olinadigan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar:

-davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag‘lari;

-O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat

tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag‘lari;

-O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag‘lari.

Yagona ijtimoiy to‘lov quyidagilarga nisbatan hisoblab chiqarilmaydi:

O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining xodimlariga xizmatni o‘tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to‘lanadigan pul ta‘minotiga, pul mukofotlariga va boshqa to‘lovlarga;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo‘jalik sudlarining sudbyalari, shuningdek, prokuratura organlarining mansab darajalariga (harbiy unvonlarga) ega bo‘lgan xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlariga.


Kalendar yil soliq davridir. Yil oyi hisobot davridir.

3. Yagona ijtimoiy to‘lovni va sug‘urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to‘lash tartibi

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli qaroriga asosan 2015-yil 1 yanvardan mikrofirmalar, kichik korxonalar hamda fermer xo‘jaliklari uchun soliq yukini pasaytirish va ularda mehnatga xaq to‘lovini legallashtirish maqsadida yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 25 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning natijasida

ularning ihtiyorida 440,0 mlrd.so‘mdan ortiq mablag‘ qoldirish imkoniyati yaratildi



18.2-rasm. Yagona ijtimoiy to‘lov stavkasining o‘zgarish dinamikasi¹⁰¹

Yuqoridagi rasmdan, ko‘rinib turibdiki mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lovstavkasi 2002-yildagi 40 foizdan 2017-yilda 25 foiz punktiga pasaygan. 2010-yildan buyon stavka o‘zgarishsiz qolmoqda. Ushbu holatni respublikada oxirgi o‘n yilda soliq siyosatini korxonalariga soliq yukini kamaytirishga qaratilganligi bilan izohlash mumkin.

Yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov davlat maqsadli jamg‘armalari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o‘rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

Boshqa to‘lovchi yuridik shaxslar

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga - 24,8 %;
- davlat bandlikka ko‘maklashish fondiga - 0,1 %;
- kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga - 0,1 %.

Mikrofirma va kichik korxonalar hamda fermer xo‘jaliklari

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga - 14,8 %;

101 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari

- davlat bandlikka ko‘maklashish fondiga - 0,1 %;
- kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga - 0,1 %.

Sug‘urta badallari esa xodimlarning ish haqiga nisbatan 8,0 % miqdorida belgilangan.

18.2-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil
27-dekabrdagi PQ-2699-son qaroriga asosan 2017-yilga
yagona ijtimoiy to‘lov
STAVKALARI**

Soliq to‘lovchilar	Mehnatga haq to‘lash fondidan Stavka, foizda
Mikrofirma va kichik korxonalar hamda fermer xo‘jaliklari	15%
Boshqa to‘lovchi yuridik shaxslar	25 %

184.2-jadvaldan, ko‘rinib turibdiki mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari 2002-yildan 2016-yilgacha 40 foizdan 25 foizgacha pasayganligini, jumladan, pensiya jamg‘armasiga ajratma 37,3 foizdan 24,8 foizga, bandlikka ko‘maklashish fondiga ajratma 1,5 foizdan 0,1 foizga, kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga ajratma 1,2 foizdan 0,1 foizga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

18.3-jadval


Yagona ijtimoiy to‘lovning tarkibiy tuzilishi¹⁰²

To‘lov turlari	Yillar bo‘yicha stavkalar (foizda)								
	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010 - 2017
Yagona ijtimoiy to‘lov shundan:	40	37,2	33	31	25	24	24	25	25
Pensiya jamg‘armasiga	37,3	35	31,6	30	24,2	23,5	23,5	23,6	24,8

102 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari

Bandlikka ko‘maklashish fondiga	1,5	1,5	0,9	0,5	0,5	0,3	0,3	0,2	0,1
Kasaba ushmalari federatsiyasi kengashiga	1,2	0,7	0,5	0,5	0,3	0,2	0,2	0,2	0,1

Quyidagi rasmdan ko‘rinib turibdiki fuqarolarning pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badali stavkasi 2002-yilda 2,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2012-yilda ish haqiga nisbatan 5,5 % miqdorida, 2017-yilda esa 8,0 % miqdorida belgilangan, yoki ikki yarim barobarga oshirilgan.



18.3-rasm. Fuqarolarni pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badali stavkasining o‘zgarish dinamikasi¹⁰³

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona ijtimoiy to‘lov yuridik shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi, sug‘urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o‘tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallarining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun

bilan **har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yil yakunlari bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallariga doir hisob-kitob **hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi**.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini **to'lash har oyda, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay** amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli qarorining 36-sonli ilovasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, **2018-yil 1 yanvarga** qadar quyidagi imtiyozlar uzaytirildi:

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrda «Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi **414-sonli** qarorining 4-bandida belgilangan qo'shimcha daromad oluvchi byudjet tashkilotlariga soliqlar, yig'imlar, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni to'lashdan ozod qilish bo'yicha berilgan imtiyozlar;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 12 iyundagi **250-sonli** qarorining 9 bandida belgilangan to'lov-kontrakt asosida kadrlarni tayyorlash uchun tushadigan mablag'lardan oliy ta'lim muassasalarini (moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv jarayonini zamonaviy ta'lim vositalari bilan ta'minlash, oliy ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun maqsadli foydalanish sharti bilan) soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalardan ozod etish bo'yicha imtiyozlar;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1 iyundagi **158-sonli** qarorining 1-bandida belgilangan professional futbol klublari, O'zbekiston Futbol federatsiyasi

va uning hududiy bo‘linmalarini soliqlar va yig‘imlarning barcha turlarini (yagona ijtimoiy to‘lovdan tashqari) to‘lashdan ozod etilishi (bo‘shab qoladigan mablag‘larni futbolni rivojlantirishga maqsadli yo‘naltirish sharti bilan) bo‘yicha berilgan imtiyozlarning muddatlari uzaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-4720-sonli** farmoniga asosan quyidagilar belgilandi:

-Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan xorijiy mutaxassislarning mehnatiga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov to‘lash;

-xorijiy mutaxassislarning boshqaruv xodimlari sifatidagi faoliyatidan olgan daromadlari daromad solig‘i, to‘lov manbayidan olinadigan daromad solig‘i, shuningdek, fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy sug‘urta badallaridan ozod etildi.

Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug‘urta badallarini hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari.

Sug‘urta badallari soliq to‘lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat’iy nazar, majburiy tartibda quyidagicha to‘lanadi:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – **oyiga eng kam ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda;**

2) yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) – oyiga eng kam ish haqining **50 foizi** miqdorida;

3) yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik

shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan – oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda;

oilaning boshqa a'zolari tomonidan (o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar bundan mustasno) – oyiga eng kam ish haqining **50 foizi** miqdorida.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini **yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda** to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligining boshlig'i sug'urta badallarini majburiy tartibda, boshqa a'zolari esa, ixtiyoriylik asosida to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek, I va II guruh nogironi bo'lgan shaxslar uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida **50 foizini** tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan taqdirda, sug'urta badallarini qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

-yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – har oyda, tadbirkorlik faoliyati **amalga oshirilgan oynning 25-kunidan kechiktirmay;**

-yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari tomonidan – **hisobot yilining 1 oktabrigacha**. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov

kuniga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

Sug'urta badallarini to'lash majburiyati quyidagilarning:

-yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolari uchun – oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining;

-yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun – ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi shart. Bunda oila a'zolari – oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'yicha to'lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a'zosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohida-alohida yoziladi. Agar to'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun – yil) uchun to'langan deb hisoblanadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar sug'urta badallarini jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda, sug'urta badallarini to'lash

haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida ixtiyoriy ravishda to'laydi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning sug'urta badallarini to'lash bo'yicha majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi. Sug'urta badallarini to'lash **har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.**

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati soliq Kodeksning 373-moddasi [uchinchi qismida](#) nazarda tutilgan tartibda vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun sug'urta badalini hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga sug'urta badallarini hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Agar faoliyatini to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini davlat soliq xizmati organiga belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha sug'urta badallarini hisoblash to'xtatilmaydi.

Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2015-yil 31-iyuldagi 219-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan "Xususiy tadbirkorlar

tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi nizom bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi «Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3706-sonli farmoniga asosan: tovarlar (ishlar va xizmatlar) ishlab chiqarish bo‘yicha kasanachilarga buyurtma beradigan korxonalar 2009-yilning 1 fevralidan boshlab **2019 yilning 1 yanvarigacha**, mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga to‘lanadigan mablag‘larga teng miqdorda, mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lashdan ozod qilingan.

Yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash va byudjetga to‘lashda kiritilgan me‘yoriy miqdorlar:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2010-yil 22-martdagi 22, 2010-13-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida **2010-yil 13 aprelda 2095-son** bilan ro‘yxatga olingan “Yagona ijtimoiy to‘lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi” nizomga asosan quyidagicha belgilangan: 1. YaIT to‘lovchilari YaITni O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda tegishli yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan stavka bo‘yicha, biroq:

- fermer xo‘jaliklari har bir xodimi uchun oyiga minimal ish haqining **50 foizi miqdoridan kam** bo‘lmagan miqdorda;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar (fermer xo‘jaliklari bundan mustasno) har bir xodimi uchun oyiga minimal ish haqining **65 foizi miqdoridan kam** bo‘lmagan miqdorda;

➤ qolgan to'lovchilar har bir xodim uchun oyiga bir minimal ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda YaIT hisoblashadi.

YaITning eng kam miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$MR_{\text{yait}} = K/n * N, \text{ bu yerda:}$$

MR_{yait} – YaITning bir oy uchun eng kam miqdori;

K – bir oyda barcha xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlari (bir kunda ishlagan soatlaridan qat'iy nazar) soni, biroq korxonada o'rnatilgan ish kunlari sonidan ortmagan holda. Xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlariga, shuningdek, yillik mehnat ta'tillariga va ish haqi saqlangan holda beriladigan ta'tillarga to'g'ri keladigan kunlar ham taalluqlidir. Bir oyda xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlarini hisoblab chiqarishda quyidagilarning ishlagan kunlari kiritilmaydi:

-pasaytirilgan stavkalar bo'yicha YaIT hisoblab chiqariladigan ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironlarning ish kunlari;

-kasanachilarning ish kunlari (YaIT bo'yicha imtiyoz muddati tugagunga qadar);

-fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnomalarga muvofiq ishlar bajarayotgan (xizmatlar ko'rsatayotgan) yakka tartibdagi tadbirkorlarning ish kunlari.

n – korxonada belgilangan bir oydagi ish kunlari soni;

N – bir xodim uchun bir oyda YaIT normativi (bir minimal ish haqi, fermer xo'jaliklari uchun esa belgilangan minimal ish haqining 50 foizi). Agar minimal ish haqining miqdori oyning 1-kunidan o'zgarmasa, u holda oy uchun minimal ish haqining o'rtacha oylik miqdori qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq, **2017-yil 1 yanvardan** boshlab boshqa tadbirkorlik subyektlari uchun

belgilangan yagona ijtimoiy to'lovni har bir xodim uchun oyiga minimal ish haqiga karrali miqdorda hisoblashning amaldagi tartibi chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish sohasi korxonalariga ham tatbiq etilishi belgilandi. Bunda:

- mikrofirma va kichik korxonalar har bir xodim uchun oyiga minimal ish haqining **0,65 miqdoridan** kam bo'lmagan miqdorda;

- mikrofirma va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan yuridik shaxslar har bir xodim uchun oyiga **1,0 minimal ish haqidan kam bo'lmagan** miqdorda yagona ijtimoiy to'lov hisoblaydi.

18.4. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va to'lovchilari

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari pensiya yoshiga etganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy yordam olish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqqa egadirlar. Ushbu huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3 sentabrda qabul kilgan «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minot to'g'risida»gi Qonunida ham belgilab berilgan.

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 444-sonli qarori bilan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat

qilish funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi zimmasiga yuklatildi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar soliqlarga tenglashtirildi.

Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari har yili O‘zbekiston Respublikasining yig‘ma byudjeti tarkibiga kiritiladigan bo‘ldi hamda Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqish va to‘lash tartibi buzilganligi uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan moliyaviy jazolar qo‘llanilishi, shu jumladan, to‘lovlar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun penya hisoblanishi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yildi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga mablag‘lar to‘plash tartib qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrda «Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va sarflash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 498-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida 2004-yilgacha amalga oshirilib keldi.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrda 567-sonli qarori bilan byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratmalarni hisoblash va to‘lash tartiblarini soddalashtirish maqsadida, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va kasaba uyushmalari jamg‘armasiga ajratmalar birgalikda yagona ijtimoiy to‘lov nomi bilan yuritiladigan bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktabrda 490-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida»gi nizomga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi (keyingi o‘pinlapda Jamg‘arma deb ataladi) ijtimoiy ta‘minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirishga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlaydi.

Jamg‘arma mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy

bankidagi yagona yig‘ma hisob raqamida jamlanadi.

Jamg‘arma yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida mustaqil balansga, hisob raqamlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan gerbli muhrga ega bo‘ladi.

Majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarning yig‘ilishini ta‘minlash, shuningdek, ushbu mablag‘larning Jamg‘armaga to‘liq tushishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va uning hududiy organlari quyidagilarni ta‘minlaydi:

- majburiy ajratmalar, badallar va manbalar bo‘yicha boshqa to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, Jamg‘armaga to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish;

- jamg‘armaga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarni to‘lovchilar bo‘yicha hisobga olib borish;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Jamg‘armaga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishini, shuningdek, Jamg‘arma bilan o‘zaro hisob-kitoblarning holatini tekshirish;

- majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarni hisoblash tartibini va to‘lash muddatlarini buzganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy va ma‘muriy javobgarlik choralarini qo‘llanish;

- badallarni har bir shaxs bo‘yicha hisobga olish hamda mehnat daftarchalari yuritish uchun har chorakda tegishli ijtimoiy ta‘minot bo‘limlariga yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hamda dehqon xo‘jaliklari a‘zolari tomonidan to‘langan badallar miqdorlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etish.

Jamg‘armaningmaqsadi va asosiy vazifalari:

Majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlardan tushgan mablag'larni jamlash yo'li bilan ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish, shuningdek, mablag'larning pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to'lashga maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish Jamg'arma faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga va ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan davlat tomonidan kafolatlangan huquqlarini amalga oshirish;

- respublikada pensiya ta'minotini yanada takomillashtirish;

- majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlarni Jamg'armaning byudjetdan tashqari maxsus hisob raqamida markazlashtirilgan tartibda jamlash;

- pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to'lashga xarajatlarni moliyalashtirish;

- Jamg'arma mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni ta'minlash;

- Jamg'arma mablag'larini ko'paytirishni tashkil etish;

- davlat ijtimoiy sug'urtasi sohasida xalqaro aloqalarni amalga oshirish, chet el tajribasini o'rganish va undan foydalanish.

Soliq kodeksining 312-moddasiga asosan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni **to'lovchilar quyidagilardir:**

- yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

- oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (is-honchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yuridik shaxs;

Quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarining to'lovchilari bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

- yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lov-

chi yuridik shaxslar.

-umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

18.5. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar obyekt, soliq solinadigan baza, hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va to'lash tartiblari

Soliq kodeksining 313-moddasiga asosan **sof tushum** byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning **soliq solish obyekt** va **soliq solinadigan bazasidir**.

Soliq solish obyekt va soliq solinadigan baza quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalar uchun – mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalar uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalar uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalar uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida

saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarining buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan, tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi haq summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun – tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun – soliq kodeksining 148 va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

-soliq kodeksining 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar;

-hayotni sug'urtalash sohasiga taalluqli shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari), qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha topshirilgan to'lovlar summalari, shuningdek, soliq kodeksining 150-moddasining 2 va 4-bandlarida ko'rsatilgan daromadlar;

-Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan daromad.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlardan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy

ajratmalarni to‘lashi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga muvofiq, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmaning obyekt va bazasi quyidagicha belgilangan.

14.5-jadval

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi va umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning to‘lov obyektlari¹⁰⁴

<i>№</i>	<i>To‘lovchilar</i>	<i>To‘lov obyekti</i>
1.	Vositachilik (topshiriq) shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan korxonalar va tashkilotlar	QQSni chegirgan holda vositachilik haqi summasi
2.	Tayyorlov tashkilotlari	QQSni chegirgan holda tovar oboroti hajmi
3.	«O‘zdonmahsulot» AK korxonalarini (g‘alla qabul qilish korxonalarini va g‘alla qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalarini)	QQSni chegirgan holda ustama va chegirma
4.	Kredit va sug‘urta tashkilotlari	daromad
5.	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlari ko‘rsatadigan korxonalar	foizli daromad
6.	Kommunal xo‘jalik tizimining issiqlik, suv ta‘minoti korxonalarini	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta‘minoti korxonalarini uchun – issiqlik energiyasi, suv ta‘minoti korxonalarini uchun – suvning xarid qiymatini chegirgan holda

104 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori. (23-*ilovas*)

7.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi
8.	«O'zbekenergo» DAK va uning korxonalari, shuningdek, tegishli ravishda elektr energiyasi va tabiiy gazni realizatsiya qilish qismida «O'zbekneftgaz» MXK korxonalari	mahsulot sotilishi hajmi, elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha esa yakuniy iste'molchiga sotilishi hajmi, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda
9.	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun olinadigan soliq	QQS, aksiz solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun olinadigan soliqni chegirgan holda mahsulotni realizatsiya qilish hajmi
10.	Boshqa to'lovchilar	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda


Izoh:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarga qonun hujjatlari bilan oldin berilgan imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarga tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar bir necha xil obyektlarga ega bo'lgan hollarda, ular obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga asosan Byudjetdan

tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratma **2017-yil 1 yanvardan 1,6 %** miqdorida belgilandi.



18.4-rasm. Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratma stavkasining oʻzgarish dinamikasi¹⁰⁵

Yuqoridagi rasmdan koʻrinib turibdiki **Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratma** stavkasi oʻsish tendensiyasiga ega boʻlib, 2002-yilda 0,7 foizni tashkil etgan boʻlsa 2017-yildan 1,6 foiz yoki 0,9 foiz punktiga oshirilgan. Ushbu holatni **Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga tushumlarni oshirish hisoblanadi.**

Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq boʻyicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan **keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari boʻyicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy

¹⁰⁵ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi maʼlumotlari

ajratmalar quyidagicha to‘lanadi:

-byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lovchi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan - **har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4453-sonli farmoniga muvofiq **2013-yil 1 yanvardan boshlab** quyidagi tartiblar belgilandi:

- yuridik shaxlar tomonidan Davlat maqsadli jamg‘armalarga ajratmalar: respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratma, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar hamda ta‘lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblari birlashtirilib unifikatsiya qilingan holda Davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish tartibi belgilandi.

- yuridik shaxlar tomonidan umumlashgan Davlat maqsadli jamg‘armalarga ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblari Davlat soliq xizmati organlariga har chorakda taqdim etish tartibi belgilandi.

18.6. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlarning joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va turlari

Respublika yo‘l jamg‘armasiga to‘lovlar dastlab, 1993-yil 5 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi

qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish «O‘zavtoyol» davlat-aksionerlik konsernini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida» 1993-yil 5-fevraldagi 58-son qaroriga ko‘ra 334-sonli «Respublika Yo‘l jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori tasdiqlandi.

Ushbu qarorga asosan Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, qayta qurish, tuzatish, saqlashni mablag‘ bilan ta‘minlash, shuningdek, respublika yo‘l tarmoqlarining samarali ishlashini ta‘minlash maqsadida «O‘zavtoyol» konserni tarkibida mustaqil moliya-kredit davlat muassasasi - Respublika yo‘l jamg‘armasi, avtomobil yo‘llari hududiy davlat-aksionerlik birlashmalari va tuman boshqarmalarida esa - tegishli ravishda viloyat va mahalliy yo‘l jamg‘armalari tashkil etildi.

Mazkur qarorning birinchi ilovasiga ko‘ra tasdiqlangan «Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra yo‘l jamg‘armalarini shakllantirish manbalari quyidagilar hisoblangan:

- korxonalar, xo‘jaliklar, tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag‘lar - mahsulotlar sotish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) hajmidan, qo‘shilgan qiymat solig‘i chiqarib tashlangan holda - 1,5 foiz miqdorida;

- sotib olingan avtotransport vositalari qo‘shilgan qiymat solig‘i chiqarib tashlangan holda tovar aylanmasidan ajratiladigan yig‘imlar;

- banklar (Markaziy bankdan tashqari), sug‘urta tashkilotlari, videosalonlar (videoko‘rsatuv punktlari), kimoshdi savdolari, kazinolar, nusxa ko‘chirishdan, video va audiokassetalarni prokatga berishdan, pul yutuqli o‘yin avtomatlaridan foydalanishdan, lotereya yutuqlari va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar

o'tkazishdan, shuningdek, ommaviy konsert-tomoshalar tadbirlari o'tkazilishidan daromad oluvchi korxonalar tomonidan ajratiladigan mablag'lar - daromadning 1,5 foizi miqdorida;

- avtotransport korxonalari tomonidan ajratiladigan mablag'lar – mahsulotlar sotish (ishlar bajarshp, xizmatlar ko'rsatish) hajmidan, qo'shilgan qiymat solig'i chiqarib tashlangan holda - 2,5 foiz miqdorida;

- «O'zavtoyul» konsernining pudrat, tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalari, birlashmalari, tashkilotlari daromadlaridan ajratmalar;

- xorijiy davlatlar transport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi uchun to'lovlar (u joriy etilgandan keyin);

- qurilish, qurilish-montaj, tuzatish-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ishlar hajmidan, qo'shilgan qiymat solig'i chiqarib tashlangan holda mablag'lar ajratish - 1,5 foiz miqdorida.

- Yo'l jamg'armalariga ixtiyoriy badallar, respublika byudjetidan ajratmalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa manbalardan mablag' ajratilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 19-avgustdagi PF-3292 sonli «Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llari qurish va ulardan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 2003-yil 21 avgustda Vazirlar Mahkamasining 361-sonli «O'zavtoyol» Davlat aksiyadorlik kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi respublika yo'l jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi Qarori ishlab chiqildi. Ushbu qarorga asosan quyidagilar amalga oshirildi:

- O'zbekiston avtomobil yo'llari qurish va foydalanish

davlat aksiyadorlik konsernini Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish Davlat-aksiyadorlik kompaniyasi («O‘zavtoyo‘l» DAK) etib qayta tashkil qilindi;

- 2003-yilning 1 oktabridan boshlab yo‘l xo‘jaligini boshqarish tuzilmasidagi Respublika, viloyat va mahalliy yo‘l jamg‘armalari tugatildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yo‘l jamg‘armasi tuzildi;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga mablag‘larni yig‘ish va tushumlarning to‘liqligini nazorat qilish vazifalarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq va Davlat bojxona qo‘mitalari zimmasiga yuklatildi.

Quyidagilar jamg‘armaning asosiy vazifalari etib belgilab berildi:

- Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari tushishi va sarflanishining har yillik va choraklik balanslarini shakllantirish;

- investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashlarini hamda umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va jihozlash bo‘yicha tender hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish;

- yo‘l xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va jihozlashning aniq ro‘yxatlarini belgilangan tartibda kelishish;

- umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llaridan foydalanish va ularni saqlash bo‘yicha xarajatlar smetalarini ro‘yxatdan o‘tkazish;

- umumiy foydalaniladigan avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va jihozlashni tasdiqlangan xarajatlarga muvofiq moliyalashtirish, Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanishning qonuniyligi va maqsadli foydalanilishini nazorat qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq

qo‘mitasining 2004-yil 1-yanvardagi 19,2004-14 sonli qarori 2-ilovasiga asosan «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajraimalar bo‘yicha hisob kitoblar shakllarini to‘ldirish va taqdim etish qoidalari» belgilab berildi.

Adliya Vazirligida 2007-yil 5 mayda 1676-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2007-yil 4-apreldagi 35,2007-30 sonli qarori 3-ilovasida «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblar shakllarini to‘ldirish va taqdim etish qoidalari» belgilab berildi. Bu hujjatning amalga kiritilishi bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2004-yil 1-yanvardagi 19,2004-14 sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotdi.

Hozirgi kunda, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartiblari 2008-yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XVI-bo‘limi asosida amalga oshirilmogda.

18.7. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratma to‘lovchilari, obykti, soliq solinadigan baza, hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va to‘lash tartiblari

Soliq kodeksining 316-moddasiga asosan Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni **to‘lovchilar** quyidagilardir:

-yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;

-oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yuridik shaxs;

Quyidagilar Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy

ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

-notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

-yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar;

-umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qo'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

Soliq solish obyekti. Soliq solinadigan baza

Soliq kodeksining 317-moddasiga asosan **sof tushum** Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning **soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasidir.**

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun – mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar-

ni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan, tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun – tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun – soliq kodeksning 148 va 150-moddalarigamuvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

Soliq kodeksning 132-moddasigamuvofiq boshqa daromadlar;

hayotni sug'urtalash sohasiga taalluqli shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari), qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha topshirilgan to'lovlar summalari, shuningdek, soliq kodeksi 150-moddasining 2 va 4-bandlarida ko'rsatilgan daromadlar.

Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan daromad.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlardan kelib chiqqan holda Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar bo‘yicha kalendar yil soliq davridir va yil choragi hisobot davridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qaroriga asosan Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratma stavkasi unifikatsiya qilindi va barcha korxonalariga 2017-yil 1 yanvardan 1,4% miqdorida belgilandi.

Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitobini taqdim etish va ularni to‘lash tartibi

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning **har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatdan kechiktirmay taqdim etiladi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar quyidagicha to‘lanadi:

-Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lovchi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan – **har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

18.8. Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar to‘lovchilari, obyekt, soliq solinadigan baza, imtitozlar, hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va to‘lash tartiblari

Soliq kodeksining 54-bobiga asosan Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalardan tashqari yig‘imlar ham to‘lanadi.

Yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlarni to‘lovchilar, obyekt va bazasi.

Respublika yo‘l jamg‘armasi yig‘imlariga quyidagilar kiradi:

- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im;
- chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im.

Avtotransport vositalarini oluvchi yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘imi to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

Yig‘imlar uchun obyekt quyidagilardir:

- avtotransport vositalarini olish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;
- chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tish.

Yig‘imlar undiriladigan baza sifatida quyidagilar belgilangan:

- olingan yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalarining qiymati;
- O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganida chet davlatlarning

avtotransport vositalari.

Yigʻimlar stavkasi, imtiyozlar va yigʻimlarni toʻlash tartibi.

Avtotransport vositalarini olish yoki Oʻzbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yigʻimni toʻlashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) ishlab chiqaruvchi korxonadan qoʻl bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni yoki motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar;

3) faoliyatining asosiy turi yoʻlovchilar tashish boʻlgan, qonun hujjatlariga muvofiq yoʻlovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega boʻlgan avtotransport korxonalari – yoʻlovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari boʻyicha (engil avtomobillar va yoʻnalishli taksilardan tashqari);

4) yuridik shaxslar – qirq tonnadan ortiq yuk koʻtaradigan, olingan kon avtosamosvallari boʻyicha;

5) homiylik (begʻaraz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek, byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

6) yuridik shaxslar – avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xoʻjalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul oʻtkazishda;

7) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

8) avtotransport vositalarini 3–5-bandlarida koʻrsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Avtotransport vositalarini olganlik yoki Oʻzbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yigʻim

ular O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilayotganda, qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Yig‘im taraflarning yozma kelishuviga ko‘ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, yig‘im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so‘ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo‘lgan avtotransport vositasi qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganida takroran yig‘im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘im to‘langanligi to‘g‘risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish yoki texnik ko‘rikdan o‘tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im chet davlatning avtotransport vositasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi
Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar va ajratmalar
STAVKALARI¹⁰⁶**

№	Yig‘imlar va ajratmalar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit qilishdan yig‘imlar	<i>AQSh dollarida</i>
1	O‘zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirganlik va tranzit qilish uchun yig‘im, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2–5-bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirganlik va tranzit qilganlik uchun yig‘imlar:	
	bitta yuk avtotransport vositasi va avtobusdan	130
	yuk avtotransport vositasi va avtobus O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan 3 sutkadan oshgan har bir kun uchun	70
	yuk avtotransport vositalari va avtobuslarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali uchinchi mamlakatlarga (MDH mamlakatlaridan tashqari) tranzit olib o‘tganlik uchun	90
3	O‘zbekiston Respublikasi hududiga Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirganlik uchun yig‘imlar, O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish bundan mustasno, bir yuk avtotransport vositasini olib kirganlik uchun	300

106 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-sonli qarori. (24-ildovasi)

4	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg'iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar	300
5	O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar, avtotransport vositalari turlari bo'yicha:	
	quyidagi og'irlikdagi yuklarni ko'taradigan yuk avtotransport vositalari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan ko'p	150
	o'rindiqlar soni quyidagicha bo'lgan avtobuslar:	
	12 o'rindiqqacha	25
	13 o'rindiqdan 30 o'rindiqqacha	50
	30 o'rindiqdan ko'p	100
	tranzit o'tayotgan yengil avtotransport vositalari	30
tranzit o'tayotgan mototsikllar	15	
II.	Avtotransport vositalari olinganligi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganligi uchun ushbu vositalarning egalari (foydalanuvchilari) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tkazish chog'ida to'lanadigan yig'im	
1.	Ixtisoslashtirilgansavdotarmog'idaxaridqilinadiganyangiavtotransportvositalaribo'yicha –ishlabchiqarilganmamlakatidanqat'iynezar;	xarid qiymatining 3 foizi

2.	Eski avval foydalanishdagi avtotransport vositalari:	Foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan % da		
		3 yilgacha	3 yildan 7 yilgacha	7 yildan ortiq
	yengil avtotransport vositalari	11	9	6
	Mototsikl (mopedlar), qoshimchadvigateli o'rnatilgan velosipedlar, kolyaskali yoki kolyaskasiz	10	7	5
	Boshqa motorli transport vositalari	16	13	9
III	«O'zavtoyol» DAK korxonasi va tashkilotlari mol-mulkini sotib olishdan tushgan mablag'larning byudjetga tushishi lozim bo'lgan umumiy summasidan ajratmalar (%)	50		

Izohlar:

1. O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab xorijiy davlatlarning og'ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o'tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan bir vaqtda qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-yanvardagi 11-sonli qarori bilan belgilangan miqdorlarda to'lov undiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasining Tojikiston Respublikasi bilan Davlat chegarasini kesib o'tadigan xorijiy yuk avtotransport vositalari va avtobuslarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o'tishi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha yig'im to'lanishi bilan birga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 17-dekabrda 274-sonli qarori bilan belgilangan miqdorlarda yig'imlar ham undiriladi.

3. O'zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib kirishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan

yuklarni olib chiqishda Turkmaniston yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 28-sentabrdagi 477-sonli qaroriga muvofiq 175 AQSH dollari miqdorida yig‘im undiriladi.

4. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyenti qo‘llaniladi.

5. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

18.9. Byudjetdan tashqari umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga ajratma joriy etilishi iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Byudjetdan tashqari maktab ta’limi jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi “2004-2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi PF-3431-sonli farmoni hamda unga asosan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7-iyundagi “Byudjetdan tashqari maktab ta’limi jamg‘armasini tashkil etish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 263-sonli qaroriga muvofiq tashkil qilingan.

Maktab ta’limi jamg‘armasiga mablag‘lar jamlanishini ta’minlash, maktablarni tiklash, ularni zamonaviy o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalari, komyuter texnikasi, maktab partalari va mebellar bilan jihozlash ishlarini o‘z vaqtida moliyalashtirish maqsadida tashkil qilindi.

Maktab ta’limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi 2013-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005-yil 31 yanvarda

1446-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan olib borilgan.

2013-yil 25 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining O'RQ – 359 – sonli Qonuni bilan 2014-yildan mazkur majburiy ajratma Soliq kodeksiga kiritildi va huquqiy asaolari mustahkamlandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Sog'lom ona – sog'lom bola" dasturi umummilliy harakatga aylandi. Muruvvat uylari, mahsus maktab-internatlarning moddiy-texnik bazasi ham mustahkamlanib, ta'lim-tarbiya, sog'lomlashtirish tizimi tobora takomillashmoqda.

O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: «Sog'lom ona - sog'lom bola» xalqaro simpoziumi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 28-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1652-sonli qarori bilan sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish, tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini tubdan yangilash, zamonaviy tibbiy asbob uskunlarni o'rnatish va yuqori darajali malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha bir qancha ishlarni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilab berildi.

Jamg'armaning asosiy vazifalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-Jamg'armaga tushayotgan mablag'larni keyinchalik ulardan ta'lim muassasalarini - umumta'lim maktablarini, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini jihozlash (to'liq jihozlash) da maqsadli foydalanish uchun jamlash;

-ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shu jumladan, zarurat bo'lganda, o'quv binolarini

o'quv ustaxonalari va laboratoriyalari bilan kengaytirish, sport zallari va maydonchalarini, boshqa infratuzilma obyektlarini barpo etish ishlarini moliyalashtirish;

-zamonaviy talablarni hisobga olgan holda va tasdiqlangan normativlardan kelib chiqib ta'lim muassasalarini eng yangi o'quv-laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter texnikasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qitishga ko'maklashuvchi boshqa elementlari, shuningdek, o'quv mebeli va anjomlari bilan tizimli jihozlash va to'liq jihozlashni moliyalashtirish;

-tasdiqlangan aniq manzilli dasturlarga muvofiq sog'liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish;

-zamonaviy talablar va belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda sog'liqni saqlash muassasalarini eng yangi laboratoriya, tashxis va davolash asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi hamda boshqa tibbiyot apparatlari, maxsus mebel va anjomlar bilan jihozlash hamda doimiy asosda tizimli qayta jihozlashni moliyalashtirish.

Jamg'arma daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibi

Jamg'arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

-xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan Jamg'armaga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy ajratmalarni to'lashdan tushadigan mablag'lar;

-Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining byudjetdan tashqari mablag'lari;

-xalqaro moliya institutlari hamda boshqa xorijiy donorlarning grantlari va imtiyozli kreditlari (qarzlari);

-sog'liqni saqlashga xarajatlar hisobiga alohida satr bilan

ajratiladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari va markazlashtirilgan investitsiyalar;

-xayriya qiluvchilar - yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining mablag‘lari;

-Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar (to‘lovchilar) tomonidan Jamg‘armaga majburiy ajratmalar summasi har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga ko‘ra belgilanadigan to‘lov obyekti va stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.


Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va institutlarning grantlari va imtiyozli kreditlari (qarzlari), xayriya qiluvchilar mablag‘lari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining mablag‘lari Jamg‘arma hisobiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tushadi.

“Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi doirasida ona va bolaning salomatligini muhofaza qilishni kuchaytirish, sog‘lom va har tomonlama rivojlangan avlodni shakllantirish bo‘yicha keng chora-tadbirlar kompleksi amalga oshirilib, ularni moliyalashtirishga barcha manbalar hisobidan **8 trillion so‘m va 212 million** dollar mablag‘ yo‘naltirildi.

18.10. Umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga ajratma to‘lovchilari, obyekti, stavkalar, hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va to‘lash tartiblari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi PQ-2699-sonli qaroriga asosan, Byudjetdan tashqari Umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari,

akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma stavkasi **2017-yil 1 yanvardan 0,5 foiz miqdorida belgilandi.**



14.6-rasm. Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma stavkasining o'zgarish dinamikasi¹⁰⁷

O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 25-dekabrda O'RQ-359 sonli Qonuniga muvofiq, 2014-yil 1 yanvardan boshlab Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar **XVI¹ - Bo'limi (325¹-325⁴ moddalar) kiritildi.**

Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar quyidagilardir:

-yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;
-oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yuridik shaxs.

Quyidagilar byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning to‘lovchilari bo‘lmaydi:

-notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

-yagona soliq to‘lovini va (yoki) yagona yer solig‘ini to‘lovchi yuridik shaxslar;

-umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to‘lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

Soliq solish obyektini. Soliq solinadigan baza

Sof tushum - byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyektini va soliq solinadigan bazasidir.

Byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyektini va soliq solinadigan bazasini quyidagilardir:

1) kommunal xo‘jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta’minoti korxonalarini uchun – mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo‘shilgan qiymat solig‘i va tegishincha issiqlik ta’minoti korxonalarini uchun issiqlik quvvatining, suv ta’minoti korxonalarini uchun suvning, gaz ta’minoti korxonalarini uchun tabiiy gazning

xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan, tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik, topshiriq shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun – tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun –soliq kodeksning 148 va 150-moddalarigamuvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Quyidagilarga soliq solish obykti sifatida qaralmaydi:

- Soliq kodeksning 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar;

-hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli shartnomalar

bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari), qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha topshirilgan to'lovlar summalari, shuningdek, soliq kodeks 150-moddasining 2 va 4-bandlarida ko'rsatilgan daromadlar.

-Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan daromadlar.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlardan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitobini taqdim etish va ularni to'lash tartibi

Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning **har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini

rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni **to'lash**:

-byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – **har oyda, keyingi oying 25-kunidan** kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Mavzuga oid test savollari

1. Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 2017-yilda necha foiz qilib belgilandi?

- A) 25% *
- B) 30%
- C) 25%
- D) 24%

2. Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 2017-yilda mikrofirmalarga necha foiz qilib belgilandi?

- A) 15% *
- B) 20%
- C) 25%
- D) 24%

3. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma stavkasi 2017-yilda necha foiz qilib belgilandi?

- A) 1,0%
- B) 1,6%*
- C) 1,4%

D) 1,2%

4. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratma stavkasi 2017-yil 1 yanvardan qancha miqdorda belgilangan?

A) 1,0%

B) 1,6%

C) 1,4%*

D) 1,2%

5. Fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badali stavkasi 2017-yilda necha foiz qilib belgilandi?

A) 7,0%

B) 6,5%

C) 8,0%*

D) 7,5%

6. Adliya vazirligidan 2010-yil 13-apreldagi 2095-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan nizomga asosan eng kam miqdor qaysi formula orqali hisoblanadi?

A) $MR_{yait} = K/n * N^*$

B) $QB = MHTF_{eng\ kam} - MHTF_{haqiqat}$

C) $QB = MHTF_{eng\ kam} - MHTF_{haqiqat} * S$

D) $MR_{yait} = K/n * N - MHTF_{haqiqat}$

7. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan qachon taqdim etiladi?

A) ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay*

B) ortib boruvchi yakun bilan har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

C) ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

D) xar yilda bir marta joriy soliq yilining 15 fevralidan ke-

chiktirmay

8. O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yil yakunlari bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallariga doir hisob-kitobi qachon taqdim etiladi?

A) hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar *

B) ortib boruvchi yakun bilan har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

C) ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

D) yilda bir marta joriy soliq yilining 15 fevralidan kechiktirmay

9. Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallarining to‘lash soliq to‘lovchi tomonidan qachon amalga oshiriladi?

A) hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay*

B) har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

C) har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

D) yilda bir marta joriy soliq yilining 15 fevralidan kechiktirmay

10. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarining hisob-kitobi qachon taqdim etiladi?

A) har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay*

B) har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

C) har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

D) yilda bir marta joriy soliq yilining 15 fevralidan kechiktirmay

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarini to‘lovchilari kimlar hisoblanadi?

2. Yagona ijtimoiy to‘lovni va sug‘urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza?

3. Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari qanday to‘lovlarga nisbatan hisoblanmaydi?

4. Yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarini byudjetga to‘lash tartibi?

5. Respublika yo‘l jamg‘armasi qachon va qanday maqsadda tashkil qilingan?

6. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning to‘lovchilari kimlar?

7. Maqsadli jamg‘armalarga ajratmalar stavkalari kim tomondan va qanday hujjat asosida tasdiqlanadi?

8. Xorijiy davlatlarning avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganda undiriladigan to‘lov qanday tartibda amalga oshiriladi?

9. Respublika yo‘l jamg‘armasiga tushumlarni tushushini nazorat qilish qaysi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?

10. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lovchilar hisob-kitoblarni qaysi tashkilotga taqdim etadilar?

11. Respublika yo‘l jamg‘armasiga Majburiy ajratmalarni to‘lashdan kimlar ozod etiladi?

12. Umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga ajratma to‘lovchilari, obykti, stavkalar, hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va to‘lash tartiblari?

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2014.-40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.-T.: Adolat, 2016 y.- 692 b.
3. «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. «Xalq so‘zi» gazetasi, 1997-yil 29 avgust, 1-2 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida»gi Qonuni (1998-yil 24 dekabr, №717-I);
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Halq xo‘jaligida hisob-kitoblar o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining ma‘suliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (1995-yil 12 may, PF-1154-sonli)
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to‘g‘risida»gi Farmoni (1998-yil 19 noyabr, PF-2114-sonli);
7. O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni. 1998-yil 30 aprel.
8. O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni. 1998-yil 30 aprel.
9. «Xususiy korxonalar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2003-yil 11 dekabr. № 558-II.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2 mayda yangi taxrir ostida tasdiqlangan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni
11. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida” O‘RQ-327-sonli Qonuni
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida»gi PF-2086-sonli farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni (2005-yil 14 iyun, PF-3619-sonli);

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni (2005-yil 5 oktabr, PF-3665-sonli)

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida» gi PQ-100-sonli qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida. 2008-yil 28 noyabr, PF-4058-son.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2009-yil 26 yanvar, PQ-1047-son.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Mahalliy nooziq-ovqat iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2009-yil28 yanvar, PQ-1050-son.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash bo‘yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2009-yil29 yanvar, PQ-1051-son.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdaqi “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4059-sonli farmoni

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida” PQ-1166-qarori

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1257-sonli qarori

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1326-sonli qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-iyuldagi “Ta‘lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4232-sonli farmoni.

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi “Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 6 sonli qarori

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi to‘g‘risidagi ni PQ-1474-sonli qarori

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-apreldagi “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-4296-sonli farmoni.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2011-yil 24-avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4354-sonli farmoni.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi ”Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1604-sonli qarori

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 17-noyabrdagi “Fiskal xotiraga ega bo‘lgan nazorat - kassa mashinalarining qo‘llanishini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 306-sonli qarori

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 28-noyabrdagi «Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1652-sonli qarori

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabdagi «Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to‘g‘risida»gi PQ-1672-sonli qarori

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 26-martdagi “Eksport qiluvchi korxonalarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1731-sonli qarori.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli “To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-apreldagi “Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida”gi PF-4436-sonli farmoni.

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-martdagi “Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida”gi PF-4516-sonli farmoni.

37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi «2012-2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to‘g‘risida»gi PQ-1754-sonli qarori.

38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 17-apreldagi «2013 - 2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1957-sonli qarori.

39. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4453-sonli farmoni.

40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 20-sentabrdagi “Mamlakatimizning dasturiy ta‘minot vositalari ishlab

chiquvchilarini rag‘batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2042-sonli qarori

41. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2099-sonli qarori.

42. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 3-martdagi «Qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2137-sonli qarori

43. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-aprelda “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4609-sonli farmoni.

44. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 15-aprelda «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2164-sonli qarori

45. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-sonli qarori.

46. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-aprelda “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720-sonli farmoni.

47. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-mayda “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2344-sonli qarori.

48. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-mayda “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4725-sonli farmoni.

49. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil

13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2388-sonli qarori

50. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-391 sonli Qonuni.

51. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrdaagi “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2454-sonli qarori

52. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2455-sonli qarori.

53. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29-dekabrdaagi «2016-2020-yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2460-sonli qarori

54. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 18-fevraldaagi “Respublika oziq-ovqat sanoati boshqaruvini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2492-sonli qaroriga

55. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 12-apreldaagi “Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2520-sonli qarori

56. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 19-sentabrdaagi “Meva-sabzavot, uzum va poliz mahsulotlarini eksport qilishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2603-sonli qarori

57. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdaagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat

jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848 Farmoni

58. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4853 -sonli farmoni

59. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli farmoni

60. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdaagi “2017 – 2019 yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2687-sonli qarori

61. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 27-dekabrdaagi “Soliq va byudjet siyosatining 2017-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-417-sonli qonuni

62. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27-dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli qarori

63. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29 dekabrdaagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-418-sonli qonuni

64. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-fevraldaagi “Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2750-sonli qarori

65. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar

strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni

66. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi «Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2777-sonli qarori

67. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli farmoni

68. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-iyuldagi “Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga yangi maxsus kiyim bosh va farqlovchi belgilarni joriy qilish to‘g‘risida”gi 545-sonli qarori

69. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3168 qarori

70. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5147-sonli farmoni

71. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 677-sonli qarori

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / I.A.Karimov. – T.:O‘zbekiston, 2009. - 56 b.

2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T. Xalq so‘zi. 13.11.2010 y

3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqilikka erishish ostonasida. T.: «O‘zbekiston», 2011. -440 b

4. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni

chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yoʻlidir. – Toshkent.: Xalq soʻzi gazetasi, 2011, 9 dekabr.

5. Karimov I.A. 2015-yilda Iqtisodiyotimizda tub tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yoʻl ochib berish – ustuvor vazifamizdir.-T.: Oʻzbekiston, 2015.-36 b.

6. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy oʻzgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yoʻl ochib berish hisobidan oldinga yurishdir” – Toshkent.: Xalq soʻzi gazetasi, 2016, 16 yanvar.

7. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak.” – Toshkent.: Xalq soʻzi gazetasi, 2017, 15 yanvar.

8. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” – T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017. – 488b.

9. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” – T.: “Oʻzbekiston”, 2017. – 32 b.

10. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” – T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

III. Darslik va oʻquv qoʻllanmalar

Asosiy

1. Abduraxmonov O. Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. Oʻquv qoʻllanmasi. –T.: TDIU nashr., 2003.

2. Alimardonov va boshqalar. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. - T.: CHOʻlpon nomidagi NMIU. 2013 y. – 296 b.

3. Vahobov A.V, Joʻraev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: SHarq, 2009. 448- bet.

4. Gadoyev E. va boshqalar. Foyda soligʻi. Oʻquv qoʻllanma. - T.: Norma, 2011.- 408 bet.

5. Gadoyev E. va boshqalar. Bilvosita soliqlar: QQS, Aksiz

solig‘i. O‘quv qo‘llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 bet.

6. Гадоев Э. и др. Упрощённая система налогообложения. Учебно-практическое пособие. - Т.: Норма, 2011.- 324 с.

7. Gadoev E, Kuzieva N., Ashurova N., O‘rmonov J. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik, T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013-yil – 616 b.

8. K.Djurayeva. Soliq tizimida dasturiy mahsullar. 2-qism “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi – yuridik shaxslar” dasturiy majmuasi. O‘quv qo‘llanma. T.:El_press. 2013 y., 141 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Александров И.М. Налоги и налогообложение: Учебник.–7-е. изд., перераб. И доп.– Издательско-торговая корпорация «Дашков и Ко», 2007. – 314 с.

2. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya Instituti. – Toshkent: “Noshir”, 2011. 712-bet.

3. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma, T.: “EL PRESS”, 2011-yil – 240 b.

4. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – T.: «O‘zbekiston», 2012. - 336 b

5. Jo‘raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. Monografiya. –Toshkent: Fan, 2004. – 243 b.

6. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Akademnashr», 2011. - 472 b.

7. Майбуров И.М. Налоги и налогообложение. Учебник.– М.: Юнита-Дана, 2007.–655 с.

8. Миляков Н.В. Налог на добавленную стоимость: учебно-практическое пособ. - М.: КНОРУС, 2006. - 208 с.

9. Мельникова Н.П., и др., Практикум по налогам и налогообложению: учебное пособ. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2007. – 176 с.

10. Налоги и налогообложение. Учебник для вузов /Под ред. Д.Г.Черника. М: Юнита-Дана, 2004. – 345 с.

11. Налоги и налогообложение. /Тарасова В.Ф. и др. –М.: Финансы и статистика, 2005.

12. Перов А. Налоги иналогообложение. Учебное пособие. –М.: Юрайт, 2012. – 899 с.
13. Пансков В. Налоги и налогообложение: теория и практика. Учебник. – М.: «Юрайт», 2012 г. – 680 с.
14. Sanakulova V. Kichik biznes va tadbirkorlikni solikka tortish. O‘quv qo‘llanma. T.: Noshir 2012., 236 bet
15. Современный экономический словарь / под ред. Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 125 с.
16. Toshmatov SH., Ro‘ziev G‘, Xoshimoto F., Bobojonov D., Xotamov K. “Soliq tekshiruv usullari”. -T.:O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlodi”, 2011.
17. Tagaev A., Xoshimoto F., Ro‘ziev G‘., Xotamov K. Soliq nazorati.- T.:O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlodi”, 2010.
18. Toshmatov SH.A. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning nazariy asoslari. “Moliya” nashriyoti, 2012. -205b.
19. Toshmatov SH.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. -203b.
20. Temur tuzuklari. –T.: «CHO‘lpon», 1991. – 98 b.
21. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Akademiya. - T.: 2007. - 214 b.
22. Chernik D.G. Nalogi inaloqoblojenie. Uchebnik - M.: MTSFER, 2007-528 s
23. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. – 247 b.
24. O‘rmonov J. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. –T.: EL-Press. 2011. – 132 b.
25. O‘zbekiston Soliq tizimi Mustaqillik yillarida. Rasmiy nashr. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Sharq», 2011.– 150 b.

Internet saytlari

1. <http://www.soliq.uz/>– O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.
2. <http://www.mf.uz/> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

3. <http://www.stat.uz//> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
4. <http://www.oxs.uz//> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi rasmiy sayti.
5. <http://www.norma.uz//> – Informatсион huquqiy tizim dasturi.
6. <http://www.lex.uz//> – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy axborot bilan ta’minlash markazi rasmiy sayti.
7. <http://tekshirishlar.uz//> – Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining sayti.
8. <http://www.nalog.ru/> – Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti.

M U N D A R I J A:

KIRISH.....

**1-BOB. «YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH»
FANINING PREDMETI VA UNI O‘RGANISH USULLARI...**

**2-BOB. YURIDIK SHAXSLAR VA ULAR TOMONIDAN
TULANADIGAN SOLIQLAR VA BOSHQA
MAJBURIY TO‘LOVLARGA UMUMIY TAVSIFNO
MA.....**

**3-BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA
SOLIG‘I**

**4-BOB. OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOY
INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG‘I.....**

5-BOB.AKSIZ SOLIG‘I

6-BOB. QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I

**7-BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-
MULK SOLIG‘I**

**8-BOB.YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER
SOLIG‘I**

**9-BOB. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN
SOLIQ**

10-BOB. YER QA‘RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN

SOLIQLAR VA MAXSUS TO‘LOVLAR

11-BOB. SODDALASHTIRILGAN SOLIQ TIZIMI

12-BOB. MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALAR TOMONIDAN YAGONA SOLIQ TO‘LOVINI QO‘LLASHXUSUSIYATLARI

13-BOB. SAVDO VA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI SOLIQA TORTISH TARTIBI

14-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI TOVARLAR ISHLAB CHIQRUVCHILARI UCHUN YAGONA YER SOLIG‘I.

15-BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATI BO‘YICHA OLINADIGAN QAT‘IY BELGILANGAN SOLIQ

16-BOB. SOLIQ TO‘LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA SOLIQ SOLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

17-BOB. YURIDIK SHAXSLAR TO‘LAYDIGAN BOSHQA MAHALLIY SOLIQ VA YIG‘IMLAR. DAVLAT BOJI

18-BOB. YURIDIK SHAXSLAR TOMONIDAN TO‘LANADIGAN MAQSADLI JAMG‘ARMALARGA MAJBURIY TO‘LOVLAR FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

**E.GADOYEV, N.KUZIYEVA,
N.ASHUROVA, J.O‘RMONOV**

YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

Muharrir **N. Artikova**
Badiiy muharrir **M. Odilov**
Kompyuterda sahifalovchi **K. Boyxo‘jayev**

Nashr list. AI № 174. Bosishga ruxsat etildi 04.11.2017.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog‘i 35,5.
Hisob-nashr tabog‘i 36,9. Adadi 358.
62-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60^a.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60^a.